-innovation faoliyatning asosiy maqsadi bo'lgan ishlab chiqarishga innovatsiyalarni kiritish uchun olingan innovation mahsulotlar bilan bozorga kirishni o'z ichiga oladigan tijoratlashtirish bosqichiga bo'linadi.

Milliy iqtisodiyotni innovation rivojlanishini tadqiq etishda bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan ham ushbu atamaga ta'riflar berilgan. Xususan F.O'. Dodiyeв tarfiga ko'ra, innovation faoliyat bu innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish va tarqatish kabi ketma-ket bosqichlar yig'indisidir.<sup>14</sup>

Innovation faoliyatning natijasini innovation mahsulot ham deb atash mumkin.

Bizning fikrimizcha innovatsiya – bu qandaydir yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot yoki jarayonni, marketingning yangi uslubini, ish amaliyotida, ish joylarini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalarda yangi tashkiliy uslubni iste'molga kiritishdir.

Innovatsiyalar inobatga olinadigan texnologik parametrlariga qarab mahsulot, jarayon va tashkiliy innovatsiyalariga bo'linadi.

**Mahsulot innovatsiyasi** - yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan tovar va xizmatlar, polufabrikatlar va ehtiyot qismlar kiradi.

**Jarayon innovatsiyasi** – yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan ishlab chiqarish yoki yetkazib berish uslubini, texnik jarayonlar, uskunalar yoki dasturiy ta'minotdagi sezilarli o'zgarishlarni, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi metodlari yaratishdir.

**Tashkiliy innovatsiya** – bu korxonaning ish amaliyotiga yangi tashkiliy uslubni joriy etishdir. Tashkiliy innovatsiyalarga korxona birinchi marta foydalanayotgan ish amaliyotini tashkil qilish, ish joylari yoki tashqi aloqalarni tashkil qilish masalalari kiradi. Uning eng yaxshi xarakteristik usullari, o'quv materiallari va ularni yanada ommabop qiladigan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasini tashkil qilishidir.

Bunday innovatsiyalar ham xarajatlarni pasaytirishga, qo'shimcha foyda olishga imkoniyat yaratadi. Chunki ular natijasida ham yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish o'zlashtiriladi yoki mavjud mahsulotlar sifati yaxshilanadi. Shunday bo'lsada, yangiliklarning asosiy turi mahsulot innovatsiyalari ko'rinishidadir.

Innovatsiyalarga moliyaviy rag'batlar amal qilishi nuqtai nazaridan mahsulot innovatsiyalari jozibadorroq bo'ladi. Chunki yangi mahsulot uning raqobatchilari

<sup>14</sup> Додиев Ф.Ў. Инновацион фаолиятни молиявий рағбатлантириш: И.Ф.Н. илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати.-Т.1998.-22 б.

paydo bo'lgunga qadar bozorda ustunroq mavqega ega bo'lgan holda tezroq yuqori foyda olish imkonini beradi.

Innovatsiyalarni faoliyat sohalari bo'yicha turkumlashda ularni texnikaviy, texnologik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, boshqaruv innovatsiyalariga, savdo va xizmatlar sohasi innovatsiyalariga ajratadilar.

Texnikaviy innovatsiyalar korxona va tarmoqning texnikaviy qurollantirilishining yangilanishi jarayoni ehtiyojlarini qondiradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, moddiy va mehnat resurslari tejallishiga, korxonaning bozordagi raqobatbardoshlik mavqei mustahkamlanishiga va boshqa ijobiy samara keltirishga qaratilgan.

Har bir texnikaviy innovatsiya ikki asosiy xususiyati bilan ajralib turadi. Birinchisi, bu yangi ekanligi mezoni. U texnika darajasidagi sifat o'zgarishi bilan belgilanib, ilmiy kashfiyot yoki ixtiroing amaliy ro'yobga chiqarilishi natijasida sodir bo'ladi. Ikkinchisi esa samaradorlik mezoni. U innovatsiya o'zlashtirilishi natijasida erishiladigan iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa samaraning darajasi bilan belgilanadi. Bu mezonlar texnikaviy innovatsiyalarni ishlab chiqarishning texnikaviy bazasidagi ko'p sonli mayda takomillashtirishlardan farqlab olishga imkon beradi.

Texnologik innovatsiyalar korxona va tarmoqda yangi mahsulotni, texnologiyalar va materiallarni yaratishga va o'zlashtirishga, uskunalarini modernizatsiyalashga, ishlab chiqarish liniyalarini rekonstruksiyalash va jixozlashga, atrof-muhitni asrash chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgan.

Yangi mahsulotning yaratilishi korxonaning bozordagi ta'sir doirasini kengaytiradi, iste'molchi mijozlarni saqlab qoladi. Bular esa, o'z navbatida, foydaning oshirilishini, korxonaning raqobatbardoshligi mustahkamlanishini ta'minlaydi.

Yangi texnologiyaning o'zlashtirilishi korxonada mehnatunumdorligini oshirilishini, energiya va xom ashyo tejallishini, mehnat sharoitlari yaxshilanishi va atrof-muhit himoyalaniishini ta'minlaydi.

Texnologik innovatsiyalar ham korxona foydasi ortib borishiga, raqobatbardosh bo'lishiga yordam beradi.

Ishlab chiqarish innovatsiyalari ishlab chiqarish tarkibini va alohida ishlab chiqarish birliklari – syexlar, bo'linmalar va boshqalarning quvvatlari o'zaro nisbatini o'zgartirish yo'li bilan ishlab chiqarish faoliyatini diversifikatsiyalash hisobiga korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Iqtisodiy innovatsiya o'zida barcha turdagi ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatining barcha turlarini rejalashtirishning shakllari va metodlarini, ishlab chiqarish xarajatlari pasaytirilishini qamrab oladi va pirovard xo'jalik va moliyaviy natijalarning yaxshilashiniga yo'naltirilgan.

Ijtimoiy innovatsiyalar mehnat sharoitlari va xarakterini yaxshilashga, mehnatni tashkil etish shakllarini o'zgartirishga yo'naltirilgan. Bu innovatsiyalar korxonadagi psixologik muhitni va o'zaro munosabatlar xarakterini yaxshilashga ko'maklashadi. Xuddi shunday jarayonlar korxonaning bo'linmalari uchun ham xos bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, yuqoridagilarga asoslanib, innovatsiyani yuqori darajadagi noaniqlik sharoitlarida rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimning maqsadli o'zgartirilishi deb ta'riflash mumkin. Shu ma'noda innovatsiya bu tizimning

miqdor va sifat o'lchamlarini o'zgartirishga va uni tegishli darajaga olib chiqishga imkon beradi.

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy nashrlarda "innovatsiya" atamasining turli ta'riflari keltirilmoqda. Shu bilan birga uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi umum qabul qilingan yagona talqini mavjud emas.

Tadqiqotchilar har bir vaziyatda mazkur tushunchaga innovasion jarayonlarning nazariy va amaliy xususiyatlariga va ularni amalga oshiruvchi sub'yektlar davlat, hudud, tarmoq, korxona nuqtai nazaridan yondashmoqdalar.

Alohida qayd etish lozimki, innovasion faoliyat o'z ichiga innovatsiyani o'zlashtirish bo'yicha faoliyatnigina olib qolmasdan, yangi mahsulotning tegishli bozorga olib kirilishini, sotish jarayoniga ko'maklashishni ham oladi.

Umumlashtirilgan tasavvurda innovasion faoliyat bu sanoat ishlab chiqarishini o'zgartirish, qayta qurish, uning texnologik tarkibi yangilash bo'lib, u foydalanishni yoki ijtimoiy natijaga erishini maqsad qilib qo'yadi.

Sanoat korxonasida innovasion faoliyatning olib borilishi uchun unda innovasion salohiyat mavjud bo'lishi lozim. Korxona innovasion salohiyatining rivojlantirilishi uning ichki muhiti unsurlarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun korxona ichki muhitini avvalroq tahlil etish zarur<sup>15</sup>.

Ta'kidlash lozimki, korxonaning jamlangan innovasion salohiyati uning barcha alohida qismlari yig'indisi holati bilan belgilanadi.

Shuningdek, innovasion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur resurslarni ham innovasion salohiyatning tarkibiga kiritish o'rinli bo'ladi.

Diagnostic yondoshuvda baholanayotgan innovasion salohiyatning avvaldan ishlab chiqilgan modelga muvofiqligi baholanadi.

Tarkibiy qismlar bo'yicha tahlil faktlarni qayd etgan holda xulosalar chiqarsa, diagnostic tahlil tadqiq etilayotgan ob'yektning avvaldan belgilangan xususiyatlarga ega biron-bir guruhga kiritishga imkon beradi.

Sanoat korxonalarining innovasion faoliyatining tendensiyalari va qonuniyatlarini ochib berish uchun bu faoliyatning rivojlanishini tahlil etish zarur bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida innovatsiyalarni ularni moliyalash manbalaridan, moliyaviy rag'batlantirish mexanizmidan ajratgan holda tadqiq etilishi o'rinli emas. Chunki innovatsiyalar barcha hollarda moddiy-texnologik yoki ijtimoiy naflilik bilan bir qatorda moliyaviy mazmunga ham ega.

Yuqoridagi belgilar bo'yicha turkumlash ham aslida har bir turdagi innovatsiya moliyaviy ta'minlangan va moliyaviy naf keltiradi degan farazga asoslangan.

Demak, innovasion faoliyat amalga oshirilishi jarayonida uni moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini oqilona yo'lga qo'yilishi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Innovasion faoliyati iqtisodiy mohiyati uning natijasida foyda olish va moliyaviy resurslar manbasi sifatida foydalanishda ko'rinadi.

<sup>15</sup> Баранчеев В.П., Гунин В.Н., Ляпина С.Ю. Инновационный менеджмент. – М: Финстатинформ. 2000. –126 с.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxriddinov N. Xo'jalik yurutuvchi korxonalarni innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirishda xorij tajribasining o'rni // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil: ilmiy elektron jurnal. – 2025. – Aprel, № IV.
2. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982. – 455 с.
3. Друкер П. Новый бизнес. – М.: Экономика, 1993.
4. Уткин Э. А., Морозова Г. И. Инновационный менеджмент. – М.: Акалис, 1996. – 208 с.
5. Кавалёв Г. Д. Основы инновационного менеджмента. – М., 1999. – 192 с.
6. Шумпетер И. Теория экономического развития (исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры). – М.: Прогресс, 1982. – 159 с.
7. Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги – бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018. – 88 б.
8. Иваницкая А. Е. Функциональный подход к управлению инновационной деятельностью предприятий: автореф. дис. ... д-ра экон. наук. – Владимир, 2014. – 32 с.
9. Логута И. В. Экономическое и организационное управление инновационным процессом промышленных предприятий: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – М., 2011. – 34 с.
10. Додиев Ф. Ў. Инновацион фаолиятни молиявий рағбатлантириш: диссертация автореферати и.ф.н. илмий даражасини олиш учун. – Тошкент, 1998. – 22 б.
11. Shah A. Local Budgeting. – Washington: World Bank, 2007. – 381 p.
12. Tugusheva V. R., Yunyaeva R. R. Agrosanoat majmuasida innovatsion faoliyatni kreditlash uchun davlat imtiyozlari // Izvestiya Perm davlat pedagogika universiteti. – 2011. – № 24. – В. 469–474.



## MAKTABGACHA TASHKILOTIDA TARBIYCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATIDA YARATUVCHANLIK VA IJODIYLIK

*Inomova Mahliyo Yusuf qizi, PhD,*

*"Maktabgacha tga'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi" kafedrasi o'qituvchisi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

[Inomova@mail.ru](mailto:Inomova@mail.ru)

+998 99 621 92 27

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikning tutgan o'rni, ularning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati, tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi bilan bevosita bog'liqligi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik jarayonda yaratuvchan yondashuvni shakllantirish usullari, tarbiyachining ijodiy salohiyatini oshirish omillari, metodik qo'llanmalar va innovatsion texnologiyalar tahlil qilindi. Shuningdek, kuzatuv, so'rovnoma va tajriba asosida yaratuvchanlikning bolalar rivojlanishiga ta'siri o'rganildi. Maqola natijalarida pedagogik faoliyatda ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiyachi, pedagogik faoliyat, yaratuvchanlik, ijodiylik, maktabgacha ta'lim, innovatsion metodlar, ijodiy salohiyat, bola shaxsiyati, kasbiy kompetensiya, metodik yondashuv.

### I. KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimida yuz berayotgan jadal o'zgarishlar, yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi va raqamli texnologiyalar asosidagi o'quv muhitining shakllanishi ta'lim jarayoniga yondashuvlarni tubdan yangilashni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, bu jarayon maktabgacha ta'lim tizimi uchun nihoyatda muhimdir, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar – shaxsiy rivojlanish, ijtimoiylashuv, estetik did va ijodiy tafakkur shakllanishining eng muhim bosqichida turadi. Ushbu yosh davrida bolaning ichki dunyosini to'g'ri yo'naltirish, uning shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bevosita tarbiyachining pedagogik faoliyatiga bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy, estetik va ijtimoiy rivojlanishining asosi aynan pedagogning ularga taqdim etadigan tarbiyaviy muhitidan kelib chiqadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish, bolalarning qiziqish va salohiyatlarini to'g'ri anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachidan nafaqat kasbiy mahorat, balki yangicha fikrlay olish, kreativ yondashuv, pedagogik jarayonga yangilik kiritish, bolaning qiziqishlarini chuqur o'rganib, unga mos tarbiyaviy strategiyalarni ishlab chiqish kabi fazilatlar talab etiladi. Tarbiyachi nafaqat bolalar bilan ishlovchi o'qituvchi, balki ularning ichki dunyosiga ta'sir ko'rsatadigan, ularning salohiyatlarini yuzaga chiqaradigan shaxs sifatida o'z rolini o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyachilarga qo'yiladigan talablarga javob berish uchun, ular yangi pedagogik metodlarni o'zlashtirish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash va bolalar bilan ishlashda yaratuvchanlik va ijodiylikni rivojlantirish zarur. Bu esa nafaqat maktabgacha ta'lim jarayonining samaradorligini

oshiradi, balki bola rivojlanishining har tomonlama muvaffaqiyatli bo'lishiga ham imkon yaratadi.

Yaratuvchanlik va ijodiylik – bu faqat san'at sohalariga oid tushunchalar emas, balki pedagogik faoliyatning markaziy unsurlaridan biridir. Pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlash, bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun tarbiyachi o'zining pedagogik bilimlarini innovatsion usullar bilan uyg'unlashtirib, har bir bolaga individual yondashuvni tanlashi, unga mos didaktik vositalarni qo'llashi, o'yin faoliyatini samarali tashkil etishi lozim. Ijodkor pedagog bola bilan ishlashda o'zining individual pedagogik uslubini ishlab chiqish va shu orqali bolalar bilan o'qitish jarayonini interaktiv, qiziqarli, ta'sirli va samarali o'tishiga ko'maklashadi. Bunday pedagogik faoliyat, o'z navbatida, bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning shaxsiy salohiyatini ochib berish va jamiyatda faol, ijtimoiy faollikka ega bo'lgan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu bois, maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining ijodiy salohiyatini rivojlantirish, uning yangicha pedagogik faoliyatga tayyorlanishi va bu jarayonda yaratuvchanlik va ijodiylikni qo'llash, bugungi kunda eng dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir. Tarbiyachining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikni rivojlantirish, bu fazilatlarni maktabgacha ta'lim tizimining barcha bosqichlariga integratsiyalash va amaliyotda qo'llash tizimni sifatli rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda yaratuvchanlik nafaqat bilim berishda, balki bolalarning estetik, aqliy va hissiy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikning o'рни, bu fazilatlarni rivojlantirish yo'llari, amaliy yondashuvlar hamda ilg'or tajribalar asosida olib borilayotgan ishlar tahlil etiladi. Bunda, yaratuvchan pedagog shaxsining shakllanishida zarur bo'lgan omillar, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar ham yoritiladi. Maqolada, shuningdek, tarbiyachilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlar, yangi pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi, tarbiyachining kasbiy rivojlanishi hamda innovatsion pedagogik metodlarning amaliy qo'llanilishi muhokama qilinadi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tizimi doirasida tarbiyachilarning pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikni rivojlantirishning o'рни haqida chuqur tahlil va amaliy tavsiyalar taqdim etilishi maqolaning asosiy maqsadidir. Bu orqali maktabgacha ta'limning sifatini oshirish, bolalarning o'ziga xos salohiyatlarini yuzaga chiqarish va jamiyatga foydali, intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qilish maqsad qilinadi.

## II.METODLAR

Ushbu maqolani yozish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikni o'rganishga qaratilgan turli xil ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalarining ilmiy asoslangan va ishonchli bo'lishi uchun bir necha metodlar uyg'unlikda qo'llanildi.

Avvalo, tahlil va sintez (analiz va sintez) metodidan foydalanildi. Bu orqali mavjud ilmiy adabiyotlar, zamonaviy pedagogik kontsepsiyalar, xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari, amaliy tavsiyalar o'rganilib, yaratuvchanlik va ijodiylik tushunchalarining nazariy asoslari tahlil qilindi. Tarbiyachilarning pedagogik faoliyatida ushbu fazilatlarining qanday namoyon bo'lishi, ularning kasbiy kompetensiyasi bilan qanday bog'liq ekani haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi. Olingan ma'lumotlar sintetik tarzda umumlashtirildi va tadqiqot mavzusiga doir muhim omillar ajratib ko'rsatildi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi amaliy jarayonni bevosita kuzatish orqali empirik kuzatuv metodidan foydalanildi. Pedagogik faoliyat davomida tarbiyachilarning mashg'ulotlar vaqtida qanday ijodiy yondashuvlar qo'llayotgani, bolalar bilan olib borilayotgan ishlarda qanday metod va vositalardan foydalanilayotgani o'rganildi. Mashg'ulotlardagi faoliyat, ayniqsa, bolalarning o'yin, tasviriy san'at, dramatik mashg'ulotlardagi ishtiroki, tarbiyachining ular bilan olib borayotgan ijodiy muloqoti alohida e'tiborga olindi. Ushbu kuzatuvlar natijasida pedagogik faoliyatda yaratuvchanlik va ijodiylikning real ifodasi tahlil qilindi.

Tadqiqotning muhim bosqichlaridan biri sifatida so'rovnoma va intervyu metodidan keng foydalanildi. Bu bosqichda 20 nafardan ortiq tarbiyachi ishtirokida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma savollari tarbiyachilarning ijodiy faoliyatga munosabati, yaratuvchanlikni rivojlantirishda duch kelayotgan muammolar, qo'llayotgan metodik vositalar va innovatsion yondashuvlarga qaratilgan edi. Shuningdek, 5 nafar tajribali tarbiyachi bilan chuqur intervyu o'tkazildi. Ularning fikrlari asosida ijodiy faoliyatga nisbatan shaxsiy qarashlar, pedagogik ish jarayonidagi ijodkorlik yondashuvlari tahlil qilindi. Bu esa tadqiqotda real hayotiy tajriba va subyektiv qarashlarni hisobga olish imkonini berdi.

Bundan tashqari, tajriba-sinov metodi (eksperiment) orqali pedagogik faoliyatda yaratuvchanlikning bolalarga qanday ta'sir qilishi o'rganildi. Sinov sifatida bir guruh bolalar bilan tarbiyachining maxsus tayyorlangan ijodiy mashg'ulotlari o'tkazildi. Mazkur mashg'ulotlarda bolalarning darsga qiziqishi, erkin fikrlashi, fantaziya qilish qobiliyati, yangi g'oyalarni ilgari surish holatlari kuzatildi va baholandi. Tajriba bosqichining avvalgi va keyingi natijalari solishtirilib, muayyan ijobiy o'zgarishlar qayd etildi.

Shu bilan birga, tadqiqotda modellashtirish metodidan ham foydalanildi. Tarbiyachining ijodiy va yaratuvchan faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan pedagogik model ishlab chiqildi. Ushbu modelda tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi, ijodiy faoliyat yo'nalishlari, metodik vositalar, foydalaniladigan strategiyalar va kutilayotgan natijalar o'zaro bog'liqlikda tasvirlandi. Bu model asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, pedagogik jarayonga tatbiq qilish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Yuqorida keltirilgan metodlarning uyg'unligi tadqiqot mavzusining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama o'rganish imkonini berdi. Natijada, maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikni rivojlantirishga doir chuqur va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

### III. NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning pedagogik ishlarida yaratuvchanlik va ijodiylik muhim o'rin tutadi. Tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki har bir bolaning tabiiy qiziqishi, individual salohiyatini yuzaga chiqaruvchi, ijodiy o'sishga yo'naltiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi zarur. Bugungi ta'lim tizimida tarbiyachilarning ijodiy yondashuvi nafaqat bola rivojlanishining muhim omili, balki ta'limning sifatini oshirish uchun ham zarurdir.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yaratuvchanlik va ijodiylikning mavjudligi tarbiyachining shaxsiy kompetensiyasi, kasbiy motivatsiyasi, pedagogik madaniyati va innovatsion yondashuvlarga tayyorligi bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, tarbiyachining yaratuvchanlik va ijodiylik darajasi uning kasbiy faoliyatining barcha jihatlariga ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachi bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, mashg'ulotni muvaffaqiyatli tashkil etishi, ijodiy muhit yaratishi va bolalarning shaxsiy salohiyatini ochib berishi lozim. Tadqiqot natijalari, shuningdek, yaratuvchan yondashuvni pedagogik jarayonga qo'llashning nafaqat bolalar uchun, balki tarbiyachilarning o'zlari uchun ham foydali ekanligini tasdiqlaydi.

Empirik kuzatuvlar va so'rovnomalarda asosida shunday xulosaga kelindi: ijodkor tarbiyachi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda yangicha usullardan foydalanishga intiladi, o'quv jarayonini monotondan holi, dinamik va qiziqarli tashkil etadi, har bir bola uchun mos usul va vositani tanlay oladi. Masalan, ijodiy mashg'ulotlar orqali bolalar o'z fikrlarini erkin ifodalash, yangi g'oyalarni ilgari surish, muammoni ijodiy tarzda hal qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradilar. Tarbiyachi bolalar bilan ishlashda tasavvur qilish va estetik qabul qilishni rag'batlantiradigan texnikalardan foydalanadi, bu esa bolalar orasida go'zallikni anglash va estetik didni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunday pedagogik yondashuv natijasida bolalarda mustaqil fikrlash, tashabbus ko'rsatish, muammoni ijodiy hal qilish, go'zallikni anglash va o'zini ifoda etish kabi zaruriy shaxsiy sifatlar rivojlanadi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, ijodiy yondashuv bola shaxsini shakllantirishda bevosita ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, mashg'ulotlarda bolalar faolligi 27 foizdan 61 foizgacha oshgan, mustaqil g'oya bildirish holatlari esa ikki barobarga ko'paygan. Bu esa ijodiy yondashuvning samaradorligini, bolalarning fikrini erkin ifodalashga bo'lgan ishtiyoqini va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatib beradi.

Tajriba-sinov jarayonida bolalar bilan amalga oshirilgan ijodiy mashg'ulotlar, ularda yangi g'oyalar, o'yinlar va kreativ usullarni tatbiq etish orqali darsga bo'lgan qiziqishni oshirdi. Bolalar orasida erkin fikrlash va tasavvur qilish qobiliyati aniq rivojlandi. Ularning ijodiy ishlarda faolligi oshib, yangi g'oyalarga ochiqqligi va yaratgan ishlarida yuqori natijalarga erishishlari kuzatildi.

Shuningdek, intervyu natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyachilarning bir qismi hali-hanuz ijodiy metodlar va zamonaviy texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmagan, ayrim pedagoglar an'anaviy yondashuvlarga ortiqcha tayanmoqda. Bu holatni sabablarini o'rganganimizda, uslubiy qo'llanmalar yetishmasligi, ish yuklamasining ko'pligi va doimiy malaka oshirish imkoniyatlarining cheklangani ko'rsatilgan.

Tarbiyachilarning ba'zilarida yangi metodlarga nisbatan o'zgarishlarga qarshi turish, yirik pedagogik o'zgarishlarga qarshi ichki qarshilik mavjudligi aniqlangan. Bu esa yaratuvchanlikni rivojlantirishda tizimli yondashuv va uzluksiz kasbiy rivojlanishni tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, pedagogik faoliyatda ijodiy yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi muhim omillarni ta'kidlash mumkin:

1. Tarbiyachining ijodiy tafakkurini shakllantirishga qaratilgan treninglar va metodik seminarlar tashkil etish. Bu tarbiyachilarning pedagogik yondashuvlarni yangilash, innovatsion metodlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion vositalar bilan ta'minlangan muhitni yaratish. Bu texnologiyalar va interaktiv vositalar bolalarning o'qish jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.

3. Ijodkor pedagoglarni rag'batlantirish va faoliyatini ommalashtirish orqali ilg'or tajribalarning keng yoyilishini ta'minlash. Bu nafaqat pedagoglarning professional o'sishiga, balki ta'lim tashkilotining sifatli rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

4. Tarbiyachilarning o'z ustida ishlashi va yangi pedagogik metodlarni o'rganishga doimiy intilishi ularning ijodiy salohiyatini oshiradi. Pedagoglar uchun doimiy ravishda malaka oshirish imkoniyatlari yaratish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy ta'lim metodlarini o'zlashtirish zarur.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy tarbiyachi — bu ijodiy fikrlovchi, yangilikka ochiq, bolalarning tabiiy salohiyatini rivojlantira oladigan shaxsdir. Uning pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikni keng qo'llash orqali bolalarning har tomonlama kamolotiga zamin yaratiladi. Bu esa o'z navbatida jamiyatimizda intellektual salohiyatli, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faollikka ega avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### IV. XULOSA

O'tkazilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylik muhim va ajralmas tarkibiy qism ekanligi aniqlandi. Bugungi kunda ta'lim sohasida yuz berayotgan tub o'zgarishlar, jamiyatning ijodiy, fikrlovchi va tashabbuskor avlodga bo'lgan ehtiyoji tarbiyachining faoliyatiga yangicha yondashuvni, xususan, yaratuvchanlik va ijodiy salohiyatni rivojlantirishni dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyachining ijodiy yondashuvi bolalarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijodkor tarbiyachi o'quv-tarbiya jarayonini shunchaki bilim berish jarayoni emas, balki bola shaxsining to'laqonli shakllanishiga xizmat qiluvchi ijodiy maydon sifatida tashkil eta oladi. Bunda bolalarning o'yin orqali o'zini ifoda etishi, tasavvur qilish, fantaziya va mustaqil fikrlash kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Bu esa bolaning keyingi bosqichdagi ijtimoiy, intellektual va ruhiy yetukligining asosini tashkil etadi.

Shuningdek, tarbiyachining pedagogik faoliyatida ijodiylikning yetishmasligi mashg'ulotlarda passivlik, bolalarda qiziqishning pasayishi, har bir bola uchun



individual yondashuvning yo'qligi kabi salbiy holatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining ijodiy salohiyatini shakllantirish va doimiy rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

Ushbu tadqiqot jarayonida aniqlangan muammolar — tarbiyachilarning ayrim hollarda an'anaviy usullardan chiqib keta olmasligi, ijodiy metodlarni yetarlicha o'zlashtirmagani, uslubiy qo'llanmalarining yetishmasligi — tizimli ravishda bartaraf etilishi zarur. Buning uchun tarbiyachilar uchun doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy qilish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va metodik yordam tizimini takomillashtirish lozim.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikni rivojlantirish — nafaqat uning kasbiy mahoratini oshiradi, balki bolalarning ta'limga bo'lgan munosabatini, shaxsiy o'sishini va jamiyatda faol ishtirok eta oladigan fuqaro sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Shunday ekan, bu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish, amaliy tajriba almashinuvini kuchaytirish va pedagogik innovatsiyalarni keng tatbiq etish maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### **V.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, 2004.
2. Yo'ldoshev J. Ta'lim yangilanish yo'lida. – Toshkent, 2000.
3. G'afurov A. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
4. Hojiahmedov M., Baxronov A. va boshqalar. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa, 2021.
5. Nuritdinov Sh. Innovatsion ta'lim metodlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. Rahimov Z. Zamonaviy pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
7. Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019. – 43 b.
8. Inovatov U., Mushmov A., Usmonbov M., Inog'omova U. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – B. 64–68.

## O‘ZBEKISTON AGRAR SEKTORI RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI

Zakirova Umida Maxamadaminovna  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
«Statistika» kafedrası mustaqil izlanuvchisi,  
i.f.f.d (PhD)  
E-mail: Umida123655@gmail.com

**Annotasiya.** Mazkur maqolada, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi sohasida kuzatilgan dinamik o‘zgarishlar, ularning ba‘zi qonuniyatlari hamda kelajak uchun prognoz ko‘rsatkichlariga ta‘sirini statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilinadi. Agrar sohalarga oid rasmiy statistikalar yordamida qishloq xo‘jaligidagi modernizatsiya jarayonlarining natijalari, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlar va ular hamda aholi farovonligiga ta‘sirini chuqur o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** Agrar tarmoqlar, agrar sohalardagi o‘zgarishlar, qishloq xo‘jaligidagi tarkibiy islohotlar va rivojlanish tendensiyalari, raqamli texnologiyalar asosida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, mahsulot eksportining rivojlanishi, fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash va ularni kengaytirish chora-tadbirlari, suv resurslarini boshqarish muammolari, mahsulotlarning diversifikatsiyasi.

### KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 - son Farmonida keltirilgan maqsadlaridan biri tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish hamda Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish<sup>16</sup>.

Yurtboshimizning “Raqamli O‘zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan agrosanoatni rivojlantirishga qaratilgan bir necha o‘nlab loyihalarni amalga oshirish belgilangan. Shu asosda raqamlashtirish bo‘yicha qo‘yilgan vazifa va topshiriqlarni jadal suratlarda olib borishda yetakchi xorijiy tajribani o‘rganish, jumladan, Yevropa Ittifoqi va Jahon Bankining maslahat va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashidan, eng yaxshi texnik yechimlardan foydalanilmoqda. Ma‘lumki, ohirgi 15 yil ichida O‘zbekiston aholisi 27 milliondan deyarli 40 millionga yetdi, har bir kishi uchun ajratilgan yer maydoni esa 23 sotixdan 16 sotixga kamaydi<sup>17</sup>.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 – son Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarni takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi va unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xarita"si ishlab chiqilgan<sup>18</sup>.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i Respublikamizning milliy mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanib, o'zining qo'shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o'rni va yuqori darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish bilan boshqa soha va tarmoqlardan afzalligi bilan tubdan farq qiladi. Bugungi kunda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida respublika yalpi ichki mahsulotining 25 %, oziq-ovqat mahsulotlarining 90 % dan ziyodi yaratilmoqda. Agrar soha mamlakatimizning yetakchi sohalaridan biri sifatida nafaqat aholini oziq-ovqat mahsulotlari hamda sanoatni esa xom-ashyo bilan ta'minlashda, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishda ham muhim o'rin egallaydi<sup>19</sup>.

Hozirgi kunda Respublikamiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'plab turlarini yetishtirish, ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash hamda eksport salohiyatini oshirish borasida katta imkoniyatga ega. Lekin, bu imkoniyatlardan hozircha yetarlicha foydalanilayotgani yo'q. Mamlakat eksport salohiyatining yuksalishida qishloq xo'jaligi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston joriy yilda xorijiy davlatlarga Davlat statistika qo'mitasi dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijga qiymati 1,0 mlrd. AQSH dollari qiymatidagi 1,6 mln. tonna meva va sabzavotlar eksport qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 168,3 ming tonnaga oshgan<sup>20</sup>.

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni.

<sup>19</sup> Berdiqulov Q.G'. O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish holati va uning tendentsiyalaridagi o'zgarishlarni statistik baholash. "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy-elektron jurnal 2023/1(15) 107 [www.statmirror.uz](http://www.statmirror.uz)

<sup>20</sup> Abdirayimov A.R. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 1 | 2023 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sh.Xo'jayev va N.Umarova *"O'zbekistonda qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning iqtisodiy foydalari bahosi"* mazusida 2023-yilda *Asian Journal of Agricultural Economics* jurnalida chop etilgan tadqiqotda O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektorida raqamli texnologiyalarning iqtisodiy ta'sirini tahlil qilishadi. Ular sun'iy yo'ldosh asosida ekinlarni kuzatish va elektron savdo platformalari kabi raqamli vositalarni o'rganib, raqamli integratsiya qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotini kelgusi besh yilda 10% ga oshirishi mumkinligini xulosa qilganlar.

D.Sobirova va A.Ergashev *"O'zbekistonda raqamli qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish: Taraqqiyot va siyosiy tavsiyalar"* nomli ilmiy ishi qishloq xo'jaligini raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish uchun zarur bo'lgan siyosat masalalariga bag'ishlangan. Mualliflar raqamli infratuzilma va qishloq xo'jaligi xodimlarini o'qitish bo'yicha takliflarni ilgari surgan va ushbu tadbirlarning raqamli qishloq xo'jaligidan to'liq foydalanish uchun muhimligini ta'kidlaganlar.

Qishloq xo'jaligi sanoatini raqamlashtirish samaradorligini nafaqat vositachilar, balki oxirgi xaridorlar bilan ham bitimlar tuziladigan agrosanoat majmuasi tovarlarini sotish uchun elektron platforma yaratish orqali oshirish mumkin. Raqamli iqtisodiyot elementlari yerlarni, ekinlarni monitoring qilish, ishlab chiqaruvchi va xaridor o'rtasidagi hisob-kitoblarni optimallashtirish, investitsiya va kredit tizimini ratsionalizatsiya qilish, ijtimoiy sug'urta uchun ishlatilishi mumkin. Raqamlashtirish marketing usullaridan faol foydalanishni, monopoliyaga qarshi turishni, iqtisodiyotning barcha ishtirokchilari o'rtasida elektron o'zaro ta'sir o'tkazish uchun sharoit yaratishni ta'minlaydi. Agrosanoat majmuasining raqamli platformalari. Texnologik raqamli platformalar innovatsion infratuzilmaning elementlari hisoblanadi. Ularning maqsadi tezkor va samarali aloqani ta'minlash, fermerlarning boshqa manfaatdor tomonlar bilan bevosita o'zaro munosabatlarini rag'batlantirish deya fikr bildirgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2028-yilga borib qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan global xarajatlarning 3 barobarga oshishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich 16,4 milliard AQSh dollariga teng bo'lishi prognoz qilinmoqda. Jumladan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va ob'ektlar interneti (IoT) texnologiyalariga qaratilgan investitsiyalar sezilarli darajada oshib, 2021-yildagi 1 milliard AQSh dollardan 2028-yilga kelib 5 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Ushbu o'sish tendensiyasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish va boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali hosildorlikni oshirish, resurslarni tejash va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi<sup>21</sup>.

2023-yilda **Savdo va investitsiyalar bo'yicha xalqaro markaz (ITC)** va **O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi** tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu hisobotlar mamlakatning asosiy eksport mahsulotlari – meva, sabzavot, g'alla mahsulotlarini xorijiy bozorlar talabiga mos ravishda sertifikatlash va

<sup>21</sup> Ermonov F.F. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari. "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy-elektron jurnali 2025/1-son 1 [www.statmirror.uz](http://www.statmirror.uz)

sifatini oshirishga oid strategiyalarni ko'rib chiqadi. Xalqaro bozorda O'zbekiston mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish, ularni brendlash va marketing strategiyalarini takomillashtirish orqali eksport hajmini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi adabiyotlar va tadqiqotlar 2023-yilda O'zbekiston qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi texnologiyalar va xorijiy investitsiyalar yordamida sektorda qanday ijobiy o'zgarishlar yuz berayotganini yaqqol ko'rsatadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish uchun davlat tomonidan yo'naltirilgan moliyaviy yordam, ekologik barqarorlik masalalari va xalqaro hamkorlikning ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Mazkur adabiyotlar va ilmiy manbalar orqali O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'ida amalga oshirilayotgan tarkibiy-tuzilmaviy o'zgarishlarning holati va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tushunish imkoniyati yaratiladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqotning asosiy maqsadi — mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini o'rganish, ularning tarkibiy o'zgarishlarini baholash va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini aniqlash uchun ilmiy va amaliy takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, respublikamizda agrar sektorning rivojlanish jarayonlari, ulardagi tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarni kompleks statistik tahlilini amalga oshirish va samaradorligini baholash natijasida istiqbol uchun muqobil bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va asosiy yo'nalishlarini belgilash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar, vaqt qatorlari, iqtisodiy indekslar, statistik jadval va grafiklar kabi usullardan keng foydalanildi.


### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Ushbu bo'limda O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida bajarilayotgan tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarning statistik tahlil natijalari keltiriladi.

2019-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda agrar tarmoq mahsulotlari o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Ayrim yillarda biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa ham, umumiy o'sish davom etgan. 2023-yilda eng yuqori ko'rsatkichga erishilgan, bu sohaga e'tibor qaratish va uni rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi. Qo'shimcha ma'lumotlar bilan har bir yildagi o'zgarishlarning sabablarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida dehqon va tomorqa xo'jaliklari, fermer xo'jaligi va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi ularning tarmoq rivojlanishidagi ulushini ko'rsatib beradi(1-rasm).





**1-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida tarkibiy bo'limlarning ulushi, %da<sup>22</sup>**

2019-yilda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi 3,8%ni, dehqon va tomorqa xo'jaliklari 68,3%ni, fermer xo'jaligi 27,9% ni tashkil qilgan. 2020 yilda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi 4,4%ni, dehqon va tomorqa xo'jaliklari 67,4%ni, fermer xo'jaligi 28,2% ni tashkil qilgan. 2021-yilda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi o'sishda davom etgan (4,4% dan 5,2% ga). Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi yana kamaygan (67,4% dan 65,5% ga), fermer xo'jaliklarining ulushi esa o'sgan (28,2% dan 29,3% ga). 2022 – yilda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi sezilarli darajada oshgan (5,2% dan 6,9% ga). Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi keskin kamaygan (65,5% dan 61,7% ga), fermer xo'jaliklarining ulushi esa sezilarli darajada oshgan (29,3% dan 31,4% ga). 2023-yilda esa qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi o'sishda davom etgan (6,9% dan 7,5% ga). Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi biroz tiklangan (61,7% dan 62,3% ga), fermer xo'jaliklarining ulushi esa kamaygan (31,4% dan 30,2% ga).

2024 yil yanvar-mart oyida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) soni – 1 670 birlikni tashkil etdi.



**2-rasm. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, birlikda)**

<sup>22</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p korxona va tashkilotlar Qashqadaryo viloyatida – 4 649 birlikni yoki respublika bo'yicha mazkur sohada faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning 13,6 % ini tashkil etgan bo'lsa, aksincha eng kam korxona va tashkilotlar Toshkent shahrida – 607 birlik (1,8 %) qayd etildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida etishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 45,4 trln. so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 43,0 trln. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 2,0 trln. so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 0,4 trln. so'mni tashkil qildi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasidagi tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarni statistik tahlil natijalari asosida muhim xulosalarga kelindik. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy yordamlar qishloq xo'jaligining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda. Bu omillar esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga yordam bermoqda.

Birinchidan, qishloq xo'jaligida mahsulot hajmining barqaror o'sishi va hosildorlik darajasining oshishi zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va yangi agronomik usullardan foydalanishga bevosita bog'liq. Ushbu rivojlanishni davom ettirish orqali mahalliy fermer xo'jaliklarining samaradorligi va hosildorligi yanada oshadi. Bundan tashqari, mahsulotlar diversifikatsiyasi xalqaro bozorga chiqishda keng imkoniyatlar yaratib, O'zbekistonning qishloq xo'jaligida yuqori daromad keltiradigan mahsulotlarni yetishtirish salohiyatini oshirmoqda.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligida raqamlashtirish va suvni tejashga qaratilgan texnologiyalarni joriy etish resurslardan samarali foydalanish imkonini kengaytirmoqda. Xususan, sun'iy yo'ldosh monitoringi, aqlli sug'orish tizimlari va boshqa raqamli texnologiyalar tuproq unumdorligini oshirish, suvni tejash va umumiy ishlab chiqarish samaradorligini yakuniy bosqichga yetkazishda muhim natijalarga erishmoqda. Suv resurslarini tejash va tejash bo'yicha davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordam choralari ham ushbu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etadi va ularni kengaytirish zarur.

Uchinchidan, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro bozor talablarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash uchun davlat tomonidan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport

qilishda xalqaro sifat standartlari va sertifikatlarga rioya qilish O'zbekistondagi mahsulotlarga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam berayotganligini ta'kidlash lozim. Shu sababli, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va yangi eksport bozorlari uchun izlanishlar davlat strategiyasining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi kerak.

### **Takliflar:**

1. **Suv resurslarini boshqarish va tejash dasturlari:** Suvdan foydalanishni optimallashtirish bo'yicha maxsus dasturlarni kengaytirish va ushbu texnologiyalarga subsidiyalar ajratishni davom ettirish kerak. Bunday choralar suv tanqisligi muammosini hal qilishda katta yordam beradi va kelgusida resurslarning iqtisodiy jihatdan tejaliishiga hissa qo'shadi.

2. **Kichik fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash:** Kichik va o'rta fermer xo'jaliklariga moliyaviy yordam ko'rsatish, ularni kreditlash va imtiyozli qarzlar ajratishni davom ettirish orqali sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlash zarur. Bu qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga hissa qo'shadi.

3. **Mahsulot diversifikatsiyasi va yangi bozorlarga chiqish:** Qishloq xo'jaligida faqat an'anaviy ekinlarga bog'lanib qolmaslik, balki yuqori daromad keltiruvchi yangi ekin turlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash kerak. Bu eksportda yangi yo'nalishlarni ochib, iqtisodiyotga qo'shimcha daromad keltirishi mumkin.

Ushbu xulosa va takliflar O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasidagi tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi hamda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va eksport imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha belgilangan maqsadlarga erishishda muhim asos yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni. 2021 yil 1 aprel. – URL: <https://www.lex.uz>

2. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni. 2004 yil 26 avgust, 662-II-son. – URL: <https://www.lex.uz>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5853-son, 2019 yil 23 oktyabr. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". – URL: <https://www.lex.uz>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-273-son, 2022 yil 7 iyun. "2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyada belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-60-son, 2022 yil 28 yanvar. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". – URL: <https://www.lex.uz>

6. Axmedov N., Alimov Sh., Tursunova F. O'zbekistonda qishloq xo'jaligida raqamli transformatsiya: barqaror rivojlanish uchun muammolar va imkoniyatlar // The Journal of Agricultural Innovation and Development. – 2023.

7. Safarova G., Mirzayev R. O‘zbekistonda kichik fermer xo‘jaliklarida raqamli islohotlarning ta‘siri // Central Asian Economic Review. – 2023.
8. Xo‘jayev Sh., Umarova N. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishning iqtisodiy foydalari bahosi // Asian Journal of Agricultural Economics. – 2023.
9. Matkarimov M. Fermer xo‘jaliklarida yer maydonlarini me‘yorlashtirish masalalari. – URL: <https://www.researchgate.net>
10. Abdullayev Sh., Ismoilov R. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgarishlar va samaradorlikka ta‘sirini o‘rganish // Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti ilmiy jurnali. – 2023. – URL: <https://www.tsue.uz/uz/journal/agriculture2023>
11. Karimov U. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti va ichki talabning o‘zaro bog‘liqligini baholash usullari // Iqtisodiyot va Innovatsiyalar Instituti ilmiy to‘plami. – URL: <https://www.eii.uz>
12. Rahmonova M., Saidov T. Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ularning iqtisodiy samaradorligi // O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi Ilmiy Markazi jurnali. – URL: <https://www.agriculture.uz>

DOI: 10.5281/zenodo.15507321

Link: <https://zenodo.org/records/15507321>

## ELEKTRON TIJORAT PLATFORMALARINING XAVFSIZLIK JIXATLARI TAHLILI

Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li

i.f.f.d., (Phd)

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Real iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

[lazizmakhmudov90@gmail.com](mailto:lazizmakhmudov90@gmail.com)

+99897 913 60 19

ORCID: 0000-0002-6819-6543

**Annotatsiya:** Maqola elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini tahlil qiladi. Kiberhujumlar, ma'lumotlar maxfiyligi va firibgarlik kabi tahdidlarning turlari va tasnifi ko'rib chiqiladi. Shifrlash protokollari, ko'p faktorli autentifikatsiya, to'lov shlyuzlari va boshqa xavfsizlik tizimlarining roli yoritiladi. Mijozlar ishonchini oshirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun xavfsizlik choralarining ahamiyati ta'kidlanadi. O'zbekistonda huquqiy bazani takomillashtirish va raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** elektron tijorat, xavfsizlik tizimlari, kiberhujumlar, ma'lumotlar maxfiyligi, mijozlar ishonchi, shifrlash protokollari, ko'p faktorli autentifikatsiya, to'lov shlyuzlari, firibgarlik, raqamli savodxonlik, huquqiy asoslar, DDoS hujumlari, SQL in'ektsiyalari, saytlararo skript, yashil logistika.

**Kirish.** Hozirgi kunda elektron tijorat dunyo bo'ylab iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Foydalanuvchilarning tovar va xizmatlarga onlayn buyurtma berishi odat tusiga kirayotgan bir davrda, elektron tijorat platformalari mijozlarga qulaylik yaratish bilan birga, xavfsizlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratishi zarur bo'lib qolmoqda.

Xavfsizlik masalalari nafaqat foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, balki ular orasida ishonchni mustahkamlash va raqobatbardoshlikni oshirish uchun ham zarurdir. Ma'lumotlarning buzilishi, kiberhujumlar va firibgarlik holatlari platformalar uchun katta xavf tug'diradi. Shu bois, xavfsizlik bo'yicha chuqur tahlil olib borish nafaqat xavf-xatarlarni aniqlash, balki ularning oldini olishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

**Adabiyotlar sharhi.** Elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini tahlil qilinishi zarur, chunki bu jarayon bir qator muhim sabablarni o'z ichiga oladi:

**1. Ma'lumotlarning maxfiyligi va yaxlitligi<sup>23</sup>.** Elektron tijoratda ma'lumotlar, masalan, mijozlarning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlari, doimiy ravishda xavf ostida bo'ladi. Xavfsizlik modellarini tahlil qilish orqali ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash va ularni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish mumkin. Bu, o'z navbatida, mijozlar ishonchini oshiradi va platformaning obro'sini saqlab qolishga yordam beradi.

**2. Tahdidlar va hujumlar.** Elektron tijorat platformalari turli xil tahdidlarga duch keladi, jumladan, kiberhujumlar, viruslar va boshqa zararli dasturlar<sup>24</sup>. Xavfsizlik

<sup>23</sup> Maxmudov L.U. Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijorat operatsiyalarini amalga oshirishning konseptual modellari. <https://cyberleninka.ru/article/n/xizmat-ko-rsatish-sohasida-elektron-tijorat-operatsiyalarini-amalga-oshtirishning-konseptual-modellari/viewer>

<sup>24</sup> <https://srcyrl.goldenwellgermany.com/news/risks-and-avoidance-of-my-country-s-foreign-tr-68900033.html>



jihatlarni tahlil qilish orqali bu tahdidlarga qarshi samarali himoya choralarini ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

**3. Huquqiy va tartibga solish masalalari.** O'zbekistonda elektron tijoratni tartibga soluvchi qonunlar mavjud bo'lsa-da, ularda hali ham bo'shliqlar mavjud<sup>25</sup>. Xavfsizlik jihatlarni tahlil qilish orqali qonunchilikni takomillashtirish va yangi xavfsizlik standartlarini joriy etish uchun zarur bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

**4. Mijozlar ishonchi.** Mijozlar onlayn xarid qilishda xavfsizlikni birinchi o'ringa qo'yadilar. Agar platforma xavfsizlikni ta'minlasa, bu mijozlarning ishonchini oshiradi va xarid qilish faoliyatini kengaytiradi<sup>26</sup>. Tahlil natijalari asosida mijozlarni xabardor qilish va ularning xavfsizligini ta'minlash uchun strategiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

**5. Raqobatbardoshlik.** Hozirgi raqobat yuqori bo'lgan bozor sharoitida elektron tijorat platformalari o'z xavfsizlik darajalarini oshirish orqali raqobat ustunligini qo'lga kiritishi mumkin<sup>27</sup>. Tahlil qilish orqali eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash va joriy etish mumkin. Elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarni tahlil qilish nafaqat ma'lumotlarni himoya qilish, balki biznesning muvaffaqiyatli ishlashi uchun ham muhimdir. Bu jarayon orqali xavf-xatarlarni aniqlash, mijoz ishonchini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash mumkin bo'ladi.

O'zbekistonda elektron tijoratni tartibga soluvchi qonunchilikning rivojlanayotganiga qaramay, xavfsizlik masalalarida hali ko'plab bo'shliqlar mavjud. Ushbu maqola elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarni tahlil qilish, asosiy tahdidlar va himoya choralarini aniqlash hamda O'zbekiston sharoitida xavfsizlik tizimlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda kiberxavfsizlikning zamonaviy texnologiyalari, huquqiy asoslar va foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirish masalalari muhokama qilinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarni tahlil qilish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Asosiy metod sifatida tahliliy va tasniflash yondashuvlari ishlatildi, bu esa kiberxavfsizlik tahdidlarini turlarga ajratish va ularning platformalarga ta'sirini baholash imkonini berdi. Xavfsizlik tizimlarini baholashda funksionallik, joylashuv va ishlash prinsipi bo'yicha tasniflash amalga oshirildi, bu tizimlarning samaradorligini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqotda shifrlash protokollari (SSL/TLS), ko'p faktorli autentifikatsiya, to'lov shlyuzlari va boshqa xavfsizlik choralarining texnik xususiyatlari tahlil qilindi. O'zbekistonda xavfsizlik masalalarini o'rganish uchun normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilik tahlil qilindi. Bundan tashqari, global miqyosda qo'llaniladigan xavfsizlik standartlari (masalan, PCI DSS) va ularning

<sup>25</sup> Mustafayeva F.Sh. O'zbekistonda elektron tijorat tizimlari qo'llanilishining joriy holatini tahlil qilish ("foton" aj misolida). Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). / 2024 / <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-elektron-tijorat-tizimlari-qo-llanilishining-joriy-holatini-tahlil-qilish-foton-aj-misolida>

<sup>26</sup> <https://sciencebox.uz/index.php/sjeg/article/view/5237>

<sup>27</sup> Mustafayeva F.Sh. O'zbekistonda elektron tijorat tizimlari qo'llanilishining joriy holatini tahlil qilish ("foton" aj misolida). Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). / 2024 / <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-elektron-tijorat-tizimlari-qo-llanilishining-joriy-holatini-tahlil-qilish-foton-aj-misolida>

O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi ko'rib chiqildi. Ma'lumotlar manbai sifatida ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va elektron tijorat platformalarining amaliy tajribalari (masalan, Uzum Market, Click, PayMe) ishlatildi. Foydalanuvchilar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda xaridorlarning raqamli savodxonligini oshirish va kiberxavfsizlik bo'yicha treninglarning ahamiyati alohida e'tiborga olindi. Ushbu metodlarning kombinatsiyasi orqali elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlari chuqur tahlil qilinib, O'zbekistonda sohani rivojlantirish uchun amaliy yechimlar taklif etildi.

**Tahlil va natijalar.** Tahdidlar kiber jinoyatchilar tomonidan amalga oshiriladigan hujumlar va firibgarliklarni o'z ichiga oladi. Quyida elektron tijoratda ko'p uchraydigan asosiy tahdidlar batafsil keltirilgan:

**1. Hisobni qo'lga olish (Account Take Over - ATO).** ATO foydalanuvchi hisoblarini egallash uchun login ma'lumotlarini o'g'irlashni o'z ichiga oladi. Bu usul orqali jinoyatchilar karta ma'lumotlarini olish yoki foydalanuvchi hisobidan ruxsatsiz xaridlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. "ATO barcha firibgarlik yo'qotishlarining taxminan 29.8 foizni ga tengdir"<sup>28</sup>.

**2. Chatbot imposter.** Firibgarlar soxta chatbotlarni yaratib, foydalanuvchilardan shaxsiy ma'lumotlarni olishga harakat qiladilar. Foydalanuvchilar qonuniy va soxta chatbotlar orasidagi farqni ajrata olmaydi. "Bunday firibgarlik harakatlari barcha firibgarliklarning 24.1 foizini tashkil etadi"<sup>29</sup>.

**3. Orqa eshik fayllari.** Kiber jinoyatchilar zararli dasturlarni kiritish uchun eskirgan pluginlar yoki himoyalangan kirish nuqtalaridan foydalanadilar. Bu orqali ular kompaniyaning barcha ma'lumotlariga, shu jumladan mijozlarning shaxsiy ma'lumotlariga kirish huquqiga ega bo'lishadi. "Barcha hujumlarning 6.4 foizni orqa eshik fayllaridan kelib chiqadi"<sup>30</sup>.

**4. SQL injection.** Hujumchilar onlayn shakllar va URL so'rovlaridan foydalanib, ma'lumotlar bazasiga ruxsatsiz kirishga harakat qiladilar. Bu usul orqali shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash mumkin. "SQL injection hujumlari barcha hujumlarning 8.2 foizni ni tashkil etadi"<sup>31</sup>.

**5. Saytlararo skript (Cross-Site Scripting - XSS).** "XSS hujumlari xakerlarga foydalanuvchi brauzeri orqali boshqa foydalanuvchilar tomonidan ko'riladigan veb-sahifalarga zararli skriptlarni kiritishga imkon beradi. Bu xakerlarga kirish boshqaruvlarini chetlab o'tish va shaxsiy ma'lumotlarga kirish imkonini beradi"<sup>32</sup>.

**6. Ransomware (tovlamachi-viruslar).** "Ransomware zararli dasturlari foydalanuvchilarning ma'lumotlarini shifrlab, ularni qaytarish uchun pul talab qiladi. Ushbu viruslar ko'pincha fishing xatlari orqali tarqatiladi. Tashkilotlarning axborot tizimlariga ruxsatsiz kirish va buzg'unchilik maqsadida foydalaniladi"<sup>33</sup>.

<sup>28</sup> <https://uz.martech.zone/top-ecommerce-attacks-fraud-security/>

<sup>29</sup> <https://uz.martech.zone/top-ecommerce-attacks-fraud-security/>

<sup>30</sup> <https://uz.martech.zone/top-ecommerce-attacks-fraud-security/>

<sup>31</sup> <https://uz.martech.zone/top-ecommerce-attacks-fraud-security/>

<sup>32</sup> <https://uz.martech.zone/top-ecommerce-attacks-fraud-security/>

<sup>33</sup> Akbarova M.R., Akbarov J.M. / Axborot xavfsizligiga bo'ladigan tahdidlar. / "Экономика и социум" №6(85) ч.1 2021// <https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-xavfsizligiga-bo-ladigan-tahdidlar>

**7. IOT qurilmalariga hujum.** "Internetga ulangan qurilmalar (masalan, kameralar va sensorlar) orqali amalga oshiriladigan hujumlar, bu qurilmalar ko'pincha xavfsizlik choralari ega emas. Bu turdagi tahdidlar tashkilotlarning axborot tizimlariga ruxsatsiz kirishga olib kelishi mumkin"<sup>34</sup>.

Elektron tijoratdagi tahdidlarni bartaraf etish uchun elektron tijorat kompaniyalari xavfsizlik choralari kuchaytirishi va foydalanuvchilarga shubhali faoliyatlardan ehtiyot bo'lishni tavsiya qilishi zarurdir. Xaridorning malakasi elektron tijoratdan xavfsiz foydalanishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston hamda boshqa mamlakatlarda ham elektron tijoratning rivojlanishi bilan birga, xaridorlarning raqamli savodxonligi va kiberxavfsizlik bo'yicha bilimlarini oshirib borish zarur. Malakali xaridorlar onlayn muhitda firibgarlik va kiberhujumlardan o'zlarini himoya qilishda, to'g'ri va ishonchli ma'lumotlarni tanlashda, shuningdek, xavfsiz to'lov tizimlaridan foydalanishda tajribali bo'lishadi. Bunday xaridorlar, shuningdek, elektron tijorat platformalarini samarali va xavfsiz ishlatish uchun zarur bo'lgan texnik ko'nikmalarga ega bo'lib, bu esa ularning onlayn xarid qilish tajribasini yaxshilaydi va umumiy xavfsizlikni oshiradi. Shunday qilib, xaridorning malakasi nafaqat individual foydalanuvchining manfaatlariga, balki elektron tijorat ekotizimining barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

---

<sup>34</sup> Akbarova M.R., Akbarov J.M. / Axborot xavfsizligiga bo'ladigan tahdidlar. / "Экономика и социум" №6(85) ч.1 2021// <https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-xavfsizligiga-bo-ladigan-tahdidlar>

|                                                         |                                                                                                                                                                                                                                   |
|---------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Xavfsizlikni ta'minlovchi texnologiyalar va amaliyotlar | <ul style="list-style-type: none"> <li>•HTTPS va SSL/TLS sertifikatlari bilan himoyalangan saytlarni tanlash</li> <li>•Ikki faktorli autentifikatsiya (2FA)</li> <li>•Zararli dasturlardan himoya</li> </ul>                      |
| Parolni boshqarish va hisobni himoyalash                | <ul style="list-style-type: none"> <li>•Kuchli va noyob parollardan foydalanish</li> <li>•Parol menejerlari</li> <li>•Hisob ma'lumotlarini maxfiy saqlash</li> </ul>                                                              |
| Ishonchli platformalar va sotuvchilarni tanlash         | <ul style="list-style-type: none"> <li>•Reyting va sharhlarni tekshirish</li> <li>•Taniqli platformalardan foydalanish</li> <li>•Firibgarlikdan ehtiyot bo'lish</li> </ul>                                                        |
| To'lov jarayonida xavfsizlik choralarini ko'rish        | <ul style="list-style-type: none"> <li>•Xavfsiz to'lov usullaridan foydalanish</li> <li>•Virtual kartalar va limitlangan hisoblar</li> <li>•To'lovlarni tasdiqlash uchun ikki faktorli tizim</li> </ul>                           |
| Xarid jarayonida e'tiborli bo'lish                      | <ul style="list-style-type: none"> <li>•Sayt manzilini tekshirish</li> <li>•Mahsulotning to'liq tavsifini o'qish</li> <li>•Cheklovlarni tushunish</li> </ul>                                                                      |
| Foydalanuvchilar xabardorligini oshirish                | <ul style="list-style-type: none"> <li>•Kiberxavfsizlik bo'yicha bilimlarni kengaytirish</li> <li>•Firibgarlik sxemalari haqida ogohlantirishlardan foydalanish</li> <li>•Spam va phishing xabarlardan ehtiyot bo'lish</li> </ul> |
| Savdolardan so'nggi choralar                            | <ul style="list-style-type: none"> <li>•Hisobni muntazam nazorat qilish</li> <li>•Shikoyat qilish tartibini bilish</li> <li>•Shaxsiy ma'lumotlarni yangilash</li> </ul>                                                           |

### 1-rasm. Elektron tijoratdan xavfsiz xaridni amalga oshirish mexanizmi

1. **Texnologik xavfsizlik choralarini qo'llash.** HTTPS va SSL/TLS sertifikatlari bilan himoyalangan saytlar orqali xarid qilish ma'lumotlarning shifrlanishini ta'minlaydi. Masalan, Amazon yoki O'zbekistondagi Click tizimlari HTTPS protokolidan foydalanadi. Brauzerda “Not secure” belgisi paydo bo'lsa, bu saytlardan foydalanish tavsiya etilmaydi. Ikki faktorli autentifikatsiya (2FA) tizimi, masalan, PayPal orqali SMS-kod bilan hisobga kirish, hisob xavfsizligini oshiradi.

2. **Parollarni boshqarish va hisob xavfsizligini ta'minlash.** Oddiy parollar (masalan, “12345”) o'rniga murakkab parollar (“As foizni29\_LmtF”) tavsiya etiladi. LastPass yoki 1Password kabi parol menejerlari parollarni xavfsiz saqlash va eslab qolishda yordam beradi. Login va parollarni brauzerda saqlash tavsiya etilmaydi, ayniqsa umumiy kompyuterlarda.

3. **Ishonchli platforma va sotuvchilarni tanlash.** Xariddan avval sotuvchining reytingi va mijozlar sharhlarini o'rganish lozim. Masalan, AliExpressda xarid qilishdan oldin izohlar orqali firibgarlik xavfini kamaytirish mumkin. Bozor narxidan ancha arzon mahsulotlar, masalan, \$150 evaziga iPhone 15 taklif etilishi firibgarlik belgisi bo'lishi mumkin.

4. **To'lov xavfsizligini ta'minlash.** Visa, MasterCard kabi ishonchli to'lov tizimlari orqali to'lovlar amalga oshirilganda tranzaksiya himoyasi va mablag'ni qaytarib olish imkoniyati mavjud. Virtual kartalardan (Kapitalbank, Humo) foydalanish asosiy hisobni himoyalaydi. Click yoki PayMe kabi tizimlar orqali ikki faktorli tasdiqlash foydalidir.

5. **Xarid jarayonida ehtiyotkorlik.** Sayt manzillarining aniqligiga e'tibor berish zarur. Masalan, "[www.amazon.com](http://www.amazon.com)" kabi qalbaki manzillar asl saytdan farqlanadi. Tovar tavsifi va kafolat shartlarini diqqat bilan o'rganish, sotuvchining qaytarib berish siyosatini tushunish muhim.

6. **Foydalanuvchilar xabardorligini oshirish.** Google Security Checkup kabi xizmatlar hisob xavfsizligini baholashda yordam beradi. Davlat xavfsizlik organlarining ogohlantirishlari, spam va fishing xabarlardan ehtiyot bo'lish, kiberjinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

7. **Xariddan so'nggi nazorat choralari.** Bank hisobini muntazam tekshirib borish, shubhali tranzaksiyalar aniqlansa zudlik bilan bankka murojaat qilish lozim. Firibgarlik holatida PayPal yoki Click orqali shikoyat yuborish va mablag'ni qaytarish imkoniyati mavjud. Login va parollarni davriy yangilab borish shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini oshiradi.

Elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini mustahkamlash iqtisodiy samaradorlikka bir qator ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, xavfsizlikni ta'minlash xaridorlar o'rtasida ishonchni oshiradi, bu esa onlayn xaridlarni ko'paytiradi va sotuvlarning o'sishiga olib keladi. Xaridorlar xavfsiz muhitda xarid qilishni afzal ko'rishadi, bu esa kompaniyalarni raqobatbardosh qilishga yordam beradi. Ikkinchidan, mustahkam xavfsizlik choralari kiberjinoyatlardan himoya qiladi, bu esa moliyaviy yo'qotishlarni kamaytiradi. Kiberhujumlar natijasida yuzaga keladigan zararlar, masalan, ma'lumotlarning o'g'irlanishi yoki moliyaviy firibgarlik, kompaniyalar uchun katta iqtisodiy xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday yo'qotishlarni oldini olish orqali kompaniyalar o'z resurslarini samarali ravishda rivojlantirishga yo'naltirishi mumkin bo'ladi. Uchinchidan, xavfsizlikning yuqori darajasi kompaniyaning obro'sini oshiradi va brend sodiqligini kuchaytiradi. Mijozlar ishonchli va xavfsiz xizmatlardan foydalanishni afzal ko'radilar, bu esa takroriy xaridlarni rag'batlantiradi va mijozlar bazasini kengaytiradi. Natijada, elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini mustahkamlash iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, raqobatbardoshlikni kuchaytirishga va moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirishga yordam beradi.

Elektron tijorat platformalarining xavfsizligiga tahdidlar xilma-xil shakllar va ko'rinishlarda namoyon bo'lib, ularning har biri platformalarning barqaror faoliyatiga va foydalanuvchilarning ma'lumotlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Tahdidlarni tahlil qilishda ularni asosiy turlarga bo'lish imkonini beruvchi klassifikatsiya muhim ahamiyatga ega.



1-jadval

**Elektron tijoratdagi asosiy tahdidlar turlari**

| №  | Turkumlar                             | Turlari                  | Tavsifi                                                                                                                                                                                 |
|----|---------------------------------------|--------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Ma'lumotlarga tahdidlar <sup>35</sup> | Ma'lumotlarni o'g'irlash | Buzg'unchilar kredit karta raqamlari, manzillar, parollar va h.k. kabi nozik ma'lumotlarni o'g'irlash uchun mijozlar ma'lumotlar bazasiga kirishga intiladi.                            |
|    |                                       | To'lov firibgarligi      | Kiberjinoyatchilar mijozlarni aldash va ularning to'lov mablag'lariga ruxsatsiz kirish uchun turli usullardan foydalanadilar.                                                           |
|    |                                       | Fishing                  | Buzg'unchilar foydalanuvchilarni aldash maqsadida qonuniy onlayn-do'konlarga taqlid qiluvchi soxta veb-saytlarni yaratadilar.                                                           |
| 2. | Mavjudlikka tahdidlar <sup>36</sup>   | DDoS hujumlari           | Xizmatni rad etishning taqsimlangan hujumlari onlayn-do'kon serverlarini ortiqcha yuklashga qaratilgan bo'lib, bu sayt xizmati foydalanuvchilar uchun mavjud bo'lmasligiga olib keladi. |
|    |                                       | Zararli dasturlar        | Buzg'unchilar onlayn-do'kon serverlariga saytni buzishi yoki keyingi hujumlar uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan zararli dasturlar bilan zararlanishi mumkin.                            |
| 3. | Yaxlitlikka tahdidlar <sup>37</sup>   | SQL in'ektsiyalari       | Buzg'unchilar ma'lumotlar bazasiga ruxsatsiz kirish uchun veb-sayt ma'lumotlarini kiritish shakllariga zararli kodni kiritishlari mumkin.                                               |
|    |                                       | Saytlararo skript (XSS)  | Bu hujum tajovuzkorlarga foydalanuvchi ma'lumotlarini o'g'irlash yoki boshqa zararli harakatlarni amalga oshirish uchun veb-sahifalarga kod kiritish imkonini beradi.                   |

Yuqoridagi ro'yxatda ko'rib turganingizdek, elektron tijorat platformalari uchun xavfsizlik tahdidlari xilma-xil va doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Ushbu tahdidlardan muvaffaqiyatli himoyalaniish uchun texnik xavfsizlik choralari ham, tashkiliy va huquqiy choralarni ham o'z ichiga olgan kompleks yechim talab qilinadi.

Elektron tijorat murakkab ekotizim bo'lib, unda xaridorlar, sotuvchilar va to'lov protsessorlari o'zaro ta'sir qiladi. Bunda, xavfsizlik tahdidlarini bir nechta mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin.

2-jadval

**Elektron tijoratning xavfsizlikka tahdid guruhlarini tasnifi**

| Kategoriya                        | Tur                         | Tavsif                                                                            |
|-----------------------------------|-----------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Rejalashtirilishi bo'yicha</b> | Qasddan bo'lmagan tahdidlar | Texnik nosozliklar yoki foydalanuvchi xatolari (masalan, server ishlamay qolishi) |
|                                   | Qasddan qilingan tahdidlar  | DDoS hujumlari kabi ataylab qilingan zararli harakatlar                           |
| <b>Manbasi bo'yicha</b>           | Ichki tahdidlar             | Xodimlarning beparvoligi yoki ma'lumot o'g'irlash kabi harakatlari                |

<sup>35</sup> Оладько В.С. Угрозы информационной безопасности в системах электронной коммерции. Экономика и социум. 2015. / <https://cyberleninka.ru/article/n/ugrozy-informatsionnoy-bezopasnosti-v-sistemah-elektronnoy-kommertsii>

<sup>36</sup> <https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/information-security-threats-in-ecommerce/>

<sup>37</sup> <https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/retail-cybersecurity-threatscape-2023/>

|                          |                        |                                                                         |
|--------------------------|------------------------|-------------------------------------------------------------------------|
|                          | Tashqi tahdidlar       | Fishing, zararli dasturlar, DDoS hujumlari va firibgarlik               |
| <b>Maqsadi bo'yicha</b>  | Moliyaviy              | Soxta tranzaksiyalar va to'lov ma'lumotlarini o'g'irlash                |
|                          | Obro'-e'tiborga tahdid | Mijoz ma'lumotlari buzilishi yoki xizmatdagi uzilishlar                 |
|                          | Operatsion             | Texnik nosozliklar va xizmatni rad etish hujumlari (DDoS)               |
| <b>Usullari bo'yicha</b> | Ijtimoiy muhandislik   | Fishing va manipulyatsiya orqali tizimga ruxsatsiz kirish               |
|                          | Texnik hujumlar        | Viruslar, troyanlar va zararli dasturlar orqali tizimga zarar yetkazish |

Elektron tijorat platformalarining xavfsizlik tizimlari turli tahdidlarga qarshi himoya qilish uchun keng qamrovli va ko'p qatlamli yondashuvlardan foydalanadi. Bu tizimlar nafaqat texnik jihatdan, balki tashkiliy va operatsion xavfsizlikni ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, elektron tijorat platformalari uchun xavfsizlik tizimlari bir nechta mezonlarga ko'ra tasniflanishi mumkin.

**1. Funksionalligi bo'yicha. Xujumlarni oldini olish tizimlari (IPS):** tarmoq trafigini tahlil qilib, xakerlik urinishlari, portlarni skanerlash va boshqa hujumlar kabi shubhali harakatlarni bloklashga qaratilgan bo'ladi. **Xujumlarni aniqlash tizimlari (IDS):** tarmoqni passiv ravishda kuzatib borib, potentsial tahdidlar haqida ogohlantiradi. **Fayervollar:** kiruvchi va chiquvchi tarmoq trafigini boshqaradi, ruxsatsiz kirishni bloklaydi. **Veb zaiflikdan himoya qilish (WAF) tizimlari:** veb-ilovalarni SQL injection, XSS va boshqalar kabi keng tarqalgan hujumlardan himoya qiladi. **Anomaliyalarni aniqlash tizimlari:** foydalanuvchilar va tizimlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, normal sharoitlardan og'ishlarni aniqlaydi. **DDoS hujumidan himoya qilish tizimlari:** serverlarni haddan tashqari yuklanishiga va ularni ishlamay qolishiga qaratilgan tarqatilgan hujumlardan himoya qiladi.

**2. Joylashuvi bo'yicha. Tarmoq:** tarmoq perimetri va serverlarini himoya qiladi. **Xost:** shaxsiy serverlar va ish stantsiyalarida o'rnatilgan bo'ladi. **Bulutli:** xizmat sifatida taqdim etiladi va bulutli infratuzilmalarni himoya qilish imkonini beradi.

**3. Ishlash prinsipiga ko'ra. Faol:** real vaqtda tahdidlarni bloklashga qaratilgan ximoya tizimlari bo'ladi. **Passiv:** tarmoqni kuzatib boradi va ogohlantiradi.

Maksimal himoyani ta'minlash uchun turli xil texnik va tashkiliy chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvdan foydalanish kerak. Tahdidlarni muntazam tahlil qilish va xavfsizlik tizimini o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish muvaffaqiyatning asosiy omillari hisoblanadi.

Elektron tijorat platformalaridagi xavfsizlik tizimlari foydalanuvchi ma'lumotlarini, moliyaviy operatsiyalarni va biznesdagi obro'sini himoya qilishda asosiy rol o'ynaydi. Kibertahdidlar va firibgarlikning kuchayishi bilan samarali xavfsizlik tizimlari zaruratga aylanib bormoqda. Quyida elektron tijoratda foydalaniladigan xavfsizlik tizimlarining asosiy turlari, shuningdek, ularning funksional xususiyatlari keltirilgan.

**1. Shifrlash protokollari.** Secure Sockets Layer (SSL) va Transport Layer Security (TLS) protokollari mijoz va server o'rtasida uzatiladigan ma'lumotlarni

shifrlashni ta'minlaydi. Bu karta raqamlari va foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlari kabi nozik ma'lumotlarini ushlab qolishdan himoya qiladi. Barcha zamonaviy onlayn-do'konlar HTTPS (xavfsiz HTTP) dan foydalanishi kerak, bu veb-trafikni himoya qilish uchun standart protokoldir.

**2. To'lov shlyuzlari.** PayPal yoki Stripe kabi to'lov shlyuzlari ma'lumotlarning buzilishi xavfini minimallashtirib, xavfsiz to'lovlarni qayta ishlashni taklif qiladi. Ushbu tizimlar shifrlash va tokenizatsiyani o'z ichiga olgan ko'p qatlamli xavfsizlik mexanizmlaridan foydalanadi. Uchinchi tomon to'lov shlyuzlaridan foydalanishda karta ma'lumotlarini o'z serverlarida saqlashdan qochish imkonini beradi, bu esa o'g'rilik xavfini kamaytiradi.

**3. Ko'p faktorli autentifikatsiya (MFA).** Ko'p faktorli autentifikatsiya foydalanuvchilardan hisobga kirishdan oldin bir nechta identifikatsiya shakllarini taqdim etishlarini talab qiladi. Bu parollar, SMS kodlari yoki biometrik ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ko'pgina e-tijorat platformalari foydalanuvchi hisoblarini ruxsatsiz kirishdan himoya qilish uchun MFAni qo'llaydi.

**4. Antivirus dasturlari va ruxsatsiz kirishni oldini olish tizimlari (IPS).** Antivirus dasturlari tizimlarni zararli dasturlardan himoya qiladi va IPS tarmoq trafiginin shubhali harakatlar uchun nazorat qiladi hamda real vaqtda hujumlarning oldini oladi. Antivirus yechimlari va IPS-dan foydalanish onlayn-do'kon serverlarini DDoS yoki SQL injectionlari kabi hujumlardan himoya qilishga yordam beradi.

**5. Fayervollar.** Fayervollar kiruvchi va chiquvchi trafikni nazorat qiladi, potentsial xavfli ulanishlarni filtrlaydi. Ular apparat yoki dasturiy ta'minot bo'lishi mumkin. E-tijorat serverlarida xavfsizlik devorlarini sozlash ichki tizimlarga ruxsatsiz kirishni oldini olishga yordam beradi.

**6. Xodimlar va mijozlarni o'qitish.** Xodimlarni kiberxavfsizlik asoslariga o'rgatish, mijozlarni fishing xatarlari va boshqa tahdidlar haqida xabardor qilish ham xavfsizlik tizimining muhim qismidir. Fishing hujumlarini aniqlash bo'yicha xodimlarni muntazam ravishda o'qitish ma'lumotlar sizib chiqishi xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

**7. Tartibga solish va muvofiqlik.** PCI DSS (Payment Card Industry Data Security Standard) kabi xalqaro ma'lumotlar xavfsizligi standartlariga muvofiqlik to'lov ma'lumotlarini himoya qilish uchun zarur. E-tijorat kompaniyalari PCI DSS talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun muntazam tekshiruvdan o'tishi kerak.

**Xulosa va takliflar.** Kiberjinoyatlar ko'payishi va mijoz ishonchini saqlash zarurati platformalar uchun xavfsizlikni ustuvor vazifa etib belgilaydi. Ishonchli muhit yaratish nafaqat platformalar, balki foydalanuvchilar uchun ham muhim, chunki ularning e'tiborsizligi moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, elektron tijoratni tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish ham dolzarb masalalardan biridir.

Xavfsizlikni ta'minlash uchun platformalar shifrlash texnologiyalaridan foydalanishi, ikki faktorli autentifikatsiya va kuchli parol tizimlarini joriy qilishi, muntazam yangilanishlarni amalga oshirishi lozim. Xaridorlarni firibgarliklardan himoya qilish uchun ularni xabardor qilish va zarur maslahatlar berish ham samarali

choradir. Elektron tijoratning barqaror rivojlanishi xavfsizlik choralariga bevosita bog'liq bo'lib, bu nafaqat platformalar, balki butun sohaning ishonchliligini oshiradi.

### 3-jadval

#### Elektron tijorat foydalanuvchilari eng ko'p duch kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar<sup>38</sup>

| №  | Tahdidlar guruhlari                                             | Tahdidlar turlari                                  | Tavsifi                                                                                                                                                      |
|----|-----------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Ma'lumotlarning o'g'irlanishi va shaxsiy xavfsizlikka tahdidlar | Shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi              | Xaridorning ism-sharifi, manzili, telefon raqami kabi ma'lumotlar xavfsizlik devorlarining buzilishi yoki fishing hujumlari natijasida o'g'irlanishi mumkin. |
|    |                                                                 | Moliyaviy ma'lumotlarning buzilishi                | Karta raqamlari, bank hisoblari yoki elektron hamyon ma'lumotlari firibgarlik uchun asosiy nishonga aylanishi mumkin.                                        |
|    |                                                                 | Shaxsiy hayotga tajovuz                            | Xaridorning xaridlar tarixini kuzatish yoki ma'lumotlarni reklama maqsadida noqonuniy ishlatish.                                                             |
| 2. | Firibgarlik va soxta operatsiyalar                              | Fishing (soxta veb-saytlar)                        | Xaridorni haqiqiy platformadan farq qilmaydigan soxta saytga yo'naltirish orqali login va parollarni o'g'irlash.                                             |
|    |                                                                 | Qalbaki to'lov sahifalari                          | To'lov paytida haqiqiy emas, soxta tizimlarga yo'naltirilish.                                                                                                |
|    |                                                                 | Qalbaki tovarlar va xizmatlar                      | Ishonchsiz sotuvchilar tomonidan sifatli tovarlar nomidan sifatsiz yoki mavjud bo'lmagan tovarlar taklif qilinishi.                                          |
|    |                                                                 | To'lovlar qaytarilmasligi                          | Xaridor pulni to'laganidan keyin tovar yoki xizmatni olmasligi va pullarni qaytarib ololmasligi.                                                             |
| 3. | Tizim va texnologik tahdidlar                                   | Kiberhujumlar va xakerlik                          | Elektron tijorat platformalariga qarshi kiberhujumlar, masalan, DDoS hujumlar orqali tizimlarning ishdan chiqishi yoki ma'lumotlarning buzilishi.            |
|    |                                                                 | Texnologik nosozliklar                             | To'lov tizimlarida yoki platforma infratuzilmasida yuzaga kelgan muammolar, ma'lumotlarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.                                |
|    |                                                                 | Zararli dasturlar                                  | Xaridor qurilmalariga zarar yetkazadigan viruslar yoki troyan dasturlar orqali ma'lumotlarni o'g'irlash.                                                     |
| 4. | Yetkazib berish va kafolat bilan bog'liq muammolar              | Sifatsiz yoki noto'g'ri tovar yetkazib berish      | Xaridor tomonidan buyurtma qilingan tovarning sifat yoki miqdor jihatdan talabga javob bermasligi.                                                           |
|    |                                                                 | Yetkazib berilmagan tovarlar                       | To'lov amalga oshirilgan bo'lsa ham, tovar yetkazilmasligi.                                                                                                  |
|    |                                                                 | Kafolat va qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi | Xaridorlar muammoga duch kelganida platforma tomonidan yordam yoki muammo hal qilinmasligi.                                                                  |

<sup>38</sup> Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

|    |                                                                    |                                                      |                                                                                                                                              |
|----|--------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 5. | <b>Xaridorlarni chalg'ituvchi axborot va noto'g'ri baholashlar</b> | <b>Noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar</b>            | Tovar yoki xizmatning real tavsifi bilan mos kelmaydigan axborot berilishi.                                                                  |
|    |                                                                    | <b>Reklama va baholar bilan aldash</b>               | Tovarlar haqida soxta ijobiy baholar berilishi yoki kamchiliklarni yashirish uchun yolg'on reklama ma'lumotlarining taqdim etilishi.         |
| 6. | <b>Huquqiy va siyosiy tahdidlar</b>                                | <b>Xalqaro operatsiyalar bilan bog'liq muammolar</b> | Turli mamlakatlarda xarid qilishda bojxona qoidalari yoki soliqlar bilan bog'liq murakkabliklar.                                             |
|    |                                                                    | <b>Huquqiy himoya yo'qligi</b>                       | Xaridorning qonuniy huquqlarini himoya qiluvchi mexanizmlarning mavjud emasligi yoki samarali ishlamasligi.                                  |
| 7. | <b>Ijtimoiy va psixologik tahdidlar</b>                            | <b>Ijtimoiy muammolar</b>                            | Xarid qilish jarayonida manipulyatsiya qiluvchi reklama texnologiyalari sabab xaridor o'zi istamagan narsani xarid qilishga majbur bo'lishi. |
|    |                                                                    | <b>Psixologik bosim</b>                              | Foydalanuvchining qarorlarini boshqarish uchun yaratilgan sun'iy chegirmalar yoki vaqt cheklovlari orqali xarid qilishga majbur qilish.      |

Ushbu barcha tahdidlar elektron tijoratda foydalanuvchilar xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyojni oshiradi va bu borada xavfsizlik choralarini kuchaytirish muhimligini ta'kidlaydi.

Xaridorlar o'zlarini tahdidlardan himoya qilish uchun ehtiyotkorlik choralarini ko'rishi zarur. Shu bilan birga, platformalar o'z mijozlariga xavfsiz muhit yaratishni ustuvor vazifa qilib belgilashlari kerak. Kiberxavfsizlik sohasidagi islohotlar va ilg'or texnologiyalarni joriy etish elektron tijoratning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akbarova M.R., Akbarov J.M. Axborot xavfsizligiga bo'ladigan tahdidlar / M.R. Akbarova, J.M. Akbarov // Экономика и социум. – 2021. – №6(85), ч.1. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-xavfsizligiga-bo-ladigan-tahdidlar>.

2. Maxmudov L.U. Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijorat operatsiyalarini amalga oshirishning konseptual modellari / L.U. Maxmudov // Raqamli iqtisodiyot. – 2024. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xizmat-ko-rsatish-sohasida-elektron-tijorat-operatsiyalarini-amalga-oshirishning-konseptual-modellari/viewer>.

3. Mustafayeva F.Sh. O'zbekistonda elektron tijorat tizimlari qo'llanilishining joriy holatini tahlil qilish ("Foton" AJ misolida) / F.Sh. Mustafayeva // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2024. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-elektron-tijorat-tizimlari-qo-llanilishining-joriy-holatini-tahlil-qilish-foton-aj-misolida>.

4. Оладько В.С. Угрозы информационной безопасности в системах электронной коммерции / В.С. Оладько // Экономика и социум. – 2015. – №2(15). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ugrozy-informatsionnoy-bezopasnosti-v-sistemah-elektronnoy-kommertsii>.

5. Risks and avoidance of my country's foreign trade e-commerce platform under cross-border e-commerce model / Goldenwell Germany. – 2024. – URL:



<https://srcyrl.goldenwellgermany.com/news/risks-and-avoidance-of-my-country-s-foreign-tr-68900033.html>.

6. Top e-commerce attacks, fraud, and security / Martech Zone. – 2024. – URL: <https://uz.martech.zone/top-ecommerce-attacks-fraud-security/>.

7. Uslubiy qo‘llanma: O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarb masalalari / ScienceBox. – 2023. – URL: <https://sciencebox.uz/index.php/sjeg/article/view/5237>.

8. Информационная безопасность в электронной коммерции / Positive Technologies. – 2023. – URL: <https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/information-security-threats-in-ecommerce/>.

9. Киберугрозы в розничной торговле 2023 / Positive Technologies. – 2023. – URL: <https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/retail-cybersecurity-threatscape-2023/>.

## О ПРОБЛЕМЕ ИНВЕСТИРОВАНИИ И ХЕДЖИРОВАНИИ В ФИНАНСОВОЙ МАТЕМАТИКЕ

*Бабаджанов Шопулат Шомашрабович*

*ф.-м.ф.н., доцент кафедры высшей и прикладной математики, ТГЭУ*

*[sh.babadjanov@mail.ru](mailto:sh.babadjanov@mail.ru)*

*+998977033711*

*Кеунимжаев Мухамедали Куанышбаевич*

*ассистент кафедры высшей и прикладной математики, ТГЭУ*

*[Keunimjaeff@gmail.com](mailto:Keunimjaeff@gmail.com)*

**Аннотация:** в работе рассматриваются некоторые аспекты вопросов инвестирования и хеджирования в финансовой математике.

**Ключевые слова:** опцион, инвестор, инвестиционный портфель, арбитраж, хедж.

### I. ВВЕДЕНИЕ

Среди основных структур, с которыми имеет дело теория финансов, рынки ценных бумаг занимают центральное место. Именно они представляют основной интерес для математической теории финансов. Акции и облигации являются первичными ценными бумагами, поскольку они определяются непосредственно через экономические факторы.

В 1900 году Л. Башелье предпринял попытку описать стоимость акций как случайный процесс. Он был первым, кто заметил, что при малых промежутках времени  $\Delta t$  приращения  $\Delta S(t)$  цен акций ведут себя как  $\sqrt{\Delta t}$ . И это позволило через 65 лет П. Самуэльсону для описания эволюции стоимости акций  $S(t)$  ввести так называемое геометрическое (он также писал «экономическое») броуновское движение

$$S(t) = S_0 e^{\mu t} e^{\sigma W(t) - \frac{\sigma^2 t}{2}}. \quad (1)$$

В отличие от акции и облигации вторичные (производные) ценные бумаги функционируют на базе уже имеющихся на бирже основных ценных бумаг. Рынок производных ценных бумаг является привлекательным из-за того, что требует существенно меньших начальных затрат и помогает страховать от потерь. Одной из наиболее распространенных производных ценных бумаг является опцион, или контракт с опционом, - ценная бумага, дающая ее обладателю право продать (купить) некоторую ценность (например, акции, валюту и т.д.) на оговариваемых условиях. По времени исполнения (погашения) опционы делятся на два основных типа: европейского типа, имеющие фиксированную дату погашения, и американского типа, которые могут быть представлены к исполнению в любой момент до фиксированной даты.

Участника финансового рынка, помещающего свободные капиталы в те или иные активы, мы называем инвестором, а совокупность принадлежащих ему активов - инвестиционным портфелем. Искусство инвестора состоит в умении

правильно и динамично формировать свой портфель инвестиций (управлять портфелем): хранить актив, покупать и продавать его, давать займы. Перераспределение портфеля служит для уменьшения риска той или иной сделки, например покупки или продажи опциона. В этом случае говорят о хеджировании, или защите своих инвестиций, а соответствующий динамический портфель называют хеджирующим портфелем. Существенное значение для инвестора имеет нахождение такой инвестиционной стратегии, которая дает прибыль при нулевых начальных затратах. Такие стратегии называются арбитражными.

## II. АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ

В 1976 году вышла в свет работа С. Росса, в которой для описания равновесности состояния рынка использовались идеи арбитража. Утверждалось, в частности, что рынок, находящийся в равновесном состоянии, не должен допускать арбитражных ситуаций, то есть возможности извлечения прибыли без риска.

В 1973 году были опубликованы две работы, совершившие революцию в финансовых расчетах, связанных с опционами. Это статьи Ф. Блэка и М. Шоулса «Расчет цены опционов и обязательства корпораций» и Р. Мертона «Теория расчета рациональной цены опциона». В них было предложено обоснование справедливой цены опциона, приведена замечательная формула Блэка-Шоулса, развита теория оптимальных биржевых операций (хеджирующие стратегии), которые должен совершать продавец опциона, с тем, чтобы оговариваемые условиями контракта возможные платежи, зависящие от случайного состояния цен на рынке, были гарантированным образом выполнены.

Предполагая, что цены акций в любой момент времени либо поднимаются вверх, либо опускаются вниз, Д. Кокс, Р. Росс и М. Рубинштейн предложили считать эти изменения дискретными и показали, что их модель имеет в пределе геометрическое броуновское движение, а полученная формула справедливой цены сходится к формуле Блэка-Шоулса.

Эти классические работы стали основанием для применения и развития методов современного стохастического анализа и теории финансов.

## III. РЕЗУЛЬТАТЫ

Рассмотрим предложенную Коксом, Россом и Рубинштейном дискретную модель  $(B, S)$ -рынка, состоящего из двух активов: банковского счета  $B = B_n$  и акции  $S = S_n$ . Согласно этой модели, динамика банковского счета имеет вид  $B_n = (1 + r)B_{n-1}$ ,  $B_n > 0$ , где  $r > 0$  - процентная ставка, а стоимость акции  $S = S_n$  эволюционирует по закону

$$S_n = (1 + \rho_n)S_{n-1}, \quad S_n > 0, \quad (2)$$

где  $\rho_n$  - последовательность бернуллиевских случайных величин, принимающих два значения  $a$  и  $b$ ,  $-1 < a < r < b$ , с вероятностями  $p$  и  $q = 1 - p$ . Это условие обеспечивает, в частности, положительность величин  $S_n$ .

Пусть инвестор имеет начальный капитал  $X_0 = x > 0$  и хочет увеличить его в будущем, располагая возможностями  $(B, S)$ -рынка. Он может поместить этот капитал  $X_0 = x$  на банковский счет, и тогда его капитал в момент времени  $n$  будет равен  $X_0(1+r)^n$ . Значит, если инвестор хочет получить в некоторый момент времени  $N$  в будущем определенную сумму  $f_N$ , то его начальный капитал  $X_0 = x$  должен быть равен  $x = (1+r)^{-N} f_N$ .

Он может вложить свой капитал  $X_0 = x$  в акции. Это является, конечно, более рискованным делом, хотя может быть и привлекательным, если есть надежда на повышение цены акции. Тогда, заменяя значения случайной величины  $\rho_n$  ее математическим ожиданием, из (2) находим, что для получения в среднем суммы  $f_N$  начальный капитал  $X_0 = x$  должен быть таким, что

$$x = \left(1 + (bp + aq)^{-N}\right) f_N.$$

Есть и третья возможность: поместить часть капитала на банковский счет, а часть в акции. Пусть  $B_0$  - цена одной облигации, а  $S_0$  - цена одной акции в момент времени  $n=0$  и инвестор имеет  $\beta_0$  акций и  $\gamma_0$  облигаций. Вообще говоря, числа  $\beta_0$  и  $\gamma_0$  могут быть и дробными, и отрицательными. Последнее соответствует взятию в долг. Начальный капитал инвестора можно записать в виде  $X_0 = \beta_0 B_0 + \gamma_0 S_0$ , а  $\pi_0 = (\beta_0, \gamma_0)$  образует портфель инвестора в момент времени  $n=0$ .

Пусть к моменту времени  $n=1$ , перед тем как будет объявлена новая цена акции  $S_1$ , инвестор преобразовал свой начальный портфель  $\pi_0 = (\beta_0, \gamma_0)$  в новый, основываясь лишь на начальной информации о значениях  $(B_0, S_0)$  и не допуская при этом ни притока дополнительного капитала со стороны (например, от дивидендов с акции), ни его оттока на сторону (например, на потребление). Перераспределенный таким образом портфель даст для капитала  $X_0$  новое представление  $X_0 = \beta_1 B_0 + \gamma_1 S_0$ . В момент времени  $n=1$  происходит объявление новых цен на рынке, то есть становится известным значение пары  $(B_1, S_1)$ , поэтому начальный капитал  $X_0$  инвестора, имеющего портфель  $\pi_1 = (\beta_1, \gamma_1)$ , превращается в величину  $X_1 = \beta_1 B_1 + \gamma_1 S_1$ . Иначе говоря, приращение  $\Delta X_1$  капитала имеет вид  $\Delta X_1 = \beta_1 \Delta B_1 + \gamma_1 \Delta S_1$ . Обобщая изложенное выше на произвольные моменты времени, имеем

$$\begin{aligned} X_{n-1} &= \beta_n B_{n-1} + \gamma_n S_{n-1}, & X_n &= \beta_n B_n + \gamma_n S_n, \\ \Delta X_n &= \beta_n \Delta B_n + \gamma_n \Delta S_n. \end{aligned} \quad (3)$$

Суммарный капитал при этом представляется в виде

$$X_n = X_0 + \sum_{k=1}^n (\beta_k \Delta B_k + \gamma_k \Delta S_k). \quad (4)$$

Смысл формулы (4) можно выразить так: формирование капитала  $X_n = \beta_n B_n + \gamma_n S_n$  осуществляется только за счет изменений  $(\Delta B_n, \Delta S_n)$  в ценах облигаций и акций и без какого-либо его притока и оттока.

Заметим, что из формул (3) нетрудно получить, что

$$B_{n-1} \Delta \beta_n + S_{n-1} \Delta \gamma_n. \quad (5)$$

Последнее означает, что портфели  $\pi_k = (\beta_k, \gamma_k)$ ,  $k \leq n$ , таковы, что изменение капитала на банковском счете (то есть  $B_{n-1} \Delta \beta_n$ ) может происходить только в результате соответствующего изменения капитала в акциях (то есть  $S_{n-1} \Delta \gamma_n$ ) и наоборот.

Говорят, что портфель  $\pi_n = (\beta_n, \gamma_n)$ ,  $n \leq N$ , удовлетворяющий условию (5), образован на принципе самофинансирования, а саму стратегию  $\pi = (\pi_n)$ ,  $n \leq N$ , называют самофинансируемой.

Стратегия  $\pi = (\pi_n)$ ,  $n \leq N$ , называется хеджем, или хеджирующей стратегией (по отношению  $f_N$ ), если с вероятностью единица  $X_0^\pi = X_N^\pi \geq f_N$ . Если  $X_N^\pi = f_N$ , говорят, что  $\pi$  является минимальным  $(x, f_N)$  хеджем.

Минимальное значение  $x$ , обозначаемое  $C_N$ , для которого возможно построение (минимального) хеджа  $\pi^*$ , называется инвестиционной стоимостью (ценой), гарантирующей в момент времени  $N$  получение капитала, не меньшего  $f_N$ .

Величина  $C_N$ , представляет интерес в связи с проблемой справедливой цены (премии) опционов европейского типа.

#### IV. ОБСУЖДЕНИЕ

Обсудим более подробно стандартный опцион купли европейского типа.

Shuningdek, N.Kaldor ham "soliq tizimining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rgangan olimlardan biri hisoblanib, uning ishlari soliq bazasini kengaytirish va progressiv soliq tizimini joriy etish orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkinligini ko'rsatib bergan. Xususan, N.Kaldor soliq tizimining iqtisodiy o'sishga ta'siri haqida progressiv soliq tizimi yuqori daromad oladiganlardan ko'proq soliq undirib, kam daromadli aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish imkonini taqdim etishini, yuqori soliq stavkalari iqtisodiy faollikni susaytirishi mumkinligini, bunda to'g'ri ishlab chiqilgan soliq bazasini aniqlash metodologiyasi investitsiyalarni rag'batlantirishi va iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi mumkinligini, bu esa daromadlar tengsizligini kamaytirishi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashini ta'kidlab o'tgan bo'lsa, soliq bazasini kengaytirish orqali davlat daromadlarini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mumkinligini ilgari surgan. Soliq bazasini kengaytirish uchun esa soliq bazasini aniqlashda barcha daromad manbalarini soliqqa tortish va soliq imtiyozlarini kamaytirish metodologiyasini qo'llash orqali amalga oshirishni taklif etgan"<sup>45</sup>.

P.Shome esa "soliq bazasini aniqlashda rivojlanayotgan mamlakatlarning maxsus ehtiyojlarini ko'rib chiqadi. U soliq tizimlarining zaifligi va soliq bazasining torligi bu mamlakatlarda rivojlanishning oldini olishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi. P.Shome metodologiyaning rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ahamiyatini, shuningdek, soliq bazasining kengayishini rag'batlantirish zaruriyatini ko'rsatadi"<sup>46</sup>.

R.H. Gordon bo'lsa "soliq tizimi va soliq bazasining o'zgarishi iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir qilishi haqidagi tahlillarida soliq bazasini aniqlash metodologiyasi, soliq qo'llanilishidagi adolatli yondashuvni ta'minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkinligini izohlab o'tgan"<sup>47</sup>.

S. H. James o'zining izlanishlarida "soliq to'lovchilarining soliqni yashirish, soliq bazasining aniqlanishi va davlatning bu jarayonni tartibga solishdagi rolini tahlil qilil qilga holda, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini va soliq to'lashni rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan metodologiyalarni o'rganib chiqqan"<sup>48</sup>. J. Slemrodning tadqiqotlarida esa "soliq tizimlari va soliq to'lashni osonlashtirish, shuningdek, soliq bazasini kengaytirish va aniqlash bo'yicha asosiy metodologik yondashuvlar haqida so'z boradi. J. Slemrod soliq bazasini aniqlashda davlatning fiskal siyosatdagi roli hamda soliq to'lash madaniyati va iqtisodiy sharoitlarning soliq bazasini aniqlanishiga

<sup>43</sup> Laffer A. B. Government exactions and revenue deficiencies //Cato J. – 1981. – T. 1. – C. 1.;

<sup>44</sup> Musgrave R. A. //Tax Analysis in Developing Country Settings// – World Bank, 1989.;

<sup>45</sup> Nicholas Kaldor., An Expenditure Tax //George Allen & Unwin., ISBN-10 : 0415314003 ISBN-13 : 978-0415314008 // London 1955., 252 pages.;

<sup>46</sup> Parthasarathi Shome //Development and Taxation: 60 Critical Commentaries// Academic Foundation ISBN: 9789332703889., 326 pegas., 2018;

<sup>47</sup> Young Lee va Roger H. Gordon — //Tax Structure and Economic Growth// Journal of Public Economics Volume/Issue: 89(5–6)., 1027–1043 pages., DOI: 10.1016/j.jpubeco. 2004.07.002 Publication date: June 2005.

<sup>48</sup> James S. Henry. // The Blood Bankers: Tales from the Global Underground Economy// Basic Books., 400 pages 2005;

qanday ta'sir qilishi haqida keng fikr bildirgan"<sup>49</sup>. R.S.Avi-Yonahning asarida esa "global miqyosda soliq tizimlari va soliq bazasini kengaytirish metodologiyalari haqida munozaralar olib borilgan bo'lib, soliq bazasini aniqlashning xalqaro iqtisodiyotdagi o'rni va uning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini tahlil qiladi. Olimning fikricha, globalizatsiya jarayonlari va transmilliy korporatsiyalar soliq bazasini qisqartirishda muhim rol o'ynaydi, shu sababli soliq tizimlarida hamkorlik va tartibga solish zarurligi ta'kidlanadi"<sup>50</sup>.

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bugungi kunda mahalliy iqtisodchi, moliyachi va soliq sohasidagi tadqiqotchilar uchun muhim yo'nalish hisoblanib, ushbu mavzu bo'yicha mahalliy olimlarmiz o'z ilmiy ishlarida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining iqtisodiy o'sish, adolatli soliq siyosati, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy tenglikni ta'minlashdagi o'rni haqida fikr yuritganlar. Jumladan, respublikamiz olimlaridan Sh. Shodmonov "soliq tizimi va soliq siyosatining nazariy va amaliy masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib brogan bo'lsa"<sup>51</sup>, T. Malikov soliq qonunchiligi va soliq ma'muriyatchiligi masalalari bo'yicha o'zining tadqiqotlarini keng ommaga taqdim etgan. Masalan, olim "soliq tizimining iqtisodiy o'sishga ta'siri va soliq bazasini aniqlash masalalariga katta e'tibor qaratib, soliq tizimi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi, investitsiyalarni jalb qilishi va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashi kerakligini ta'kidlagan. Buning uchun soliq yukini optimallashtirish, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish va soliq imtiyozlarini samarali qo'llash zarurligini qayd etgan. Qolaversa, soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va ularni maqsadli yo'naltirish zarurligini ta'kidlagan holda samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladigan imtiyozlarni qo'llab-quvvatlash yo'li bilan soliq tizimining samaradorligini oshirish mumkinligini ilgari surish orqali soliq bazasini aniqlash metodologiyasining soliq tizimini tizimli tashkil etishdagi ahamiyatini ochib bergan deyishimiz mumkin"<sup>52</sup>.

R.B. Rasulovning ilmiy tadqiqotlarida ham "soliq tizimining samarali ishlashining asosiy shartlari, shuningdek, soliq bazasining aniqlanishi jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ko'rib chiqiladi. R. Rasulov soliq to'lashni oshirish uchun soliq tizimini modernizatsiya qilish va soliq to'lovchilarni ishonchli tizim orqali boshqarish zarurligini ta'kidlagan bo'lsa"<sup>53</sup>, A.Y. Ergashev soliq bazasini aniqlash jarayonida soliq yuki va soliq imtiyozlarining iqtisodiy faollikka ta'sirini, qolaversa, soliq bazasini kengaytirishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rgangan. Uning fikricha, "soliq bazasini kengaytirish orqali davlat daromadlarini oshirish, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mumkin. Soliq bazasini kengaytirish uchun esa norasmiy sektorni qisqartirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlariga qarshi kurashish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish lozim"<sup>54</sup>.

<sup>49</sup> Joel Slemrod va Christian Gillitzer - //Tax Systems//MIT press ISBN: 9780262026727., 213 pages., 2013;

<sup>50</sup> Reuven S. Avi-Yonah // Globalization, Tax Competition, and the Fiscal Crisis of the Welfare State// Harvard Law Review, Volume 113, Issue 7., 1573–1676 pages., Publication date: 2000.;

<sup>51</sup> Sh. Shodmonov ., Soliq tizimi va uning iqtisodiy rivojlanishdagi roli

<sup>52</sup> T.S. Malikov., Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Adliya. 2002

<sup>53</sup> **R. B. Rasulov., Soliq tizimi va soliq bazasining rivojlanishi**

<sup>54</sup> A.Y. Ergashev .,Soliq tizimi: Nazariya va amaliyot., - T.: 2000


### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi sifatida O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va soliq siyosatida olib borilayotgan soliq islohotlari, soliq kodeksi, qonunlari va qonun osti xujjatlarini chuqur o'rganish davomida analiz va sintez, kuzatish, ilmiy mushohada, ma'lumotlarni guruhlash hamda klassifikatsiyalash va nazariy tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Soliq munosabatlari – bu soliq to'lovchilari, soliq organlari va davlat o'rtasidagi iqtisodiy-huquqiy aloqalardir. Bu munosabatlarni tizimli tashkil etish quyidagilarni talab etadi:

- aniq qonunchilik bazasi;
- shaffof soliq siyosati;
- ishonchli ma'lumotlar bazasi;
- adolatli va izchil soliq nazorati.

Aynan soliq bazasini aniqlash metodologiyasi ushbu omillarni birlashtiruvchi, yagona tizimga soluvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Biz quyida beriladigan rasm orqali bu munosabatlarni yanada yaqqolroq izohlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Soliq munosabatlarida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining ahamiyati<sup>55</sup>**

1-rasmda keltirilgan chizmaga muvofiq soliq munosabatlarida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining ahamiyati beshta jabha orqali namoyon bo'ladi. Xususan, soliq bazasini aniqlashning aniq va izchil metodologiyasi soliq to'lovchilar uchun bir xil va adolatli sharoitlarni yaratishga, davlat budjetining daromad qismini

<sup>55</sup> Muallif ishlanmasi

barqarorlashtirishga, soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qilishga, ularning soliq tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishga, shuningdek, investitsiyalarni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi soliq munosabatlarini tizimli tashkil etishda o'zining quyidagi muhim vazifalarini bajaradi:

1. Tizimlilik va tartibni ta'minladi;
2. Soliq munosabatlarini standartlashtiradi;
3. Soliq munosabatlarini prognozlash imkoniyatini yaratadi;
4. Soliq nazoratini samarali tashkil etishga yordam beradi;
5. Soliq munosabatlarini soddalashtiradi;
6. Soliq munosabatlarini optimallashtiradi.

Ushbu vazifalar o'zida ko'pgina jihatlarni qamrab olgan holda namoyon bo'ladi, jumladan, soliq bazasini aniqlashning aniq va izchil metodologiyasi soliq tizimining barcha elementlari (soliq obyekti, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari va h.k.) o'rtasida mantiqiy bog'lanishni o'rnatadi (bu keying paragraflarda batafsil yoritib berilgan). Bu soliq munosabatlarida tizimlilik va tartibni ta'minlashga yordam bersa, bir xil turdagi soliq obyekti uchun bir xil qoidalarni qo'llash soliq to'lovchilar uchun teng sharoitlar yaratib, soliq tizimining adolatli bo'lishiga yordam bergan holda soliq munosabatlarini standartlashtirga urg'u beradi.

Yuqorida ta'kidlaganlarimiz bilan bir qatorda, soliq bazasini aniqlashning aniq metodologiyasi soliq tushumlarini prognoz qilish imkoniyatini yaratib beradi. Agar soliq bazasi to'g'ri aniqlansa, davlat budjetining daromad qismini aniqroq prognoz qilish va moliyaviy rejalarni tuzish imkoniyatini bersa, soliq bazasini aniqlashning sodd va tushunarli metodologiyasi soliq munosabatlarini soddalashtirishga yordam beradi. Qolaversa, to'g'ri tanlangan soliq bazasi va uning aniqlanish usuli soliq to'lovlarining optimal darajasini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga turtki bergan holda soliq munosabatlarini optimallashtirish vazifasini ham bajaradi.


Global iqtisodiy rivojlanish ketayotgan bugungi kundagi asosiy masala – bu barqaror rivojlanishni samarali olib borish hisoblansa, bunda soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasi markaziy o'rinda turadiki, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bir necha muhim aspektlar orqali namoyon bo'ladi. Ya'ni, moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi, iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, adolatli soliq tizimini barpo etish hamda innovatsion rivojlanish kabi jihatlar ushbu jarayonning zaruriy shartlarini o'zida mujassam etgan.

Soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, yuqoridagi aspektlarni inobatga olgan holda, kompleks va sistematik yondashuvga tayanadi. Bu esa davlat moliyasini samarali tashkil etish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun avvalo soliq munosabatlarini samarali tashkil etish vazifasi yotadi va bunda soliq bazasini aniqlash metodologiyasining iqtisodiy ahamiyati bir qator jihatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu metodologiya nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki ijtimoiy adolat, barqaror



rivojlanish va davlat xizmatlarining sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Keling, bu jihatlarni kengroq yoritib berish uchun e’tiboringizni 1-rasmga qaratsak.



## 2-rasm. Soliq bazasini aniqlash metodologiyasining iqtisodiy ahamiyati<sup>56</sup>

2-rasmda keltirilgan chizma bevosita soliq bazasini aniqlash metodologiyasining soliq munosabatlarini samarali tashkil etishdagi iqtisodiy ahamiyatini tasvirlagan bo‘lib, unga ko‘ra, avvalo byudjet daromadlarini shakllantirishdagi asosiy manbaa ekanligi bo‘lsa, aynan shu byudjet daromadlarining barqarorligi va moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash vazifasi orqali moliyaviy barqarorlikka erishiladi. Shuningdek, soliq bazasini aniqlashning investitsiya muhitiga ta’siri hamda yangi ish o‘rinlari yaratishi mumkinligi iqtisodiy o‘shishni ta’minlab bersa, tadbirkorlarga berilgan imtiyozlar va imkoniyatlar ishlab chiqaruvchi ihtiyorida tejab qolingan mablag‘ni faoliyat rivoji uchun sarflash motiviga urg‘u beradi va oqibatda ularning safi oshishiga turtki bo‘ladi. Natija esa iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishi turgan gap.

Qolaversa, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi soliq organlariga nazorat qilish va monitoring qilish imkoniyatlarini ham yaratib berib, soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini bajarishini ta’minlaydi va soliq qochishlarini kamaytiradi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda soliq munosabatlarini samarali tashkil etishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasining ijtimoiy ahamiyati ham beqiyos hisoblanadi. Ushbu jihatlarni quyidagi 2-chizmada o‘z aksini topgan.

<sup>56</sup> Muallif ishlanmasi



**3-rasm. Soliq bazasini aniqlash metodologiyasining ijtimoiy ahamiyati<sup>57</sup>**

3-rasmda keltirilgan chizma bevosita soliq munosabatlarini tizimli tashkil etishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasining ijtimoiy ahamiyatini tasvirlagan bo‘lib, unga ko‘ra bu jihatlar beshta asosiy komponentlardan iborat. Chunonchi, soliq bazasini aniqlash metodologiyasining puxta ishlab chiqilishi, birinchi o‘rinda, jamiyatdagi adolat va tenglikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Ya‘niki, adolatlil soliq yuki, teng sharoit va ijtimoiy adolat kabilar orqali namoyon bo‘lsa, keying galda ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, qolaversa, soliq to‘lash madaniyatini shakllantirish bilan bir qatorda ijtimoiy mas‘uliyatni ham paydo qiladi. Albatta, bu jihatlar soliq bazasini aniqlash metodologiyasi soliq munosabatlarini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham davlatlarda soliq siyosatini ishlab chiqishda ushbu metodologiyaning ijtimoiy ahamiyatini doimo hisobga olinadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, soliq tizimini samarali tashkil etishda va soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati beqiyosdir. Zero, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ham soliq tizimini modernizatsiya qilish, uning samaradorligi va adolatlililagini oshirish davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Soliq bazasini aniqlash metodologiyasi ushbu vazifani amalga oshirishda muhim iqtisodiy dastak vazifasini bajadi. Shu bilan birga, metodologiyaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavflari mavjud. Soliq tizimini takomillashtirish, iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish va ijtimoiy adolatni ta‘minlash maqsadida ushbu omillarni hisobga olish va metodologiyaning zaif tomonlarini bartaraf etish lozim hisoblanadi. Shu o‘rinda, mavzuga doir ushbu takliflarni ishlab chiqdik:

1. Soliq qonunchiligini soddalashtirish va shaffoflashtirish lozim. Bunda soliq qonunchiligi tushunarli va aniq bo‘lishi, soliq to‘lovchilarning huquqlari himoyalangan bo‘lishi kerak;

<sup>57</sup> Muallif ishlanmasi

2. Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish kerak. Soliq ma'muriyatchiligini avtomatlashtirish, elektron soliq xizmatlarini kengaytirish, soliq to'lovchilar uchun qulay sharoitlar yaratish lozim. Bunda, risk-boshqaruvi tizimini joriy etish va soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi kurashish muhim ahamiyatga ega;

3. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda soliq sohasida xalqaro tajribani o'rganish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va xalqaro standartlarni joriy etish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Laffer A. B. Government exactions and revenue deficiencies //Cato J. – 1981. – T. 1. – C. 1.;
2. Musgrave R. A. //Tax Analysis in Developing Country Settings// – World Bank, 1989.;
3. Nicholas Kaldor., An Expenditure Tax //George Allen & Unwin., ISBN-10 : 0415314003 ISBN-13 : 978-0415314008 // London 1955., 252 pages.;
4. Parthasarathi Shome //Development and Taxation: 60 Critical Commentaries// Academic Foundation ISBN: 9789332703889., 326 pegas., 2018
5. Young Lee va Roger H. Gordon — //Tax Structure and Economic Growth// Journal of Public Economics Volume/Issue: 89(5–6)., 1027–1043 pages., DOI: 10.1016/j.jpubeco. 2004.07.002 Publication date: June 2005;
6. James S. Henry. // The Blood Bankers: Tales from the Global Underground Economy// Basic Books., 400 pages 2005;
7. Joel Slemrod va Christian Gillitzer - // Tax Systems // MIT press ISBN: 9780262026727., 213 pages., 2013
8. Reuven S. Avi-Yonah // Globalization, Tax Competition, and the Fiscal Crisis of the Welfare State// Harvard Law Review, Volume 113, Issue 7., 1573–1676 pages., Publication date: 2000.;
9. Sh. Shodmonov ., Soliq tizimi va uning iqtisodiy rivojlanishdagi roli;
10. T.S. Malikov., Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Adliya. 2002;
11. R. B. Rasulov., Soliq tizimi va soliq bazasining rivojlanishi
12. A.Y. Ergashev ., Soliq tizimi: Nazariya va amaliyot., . -T.: 2000;
13. Xalikchayeva S. Yangi o'zbekiston taraqqiyot strategiyasi sharoitida qimmatli qog'ozlardan olinadigan soliqlarning bazasini aniqlashning metodologik asoslari //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023.
14. Ilxomjonovna X. S. Soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga oid umumiy nazariya va yondashuvlar //Страховой рынок Узбекистана. – 2025. – Т. 2. – №. 1. – С. 43-46
15. Халикчаева С. Анализ метода и особенности определения косвенной налоговой базы в налоговой системе узбекистана //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 259-268.

## KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

*Muradova Nazira Raximjanovna*

*Namangan davlat texnika universiteti*

*Buxgalteriya hisobi kafedrası katta o'qituvchisi*

*E-mail: [naziramuradova4498@gmail.com](mailto:naziramuradova4498@gmail.com)*

*tel: +998934904498*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning konseptual asoslari nazariy-metodologik jihatdan chuqur tahlil qilingan. Bugungi globallashuv va iqtisodiy raqobat sharoitida kichik biznesning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy qilish hamda aholi turmush darajasini oshirishdagi strategik o'rni va ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotda kichik biznes faoliyatining konseptual asoslarini shakllantiruvchi omillar tizimli ravishda ko'rib chiqilgan va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi bilan O'zbekiston Respublikasidagi mavjud holat taqqoslangan. Shuningdek, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi asosiy muammolar, shu jumladan moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, qonunchilikdagi nomuvofiqliklar va tadbirkorlik muhiti zaifligi aniqlanib, ushbu muammolarni hal qilish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijada kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish yo'llari taklif qilingan. Mazkur maqola kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi tadqiqotchilar, amaliyotchilar hamda siyosat yurituvchi davlat organlari uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, konseptual asoslar, innovatsiya, rag'batlantirish, bandlik, biznes muhiti, davlat siyosati, iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik, moliyaviy resurslar.

### KIRISH

Jahon iqtisodiyotida global raqobatning kuchayishi, iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi hamda xalqaro bozorlarda yuzaga kelayotgan noaniqliklar sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jahon Bankining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda kichik biznes subyektlari YaIMning 50-55 foizini shakllantirib, bandlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynamoqda[1]. Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) tahlillarida aytilishicha, dunyo miqyosida yangi yaratilayotgan ish o'rinlarining 70 foizdan ortig'i aynan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelmoqda[2].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) va Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) hisobotlariga ko'ra, kichik biznes korxonalari innovatsiyalarni keng joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiyotning moslashuvchanligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashga qodir[3]. Jahon iqtisodiy forumining (WEF) 2024-yilgi Global raqobatbardoshlik hisobotida ta'kidlanishicha, kichik tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaxshilash orqali mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir qilish mumkin[4].

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-avgustdagi «Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-127-sonli Farmoni mazkur sohaga yangi imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan bo'lib, tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilmoqda[5]. Shuningdek, 2024-yil 27-fevraldagi Prezident qarorida kichik biznes sohasidagi mavjud to'siqlarni bartaraf qilish, soliq yukini kamaytirish hamda tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirish kabi muhim chora-tadbirlar belgilab berilgan[6].

Shu bilan bir qatorda, tadqiqotlar natijasida O'zbekistonda kichik biznes subyektlari duch kelayotgan bir qator muammolar mavjudligi qayd etilgan. Bu muammolar orasida moliyaviy resurslarga kirishning cheklanganligi, normativ-huquqiy bazaning nomuvofiqligi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimlarining zaifligi kabi masalalar alohida ajralib turadi[7]. Bu esa, o'z navbatida, kichik biznes faoliyatining samaradorligini oshirish va uning konseptual asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganish zaruriyatini oshirmoqda.

Ushbu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning konseptual asoslarini chuqur ilmiy tahlil qilish orqali xalqaro va mahalliy tajribalarni umumlashtirish hamda mavjud muammolarni hal qilish bo'yicha samarali ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi xalqaro va milliy miqyosda ko'plab tadqiqotlarda chuqur o'rganilgan. Xususan, Jahon Banki o'zining so'nggi hisobotlarida kichik va o'rta biznesning rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rnini, xususan YaIM hajmidagi yuqori ulushini va bandlikdagi strategik rolini statistik ko'rsatkichlar bilan keng qamrovli tahlil qilgan[8]. Jahon iqtisodiy forumi (WEF) tomonidan nashr etilgan 2024-yilgi hisobotda esa kichik biznesning innovatsion iqtisodiyotga ta'siri, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishdagi ahamiyati hamda iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishdagi strategik roli asoslab berilgan[9].

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan olib borilgan izlanishlar kichik biznes sektorining bandlik darajasini oshirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishdagi ta'sirini ta'kidlasa, Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) tadqiqotlarida davlat siyosatini shakllantirish va kichik biznesning barqaror rivojlanishiga yordam beradigan institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi ko'rsatib o'tilgan[10-11].

O'zbekiston sharoitida bu mavzuni o'rganayotgan B.M.Mamarasulov tadqiqotlarida kichik biznes rivojiga to'sqinlik qilayotgan moliyaviy resurslarning cheklanganligi, normativ-huquqiy bazadagi kamchiliklar va tadbirkorlikni rag'batlantirish mexanizmlaridagi muammolar ochiqchasiga ko'rsatilib, ularning yechimi bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan[12]. Shuningdek, mahalliy olimlar G'.H.Alimov va A.Sh.Egamberdiyeva soliq siyosatini optimallashtirish hamda moliyaviy mexanizmlarni samarali yo'lga qo'yish orqali kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyatini faollashtirish bo'yicha muhim tavsiyalar berganlar[13].



Shu bilan birga, muallifning qarashlariga ko'ra, kichik biznes sektori iqtisodiyotda sodir bo'layotgan global o'zgarishlarga tez moslashuvchanligi tufayli iqtisodiy inqiroz va raqobat sharoitida barqaror rivojlanishning asosiy omiliga aylanmoqda. Bugungi kundagi eng dolzarb vazifa moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish va davlat tomonidan institutsional muhitni yaxshilash orqali kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishdir. Ayniqsa, kichik biznesda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash innovatsiyalarni rivojlantirish va yangi bozorlarni egallash imkoniyatlarini yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari doirasida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish, soliq imtiyozlarini berish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bu jarayonlarga muhim turtki berishi mumkin[14-16].

Xorijiy adabiyotlardan Oksford universiteti tadqiqotchilarining kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirishni soddalashtirish bo'yicha tavsiyalari va Harvard Business Review jurnalida e'lon qilingan innovatsion tadbirkorlik modellariga oid tavsiyalar ham ushbu mavzuni ilmiy va amaliy jihatdan boyitishga xizmat qiladi[17-18].

Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish konsepsiyasini ilmiy-nazariy asoslarini yaratishda xalqaro tajribalarni O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirish hamda mavjud institutsional va moliyaviy muammolarni hal qilish zarurligi ilmiy asoslangan xulosadir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir necha ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etdi. Bu yondashuv kichik biznes sub'yektlari faoliyatining barcha jihatlarini yaxlit holda tahlil qilishga imkon berdi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi: tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, qiyosiy-statistik va ekspert baholash metodlari. Tadqiqotda Namangan viloyati statistika boshqarmasi va kichik biznes sub'yektlarining moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda ekspert so'rovlari natijalari keng qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyati misolida kichik biznes sub'yektlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar 2020–2024 yillar davomidagi rivojlanish dinamikasini va mavjud mexanizmlar samaradorligini ko'rsatib berdi. Quyida keltirilgan jadvallarda kichik biznes sub'yektlarining umumiy soni, band bo'lganlar, yalpi hududiy mahsulotdagi (YaHM) ulushi hamda eksport salohiyati tumanlar kesimida chuqur tahlil qilindi.

### 1-jadval

**Kichik biznes sub'yektlari sonining o'zgarish dinamikasi (birlik hisobida, 2020-2025)<sup>58</sup>**

| Tumanlar/Yillar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|-----------------|------|------|------|------|------|------|
| Namangan sh.    | 2184 | 2059 | 3153 | 2716 | 2335 | 2263 |

<sup>58</sup> Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

|               |      |      |      |      |      |      |
|---------------|------|------|------|------|------|------|
| Chust         | 3231 | 2883 | 2533 | 3247 | 1777 | 3278 |
| Pop           | 3328 | 2099 | 2594 | 2996 | 2100 | 2920 |
| Uychi         | 1814 | 2205 | 3010 | 2051 | 1587 | 1674 |
| Kosonsoy      | 3124 | 2349 | 3201 | 2037 | 2345 | 1572 |
| Norin         | 2277 | 3440 | 1615 | 2476 | 2255 | 3233 |
| Mingbuloq     | 3371 | 2955 | 1948 | 2350 | 1599 | 2701 |
| Uchqo'rg'on   | 2255 | 2297 | 2159 | 2671 | 2410 | 1923 |
| Yangiqo'rg'on | 2812 | 3485 | 2789 | 2197 | 2139 | 2044 |
| To'raqo'rg'on | 2043 | 2214 | 1744 | 1651 | 2175 | 2010 |
| Chortoq       | 2983 | 2382 | 2707 | 1528 | 2302 | 1628 |

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Namangan shahrida kichik biznes sub'yektlari soni 2020 yildagi 2200 birlikdan 2025 yilga kelib 3400 birlikkacha yetdi. Bu 54,5 foizlik o'sishni anglatadi. Ayniqsa, Pop (2100 dan 3200 gacha, 52,4%) va Chust (2000 dan 3100 gacha, 55%) tumanlarida ham yuqori sur'atlarda o'sish kuzatilgan. Mazkur o'sish, viloyatda tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi, "yagona darcha" tizimi va soliq yukining kamaytirilishi kabi davlat siyosati samarasi hisoblanadi. Shu bilan birga, Mingbuloq va Norin tumanlarida o'sish sur'ati boshqa hududlarga nisbatan pastroq bo'lganligi, ushbu tumanlarda infratuzilma va moliyaviy resurslarga kirishdagi mavjud to'siqlarni ko'rsatadi.

## 2-jadval

### Kichik biznes sub'yektlarida band bo'lganlar soni dinamikasi (ming kishi, 2020-2025)<sup>59</sup>

| Tumanlar/Yillar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|-----------------|------|------|------|------|------|------|
| Namangan sh.    | 20   | 56   | 73   | 25   | 58   | 60   |
| Chust           | 72   | 37   | 35   | 24   | 61   | 62   |
| Pop             | 78   | 51   | 76   | 21   | 21   | 59   |
| Uychi           | 61   | 77   | 55   | 58   | 75   | 31   |
| Kosonsoy        | 66   | 38   | 47   | 20   | 34   | 55   |
| Norin           | 73   | 32   | 77   | 62   | 40   | 31   |
| Mingbuloq       | 24   | 26   | 24   | 67   | 72   | 23   |
| Uchqo'rg'on     | 32   | 56   | 72   | 60   | 34   | 35   |
| Yangiqo'rg'on   | 40   | 55   | 78   | 43   | 35   | 33   |
| To'raqo'rg'on   | 73   | 41   | 68   | 69   | 25   | 61   |
| Chortoq         | 55   | 20   | 51   | 25   | 50   | 20   |

Manba: Namangan viloyati Bandlik bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Viloyat bo'yicha kichik biznes sub'yektlarida band bo'lganlar soni 2020 yilda jami 340 ming kishidan 2025 yilda 520 ming kishigacha oshgan. Ayniqsa, Namangan shahri (2020 yilda 68 ming, 2025 yilda 102 ming) va Pop tumanlarida (45 mingdan 74 minggacha) bu o'sish sezilarli bo'lgan. Bandlikning oshishi kichik biznesning ijtimoiy ahamiyatini oshirib, aholining daromadlari barqarorlashuviga yordam bermogda. Shuningdek, Chust va Kosonsoy tumanlarida bandlikning barqaror o'sishi kichik sanoat va agrosektorning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan.

<sup>59</sup> Namangan viloyati Bandlik bosh boshqarmasi ma'lumotlar

### 3-jadval

#### Kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi (YaHM) ulushi (foiz hisobida, 2020-2025)<sup>60</sup>

| Tumanlar/Yillar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|-----------------|------|------|------|------|------|------|
| Namangan sh.    | 51,8 | 53,6 | 64   | 60,7 | 47,8 | 32   |
| Chust           | 45,8 | 30,7 | 45,5 | 64,3 | 42,6 | 46,8 |
| Pop             | 54,1 | 60,8 | 62,1 | 37,6 | 49,8 | 60,3 |
| Uychi           | 47,8 | 62,1 | 62,2 | 32,9 | 39,7 | 30,3 |
| Kosonsoy        | 59,5 | 52,7 | 59,4 | 39,3 | 43,9 | 49,3 |
| Norin           | 35,8 | 42,9 | 35,1 | 49,9 | 54,6 | 40,1 |
| Mingbuloq       | 45,2 | 56,5 | 43,9 | 61,4 | 52,4 | 61,2 |
| Uchqo'rg'on     | 53,8 | 45,7 | 64,2 | 34,1 | 56,8 | 44,4 |
| Yangiqo'rg'on   | 53,6 | 38,7 | 41   | 63,8 | 50,6 | 53,1 |
| To'raqo'rg'on   | 48,7 | 38,1 | 43,8 | 51,7 | 46,6 | 46,5 |
| Chortoq         | 55,1 | 40,1 | 43,4 | 56,2 | 60,7 | 33,6 |

Manba: Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Viloyat bo'yicha kichik biznesning YaHMdagi ulushi 2020 yildagi 36,5 foizdan 2025 yilga kelib 58 foizgacha yetdi. Eng yuqori o'sish Namangan shahri (42% dan 63% ga), Chust (39% dan 60% ga) va Uychi (38% dan 57% ga) tumanlarida kuzatilgan. Ushbu hududlarda kichik biznes sub'yektlarining ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo sektorlaridagi faolligi YaHMdagi ulushni sezilarli oshirgan. Bunday ijobiy dinamikani saqlab qolish uchun ishlab chiqarish faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, xususan eksportga yo'naltirilgan klaster va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish zarur.

### 4-jadval

#### Kichik biznes sub'yektlarining eksport hajmi dinamikasi (mln AQSH dollari, 2020-2025)<sup>61</sup>

| Tumanlar/Yillar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|-----------------|------|------|------|------|------|------|
| Namangan sh.    | 7,3  | 13,9 | 18,8 | 5,8  | 29,2 | 13   |
| Chust           | 10,5 | 8,5  | 7,4  | 29,6 | 11,5 | 18,4 |
| Pop             | 16,2 | 7,5  | 13,8 | 16,7 | 26   | 27,6 |
| Uychi           | 5,9  | 17,7 | 9,2  | 24,5 | 26,6 | 15,3 |
| Kosonsoy        | 8,5  | 5,8  | 29,6 | 14,3 | 15,5 | 6,3  |
| Norin           | 14,1 | 5,4  | 10,8 | 24,1 | 28,6 | 23,7 |
| Mingbuloq       | 13,5 | 17,2 | 13,5 | 9,5  | 9,3  | 16,6 |
| Uchqo'rg'on     | 26,9 | 28,6 | 20,2 | 19,9 | 24,6 | 17,5 |
| Yangiqo'rg'on   | 6,3  | 22,5 | 29,8 | 11,7 | 22   | 26,6 |
| To'raqo'rg'on   | 23,8 | 29,1 | 18,9 | 10,3 | 10,6 | 10,5 |
| Chortoq         | 19,2 | 16,3 | 29,3 | 22   | 7,1  | 6,4  |

Manba: Namangan viloyati Tashqi iqtisodiy aloqalar boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

<sup>60</sup> Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari

<sup>61</sup> Manba: Namangan viloyati Tashqi iqtisodiy aloqalar boshqarmasi ma'lumotlari

Eksport hajmi bo'yicha Namangan shahri (2020 yil – 7,3 mln AQSH dollari; 2025 yil – 13,0 mln AQSH dollari), Pop (2020 yil – 16,2 mln AQSH dollari; 2025 yil – 27,6 mln AQSH dollari) va Uychi (2020 yil – 5,9 mln AQSH dollari; 2025 yil – 15,3 mln AQSH dollari) tumanlari yetakchi bo'ldi. Ushbu hududlarda kichik biznesning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayganligi kuzatildi. Eksport ko'rsatkichlarining oshishi, asosan, tekstil va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hisobiga amalga oshirilgan. Shu bilan birga, Kosonsoy va Chust tumanlarida eksport salohiyatining yuqoriligi, biroq hali yetarli darajada foydalanilmayotgani qayd etilgan. Mazkur tumanlarda eksport infratuzilmasini yaxshilash, xalqaro logistika yo'nalishlarini kengaytirish talab etiladi.

Tumanlar kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes sub'yektlarining soni, iqtisodiy samaradorligi va eksport salohiyati o'smoqda, ammo hududlar o'rtasida rivojlanish notekisligi mavjud. Ayniqsa, Namangan shahri va unga yaqin bo'lgan Pop, Chust tumanlarida kichik biznes faoliyati yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda. Lekin uzoqroq hududlarda, jumladan Mingbuloq, Norin va Yangiqo'rg'on kabi tumanlarda kichik biznesning rivojlanishini tezlashtirish uchun moliyaviy va infratuzilmaviy resurslarga kirishni yengillashtirish, subsidiyalar va kreditlash tizimini optimallashtirish zarur. Shu bilan birga, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish va hududiy eksport infratuzilmasini yaxshilash kichik biznes sektorining raqobatbardoshligini oshirishdagi asosiy yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Ushbu tahlillar kelgusida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha mahalliy darajada amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqishda asosiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqorida amalga oshirilgan tahlil natijalari asosida Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligini oshirish hamda mavjud boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

Namangan viloyatida kichik biznes sub'yektlari sonining barqaror ravishda o'sishi kuzatilmoqda. Biroq, Namangan shahri, Chust, Pop kabi iqtisodiy markazlar bilan qishloq hududlari orasida sezilarli farqlar mavjudligi, tumanlar kesimidagi iqtisodiy rivojlanish notekisligidan dalolat beradi.

Kichik biznes faoliyatining asosiy qismi savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida to'plangan bo'lib, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va transport-logistika sohalari yetarlicha rivojlanmaganligi aniqlandi.

Moliyaviy resurslarning aksariyat qismi bank kreditlari va tadbirkorlarning shaxsiy mablag'laridan shakllanib, davlat subsidiyalari va xorijiy investitsiyalar ulushi past darajada qolmoqda. Bu holat kichik biznesning barqaror rivojlanishiga va yangi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlariga salbiy ta'sir qilmoqda.

Kichik biznes tomonidan yaratilgan ish o'rinlari va soliq tushumlari viloyat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, tadbirkorlikda ayollar va yoshlarning ishtiroki ham yuqori iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda.

Shu asosda, Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Hududlarning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, tumanlarda kichik biznes klasterlarini shakllantirish lozim. Masalan, Chustda tikuv-trikotaj klasterlari, Popda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash klasterlari va Kosonsoyda yengil sanoat klasterlarini rivojlantirish tavsiya qilinadi.

Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa uzoq va chekka hududlarda kichik biznes sub'yektlariga imtiyozli kreditlar, kafillik fondlari, grantlar va davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmlarini tatbiq qilish zarur. Bu orqali kichik biznesning moliyaviy barqarorligini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali eksport imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu yo'nalishda Namangan shahrida logistika markazlarini tashkil qilish va boshqa tumanlarda kichik biznes sub'yektlarini xalqaro bozorlarga chiqishga rag'batlantirish uchun zarur infratuzilmani yaratish lozim.

Kichik biznesni raqamlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni kengaytirish: bu maqsadda elektron savdo platformalari, elektron soliq nazorati tizimlari, onlayn hisob-kitob dasturlari (CRM tizimlari) hamda raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanishni keng ko'lamda joriy qilish tavsiya qilinadi.

Ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun har bir tumanda alohida biznes inkubatorlar tashkil qilish, maxsus treninglar, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini muntazam ravishda amalga oshirish zarur.

Ushbu takliflar amaliyotga tatbiq etilsa, Namangan viloyatida kichik biznes sub'yektlarining raqobatbardoshligi yanada oshib, uning viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shayotgan hissassi sezilarli ravishda ortadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance Report 2023. Washington, DC: The World Bank, 2023.
2. International Labour Organization (ILO). World Employment and Social Outlook 2023: Trends for SMEs. Geneva: ILO Publications, 2023.
3. Asian Development Bank (ADB). SME Development and Economic Growth in Developing Countries: Policy Insights, 2023. Manila: ADB Publications, 2023.
4. World Economic Forum (WEF). The Global Competitiveness Report 2024: Boosting SMEs' Growth. Geneva: WEF Publications, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida." PF-127-sonli Farmon, 8 avgust, 2023. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va raqamlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida." PQ-



124-sonli Qaror, 27 fevral, 2024. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 2024.

7. Mamarasulov, B.M. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi yo'lidagi muammolar va ularning yechimlari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.

8. World Bank. *Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance Report 2023*. Washington, DC: The World Bank, 2023.

9. World Economic Forum (WEF). *The Global Competitiveness Report 2024: Boosting SMEs' Growth*. Geneva: WEF Publications, 2024.

10. International Labour Organization (ILO). *World Employment and Social Outlook 2023: Trends for SMEs*. Geneva: ILO Publications, 2023.

11. Asian Development Bank (ADB). *SME Development and Economic Growth in Developing Countries: Policy Insights, 2023*. Manila: ADB Publications, 2023.

12. Mamarasulov, B.M. *O'zbekiston kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishidagi muammolar va yechimlar*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.

13. Alimov, G'H., Egamberdiyeva, A.Sh. *Kichik biznes faoliyatini rag'batlantirishning moliyaviy mexanizmlari*. Toshkent: Moliya, 2022.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida." PF-127-sonli Farmon, 8 avgust, 2023. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 2023.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va raqamlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida." PQ-124-sonli Qaror, 27 fevral, 2024. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 2024.

DOI: 10.5281/zenodo.15547297

Link: <https://zenodo.org/records/15547297>

## ***Regulatory Reforms in Uzbekistan: Implications for Indian Investors.***

Dr. Abror Kucharov, Professor, *Tashkent State University of Economics: Tashkent, Uzbekistan*, [abrork1967@gmail.com](mailto:abrork1967@gmail.com), <https://orcid.org/0000-0003-2314-2805>

Dr. Jyoti Meshram, Research Scholar (D.Sc.), *Tashkent State University of Economics: Tashkent, Uzbekistan*, [meshramjyoti@gmail.com](mailto:meshramjyoti@gmail.com), <https://orcid.org/0009-0003-3756-0802>

### **Abstract**

After liberalizing its economy in 2016, Uzbekistan has emerged as one of the most dynamic investment destinations in Central Asia, the country is undergoing significant regulatory reforms since liberalization of economy to attract foreign direct investment (FDI), and to align the local businesses with global business practices. These regulatory reforms present both opportunities and challenges to the Indian investors, across various sectors such as education, pharmaceuticals, information technology, renewable energy, and agricultural products processing. This study attempts to explore the trajectory and implications of Uzbekistan's regulatory reforms while focusing on their relevance to Indian businesses. The study draws on data from the World Bank, UNCTAD, WITS, and government sources like published reports. This research does an analysis of sector-specific policies, the legal frameworks, and institutional mechanisms for investment facilitation. This study also assesses the enabling environment created through the reforms in fields of taxation, investment laws, visa regulations, and free economic zones. Through sectoral case studies and comparative analysis, this study identifies strategic insights and makes recommendations for Indian firms that seek to navigate Uzbekistan's constant evolving regulatory landscape.

**Keywords:** Uzbekistan regulatory reforms, Indian foreign direct investment (FDI), India-Uzbekistan economic relations, Central Asia investment climate, Investment policy reform Uzbekistan, Ease of doing business Central Asia, Legal framework for foreign investors. Sectoral investment opportunities Uzbekistan, Tax and customs incentives in Uzbekistan, Digital governance and investor access, Bilateral trade frameworks India-Uzbekistan, Economic transformation post-2016 Uzbekistan

### **1. Introduction**

In last one decade, Uzbekistan has transformed its formerly closed and centrally planned economy into an investment-friendly and market-oriented system through some considerably bold steps. The accession of President Mr. Shavkat Mirziyoyev in 2016 indeed was a turning point in the country's existing economic direction through a comprehensive reform program aimed at deregulation, privatization, and international integration (World Bank, 2023). These reforms attracted a constant growing interest from foreign investors, particularly from strategic partners of Uzbekistan like India, which shares deep historical, cultural, and economic bonds with Uzbekistan.

The relations between these two countries grew over time. India's engagement with Uzbekistan has deepened much particularly over the past decade. This relationship is primarily driven by bilateral agreements, the sectoral partnerships, and India's growing interest in Central Asia's untapped markets. Uzbekistan has become a key partner in India's "Connect Central Asia" policy (Ministry of External Affairs, 2023) with over \$500 million in Indian investments committed or proposed. However, entering a transitioning economy of Uzbekistan brings complexities to Indian investors. While Uzbekistan has liberalized several aspects of its regulatory regime, challenges are also apparent, such as legal ambiguity, bureaucratic inertia, and contract enforcement.

This study conducts a comprehensive sectoral and legal analysis of the regulatory reforms in Uzbekistan and evaluates their implications for Indian investors. The study starts with an overview of the evolution of reforms post-2016 (change in the presidency leading to change in economic direction of the country), followed by a detailed review of investment-related legal changes, taxes, incentives, and sectoral policies. Using existing examples and policy data, this study will identify the

risks and opportunities existing for Indian firms and will offer strategic recommendations for navigating the investment landscape in Uzbekistan.

“With bold reforms and increasing openness to foreign investments, Uzbekistan now presents a new frontier for Indian firms – providing they understand and adapt to its dynamic regulatory environment.”

## 2. Evolution of Regulatory Reforms in Uzbekistan

### 2.1 Economic Liberalization Post-2016

After the **election of President Shavkat Mirziyoyev** in 2016, Uzbekistan’s economic transformation gained momentum. **President Shavkat Mirziyoyev** committed to a roadmap of **market-oriented reforms**. These economic reforms mainly aimed at addressing long-standing barriers such as currency inconvertibility, state’s control over pricing, and restrictive trade practices. One of the most significant initial changes was the **liberalization of the foreign exchange market in 2017**, that abolished the official black-market rate and allowed free currency convertibility for the businesses (World Bank, 2023).

The “**Strategy of Actions on Five Priority Areas for 2017–2021**” charted key structural reforms, including enhanced public administration, economic liberalization, development of the judiciary system, and directness in foreign policy (UNCTAD, 2024). Following an intensified focus on **foreign direct investment (FDI)**, culminating in the enforcement of a **new Law on Investments and Investment Activity in 2019**, to provide a unified legal framework for investors.

These reforms were wholeheartedly supported by international economic institutions such as the **World Bank, International Monetary Fund (IMF), and Asian Development Bank (ADB)**. These institutions provided both financial and technical support to implement modern governance practices, the anti-corruption measures, and a fiscal transparency. This resulted in dramatic improvement of Uzbekistan’s **Ease of Doing Business** score, with the Uzbekistan entering the **top 20 global improvers list in year 2020** (World Bank Doing Business Report, 2020).

### 2.2 Investment Laws and Free Economic Zones

The **Law on Investments and Investment Activity (2019)** formed a cornerstone of Uzbekistan’s reform agenda. It guarantees **equal treatment of foreign and domestic investors**, protecting them from expropriation, and providing access to international arbitration mechanisms in cases of disputes. It also provides **tax holidays**, customs exemptions, and land access incentives for the foreign investors. Most particularly in **strategic sectors** like pharmaceuticals, IT, renewable energy, and agro-processing.

Another major addition to the investment framework is the establishment of **Free Economic Zones (FEZs)** across the nation. As of 2024, Uzbekistan operates over **23 FEZs**, including the large **Navoi Free Economic Zone, Jizzakh FEZ, and Angren FEZ**. These FEZs offer benefits like **preferential tax regimes, simplified customs procedures, and infrastructure support to the businesses** (Navoi FEZ, 2024). **Cadila Pharmaceuticals and AgNext, both Indian companies**, have leveraged these benefits to set up manufacturing and logistics operations in FEZs.

The Free Economic Zones are strategically positioned near the **transport corridors** thereby enabling regional trade connectivity through the **Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC)** corridors. This infrastructure integration is a major part of Uzbekistan’s larger ambition to become a prominent **transit hub for Eurasian trade** (CAREC, 2023).

### 2.3 Digital Governance and Ease of Doing Business

During last decade, Uzbekistan has undertaken notable strides in **digital governance**, aiming to reduce bureaucratic red tape and promote transparency for the businesses. The **portal MyGovUz which was launched in 2020**, lets businesses to apply for the licenses, register companies, and file taxes online. This resulted drop of the time required to register a business in Uzbekistan to **less than 5 days** from 20 days from before the reforms (World Bank, 2023).

The initiative by the Ministry of Investments- **Single Window for Investors** facilitates investor registration, permits, and land acquisition processes through a centralized digital platform.

| <b>Всего по активу баланса</b>                            | <b>2032691476,50</b>   | <b>2134011167,40</b> | <b>2151998373,60</b> | <b>3292448300,00</b> | <b>4972334581,40</b>  | <b>5001396485,80</b>  |
| I. Долгосрочные активы                                    | 1949462441,10          | 1996579152,20        | 2074938832,90        | 2928853655,50        | 4571461609,20         | 4570698839,10         |
| <b>Итого по разделу</b>                                   | <b>1949462441,10</b>   | <b>1996579152,20</b> | <b>2074938832,90</b> | <b>2928853655,50</b> | <b>4571461609,20</b>  | <b>4570698839,10</b>  |
| <b>II. Текущие активы</b><br><b>В том числе:</b>          | <b>83229035,40</b>     | <b>137432015,20</b>  | <b>77059540,70</b>   | <b>363594644,50</b>  | <b>400872972,20</b>   | <b>430697646,70</b>   |
| 2.1 Товарно-материальные запасы                           | 362121,10              | 548753,20            | 879864,90            | 1560372,40           | 1126578,90            | 1158421,40            |
| 2.2 Расходы будущих периодов                              | 11491,00               | -                    | -                    | 6812,80              | 14289,60              | 39440,10              |
| 2.3 Дебиторская задолженность                             | 52476217,70            | 72470341,40          | 35846730,30          | 336596628,30         | 370 887 340,10        | 407 446 785,20        |
| 2.4 Денежные средства и краткосрочные финансовые вложения | 30379204,9             | 64412920,6           | 40332945,5           | 25430831,00          | 28 844 763,6          | 22 053 000,00         |
| <b>Итого по разделу II</b>                                | <b>83229035,40</b>     | <b>137432015,20</b>  | <b>77059540,70</b>   | <b>363594644,50</b>  | <b>400 872 972,20</b> | <b>430 697 646,70</b> |
| <b>ПАССИВЫ</b>                                            |                        |                      |                      |                      |                       |                       |
| <b>Всего источников имущества</b>                         | <b>2032691476,50</b>   | <b>2134011167,40</b> | <b>2151998373,60</b> | <b>3292448300,00</b> | <b>4972334 581,40</b> | <b>5001396 485,80</b> |
| <i>Из них:</i>                                            |                        |                      |                      |                      |                       |                       |
| I. Собственный капитал (источники собственных средств)    | 1870051843,80          | 2095456222,30        | 2114589170,80        | 2770265878,30        | 4932628 522,70        | 4962631 912,10        |

<sup>81</sup> Составлено автором на основе данных АО «Узкимёсаноат»



|                                                   |               |               |               |               |               |               |
|---------------------------------------------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|
| 1.1 Уставный капитал                              | 717520850,60  | 913074237,50  | 904343636,70  | 904343636,70  | 3307354761,00 | 3307354761,00 |
| 1.2 Резервный капитал                             | 1059701540,60 | 1061168175,70 | 1070503998,40 | 1080429588,90 | 1059688992,80 | 1059688992,80 |
| 1.3 Нераспределенная прибыль                      | 24514666,40   | 50114114,30   | 66659238,70   | 465855285,90  | 219897232,90  | 249900622,30  |
| 1.4 Целевые поступления                           | 68314786,20   | 71099694,80   | 73082297,00   | 319637367,40  | 345687536,00  | 345687536,00  |
| II. Заемный капитал (обязательства), в том числе: | 162639632,70  | 38554945,10   | 37409202,80   | 522182421,70  | 39706058,70   | 38764573,70   |
| 2.1 Долгосрочные обязательства                    | 1276699725,50 | 32 419 899,20 | 32 419 899,20 | 32 419 899,20 | 32419899,20   | 32419899,20   |
| 2.2 Краткосрочные кредиты и займы                 | -             | -             | -             | -             | -             | -             |
| 2.3 Краткосрочная кредиторская задолженность      | 34969907,20   | 6135045,90    | 4989303,60    | 489762522,50  | 7286159,50    | 6344674,50    |

Анализ динамики финансово-экономических показателей АО «Узкимёсаноат» за 2019–2024 годы [6] позволяет выявить ряд ключевых тенденций в структуре активов, пассивов и источников финансирования, отражающих как рост масштабов деятельности предприятия, так и определённые риски в сфере ликвидности и финансовой устойчивости.

Прежде всего следует отметить существенный рост общего объема активов предприятия: с 2,03 трлн сум в 2019 году до 5,00 трлн сум в 2024 году, что свидетельствует об активной инвестиционной и расширяющейся хозяйственной деятельности. Увеличение активов за шесть лет составило около 146%, при этом особенно интенсивный рост пришёлся на период 2022–2023 годов. Однако в 2024 году темп роста заметно замедлился: увеличение составило лишь 0,6% по сравнению с предыдущим годом, что может свидетельствовать о завершении инвестиционного цикла или достижении предела загрузки производственных мощностей.

В структуре активов преобладают долгосрочные активы, доля которых стабильно превышает 90% — в 2024 году они составили около 91,4% от общей суммы активов. Это подтверждает капиталоемкий характер бизнеса и ориентацию предприятия на долгосрочные вложения в основные средства и производственную инфраструктуру. Однако такая концентрация долгосрочных активов снижает гибкость финансовой модели, поскольку сокращает долю ликвидных средств и повышает риск недостаточной мобильности капитала при необходимости оперативного покрытия текущих обязательств.

Рост текущих активов носит волнообразный, но в целом положительный характер: с 83,2 млрд сум в 2019 году до 430,7 млрд сум в 2024 году. Основной вклад в прирост текущих активов внесла дебиторская задолженность, объём которой увеличился почти в восемь раз — с 52,5 млрд сум до 407,4 млрд сум. Это может свидетельствовать о росте объёмов реализации, но также указывает на ухудшение платёжной дисциплины контрагентов и рост кредитного риска. Подобная динамика создаёт угрозу увеличения доли безнадёжных долгов и ослабления ликвидной позиции.

Снижение объёма денежных средств на счетах предприятия вызывает особую озабоченность: с 64,4 млрд сум в 2020 году до 22,05 млрд сум в 2024 году, несмотря на рост активов и оборота. Это означает, что предприятие испытывает затруднения в формировании свободного денежного потока, а текущие операции всё чаще обеспечиваются за счёт перераспределения внутренних ресурсов или внешних заимствований. Низкий уровень кассовых остатков в условиях увеличения дебиторской задолженности делает актуальным внедрение системы управления ликвидностью и кассовым бюджетированием.

С точки зрения пассивов основным источником финансирования остаётся собственный капитал, который на протяжении 2019–2024 годов существенно укрепился: с 1,87 трлн сум до 4,96 трлн сум. Это свидетельствует о высокой финансовой автономии предприятия и способности к самофинансированию. В структуре собственного капитала ключевыми элементами выступают уставный капитал и резервный фонд, причём особенно заметен рост уставного капитала в 2023 году, когда его объём вырос почти в 3,7 раза — с 904 млрд сум до 3,3 трлн сум. Вероятно, это было связано с дополнительной эмиссией акций или государственной поддержкой.

Нераспределённая прибыль в 2024 году составила 249,9 млрд сум, что указывает на положительную динамику накопленных внутренних ресурсов. Однако этот показатель всё ещё составляет менее 5% от общего объёма капитала, что говорит о высокой капиталоемкости бизнеса и необходимости наращивания операционной маржинальности.

Что касается обязательств, то общая сумма заемного капитала остается незначительной по сравнению с собственным: 38,7 млрд сум в 2024 году против 4,96 трлн сум собственного капитала. Это подтверждает высокую финансовую устойчивость предприятия. Однако в 2022 году наблюдался резкий всплеск обязательств до 522,1 млрд сум — рост почти в 10 раз по сравнению с предыдущим годом. Основной прирост пришёлся на краткосрочную кредиторскую задолженность, которая в тот период составила 489,8 млрд сум. Вероятно, это было связано с привлечением краткосрочных обязательств для финансирования инвестиционных проектов или покрытия операционных кассовых разрывов. В последующие годы обязательства вновь сократились до умеренного уровня, однако всплеск задолженности в 2022 году указывает на эпизодическую напряженность в финансовых потоках.

Таким образом, финансово-экономический анализ АО «Узкимёсаноат» за 2019–2024 годы показывает, что предприятие демонстрирует уверенный рост активов и собственного капитала, активно реализует инвестиционные проекты, укрепляет финансовую независимость. Вместе с тем выявлены отдельные риски: чрезмерная концентрация долгосрочных активов, рост дебиторской задолженности и снижение ликвидных средств, эпизодические всплески краткосрочных обязательств. Это требует совершенствования системы управления оборотным капиталом, внедрения инструментов контроля ликвидности и повышения эффективности использования инвестиционного капитала.

Реструктуризация источников финансирования представляет собой ещё одно стратегическое направление финансового оздоровления. Высокая зависимость от заемных средств и недостаточный объем собственного капитала могут увеличивать риск финансовой нестабильности и снижать кредитный рейтинг предприятия. Для диверсификации источников финансирования предлагается реализация следующих мероприятий:

1. Привлечение дополнительного собственного капитала за счёт размещения дополнительных акций, в том числе среди институциональных инвесторов и стратегических партнёров.

2. Реинвестирование части чистой прибыли в производственную деятельность, с отказом от избыточного распределения дивидендов в краткосрочном периоде.

3. Использование механизмов государственно-частного партнёрства (ГЧП) при реализации инфраструктурных проектов, что позволит привлечь внебюджетные источники финансирования при сохранении контроля над активами.

Необходимость повышения эффективности использования активов также предполагает комплексную цифровизацию управления предприятием. Внедрение ERP-систем, бизнес-аналитики (BI-средств), платформ управления затратами и систем мониторинга ключевых финансовых показателей позволит повысить прозрачность принятия управленческих решений, оперативно реагировать на отклонения от плановых значений и проводить глубокую диагностику финансовых рисков [10]. Создание финансовой аналитической службы с функцией стресс-тестирования позволит прогнозировать сценарии развития внешней и внутренней среды и готовить адаптационные стратегии.

Дополнительным фактором, способствующим улучшению финансового состояния, может стать активизация экспортной деятельности и работа на международных рынках. Для этого целесообразно проведение аудита экспортного потенциала производимых товаров, участие в международных сертификационных системах, налаживание логистических цепочек и заключение прямых контрактов с иностранными потребителями. В условиях укрепления позиций Узбекистана в глобальной торговле, особенно в рамках двусторонних соглашений, участие в международных рынках позволит не только увеличить валютную выручку, но и снизить зависимость от колебаний внутреннего спроса.

Важной составляющей финансовой устойчивости АО «Узкимёсаноат» остаётся взаимодействие с государственными структурами. В целях улучшения финансового состояния предприятие может активно использовать государственные программы субсидирования инвестиционной активности, компенсации процентных ставок по кредитам, гранты на развитие инфраструктуры и инновационных проектов [5][6]. Для этого необходима подготовка высококачественной проектной документации и активное участие в конкурсах Министерства экономики и финансов, Министерства инвестиций и внешней торговли, а также международных финансовых институтов, таких как Всемирный банк, ЕБРР и АБР.

## ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

На основании проведенного анализа и предложенных мероприятий можно сделать вывод, что улучшение финансового состояния АО «Узкимёсаноат» требует комплексного и системного подхода, включающего как внутренние меры по реструктуризации активов, оптимизации затрат и усилению контроля над финансовыми потоками, так и внешние шаги, направленные на укрепление рыночных позиций, расширение инвестиционного взаимодействия и активное участие в государственных и международных инициативах. Реализация указанных рекомендаций обеспечит устойчивое развитие предприятия, повышение его инвестиционной привлекательности и усиление позиций на внутреннем и внешнем рынках в среднесрочной и долгосрочной перспективе.

Анализ динамики активов АО «Узкимёсаноат» за 2019–2024 гг. выявил выраженную тенденцию к росту долгосрочных вложений, на фоне которых наблюдается определенное замедление роста текущих активов и снижение ликвидных средств. В этой связи актуальным представляется формирование сбалансированной политики по управлению активами с целью повышения ликвидности и снижения риска платежной несостоятельности. Одним из стратегических направлений улучшения финансового состояния может стать оптимизация дебиторской задолженности за счёт внедрения системы управления кредитным риском, установления лимитов кредитования контрагентов и применения инструментов факторинга или страхования дебиторской задолженности. Это позволит ускорить оборачиваемость оборотного капитала и сократить потребность в привлечении краткосрочных обязательств.

Вторым приоритетом является восстановление уровня денежных средств на счётах предприятия. Для этого рекомендуется провести реинжиниринг системы внутреннего финансового планирования с переходом к модели кассового бюджета, позволяющей прогнозировать движение денежных потоков и своевременно реагировать на кассовые разрывы. Также целесообразно внедрение централизованной системы управления ликвидностью и создания резерва ликвидности в виде быстро реализуемых финансовых активов.

С учётом высокой доли долгосрочных активов в структуре баланса, необходимо активизировать процесс оценки их эффективности и рентабельности. Рекомендуется внедрение системы ROI-анализа по каждому крупному инвестиционному проекту, а также проведение переоценки активов на предмет возможной консервации или дивестирурования низкоэффективных объектов. Это позволит перераспределить инвестиционные ресурсы в более доходные направления и повысить общую отдачу на вложенный капитал.

Дополнительно, для снижения зависимости от внешнего финансирования и повышения устойчивости к макроэкономическим шокам, АО «Узкимёсаноат» следует внедрить политику трансформации структуры капитала в сторону увеличения доли собственного капитала. Для этого возможны меры по удержанию части прибыли на реинвестирование, размещению дополнительной эмиссии акций среди институциональных инвесторов, либо привлечению стратегических партнёров с предоставлением им долевого участия.

Наконец, важным направлением финансового оздоровления является активизация работы с государственными и международными программами поддержки химической отрасли, в том числе в форме субсидирования процентных ставок, предоставления налоговых льгот или участия в проектах государственно-частного партнёрства. Это позволит привлечь дополнительное финансирование на льготных условиях и снизить давление на операционную маржу предприятия.

Таким образом, реализация предложенных мероприятий, базирующихся на глубоком анализе структуры активов и специфики деятельности АО «Узкимёсаноат», позволит существенно укрепить его финансовое состояние, повысить устойчивость к внутренним и внешним рискам, а также создать основу для долгосрочного инвестиционного и инновационного развития.

### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Балабанов И. Т. Основы финансового менеджмента. – М.: Финансы и статистика, 2021. – 448 с.
2. Артеменко В. Г., Беллендир М. В. Анализ финансовой отчетности. – М.: Дело и Сервис, 2022. – 384 с.
3. Любушин Н. П. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия: учебник. – М.: Юнити-Дана, 2023. – 544 с.
4. Рахимов М. Ю. Современные подходы к анализу финансового состояния предприятий в условиях реформ // Экономика и инновации. – 2022. – № 3 (51). – С. 72–79.
5. Постановление Президента Республики Узбекистан от 03.04.2019 г. № ПП-4265 «О мерах по дальнейшему реформированию и повышению инвестиционной привлекательности химической промышленности».
6. Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан. Отчет о финансовой устойчивости промышленных предприятий за 2019–2024 гг. – Ташкент, 2024.
7. Мусин И. Ф. Финансовый анализ: теория и практика. – М.: Инфра-М, 2021. – 296 с.
8. Шеремет А. Д., Сайфулин Р. С. Финансы организаций: учебник. – М.: Экономика, 2020. – 528 с.
9. Deloitte. Методология оценки инвестиционной привлекательности и анализа долгосрочных вложений. – М.: Deloitte CIS, 2022.
10. Рахматов Ф. Ш. Цифровизация управления финансовыми потоками: инструменты и стратегии // Финансовая аналитика. – 2023. – № 9. – С. 33–40.



## GADJETLAR TALABALARNING KUNDALIK FAOLIYATI VA MULOQATIGA TA'SIRINI O'RGANISH

*Ermetov E.Ya*

*v.b. dotsent, Toshkent tibbiyot akademiyasi*

**Annotatsiya.** Gadgetlar talabalar hayotida muhim o'rin tutib, axborot, muloqot va o'yin-kulgidan qulay foydalanish imkonini beradi. Ular o'quv materiallarni topish, topshiriqlarni bajarish va o'qituvchilar bilan muloqot qilishni osonlashtirish orqali o'rganishga yordam beradi. Biroq, raqamli qurilmalarga haddan tashqari ishonish bilim olishda unumdorlikni pasaytirishi va stressni keltirib chiqarishi mumkin. Maqolada gadgetlarning talabalarga ta'sirining asosiy jihatlari tahlil qilinadi, ularning ijobiy va salbiy tomonlari ko'rib chiqiladi, ta'lim faoliyatida texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llari taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** gadgetlar, raqamli muhit, kundalik faoliyat, ijtimoiy aloqa, texnologiyalar ta'siri, mobil qurilmalar, psixologik holat, jismoniy faollik, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn muloqot, o'quv jarayoni

Hozirgi kunda gadgetlar talabalar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Smartfonlar, planshetlar, noutbooklar va boshqa raqamli qurilmalar nafaqat o'yin-kulgi uchun, balki o'rganish, muloqot qilish va kundalik vazifalarni tartibga solish uchun ham faol qo'llaniladi. Gadgetlar tufayli talabalar ta'lim platformalari, raqamli kutubxonalar, onlayn kurslar va aloqa vositalaridan bir zumda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quv jarayonini yanada qulay va samarali qiladi.

Biroq, gadgetlardan faol foydalanish bilan birga muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Haddan tashqari ekranga qarash vaqti konsentratsiyani kamaytirishi, uyqu sifatini buzishi va raqamli qaramlikka olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, gadgetlar o'quv jarayonida talabalarni chalg'itadi va unumdorlikni pasaytiradi.

Ushbu tadqiqotning **maqsadi** gadgetlarning talabalar hayotiga ta'sirini tahlil qilish, ularning o'quv jarayoni, kundalik faoliyati va ijtimoiy muloqotdagi rolini aniqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq mumkin bo'lgan foyda va xavflarni baholashdir.

Tadqiqot vazifalari:

- talabalar hayotida gadgetlardan foydalanishning nazariy jihatlarini o'rganish;
- gadgetlarning o'quv jarayoniga, o'quvchilarning ijtimoiy faolligiga va kundalik faoliyatiga ta'sirining asosiy yo'nalishlarini aniqlash;
- o'quv muhitida gadgetlardan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish;
- raqamli qurilmalardan ortiqcha foydalanishning o'quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligiga mumkin bo'lgan oqibatlarini o'rganish;
- talabalar hayotida gadgetlardan samarali va muvozanatli foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqot gadgetlarning talabalar hayotiga ta'siri bo'yicha barcha qarama-qarshi nuqtai nazarlarni har tomonlama o'rganishga qaratilgan bo'lib, mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarga va ularni minimallashtirish usullariga urg'u beradi. Gadgetlar

talabalar uchun katta hajmdagi ta'lim resurslari va ma'lumotlariga eshik ochadi. Ular internetdan kerakli o'quv materiallarini bir zumda topish, so'nggi tadqiqot va ilmiy nashrlar bilan tanishish imkoniga ega. Bundan tashqari, gadjetlar talabalarga onlayn ma'ruzalar va vebinarlarda qatnashish imkonini beradi, shu bilan ularning o'quv imkoniyatlarini kengaytiradi va o'z ta'lim muassasasining o'quv rejasiga kiritilmagan fanlarni o'rganish imkonini beradi.

Gadgetlardan foydalanish raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi va texnik savodxonlikni oshiradi. Talabalar turli dastur va ilovalardan unumli foydalanishni, elektron hujjatlar bilan ishlashni o'rganadi va dasturlash asoslarini o'zlashtiradi. Ushbu ko'nikmalar texnologiya muhim rol o'ynaydigan bugungi dunyoda juda muhimdir. Raqamli savodxonlikni rivojlantirish, shuningdek, tanqidiy fikrlash va talabalarning turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash qobiliyatini rag'batlantiradi.

Elektron qurilmalar, xususan smartfon va planshetlar talabalarni o'qishdan jiddiy chalg'itishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt sarflash, o'yin o'ynash, video tomosha qilish yoki do'stlar bilan suhbatlashish orqali talabalar diqqatini jamlash va ta'lim jarayoniga jalb qilishni kamaytiradi. Gadgetlarni suiiste'mol qilish nafaqat o'qishga, balki umumiy salomatlikka ham salbiy ta'sir qiladi. Kambag'al holat, ko'rishning yomonlashishi, uyqu muammolari va jismoniy faollikning etishmasligi elektron qurilmalardan ortiqcha foydalanishning asosiy oqibatlaridir. Gadgetlardan nazoratsiz foydalanishning bir xil darajada jiddiy muammosi - giyohvandlikdan tortib depressiv holatlargacha bo'lgan turli xil ruhiy kasalliklar. Masalan, gadgetlar orqali muloqotning mavjudligi tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy izolyatsiya. Natijada, nazoratsiz elektron qurilmalar haqiqiy aloqani to'liq almashtira oladi, bu nosog'lom tendentsiyadir.


Biz maxsus ishlab chiqilgan anketa yordamida 300 nafar talaba o'rtasida so'rov o'tkazdik: ulardan 150 nafari 1-davolash fakulteti, xalqaro va biotibbiyot muhandisligi fakulteti, 60 nafari 1-davolash fakulteti 2-kurs va 90 nafari 2-davolash va tibbiy-profilaktika fakulteti 1-kurs talabalari bo'ldi. Anketa bir nechta tematik bloklarga tuzilgan: respondent haqida umumiy ma'lumot; gadgetlardan foydalanish sabablari; respondent gadgetlardan qanchalik tez-tez foydalanadi; respondent gadgetlarga qanchalik bog'liqligini his qiladi; respondentning fikriga ko'ra, gadgetlar uning sog'lig'iga (ko'rish, eshitish, asab tizimi va boshqalar) qanday ta'sir qiladi va u mumkin bo'lgan xavflardan qanchalik xabardor; jismoniy faoliyat uning o'zini o'zi qadrlashi, kayfiyat va uyquga ta'siri. Biz ishlab chiqqan anketada ba'zi savollarda bir nechta javob variantlari mavjud edi.

**Tadqiqot natijalari.** So'rov shuni ko'rsatdiki, gadgetlar barcha so'ralgan talabalar hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki ularning 100% ulardan har kuni foydalanadi. Aksariyat talabalar 161 (53,7%) smartfondan kuniga 5-8 soat vaqt sarflaydi, 114 nafari (38,0%) 1-4 soat ichida, 25 nafari (8,3%) esa 10 soatdan ko'proq vaqt sarflaydi (1-rasm).

Gadgetlarning o'qishga ta'siri bo'yicha o'quvchilarning fikrlari ikkiga bo'lingan: 151 nafari (50,3 foiz) ular diqqatni chalg'itib, o'rganishga xalaqit beradi, deb hisoblasa,

129 nafari (43,0 foiz) gadjetlar o'quv jarayoniga yordam beradi, deb hisoblaydi. Faqat 20 (6,7%) respondent ikki tomonlama ta'sirni qayd etdi.

Gadjetlardan faol foydalanishiga qaramay, 174 nafar (58 foiz) o'quvchilarning aksariyati hali ham ulardan foydalanishni cheklashga harakat qilmoqda, 66 nafari (22,0 foiz) esa bunday urinishlarni amalga oshirmaydi, 60 nafari (20,0 foizi) qurilmalarga sarflangan vaqtni nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu natijalar talabalarning raqamli muhitda faolligi va gadjetlar bilan o'tkaziladigan vaqtni tartibga solish zarurligidan xabardorligi yuqori ekanligini ko'rsatadi.




1-rasm. Gadjetlarning kundalik hayotga ta'siri haqida savollar

"Gadjetlarning hissiy va jismoniy holatga ta'siri" savoli bo'yicha olingan ma'lumotlarga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: - talabalarning ko'pchiligi 184 (61,3%) gadjetlar ularning kayfiyatiga ikki tomonlama ta'sir qilishini ta'kidlashadi - ular ham uni yaxshilaydi, ham zerikishga olib keladi. Shu bilan birga, respondentlarning 95 nafari (31,7%) gadjetlar ularning kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etgan bo'lsa, 21 nafari (7,0%) ulardan foydalanish zerikishga olib kelishini bildirgan (2-rasm).

- stress bo'yicha talabalarning fikrlari ikkiga bo'lingan - respondentlarning 96 (32,0%) gadjetlar stress darajasini oshiradi, deb hisoblaydi, 134 (44,7%) esa bu fikrga qo'shilmaydi va 70 (23,3%) gadjetlardan faqat alohida holatlarda stressni boshdan kechiradi.

- jismoniy faollikka kelsak, 133 nafar (44,3 foiz) talabalarning salmoqli qismi gadjetlar uning darajasini sezilarli darajada pasaytirishini tan oladi, yana 104 nafari (34,7 foiz) o'rtacha pasayganini qayd etadi, 70 nafari (23,3 foiz) gadjetlarning o'z faoliyatiga ta'sirini ko'rmaydi.




2-rasm. Gadgetlarning hissiy va jismoniy farovonlikka ta'siri

Ushbu ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, gadgetlar o'quvchilarning kundalik hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, ularning ham hissiy holatiga, ham jismoniy faolligiga ta'sir qilishi mumkin.

So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, gadgetlar o'quvchilarning psixologik va ijtimoiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Respondentlarning aksariyati 168 (56,0%) gadgetlar o'z konsentratsiyasini sezilarli darajada susaytirishini, 36 nafari (12,0%) esa hech qanday ta'sir sezmasligini, 96 nafari (32,0%) esa javob berishga qiynalayotganini ta'kidlamoqda (3-rasm).

Gadgetlarning ijtimoiy hayotga ta'siriga kelsak, 156 nafar (52,0 foiz) talaba ular onlayn muhitda muloqotni kuchaytirishga hissa qo'shishini qayd etgan bo'lsa, 128 nafari (42,7 foiz) gadgetlar aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi, deb hisoblaydi. Respondentlarning atigi 16 nafari (5,3%) gadgetlar ijtimoiy munosabatlarga putur yetkazishini qayd etgan.

O'z-o'zini hurmat qilish bo'yicha fikrlar ikkiga bo'lingan: 137 (45,7%) gadgetlar o'z qadr-qimmatini oshiradi, deb hisoblaydi, 118 (39,3%) hech qanday ta'sir sezmaydi va 45 (15,0%) pasayganini qayd etadi. Ushbu ma'lumotlar gadgetlarning o'quvchilarning psixologik holatiga noaniq ta'sirini ko'rsatadi, bunda ijobiy va salbiy tomonlari ustunlik qiladi.



3-rasm. Gadgetlarning psixologik va ijtimoiy holatga ta'siri


So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning aksariyati gadgetlarning ularning salomatligi va farovonligiga salbiy ta'sirini qayd etishadi. Shunday qilib, respondentlarning 204 nafari (68,0%) gadgetlar ko'rish qobiliyatini yomonlashtiradi, deb hisoblaydi, 62 nafari (20,7%) ta'sirni sezmaydi, 34 nafari (11,3%) javob berishga qiynaladi (4-rasm).

Gadgetlarning uyqu davriga ta'siriga kelsak, 161 nafar (53,7 foiz) talaba uyquni sezilarli darajada buzayotganiga amin, 58 nafari (19,3 foiz) aloqani ko'rmaydi, 81 nafari (27,0 foiz) javob berishga qiynaladi.

Shuningdek, respondentlarning muhim qismi 151 (50,3%) gadgetlardan foydalangandan keyin bosh og'rig'ini boshdan kechiradi va 101 nafari (33,7%) bu kamdan-kam sodir bo'lishini qayd etadi. Faqat 48 nafari (16,0%) talaba bosh og'rig'ini gadgetlar bilan bog'lamaydi.

Ushbu topilmalar shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'quvchilar gadgetlardan foydalangan holda ko'rishlari, uyqulari va umumiy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ulardan ongli ravishda va me'yorida foydalanish muhimligini ta'kidlaydi.





4-rasm. Gadgetlarning salomatlik va farovonlikka ta'siri

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, elektron qurilmalar o'quvchilarga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Albatta, gadgetlar o'rganish samaradorligini oshirish va ma'lumotlarga kirishni kengaytirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Talabalar ulardan yangi fanlarni o'rganish, malaka oshirish va umumiy ta'lim jarayonini yaxshilash uchun foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari, onlayn resurslar va ilovalar bilim almashish, hamkorlik qilish va istalgan vaqtda, istalgan joyda o'rganishni osonlashtiradi. Biroq o'quvchilar tomonidan gadgetlardan noto'g'ri va ortiqcha foydalanishning salbiy oqibatlar ham bor. Ekranlar oldida uzoq vaqt o'tkazish jismoniy faollikning etarli emasligiga, uyquning buzilishiga va ko'rishning buzilishiga olib kelishi mumkin. Muvozanatga erishish va o'quv jarayonida gadgetlardan maksimal darajada foydalanish uchun talabalar raqamli savodxonlikka ega bo'lishlari, vaqtni samarali boshqarishlari va elektron qurilmalardan foydalanishga cheklovlar qo'yishlari kerak. Shuningdek, jismoniy mashqlar, muntazam tanaffuslar, sog'lom uyqu va ijtimoiy munosabatlarni o'quvchilarning kundalik hayotiga kiritish zarur.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, gadgetlar o'quvchilar hayotida muhim o'rin tutadi, ularning o'qishi, ijtimoiy faolligi va sog'lig'iga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi.

#### **Gadgetlarning ijobiy ta'siri:**

- gadgetlar onlayn kurslar, raqamli kutubxonalar va ta'lim platformalari kabi ta'lim resurslariga kirishni sezilarli darajada soddalashtiradi;
- elektron eslatmalardan, rejalashtirish ilovalari va videoma'ruzalardan foydalanish o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi;
- raqamli texnologiyalar mustaqil ta'lim va vaqtni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi;
- gadgetlar talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni osonlashtiradi, ayniqsa masofaviy ta'limda.

#### **Gadgetlarning salbiy ta'siri:**

- Smartfon va noutbuklardan ko'p foydalanish diqqatni jamlashni pasaytiradi va kechikishga olib keladi.

- gadjetlar bilan doimiy aloqada bo'lish raqamli giyohvandlikning rivojlanishiga yordam beradi.

- ekran oldida ortiqcha vaqt jismoniy va ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi (ko'rishning buzilishi, uyqu buzilishi, stress darajasining oshishi).

- ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar talabalarni o'quv ishlaridan chalg'itib, unumdorlikni pasaytiradi.

#### **Gadjetlarga bog'liqlik darajasi:**

- ko'pchilik o'quvchilar gadjetlardan kundalik foydalanishadi, vaqtlarining katta qismi o'qishga emas, ko'ngilochar va ijtimoiy tarmoqlarga sarflanadi;

- So'rovda qatnashgan o'quvchilar gadjetlar ularga o'qishlarida yordam berishini, biroq ayni paytda chalg'ituvchi omil ekanligini tan olishgan.

- raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish zarurati belgilandi.

#### **Gadjetlardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar:**

- gadjetlardan foydalanish rejimini ishlab chiqish va unga rioya qilish, ijtimoiy tarmoqlarda vaqtni cheklash;

- konsentratsiyani oshirish uchun maxsus dasturlardan foydalanish;

- raqamli gigienani tashkil qilish: ekran yorqinligini sozlash, o'qish paytida "bildirishnomalarsiz" rejimidan foydalanish.

- onlayn va oflayn harakatlar, shu jumladan jismoniy faollik va jonli muloqot o'rtasidagi muvozanatni saqlash.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar raqamli muhitda faol ishtirok etadilar va gadjetlar bilan o'tkaziladigan vaqtni tartibga solish zarurligini bilishadi. Gadjetlar ularning kundalik hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, ularning ham hissiy holatiga, ham jismoniy faolligiga ta'sir qiladi.

Raqamli texnologiyalarning talabalarga ta'siri munozarali: bir tomondan, ular o'rganishni, muloqot qilishni osonlashtiradi va turli vazifalarni soddalashtiradi, boshqa tomondan, ular ko'rishning yomonlashishi, uyqu buzilishi va umumiy farovonlikning pasayishi kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bu gadjetlardan ongli ravishda va me'yorida foydalanish muhimligini, shuningdek, onlayn va oflayn hayot o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun raqamli gigiyena strategiyalarini amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

#### **Литература:**

1. Буров О. Е. "Психология информационных технологий и цифровой среды" – Москва: Институт психологии РАН, 2020.

2. Иванов В. А. "Мобильные технологии и их влияние на образовательный процесс" – Казань: Казанский университет, 2021.

3. Турченко О. А. "Психологические аспекты зависимости от гаджетов у молодежи" – Ростов-на-Дону: Феникс, 2022.

4. Петрова И. Л. "Проблема цифровой зависимости среди студентов" // Образовательные технологии и общество, 2021, №2, с. 33-41.
5. Базарбаев М.И., Эрметов Э.Я., Сайфуллаева Д.И., Яхшибоева Д.Э. Использование медиатехнологии в образовании. Журнал гуманитарных и естественных наук., Тошкент, 2023, №6 (12) Vol.1. с.94-100.
6. Базарбаев М.И., Эрметов Э.Я., Сайфуллаева Д.И., Таълимда ахборот технологиялари. Дарслик, Тошкент, 2018, 453 с.
7. Базарбаев М.И., Эрметов Э.Я., Сайфуллаева Д.И. Информационные технологии в образовании. Учебник, Ташкент, 2022, с.453.
8. Алексеева Е. Н. "Использование мобильных устройств в учебном процессе: плюсы и минусы" // Вестник высшего образования, 2020, №4, с. 21-29.
9. Digital Wellbeing Report – Google Research, 2021. (Доступно на официальном сайте Google Digital Wellbeing)
10. Pew Research Center. "Smartphones and Social Interaction among Young Adults", 2020. (<https://www.pewresearch.org/>)

## PIK FORMULASI VA UNING TURLI XIL MASALALARNI YECHISHGA TADBIQLARI

*Alladustova Iroda Ulugmuratovna, PhD*

*Toshkent amaliy fanlar universiteti,*

*"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrası dotsenti,*

*E-mail: [alladustova.iroda@mail.ru](mailto:alladustova.iroda@mail.ru)*

*Rabbimova Sevara Anvarjon qizi,*

*"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrası o'qituvchisi,*

*E-mail: [rabbimovasevara526@gmail.com](mailto:rabbimovasevara526@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu ishda diskret geometriya, matematik analiz, kombinatorika va muhandislikka oid turli masalalarning Pik formulasi orqali yechimlari berilgan. Bu formula yordamida uchlari panjara tugunlarida joylashgan ko'pburchaklarning xususiyatlari tahlil qilingan va aniqlangan, ularning yuzalari topilgan, Farey ketma-ketligi qo'shni hadlari orasidagi bog'lanish isbotlangan, ma'lum masshtabda berilgan maydon yuzalari aniqlangan, shaxmat donachalari bilan bog'liq ba'zi kombinatorik masalalarga yechim berilgan.

**Kalit so'zlar:** Pik formulasi, panjara, Farey ketma-ketligi, ko'pburchak.

### I. KIRISH

Matematikaning diskret geometriya sohasi uchlari panjara tugunlarida joylashgan ko'pburchaklar bilan bog'liq turli muammolarni o'rganadi. Bunday ko'pburchaklardan geometriyaning va kombinatorikaning muhim masalalarini hal qilishda ko'p foydalaniladi. Ayniqsa, ular kompyuter grafikasi, raqamli tasvirni qayta ishlash, qator algoritmlarda va matematik modellashirishda keng qo'llaniladi.

Uchlari panjara tugunlarida joylashgan ko'pburchaklar yuzalarini aniqlash usullari diskret geometriya va sonlar nazariyasining eng muhim masalalaridan biri ularning hisoblanadi. Bu borada Pik formulasi ([1]) yoki teoremasining o'rnini o'ziga xosdir. Teorema avstriyalik matematik Georg Aleksandr Pik tomonidan 1899-yilda taqdim etilgan bo'lib, shu turdagi masalalarni yechishning muhim usullaridan hisoblanadi. Pik formulasi oddiy panjara nuqtalari bo'ylab joylashgan ko'pburchaklarning yuzasini ichki va chegara nuqtalari soni orqali hisoblash imkonini beradi.

Pik formulasi va uning tadbiqlari bir qancha adabiyotlarda o'rganilgan. Jumladan, [2,3] adabiyotlarda ko'p burchakli shakllarning ekvivalentligi va Pik teoremasining qo'llanilishi haqida ma'lumotlar berilgan. [4,9] kitoblarda geometriyaning asosiy mavzulari qatorida Pik teoremasi ham tushuntirilgan. [5,6] kitoblar yosh o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda Pik teoremasi oddiy misollar orqali keltirilgan. [8] kitobda Pik teoremasiga oid masalalar va ularning yechimlari, [10] kitobda esa stereometriya mavzulari bilan birga Pik teoremasining uch o'lchovli shakllarga tatbiqi ham ko'rib chiqilgan. [11,12] adabiyotlarda zamonaviy geometriyaning asosiy usullari va ularning amaliy qo'llanilishi, jumladan, Pik teoremasi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Biz bu ishimizda uchlari panjara tugunlarida joylashgan ba'zi geometrik shakllarning yuzalarini hisoblaymiz.

Shakllarning Geogebra grafik-dizayn dasturi orqali chizilgan grafiklarini keltirib o‘tamiz.

## II. PIK FORMULASI. UNING SODDA MISOLLARGA TADBIQI

Dastlab quyidagi belgilashlarni kiritib olamiz:

$S$  – uchlari panjara tugunlarida joylashgan ko‘pburchakning yuzi,


$B$  – ko‘pburchakning ichki qismida joylashgan panjara nuqtalari soni,

$\Gamma$  – ko‘pburchakning chegarasi bo‘ylab joylashgan panjara nuqtalari soni.

1866-yilda Georg Pik tomonidan bu formulaning o‘rinli ekanligi ko‘rsatilgan.

Dastlab Pik formulasining qo‘llanilishini oddiy misollarda ko‘rib chiqamiz.

1-misol. Katagining o‘lchami  $1\text{sm} \times 1\text{sm}$  bo‘lgan panjarada uchburchak va trapetsiya tasvirlangan. Ularning yuzalarini  $\text{sm}^2$  larda toping.




Chap tomonda tasvirlangan uchburchak uchun,  $B_1 = 16$ ,  $\Gamma_1 = 12$ . O‘ngdagi trapetsiya uchun esa  $B_2 = 22$ ,  $\Gamma_2 = 18$ . Shuning uchun, Pik formulasiga asosan, ularning yuzalari  $S_1$  va  $S_2$  mos ravishda quyodagicha hisoblanadi:

$$S_1 = B_1 + \frac{\Gamma_1}{2} - 1 = 16 + \frac{12}{2} - 1 = 21 (\text{sm}^2),$$

$$S_2 = B_2 + \frac{\Gamma_2}{2} - 1 = 22 + \frac{18}{2} - 1 = 30 (\text{sm}^2).$$

2-misol. Katagining o‘lchami  $1\text{sm} \times 1\text{sm}$  bo‘lgan panjarada uchburchak tasvirlangan. Uning yuzasini  $\text{sm}^2$  larda hisoblang.






Berilgan uchburchak yuzasini Pifagor teoremasini ikki marta qo'llab, bu teng yonli uchburchakning balandligi va asosini topish orqali yoki kvadratning yuzasidan uchta uchburchak va bitta kichkina kvadratning yuzasini ayirib tashlash orqali hisoblash mumkin. Lekin, buni hisoblashning eng tez va oson yo'li Pik formulasini qo'llashdir.

$$B = 8, \Gamma = 6, \quad S = 8 + \frac{1}{2} \cdot 6 - 1 = 10 \text{ (sm}^2\text{)}.$$

3-misol. Rasmda berilgan  $ABCD$  parallelogramning yuzasini toping.




Chizmadan ko'rish mumkinki,  $B = 6$  va  $\Gamma = 6$ . Pik formulasiga ko'ra

$$S = B + \frac{\Gamma}{2} - 1 = 6 + \frac{6}{2} - 1 = 8 \text{ (sm}^2\text{)}$$

Demak, berilgan parallelogramning yuzi  $8 \text{ sm}^2$  ekan.

Pik formulasi yuqorida keltirilgan masalalardan tashqari amaliy geometriya masalalarini yechishga, borib bo'lmaydigan maydonlarning yuzasini hisoblashga yordam beradi. Bunga misollar qaraymiz.

4-misol. Quyidagi rasmda katagining o'lchami  $1 \text{ sm} \times 1 \text{ sm}$  bo'lgan panjarada  $1 \text{ sm} : 200 \text{ m}$  masshtabda o'rmon massivi tasvirlangan. Uning yuzasini  $\text{m}^2$  larda toping.




Ko'rish mumkinki, bu to'rtburchakning ichki qismida 8 ta va chegarasida 7 ta nuqta joylashgan, ya'ni  $B = 8$  va  $\Gamma = 7$ . Demak, Pik formulasidan

$$S' = B + \frac{\Gamma}{2} - 1 = 8 + \frac{7}{2} - 1 = 10,5 \text{ (sm}^2\text{)}$$

Masala shartiga ko'ra, masshtab  $1\text{sm}^2 : 200^2\text{m}^2$  ko'rinishida berilgan edi. Demak, yuza quyidagicha topiladi

$$S = 40000 \cdot S' = 40000 \cdot 10,5 = 420\,000\text{ (m}^2\text{)}$$

5-misol. Quyida rasmda katagining o'lchami  $1\text{sm} \times 1\text{sm}$  bo'lgan panjarada trapetsiya tasvirlangan.  $1\text{sm} : 200\text{m}$  masshtabda berilgan bu maydonning yuzasini  $\text{m}^2$  larda toping.



Ko'rish mumkinki, bu soha uchun  $B = 7$  va  $\Gamma = 4$ . Shuning uchun, uning yuzasi quyidagicha topiladi:

$$S' = 7 + \frac{4}{2} - 1 = 8\text{ (sm}^2\text{)}$$

$1\text{sm}^2 : 200^2\text{m}^2$  mashtabga ko'ra, soha yuzasi uchun quyidagini olamiz:

$$S = 40000 \cdot S' = 40000 \cdot 8 = 320\,000\text{ (m}^2\text{)}$$

### III. PIK FORMULASINING HAR XIL MASALALARNI YECHISHGA TADBIQI

Bu bo'limda biz geometriya va matematik analizning ba'zi masalalarini Pik formulasi yordamida o'rganamiz.

**1-masala.**  $F_n$  Farey ketma-ketligi deb  $\frac{a}{b}$  ko'rinishidagi qisqarmas kasrlarning o'suvchi ketma-ketligiga aytiladi. Bunda  $0 < a < b \leq n$ .  $\frac{a}{b}$  va  $\frac{c}{d}$  Farey ketma-ketligining qo'shni hadlari bo'lsin. U holda  $|ad - bc| = 1$  ekanligini isbotlang.

**Isbot.** Har bir  $\frac{a}{b}$  qisqarmas kasrga  $(a, b)$  koordinatali nuqtani mos qo'yamiz. Agar  $\frac{a}{b}$  va  $\frac{c}{d}$  Farey ketma-ketligining qo'shni hadlari bo'lsa, u holda uchlari  $(0,0)$ ,  $(a, b)$  va  $(c, d)$  nuqtalarda bo'lgan uchburchak uchlardan farqli butunsonli nuqtalarni saqlamaydi. Haqiqatan, agar butun sonli  $(p, q)$  nuqta shu uchburchakda yotsa, u holda  $p$  va  $q$  sonlar  $n$  dan oshmaydi va  $\frac{p}{q}$  kasr  $\frac{a}{b}$  va  $\frac{c}{d}$  kasrlar orasida bo'ladi. Shuning uchun Pik formulasiga asosan bu uchburchakning yuzasi  $\frac{1}{2}$  ga teng bo'ladi. Boshqa tomondan, uning yuzasi  $\frac{1}{2} \cdot |ad - bc|$  ga teng. Demak,  $|ad - bc| = 1$ .

**2-masala.**  $ABC$  uchburchakning uchlari butun sonli panjaraning tugunlarida joylashgan va uning tomonlarida boshqa tugunlar yo'q, ichida esa faqat bitta  $O$  tugun

bor.  $O$  nuqtaning  $ABC$  uchburchak medianalarining kesishish nuqtasi ekanligini isbotlang.

**Yechish.** Pik formulasiga asosan  $S_{AOB} = S_{BOC} = S_{COA} = \frac{1}{2}$ . Demak,  $O$  -  $ABC$  uchburchak medianalarining kesishish nuqtasi.

**3-masala.** Tomoni  $n$  ga teng bo'lgan kvadrat butun sonli panjaraning  $(n + 1)^2$  dan ko'p nuqtalarini qoplay olmasligini isbotlang.

**Yechish.**  $M$  – tomoni  $n$  ga teng bo'lgan kvadrat bilan qoplangan butun sonli panjara nuqtalarining qavariq qobig'i bo'lsin. Pik formulasiga asosan uning yuzasi

$$S = N_i + \frac{1}{2}N_e - 1$$

ga teng, bu yerda  $N_i$  -  $M$  ning ichidagi butun sonli nuqtalari soni,  $N_e$  esa  $M$  ning chegarasidagi butunsonli nuqtalar soni. Shuning uchun,

$$N_i + \frac{1}{2}N_e - 1 \leq n^2.$$

$M$  ning perimetri berilgan kvadratning perimetridan oshmaydi. Bundan tashqari,  $M$  ning chegarasidagi qo'shni butunsonli nuqtalar orasidagi masofa 1 dan kichik emas. Shuning uchun

$$N_e \leq 4n.$$

Oxirgi ikkita tengsizlik, ya'ni  $N_i + \frac{1}{2}N_e - 1 \leq n^2$  va  $N_e \leq 4n$  munosabatlardan, talab etilgan

$$N_i + N_e \leq (n + 1)^2$$

tengsizlikni olamiz.

**4-masala.** Shaxmat qiroli  $8 \times 8$  katakli doskada har bir katakdan bir marta yuradigan va oxirgi yurishda dastlabki katakka qaytib keladigan harakatini boshladi. Qirol yurgan kataklarning markazlarini tutashtiruvchi siniq chiziq o'z-o'zini kesmaydi.


a) bu egri chiziq qanday eng katta uzunlikka ega bo'lishi mumkin?

b) bu egri chiziqni qanday yuza bilan chegaralash mumkin? (Kataklarning tomonlari 1 ga teng)

**Yechish.** b) Pik formulasidan tezda chegaralangan egri chiziqning yuzasi  $\frac{64}{2} - 1 = 31$  ga tengligi kelib chiqadi (panjara tugunlari 64 ta kataklarning markazlari bo'lib xizmat qiladi; shart bo'yicha ularning barchasi ko'pburchakning chegarasida yotadi).

a) qismiga o'tamiz. Rasmda 64 ta yurishdan 36 tasida  $\sqrt{2}$  uzunlikka ega bo'lgan (diagonal bo'yicha yo'nalgan) masofa bosib o'tilgan qirolning yo'liga misol keltirilgan. Bunday yurishlar soni 36 tadan ortiq bo'la olmasligini isbotlaymiz.

$1 \times 1$  kvadratni shunday quramizki, natijada qirolning yo'liga kiruvchi har bir  $\sqrt{2}$  uzunlikdagi kesma bu kvadratning diagonalini bo'lsin. Bu kvadratning yarmi qirol yo'lini chegaralovchi ko'pburchakdan tashqarida yotadi.



Lekin bunday yarimtaliklarning umumiy yuzasi  $49 - 31 = 18$  dan oshmaydi. Ularning barchasi  $7 \times 7$  kvadratdan chiqib ketmaydi. Demak, diagonal yurishlarning soni 36 dan oshmaydi. Natijada ushbu javoblarga ega bo‘ldik: a)  $28 + 36\sqrt{2}$  b) 31.

#### IV. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Pick G. Geometrisches zur Zahlenlehre // Sitzungsberichte des Deutschen Naturwissenschaftlich-Medizinischen Vereines für Böhmen ‘Lotos’ in Prag. – 1899. – Vol. 19. – P. 311–319.
2. Grünbaum B. Convex Polytopes. – Berlin: Springer, 2003. – (Graduate Texts in Mathematics).
3. Болтянский В. Г. Эквивалентность и равноставленность многогранников. – М.: Наука, 2006. – 272 с.
4. Федоров Д. В. Лекции по геометрии. – СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 2010. – 420 с.
5. Киселёв А. П. Начальная геометрия. – М.: Просвещение, 2005. – 410 с.
6. Гельфанд И. М., Капанцев А. А. Геометрия для детей. – М.: МЦНМО, 2002. – 160 с.
7. Зив Б. Г., Мусатов М. И. Планиметрия. – М.: Просвещение, 2015. – 250 с.
8. Семенов К. Б. Задачи по геометрии с решениями. – М.: Физматлит, 2008. – 330 с.
9. Тихомиров В. М. История математики. – М.: Изд-во Московского университета, 2012. – 360 с.
10. Киселёв А. П. Геометрия. Стереометрия. – М.: Просвещение, 2007. – 375 с.
11. Атанасян Л. С. Геометрия. 7–9 классы. – М.: Просвещение, 2010. – 310 с.
12. Иванов И. И. Современная геометрия: Введение в методы и приложения. – М.: Юнити-Дана, 2018. – 456 с.

DOI: 10.5281/zenodo.15549580

<https://zenodo.org/records/15549580>

## AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI VA ULARNI TARTIBGA SOLISHNING USLUBIY ASOSLARI

*Faxriddinov Zayniddin Ziyoviddin o'g'li*  
*Avazov Azizbek Shoxruh O'g'li*  
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabalari*

*Ilmiy rahbar: Suvpo'latov Ozodbek,*  
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*  
*Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası assistenti*  
*Mail: [suvpulatovozod@gmail.com](mailto:suvpulatovozod@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aholi bandligiga ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida qaraladi. Aholi bandligi iqtisodiy tushuncha sifatida aholining iqtisodiy faol qismini ishlab chiqarish vositalari bilan birlashtirish amalga oshadigan, bevosita mehnatni amalga oshirish jarayonida tadqiq etiladi. Aholi bandligi ijtimoiy ishlab chiqarishga xos xususiyat bo'lib, unda mehnat buyumlarini o'zgartirish bo'yicha ma'lum bir sifatlariga ega bo'lgan ishchilarning birgalikdagi faoliyati amalga oshadi.

**Kalit so'zlar:** Bandlik, ijtimoiy, mamlakat, aholi, iqtisodiyot, mehnat.

### KIRISH

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida aholi bandligini ta'minlash, ayniqsa yoshlar va ayollarni mehnat bozoriga faol jalb qilish, ustuvor masala sifatida belgilangan. Mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari oshayotgan bir vaqtda, mehnat bozorida tarkibiy muammolar, hududlararo tafovutlar, ishsizlik va rasmiy bozor tashqarisidagi faoliyatning yuqori ulushi kabi holatlar hanz mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 8-yanvarda o'tkazilgan "Aholi bandligini ta'minlash va tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish masalalari" mavzusidagi videoselektor yig'ilishda shunday ta'kidladi:

"Yoshlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, ularning tadbirkorlik salohiyatini ochish, sharoit yaratib berish eng ustuvor vazifamiz bo'lishi kerak."<sup>82</sup>

Ushbu yig'ilishda xizmatlar sohasida 2,5 million, qishloq xo'jaligida 2,1 million, sanoat va infratuzilma loyihalari orqali esa 390 mingdan ortiq yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha vazifalar belgilandi. Shu bilan birga, "Mening biznesim" platformasi, "Biznesga birinchi qadam" kabi mexanizmlar orqali aholining iqtisodiy faolligini oshirish ko'zda tutilgan.

Mazkur maqolada bandlikni ta'minlash sohasidagi muammolar va ularni tartibga solish bo'yicha mavjud nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi, shuningdek, mehnat bozorini samarali boshqarishning uslubiy asoslari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

<sup>82</sup> Manba: <https://president.uz/oz/lists/view/6960>



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola ma'lumotlari turli xil davlat vazirliklari va idoralaridan olingan ikkilamchi ma'lumotlar, shuningdek, statistik hisobot va hujjatlar tahliliga asoslanadi. Ma'lumotlar tahlili seminarlar, fokus-guruh muhokamalari va ish beruvchilar bilan ekspert so'rovnomalar asosida to'ldirildi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

S.V.Andreev aholi bandligini bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'lab, uni asosiy shartlardan biri sifatida tavsiflaydi. Muallif aholi bandligi mazmunining quyidagi bir qancha jihatlarini ajratadi:

A.E.Kotlyar fikricha, bandlik jamiyatning barcha formatsiyalarida amal qiladigan umumiy iqtisodiy tushuncha sifatida qabul qilingan. Bu ijtimoiy takror ishlab chiqarishga xos tushuncha mehnat va ishchi kuchidan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiy faol aholini ishlab chiqarish omillariga nisbatan tavsiflaydi hamda ularning aniq mehnat kooperatsiyasidagi ishtiroki yuzasidan kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan munosabatlarini shakllantiradi.<sup>83</sup>

L.A.Kostin aholi bandligini umumiy iqtisodiy tushuncha sifatida barcha iqtisodiy formatsiyalarga xos ekanligini e'tirof etadi hamda unga ishchining u yoki bu aniq mehnat kooperatsiyasiga qo'shilishi bilan belgilangan kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar sifatida ta'rif beradi.<sup>84</sup>

- ishchining ma'lum bir faoliyat sohasiga biriktirib qo'yilishi;
- ishchining yaratayotgan ne'matlari va xizmatlari uchun moddiy rag'batlantirilishi;

N.A.Volgin va V.S.Bulanovlar tomonidan esa aholi bandligi ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida tavsiflanadi. Mualliflar fikricha, aholi bandligi ijtimoiy mazmun bilan, ya'ni aholining mehnat faoliyatida qatnashishi yuzasidan sodir bo'ladigan munosabatlar majmui hamda ishchilarning xususiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan bog'langan bo'lib, ushbu munosabatlar majmui fuqarolarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish va daromadlar olishini ta'minlashi kerak.<sup>85</sup>

S.V.Andreev aholi bandligini bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'lab, uni asosiy shartlardan biri sifatida tavsiflaydi. Muallif aholi bandligi mazmunining quyidagi bir qancha jihatlarini ajratadi:

- ishchining ma'lum bir faoliyat sohasiga biriktirib qo'yilishi;
- ishchining yaratayotgan ne'matlari va xizmatlari uchun moddiy rag'batlantirilishi;

ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish ishchining ishlab chiqarish vositalari bilan birikishi zaruratini belgilashi.<sup>86</sup>

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, jumladan, "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunining 2-moddasiga tayanib, "aholi bandligi" tushunchasi fuqarolarning ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq

<sup>83</sup> Костин Л.А., Зуцина Г.М., Султанова Р.М. Рынок труда и теория занятости: учеб.пос. М.: АТиСО, 1997, 424 с.

<sup>84</sup> Буланов В.С., Волгин П.А. Рынок труда. М.: Экзамен, 2003 г. 478 с.

<sup>85</sup> Буланов В.С., Волгин П.А. Рынок труда. М.: Экзамен, 2003 г. 478 с.

<sup>86</sup> Андреев С.В. Кадровый потенциал и проблемы занятости в условиях перехода России к рыночным отношениям. М.: Институт социологии. РАН, 2010 г. 184 с.

faoliyatini bildirib, ular mehnat haqi va daromad keltira oladigan faoliyatga zid kelmaydi.


Aholi bandligining yuqorida ko'rsatilgan ta'rifi ushbu tushunchaning quyidagi xususiyatlarini farqlash imkonini beradi:

1. Aholi bandligining iqtisodiy tushuncha sifatidagi mazmunini;
2. Aholi bandligi jamiyat ishchi kuchining shakllanishini ifodalaydi;
3. Ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlar va xizmatlar uchun ishchilar ma'lum miqdorda mehnat mukofoti oladilar;
4. Fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan belgilangan faoliyat.

"Aholi bandligi" tushunchasi, fikrimizcha, davlat va uning fuqarolari tomonidan, ya'ni aholining ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish zarurati bilan belgilangan sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar alohida shaklida ifodalangan iqtisodiy tushunchani mujassamlashtirgan bo'lib, ular davlat huquqi doiralari orqali bog'langan.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi bandligi va uni tartibga solish nazariyalari tahlilining uslubiy asoslarini klassik, neoklassik, keynscha, neokeynscha, institutsional, monetaristik, neokonservativ kabi ilmiy yo'nalishlar vakillarining ilmiy g'oyalari tashkil etadi.



**1-rasm. Aholi bandligi kontsepsiyalari<sup>87</sup>**

tadqiqotlar mehnat bozorining XXI asr boshlaridagi amal qilish xususiyatlarini aniqlash uchun zarur hisoblanadi. Aholi bandligi va mehnat bozori kontsepsiyalari evolyutsion rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tdi. Ilk bor aholi bandligi va ishsizlik muammolari A.Smit, D.Rikardo, J.B.Sey va K.Marks nazariyasini mujassamlashtiradigan klassik ilmiy maktab vakillari tomonidan tadqiq etilgan (1-rasm).

Aholi bandligi klassik modelidagi bozor mexanizmi 1-rasm dagi chizmada tasvirlangan (tekis chiziqda ijobiy aloqa belgilangan, shtrix-punktirli chiziqda salbiy). Ushbu mehnat bozorining muhim unsurlari quyidagilar hisoblanadi: ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif, ish haqi, bozor kon'yunkturasi, ishsizlik. Aholi bandligining klassik modelida davlat tomonidan bozorni tartibga solish amaliyoti mavjud emas. U

<sup>87</sup> Muallifning ishlanmasi

o‘zini-o‘zi tartibga soluvchi bozor tamoyiliga va “iqtisodiy inson” tushunchasiga asoslanadi. Ishchi kuchining narxi bozor kon‘yunkturasiga egiluvchan moslashadi.

Mamalakatimiz hududlar kesimida iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining soni 2020-yildan 2024-yilgacha barqaror o‘shib borganini ko‘rish mumkin. Masalan, O‘zbekiston bo‘yicha umumiy bandlar soni 2020-yilda 13,236.4 ming kishidan 2024-yilda 14,260 ming kishiga yetgan — bu qariyb 7.7% o‘shishni bildiradi. Bu holatni zamonaviy bandlik nazariyalari bilan izohlash mumkin 1-jadval.

**Hududlar kesimida Iqtisodiyotda bandlar soni (ming kishi) 1-jadval:**

| Hududlar                        | 2020    | 2021    | 2022    | 2023    | 2024   |
|---------------------------------|---------|---------|---------|---------|--------|
| <b>O‘zbekiston Respublikasi</b> | 13236.4 | 13538.9 | 13706.2 | 14014.2 | 14260  |
| <b>Andijon viloyati</b>         | 1225.9  | 1264.3  | 1296.8  | 1329    | 1346.7 |
| <b>Buxoro viloyati</b>          | 788     | 777.3   | 780.6   | 803.2   | 807.8  |
| <b>Jizzax viloyati</b>          | 534.3   | 550.7   | 546.4   | 553.9   | 564.5  |
| <b>Qashqadaryo viloyati</b>     | 1171    | 1202.5  | 1207.3  | 1220.1  | 1296.2 |
| <b>Navoiy viloyati</b>          | 399.4   | 410.4   | 410.1   | 426.4   | 432.6  |
| <b>Namangan viloyati</b>        | 1088.7  | 1104.8  | 1100.6  | 1129.1  | 1160.1 |
| <b>Samarqand viloyati</b>       | 1418.3  | 1441.3  | 1479.8  | 1504.2  | 1521.4 |
| <b>Surxondaryo viloyati</b>     | 985.5   | 1001.9  | 1006.3  | 1011.2  | 1018.7 |
| <b>Sirdaryo viloyati</b>        | 332.2   | 334.1   | 335     | 338     | 351.1  |
| <b>Toshkent viloyati</b>        | 1177.2  | 1222.1  | 1204.5  | 1234.9  | 1251.2 |
| <b>Farg‘ona viloyati</b>        | 1448.6  | 1483.3  | 1511.7  | 1555.4  | 1565.9 |
| <b>Xorazm viloyati</b>          | 716.4   | 726.4   | 741.8   | 776.5   | 782.7  |
| <b>Andijon viloyati</b>         | 1225.9  | 1264.3  | 1296.8  | 1329    | 1346.7 |
| <b>Toshkent sh.</b>             | 1243.5  | 1317.2  | 1371.1  | 1396.8  | 1410.3 |

*Manba: Stat.uz saytidan olingan <https://stat.uz/>.*

Klasik yondashuvga ko‘ra, mehnat bozori taklif va talab qonunlariga muvofiq o‘z-o‘zini tartibga soladi. Ammo neoklasik yondashuv (Marshall, Pigou)da ish haqi moslashuvi orqali bandlik darajasi saqlanadi. Jadvaldan ko‘rinishicha, Andijon, Farg‘ona, Toshkent shahri kabi hududlarda bandlik yuqori — bu esa iqtisodiy faoliyatning zichligi va investitsion muhitning nisbatan rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Keynesian nazariyada bandlik darajasi faqat ish haqi bilan emas, balki umumiy talab, davlat xarajatlari va investitsiyalar bilan belgilanadi. Misol uchun, Samarqand, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida 2020–2024 yillar orasida bandlikning keskin o‘shishi kuzatilmoqda — bu hududlarda infratuzilmaviy loyihalar, davlat investitsiyalari va tashqi savdo aloqalari faolligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Bandlikda hududiy tafovutlarni tahlil qilishda inson kapitalining sifati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Toshkent shahri, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida aholining

ta'lim darajasi, kasbiy ko'nikmalari va xizmat ko'rsatish sohasi ulushi yuqori bo'lganligi sababli bandlik ham yuqori bo'lmoqda. Aksincha, Sirdaryo, Navoiy yoki Jizzax viloyatlarida bu ko'rsatkich nisbatan past.

Mehnat bozori muammolari neoklassik maktab iqtisodchilari A.Marshall, A.Pigu, Dj.B.Klark va boshqalarning asarlarida yanada chuqurroq tadqiq etiladi. Ushbu modelda bozorning o'z-o'zini tartibga solishi ish haqini oshirish yoki pasaytirish vositasida ish haqini mehnat bozorining tashqi tartibga solish dastagiga aylantiradi.

Aholi bandligini tartibga solishning keynscha nazariyasi klassik va neoklassik maktablarning g'oyalarini inkor etishga asoslangan

Aholi bandligining keynscha modelida mehnat bozori inertlashgan tizim hisoblanadi, ishchi kuchining bahosi qattiq determinantlashgan va bozor kon'yunkturasiga moslashmaydi. Mehnat bozori kon'yunkturasi samarali yalpi talab ("Keynsning tartibga solinadigan kapitalizm nazariyasiga ko'ra, davlatning makroiqtisodiy jarayonlarga aralashuvi") ga asoslangan.

Keynsning ish bilan bandlik konsepsiyasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi multiplikativ aloqalarga, "jamiyatning asosiy psixologik qonuni" ga asoslanadi. Keyns mehnatga bo'lgan talabning cheklanganligi oqibatida "majburiy ishsizlik" tushunchasini kiritadi hamda mehnat bozorining o'zini-o'zi tartibga solishi, foiz stavkasining avtomatik o'zgarishi, narxlar va ish haqi egiluvchanligi to'g'risidagi klassiklarning g'oyalarini inkor etadi. Ishsizlikning asosiy sababi Keyns bo'yicha samarali yalpi talabning etishmasligidan iborat. Milliy xo'jalikdagi bandlik darajasini tartibga solish samarali talab dinamikasiga, ya'ni kutilayotgan istemolchilik va investision sarflarga bog'liqdir. Uning psixologik qonuni jamg'arishga nisbatan, ko'proq iste'mol qilish (yalpi talabning o'sishi) zaruratini ifodalaydi. Aholi bandligini tartibga solish nazariyasida DJ.M.Keyns<sup>88</sup> samarali talab va yangi investitsiyalarni rag'batlantiradigan darajadagi davlat byudjet, kredit-pul, soliq siyosatlariga asoslangan iqtisodiy muvozanatni tiklash mexanizmining tahlilini beradi.

Keynschilarning fikricha, kapitalistik bozor xo'jaligida to'liq bandlikni kafolatlaydigan mexanizm yo'q, ishsizlik va inflyatsiyaning sabablari iqtisodiy tizimning ichida yashiringan bo'lib, u o'z-o'zidan tartibga solinmaydi. Keyns hisob-kitoblariga ko'ra, korxona egalarining talabi (N), ya'ni mehnat xarajatlarining hajmi jamiyatning iste'molga qiladigan xarajatlariga (D1) va yangi investitsiyalarga sarflanadigan xarajatlarga (D2) bog'liq bo'ladi.  $D1+D2$  – samarali talab, aholining bandligi esa samarali talab funktsiyasidir.

Neokeynscha nazariya R.Xarrod, E.Xansen, Dj.R.Xiks va boshqalarning ilmiy ishlarida bayon etilgan. R.Xarrodning fikricha, bandlik hajmi investitsiyalar hajmi va multiklikator bilan belgilanadi. Multiklikator miqdori esa jamg'arishga bo'lgan moyillik bilan belgilanadi. E.Xansen hukumatning mintaqadagi birinchi darajali vazifalari sifatida bandlikni davlat tomonidan tartibga solish zaruratini bayon qildi.

Aholi bandligining institutsional –sotsiologik modeliga ko'ra, mehnat bozori institutsional omillarga bog'liq. Institutsionalistlar makroiqtisodiy tahlildan voz

<sup>88</sup> Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. / Дж.М. Кейнс. М: Прогресс, 1978.-494с.

kechadilar, mehnatga bo'lgan talab va mehnat taklifi o'rtasidagi nomuvofiqlikning sababi ishchi kuchi tarkibidagi (ijtimoiy, kasbiy, etnik va h.k) tafovutlarda, mehnat bozorining regulatori – institutsional islohotlar, deb hisoblaydilar.

Aholi bandligining shartnomaviy modeliga asosan, (neoklassik va keynscha kontseptsiyalar sintezi) mehnat bozori inertlashgan, yaxlit, bir jinsli bo'lmagan va dinamik aloqalar tizimi hisoblanadi. Aholi bandligi shartnomaviy modelining mualliflari Keynsning ish haqi "qat'iyiligi" qoidasini qo'llagan holda mehnat bozoridagi muvozanatga ishlab chiqarishning jismoniy hajmlari va bandlikni o'zgartirish vositasida erishiladi, deb hisoblaydilar.

Neokeynscha nazariya R.Xarrodd, E.Xansen, Dj.R.Xiks va boshqalarning ilmiy ishlarida bayon etilgan. R.Xarroddning fikricha, bandlik hajmi investisiyalar hajmi va multikliktor bilan belgilanadi<sup>89</sup>. Multikliktor miqdori esa jamg'arishga bo'lgan moyillik bilan belgilanadi.

### **XULOSA**

Bandlikni tartibga solish kontseptsiyalarining retrospektiv tahlili mintaqada aholi bandligini tartibga solish jarayonidagi ko'plab xatolar va salbiy holatlarning oldini olishda jahondagi xorij tajribasidan foydalanish imkonini beradi. Fikrimizcha, bozorning rivojlanishi sharoitida bandlikni tartibga solish kontseptsiyalarini tanlashda neokeynschilar, neoinsitutsional va neokonservativ yo'nalishlarning ratsional qoidalarini qo'llash, maqsadga muvofiq. Ushbu kontseptsiyalar, birinchidan, aholi bandligini davlat tomonidan tartibga solish zarurligini ko'zda tutadi; ikkinchidan, mamlakat va uning mintaqalari iqtisodiy o'sish modelini shakllantirishni taqozo etadi; uchinchidan, mintaqada aholining muvozanatlashgan va samarali bandligiga erishishda to'plangan ijobiy tajribadan foydalanish imkoniyatini beradi.

Bandlikka bag'ishlangan yuqorida qayd etilgan kontseptsiyalarning rivojlangan mamlakatlar amaliyotida qo'llanilishi tahlili ko'rsatishicha, xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlikning o'sishi va umumiy ishchilar sonida surunkali ishsizlik ulushining qisqarishi "mehnatni tejashdan foydalanishning ustuvor shakli bo'lib chiqmoqda"<sup>90</sup>.

Har bir mamlakatda bandlikni tartibga solishda mamlakatdagi real iqtisodiy shart-sharoitlar va demografik vaziyat to'liq hisobga olinishi kerak. Aks holda ishsizlik, bandlik darajasining pasayishi, mintaqaviy nomutanosibliklarning kuchayishi kabi mehnat salohiyatidan foydalanish bilan bog'liq muammolar yuzaga chiqadi. Mehnat bozori holatiga me'yoriy hujjatlar va hukumat xatti-harakatlari bilan birgalikda, davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning dastaklari ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-yanvardagi videoselektridan

<sup>89</sup> История экономических учений: (современный этап) : Учебник/ Под общ.ред. Худокормова А.Г.-М: Инфра. М. 2014.

<sup>90</sup> Золотов А.В. О роли рабочего класса в современной экономике. //Вестник нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. Серия: Экономика и финансы. 2004. №2. С.545.



2. Шодмонов Ш., Мухамедов М., Камилова Н. Экономическая теория. Учебник. Т.: Iqtisod-moliya, 2021. 452 стр.
3. Экономическая теория: учебник / С.С. Носова. — 4-е изд., стер. — Москва: КНОРУС, 2017. - 792. с.
4. Волгин Н.А. Социальная политика: учебник/под общ.ред. Н.А.Волгина М.: Изд-во «Экзамен», 2002 г. 736
5. Костин Л.А., Зущина Г.М., Султанова Р.М. Рынок труда и теория занятости: учеб.пос. М.: АТиСО, 1997, 424 с.
6. Волгин П.А. Рынок труда. М.: Экзамен, 2003 г. 478 с.
7. Андреев С.В. Кадровый потенциал и проблемы занятости в условиях перехода России к рыночным отношениям. М.: Институт социологии. РАН, 2010 г. 184 с.
8. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. / Дж.М. Кейнс. М: Прогресс, 1978.-494с.
9. История экономических учений: (современный этап): Учебник/ Под общ.ред. Худокормова А.Г.-М: Инфра. М. 2014.
10. Золотов А.В. О роли рабочего класса в современной экономике. //Вестник нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. Серия: Экономика и финансы. 2004. №2. С.545.
11. N. Gregory Mankiw. Essentials of Economics. 10th edition. — Cengage Learning, 2024. — 580 p. — ISBN 978-0-357-72316-6.
12. <https://stat.uz/>

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SHAXS OTLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

*Babajanova Iqbol Salomaddinovna*

*Navoiy davlat universiteti*

*Mustaqil izlanuvchisi*

[iqbolsalomadinnovna@gmail.com](mailto:iqbolsalomadinnovna@gmail.com)

+998 99 664 56 86

**Annotatsiya:** *til inson hayotidagi o'rni va roli, muloqotning asosiy vositasi ekanligi, til madaniyatlararo munosabatlarni o'rnatuvchi asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida shaxs otlarining yasalishi, tilshunoslik tarixida so'z yasalishi, ingliz va o'zbek tilidagi o'xshashliklar, farqli jihatlar borasida tahliliy ma'lumot berilgan. Tilshunoslikda shaxs otlarining ahamiyati va uning lingvistik xususiyati ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan. Shaxs otlarining o'zbek tilshunosligida alohida soha sifatida ajralib chiqishi va tarixiy taraqqiyot bosqichlari borasida tahliliy umumlashtiruvchi fikr va mulohazalar yuritilgan. Shu bilan birgalikda ingliz tilshunosligida shaxs otlarining lingvistik xususiyatlari va uning tarkibi bosqichlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *til, tilshunoslik, inson, ot, so'z, muloqot, vosita, lingvistik, morfema, fonetik.*

### I.KIRISH

Til insonlarning muloqot vositasi sifatida aynan shu jamiyatning rivojlanishi va doimiy aloqada bo'lishini asosiy maqsad sifatida uning taraqqiyot darajasini oshirishga xizmat qiladi. Til insonlarning muloqot kaliti, ilm o'rganish, dunyoni bilish, kashf etish vositasidir. Uning yordamida jamiyatning muayyan madaniyati dunyo bilan izchil tarzda aloqada bo'ladi. Til natijasida madaniyatlararo munosabatlar va hamkorliklar yuzaga keladi. Bu holat jamiyat taraqqiyot darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Insoniyat rivojida muhim omil til va madaniyatning o'zaro va bog'liqligida o'z ifodasini topadi. Bu esa lingvistik chog'ishtirma tadqiqotlarning ko'lamini kengaytirishga imkoniyat beradi.

Bugun yurtimizda hukumronlik qilayotgan demokratik o'zgarishlar, hurfiylik, mafkuraviy erkinlik tamoyillarining barcha sohalarda jumladan tilshunoslik sohasida ham samarali ta'sir ko'rsatib, fanimizda turli hil yondashuv va qarashlarning shakllanishi, rivojlanishi va bir-birini to'ldirib qiyosiy jihatdan tadqiq etish imkoni bermoqda. Tilshunoslik turli xil tasnifiy-talqiniy metodlar, o'ziga xos metodologik tamoyillar bilan ish ko'radigan har bir ilmiy yo'nalishda o'zining alohida tomonlari, xususiyatlarini yorqinroq namoyon qilganligi bois gap qurilishida muhim o'rin egallaydigan shaxs otlari va uning talqini maslasi ham fanimizda bugun keng tarqalgan, ta'lim tizimida ommalashgan talqinlar doirasida – lingvistik, morfologik, semantik va pragmatik yo'nalishlarida alohida ko'rib o'tish lozim. ushbu bobda lingvistik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Har qanday ilmiy tadqiqot ma'lum bir metodologiya va metodlarga atayanadi.

## II. ASOSIY QISM

Har bir til o'zining ichki tuzilishi, fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi va semantik jihatlari bilan ajralib turadi. Ushbu jihatlari "lingvistik xususiyatlar" deb atalib, tilshunoslikda muhim o'ringa ega. Lingvistik xususiyatlar tahlili tilning struktura va funksiyasini, uning amaliy nutqdagi ifoda imkoniyatlarini chuqur o'rganishga imkon beradi. Lingvistik tipologiya: yunonchadan olingan bo'lib, (typos-nusxa, andoza, shakl, iz va logos- so'z ta'limot)-tillar o'rtasida genetik munosabatlardan qat'iy nazar, ularning tuzilmaviy va funksional xususiyatlarini qiyosiy o'rganuvchi tilshunoslik sohasi. Lingvistik jihatdan tadqiq etishda bir tilning ichki tuzilishi bo'yicha qiyoslash orqali uning genetik umumiylikni ochib berish mumkin. Lingvistik jihatdan tahlil qilishda kvantativ metodning ahamiyati katta hisoblanadi. Ushbu metod dunyo tillarini muayyan belgi asosida qiyoslash, ularni ana shu belgi asosida ma'lum bir guruhga birlashtirish uchun qo'llaniladigan metod hisoblanadi<sup>91</sup>. Ushbu metod qiyoslanuvchi va zidlanuvchi til tipologiyasining metodlaridan hisoblanadi. Til doimiy o'sishda va rivojlanishda bo'lgan dinamik hodisa hisoblanadi. Ana shu davr oralig'ida tilda o'sish, ajralish kabi holatlar yuz beradi.

Lingvistik xususiyat — bu til birliklarining o'ziga xos tuzilma, ma'no, funktsiya va ishlatilish kontekstiga xos bo'lgan belgilarining yig'indisidir. Har bir til birligi o'zining semantik yuklamasi, sintaktik roli yoki fonetik ohangi bilan ajralib turadi. Shuning uchun tilshunoslikda har bir daraja doirasida lingvistik xususiyatlarni aniqlash muhim hisoblanadi.

Lingvistik xususiyatlar quyidagicha tasniflanadi:

1. **Fonetik xususiyatlar** – tovushlar tizimi, urg'u, intonatsiya, fonemalar o'zaro munosabati va fonologik qonuniyatlar.
2. **Morfologik xususiyatlar** – so'zlarning tuzilishi, grammatik shakllanishi, affiksallik tizimlar.
3. **Sintaktik xususiyatlar** – so'z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ularning tartib va munosabat qonuniyatlari.
4. **Leksik-semantik xususiyatlar** – so'zlarning lug'aviy va kontekstual ma'nosi, sinonimiya, antonimiya, polisemiya.
5. **Pragmatik xususiyatlar** – nutqning vazifaviy yo'nalganligi, kontekstual ahamiyati, muloqotdagi psixologik va ijtimoiy jihatlari.

Har bir lingvistik daraja o'zining ichki qonuniyatlariga ega bo'lib, u orqali tilning murakkab, ammo tizimli shakllanishini ko'rish mumkin. Masalan, fonetik xususiyatlar orqali tovush tizimi va ohang muhitidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi, morfologik xususiyatlar esa so'z yasash jarayonini tushunishga yordam beradi.

O'zbek tilshunosligining rivojlanishida Mahmud Qoshg'ariyning roli juda katta. Ushbu olim dastlabki o'zbek tilshunosi, adabiyotshunosi va elshunosi hisoblanadi. Mahmud Qoshg'ari uch jildidan iborat "Devonu lug'oti-turk" (Turkiy tillar devoni) asarini yozadi. Ushbu devon lug'at bo'libgina qolmay balki XI asr tili va grammatikasidir. Shu bilan birgalikda olim turkiy tillarni bir-biriga qiyoslab o'rgangan. U dastlabki qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridandir. U turkiy tillarning leksikasi,

<sup>91</sup> Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. –T.: Akademnashr 2010. B-65

morfologiyasi va fonetikasini bir-biriga qiyoslab o'rgangan. Mahmud Qoshg'ariy o'zining asarida so'zlarni uch turkumga ismlar ya'ni otlar, fe'llar va yordamchi so'zlarga ajratgan. U yordamchi so'zlarni harflar deb atagan<sup>92</sup>. Mahmud Qoshg'ariy tilshunoslikda muhim masalalardan bo'lgan tilshunoslikning kelib chiqishi, so'z turkumlari va qay biri oldin paydo bo'lgan, ikki tillilik masalasi, chet tillarning ta'siri kabi nazariy masalalarga ham to'xtalib o'tgan.

O'zbek tilshunosligi va so'z turkumlari, ot so'z turkumi hamda shaxs otlarining yasallishiga doir tadqiqot ishlaridan XI asrda yashab ijod etgan Az-Zamahshariy "Muqaddimat ul-adab" "Adabiyotga kirish" nomli asarida o'zbek tili grammatikasiga doir qimmatli qarashlar qoldirgan. Uning ushbu asari besh qismdan iborat bo'lib, ismlar, fe'llar, bog'lovchilar, ismlarning turlanishi, fe'llarning tuslanishi kabi bo'limlardan iborat. Ushbu asarda ot so'z turkumi va uning turlanishi haqida ma'lumotlar berilgan<sup>93</sup>.

O'zbek tilshunosligining yetuk olimlaridan E.Fozilov va M.Ziyeyevalar mog'ullar davrida yozilgan "At-tuhfa" asarini arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib, ushbu asardagi grammatik qoidalarni tahlil qilgan. Arab tilida ot so'z turkumi ism deb atalib ushbu kitob arab tilida yozilganligi sababli, arab tili grammatikasi va turkey tillar grammatikasini solishtirishi natijasida solishtirma grammatikaning ilk namunasi paydo bo'ladi. Unda so'z turkumlarini ot, fe'l va yordamchi so'z turkumlariga ajratadi. Olmosh, sifat, son va ravish otning tarkibida o'rganiladi. Ushbu manbaning bizning dissertatsiyamiz uchun tadqiqot manbasi sifatidagi qiymati otlarning son, egalik, kelishik, kategoriyalari haqida ma'lumot berilganligi bilan qimmatlidir<sup>94</sup>. "At-tuhfa" asarida ot va uning Grammatik xususiyatlari batafsil berilgan.

O'zbek tilida so'z turkumlari orasida otlar asosiy leksik-morfologik guruh sifatida alohida o'rin egallaydi. Otlar orqali mavjudotlar, narsalar, hodisalar va tushunchalar nomlanadi. Shu jihatdan otlar tildagi nomlash funksiyasining asosiy vositasi hisoblanadi. Otlarning semantik guruhlari ichida **shaxs otlari** tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular ijtimoiy-madaniy, tarixiy va shaxsiy identifikatsiyaga bevosita bog'liqdir.

Shaxs otlari — bu aniq bir shaxs, inson yoki u bilan bog'liq ijtimoiy rol, lavozim, martaba, ism-sharif yoki familiyani bildiruvchi otlardir. Ular kishilarni boshqa mavjudotlardan ajratib turadi va o'ziga xos nomlash vazifasini bajaradi. Shaxs otlari lingvistik jihatdan antroponimlar tizimi bilan chambarchas bog'liq.

Shaxs otlari faqatgina individual identifikatsiya uchun emas, balki madaniy-ma'naviy meros, tarix, urf-odatlar va mentalitet haqida ham ma'lumot beradi. Antroponimika sohasi shaxs otlarini o'rganish bilan shug'ullanadi va bu yo'nalish tilshunoslik, tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik bilan uzviy aloqada bo'ladi<sup>95</sup>. Shaxs otlari har bir tilda juda qadimiy qatlamga mansub bo'lib, ularning kelib chiqishi tilning eng dastlabki taraqqiyot bosqichlariga borib taqaladi. Bu so'zlar ko'pincha boshqa so'zlardan emas, balki qadimiy ildizlardan, affiksalar qismlardan shakllangan.

<sup>92</sup> Gadoyeva D.B. O'zbek tilshunosligi tarixi. Navoiy 2013. B-10.

<sup>93</sup> Qarang: O'sha manba. B-15.

<sup>94</sup> Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. —T.: O'zbekiston 2002. B-61.

<sup>95</sup> Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Ташкент, 1965. — 28 б.

Qadimgi turkiy tillarda **“ben”**, **“min”**, **“men”** shakllarida uchragan. **“Men”** shakli qadimgi turkiy tildan o‘zbek tiliga o‘zgarishsiz deyarli o‘tgan. Bu shaklning ildizi juda qadimiy, balki protoural-altay tillariga borib taqaladi. Qadimgi turkiy tillarda **“sen”**, **“sän”**, **“sänik”** shakllarida mavjud. Qadimgi turkiyda **“ol”**, **“ul”**, **“u”** shakllarida qo‘llangan. **Biz** – ba’zi tilshunoslarga ko‘ra, "men + iz (ko‘plik yoki egalik qo‘shimchasi)" shaklidan paydo bo‘lgan bo‘lishi mumkin deya ta’riflashadi. **Siz** – aslida hurmat shakli, ko‘plik formasidan kelib chiqqan. Tarixan yagona kishiga murojaatda ham ishlatilgan. **Ular** – **“u”** olmoshiga ko‘plik qo‘shimchasi **“-lar”** qo‘shilishi orqali yuzaga kelgan. Shu tariqa shaxs bildiruvchi otlar ham shakllangan. Shaxs otlarining kelib chiqishi, ayniqsa olmoshlar, tilning eng qadimgi bosqichlariga borib taqaladi. Ular ko‘pincha boshqa so‘zlardan yasalgan emas, balki dastlabki nutq unsurlaridan bo‘lib, asosiy kommunikativ ehtiyoj – o‘zini, boshqani va uchinchi shaxsni ifodalash zaruriyatidan kelib chiqqan. Shaxs bildiruvchi otlar esa tilga tashqi (arab, fors, semit) ta’sirlar bilan boyigan.

Otlar tilning asosiy leksik va grammatik birliklaridan biri sifatida tilshunoslikda eng ko‘p o‘rganilgan sohalaridan biridir. Ular shaxslar, narsalar, joylar, hodisalar va tushunchalarning nomini ifodalaydi. Otlar ma’no jihatdan ham, grammatik funktsiya jihatdan ham til tizimining markaziy yadrosini tashkil etadi (Lyons, 1977).

Shaxs otlari esa otlar doirasidagi maxsus kichik toifani tashkil etib, aniq bir individ yoki shaxsga oid bo‘lgan nomlarni bildiradi. Ingliz tilshunosligida shaxs otlari **“proper nouns”** yoki **“personal names”** deb yuritiladi va ular doimiy aniq ma’lumotni ifodalaydi: masalan, *John, Elizabeth* Shaxs otlari grammatik kategoriya sifatida definiteness (aniqlik) va referentiality (yo‘naltirilganlik) xususiyatlariga ega bo‘ladi (Anderson, 2007)<sup>96</sup>.

Ingliz tilida shaxs otlarining paydo bo‘lishi va shakllanishi qadimgi german va kelt tillariga borib taqaladi. O‘rta asrlarda diniy va qirolik sivilizatsiyalari orqali ko‘plab bibliviy va qirolik ismlari (James, Mary, Henry) keng tarqalgan. XIX asr oxirlarida esa anglo-sakson va lotin manbalaridan kirib kelgan ismlar dominant bo‘la boshladi (Room, 1992).

Shaxs otlari tilshunoslikda **“antropoonymlar”** degan keng toifadagi nomlash birliklariga kiradi. Ular individni boshqa individlardan farqlash uchun ishlatiladigan individual va identifikatsiyalovchi belgilar hisoblanadi. Dastlabki odamlar jamiyatida insonlar ko‘pincha jismoniy yoki ijtimoiy belgilar asosida nomlangan — masalan, qabila boshlig‘i, yoshi kattaligi, jasorati yoki tashqi qiyofasiga qarab. Vaqt o‘tishi bilan bu belgilar doimiy ismga aylangan (Algeo, 1992)<sup>97</sup>.

Qadimgi jamiyatlarda shaxs otlari funksional xarakterga ega bo‘lib, ular insonning ijtimoiy maqomini, kasbini, etnik kelib chiqishini bildirgan. Masalan, qadimgi germanlarda **“Wulfgar”** — **“bo‘ri jangchisi”**, yoki qadimgi o‘zbeklarda **“To‘raqul”** — **“bekning o‘g‘li”** ma’nolarini bergan. Bu esa shaxs otlarining semantik boyligi va ularning ijtimoiy ko‘rsatkich sifatidagi rolini ko‘rsatadi.

<sup>96</sup> Anderson, J. M. (2007). The grammar of names. Oxford University Press.

<sup>97</sup> Algeo, J. (1992). Onomastics: The study of names. In The Cambridge History of the English Language (Vol. 5). Cambridge University Press.



Ingliz tilidagi shaxs otlarining tarixi qadimgi ingliz tilidan (Old English, milodiy V–XI asrlar) boshlanadi. O'sha davrda ismlar asosan germantik ildizli bo'lib, ikki qismlik struktura ega bo'lgan: *Beornwulf* (beorn – jangchi + wulf – bo'ri).

Norman bosqinidan (1066-yil) so'ng ingliz ismlar tizimiga ko'plab fransuzcha va lotinchalashgan ismlar kirib keldi: *William, Henry, Richard*. Bu davrda ismlar ko'pincha feodal ierarxiya asosida berilgan.

Renessans davrida esa ko'plab klassik (yunon, lotin) ismlar keng tarqaldi: *Alexander, Sophia, Catherine*. Bu davr shaxs otlarining madaniy markerga aylanishini boshlab berdi (Wilson, 1998)<sup>98</sup>.

XIX–XX asrlarda protestant an'anasi, pop madaniyati va milliy identitet asosida yangi ismlar tizimi rivojlandi. Hozirda ingliz tilida shaxs otlari shaxsiy, familiya va unvon (title) shaklida qat'iy strukturalashtirilgan.

### III. Natijalar

Shaxs otlari tilshunoslikda ko'p qirrali tushuncha sifatida ko'riladi. Ularning o'ziga xos semantik, grammatik va pragmatik funksiyalari mavjud. Quyidagi nazariy yondashuvlar asosiy hisoblanadi:

Onomastik yondashuv: Bu yondashuvda shaxs otlari maxsus onomastik birlik sifatida o'rganiladi. Ular klassik semantikaga to'g'ri kelmaydi, ya'ni ularning asosiy maqsadi — referensiya (aniqlik bilan kimnidir ko'rsatish), ma'no emas. Bu fikrni Mill (1843) ilk bor ilgari surgan: "ism – bu shunchaki belgidir".

Kognitiv yondashuv: Kognitiv tilshunoslik vakillari shaxs otlarini identitet va inson xotirasidagi kontseptlar bilan bog'lashadi. Masalan, *Emma* degan ism nafaqat insonni bildiradi, balki muayyan madaniyat, ruhiy obraz, xotiralar bilan birga ifodalanadi (Lakoff, 1987). Kognitiv tilshunoslikda shaxs otlari inson ongi va xotirasidagi mental model sifatida qaraladi. Ism — bu shunchaki belgining belgisi emas, balki u bilan bog'liq bilimlar, hissiyotlar, tajribalar majmuasini ifodalaydi (Lakoff, 1987)<sup>99</sup>.

Pragmatik yondashuv: Bu yondashuvda shaxs otlari kommunikativ jarayondagi roli orqali o'rganiladi. Masalan, ism aytish va tanishtirishdagi nutq aktlari, ijtimoiy muomala me'yorlari, hurmat yoki qulaylik ifodasi sifatida ismlardan foydalanish (Brown & Levinson, 1987).

Sotsiolingvistik yondashuv: Shaxs otlari jamiyatdagi sinfiy, milliy, jinsiy yoki diniy identitetlarni ifodalovchi vosita sifatida qaraladi. Bu yondashuvda ism tanlash – shaxsiy emas, balki ijtimoiy-madaniy tanlov sifatida tahlil qilinadi (Bourdieu, 1991)<sup>100</sup>. Sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan, shaxs otlari insonning milliy, ijtimoiy, jinsiy, diniy va madaniy identitetini aks ettiradi (Bourdieu, 1991)<sup>101</sup>.

*Muhammad* — diniy identitet

*Olivia* — ingliz madaniyatiga oid zamonaviy ismlar

*Jaloliddin* — tarixiy-milliy ong

<sup>98</sup> Wilson, S. (1998). *The Means of Naming: A Social History*. UCL Press.

<sup>99</sup> Lakoff, G. (1987). *Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind*. University of Chicago Press.

<sup>100</sup> Bourdieu, P. (1991). *Language and symbolic power*. Harvard University Press.

<sup>101</sup> Qarang: o'sha manba

Shaxs otlari tilshunoslikda turli fanlararo yondashuvlar bilan tadqiq etilib, ularning vazifasi, tuzilishi, semantikasi va madaniy kontekstdagi o'zni xilma-xil paradigmalarda ko'rib chiqiladi. Quyida shaxs otlariga oid yondashuvlarning asosiy turlari va ularning o'zbek hamda ingliz tillarida qo'llanishi tahlil qilinadi.

Bu yondashuv XX asr boshlarida strukturaviy tilshunoslik asosida shakllangan bo'lib, shaxs otlari fonetik, morfologik va sintaktik jihatdan tahlil qilinadi. Shaxs otlari odatda:

- Kapital harf bilan yozilishi (ingliz tilida),
  - Artikl va aniqlovchilarning ishlatilmasligi,
  - Singular shaklda qo'llanishi,
  - Sintaktik jihatdan ega yoki to'ldiruvchi vazifasini bajarishi,
- kabi belgilar bilan tavsiflanadi (Quirk et al., 1985).

Semantik yondashuvda shaxs otlari boshqa otlarga qaraganda aniqlik (definiteness) va referensiallik jihatidan farqlanadi. Shaxs otlari konkret individni bildiradi va deiksis (yo'naltirilganlik) xususiyatiga ega. Masalan, *John* yoki *Elizabet* — bu umumiy emas, balki ma'lum bir shaxsni anglatadi.

Bu yondashuv bo'yicha shaxs otlari odatda izohlovchi semantik ma'noga ega emas, ular nomlash funksiyasini bajaradi (Mill, 1843). Ammo ba'zi hollarda shaxs otlari ichki semantik qatlamni saqlaydi.

Pragmalingvistika nuqtayi nazaridan, shaxs otlari ijtimoiy muloqot, hurmat, psixologik yaqinlik va nutq aktida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ism bilan murojaat qilish yoki ismni ishlatmaslik — bu har doim nutq egasining niyatini va sotsiolingvistik mavqeini bildiradi (Brown & Levinson, 1987)<sup>102</sup>.

Masalan, ingliz tilida “Mr. Smith” degan ifoda rasmiy, masofa saqlovchi, hurmatga asoslangan murojaat bo'lsa, “John” oddiy, yaqin yoki do'stona muloqot uchun ishlatiladi.

Shaxs otlari universalikka ega bo'lgan tilshunoslik kategoriyasidir. Ingliz tilida shaxs otlarining maqomi va funksiyasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bu murakkab va baxsli mavzu hisoblanadi. Shaxsiy otlar madaniyatlararo farqlanuvchi mezonlarga asoslangan holda tizimlashtirilgan bo'lib, ular tegishli jamiyatni talqin qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular real hayotda mavjud bo'lgan yagona ob'ektlarga ishora qiluvchi referensial funksiyani bajaruvchi lingvistik birliklardir. Ko'rsatkich so'zlar (deiktiklar)ga o'xshash tarzda, ular to'g'ridan-to'g'ri kontekstga bog'liq emas.

Ingliz tilida shaxs otlari proper nouns deb yuritiladi. bu odamlar, tashkilotlar yoki joylarning aniq nomlarini bildiruvchi so'zlardir. Ular doimo bosh harf bilan yoziladi. Har bir insonning ism-familiyasi shaxs otlari hisoblanadi. Undan tashqari kompaniya, tashkilot, savdo belgilarining nomlari, hayvonlarga shahar mamlakatlar, tarixiy obidalar, avtomobil modellari, oy, hafta kunlari, bayramlar nomlari, din, muqaddas kitoblarga berilgan otlar ham shaxs otlari hisoblanadi.

<sup>102</sup> Brown, P., & Levinson, S. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.

Ingliz tilida shaxs otlarining birinchi lingvistik xususiyati - yozuvdagi bosh harf bo'lib, bu oddiy ot (common noun) bilan shaxsiy ot (proper noun)ni farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan: Rosemary (ism) va rosemary (ziravor).

Ba'zi shaxs otlar so'z yasash jarayonlariga ham bo'ysunadi. Masalan, hypocorism (erkalatib aytish shakllari) – bu to'liq ismning qisqartma yoki erkalash shakllari bo'lib, turli usullar bilan hosil qilinadi. Grammatik nuqtai nazardan, shaxsiy otlar turli muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan, ularning ichki tuzilishi: ular bir so'zli yoki ko'p so'zli bo'lishi mumkin, ba'zida artiklni ham o'z ichiga oladi (London, John Smith, The Red Sea). Shaxs otlar oldidan ba'zida unvonlar qo'llanadi (Mr. Smith, Aunt Mary), bu unvonlarning grammatik maqomi ba'zida bahsli bo'ladi.

#### IV.XULOSA

Xulosa qilib aytganda, shaxs otlarning semantikasi haqida fikr yuritsak — bu masala John Mill davridan boshlab ko'p muhokama qilingan. Shaxsiy otlar diaxronik (vaqt o'tishi bilan) asosli bo'lib, ularning kelib chiqishi ko'pincha aniq: masalan, ba'zi familiyalar kasblardan yoki ajdodning ismidan kelib chiqqan (son of Richard - Richardson, miller - Miller). Biroq sinxronik (hozirgi zamonda) jihatdan ular ko'pincha ma'nosizdek tuyuladi: "ko'pchilik tilshunoslar fikriga ko'ra, shaxsiy otlar ma'noga ega emas".

Ingliz va o'zbek tillarida shaxs otlari (antroponimlar) tilning muhim nomlash birliklaridan biri sifatida har ikki tilda ham ijtimoiy, madaniy va tarixiy ma'lumot tashuvchisi hisoblanadi. Ular semantik, morfologik va funksional xususiyatlari jihatidan qator umumiylik va farqlarga ega. Ingliz tilidagi shaxs otlari ko'pincha qadimgi german, lotin, yunon, fransuz manbalariga tayansa, o'zbek tilidagi antroponimlar turkiy, islomiy (arab, fors-tojik) va milliy-madaniy omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Morfologik jihatdan, o'zbek tilida shaxs otlari ko'pincha ergashuvchi qo'shimchalar orqali shakllanib, ot turkumidagi boshqa so'zlar kabi egalik, ko'plik va kelishik qo'shimchalarini oladi. Ingliz tilida esa shaxs otlari grammatik o'zgarishga kam uchraydi, asosan egalik ('s) va ko'plik (-s) shakllarida ifodalanadi.

Fonetik xususiyatlarda ham farqlar mavjud bo'lib, o'zbek tilida talaffuz yozuvga yaqin bo'lsa, ingliz tilida fonetik yozuvdan keskin farqlanishi mumkin. Ijtimoiy-lingvistik nuqtai nazardan, har ikki til jamiyatida shaxs otlari ijtimoiy maqom, madaniyat, diniy e'tiqod va tarixiy jarayonlarning aksidir.

Ingliz va o'zbek tillaridagi shaxs otlari o'ziga xos lingvistik tizimga ega bo'lib, ularning qiyosiy tadqiqi har ikki tilning madaniy-lisoniy xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi hamda antroponimik sistemalarning universal va milliy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

#### V.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. –T.: Akademnashr 2010. B-65
2. Gadoyeva D.B. O'zbek tilshunosligi tarixi. Navoiy 2013. B-10.
3. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. –T.: O'zbekiston 2002. B-61.

4. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 28 б.
5. Anderson, J. M. (2007). The grammar of names. Oxford University Press.
6. Algeo, J. (1992). Onomastics: The study of names. In The Cambridge History of the English Language (Vol. 5). Cambridge University Press.
7. Wilson, S. (1998). The Means of Naming: A Social History. UCL Press.
8. Lakoff, G. (1987). Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. University of Chicago Press.
9. Bourdieu, P. (1991). Language and symbolic power. Harvard University Press.
10. Brown, P., & Levinson, S. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.
11. Madvaliyev A. “Onamastika” “Sharq” 2018. 3-7 bet
12. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1988. С. 96.

## **KOMMERSIYA BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA AUDITNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

*Saydullayeva Zaynab A'zam qizi*  
*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Buxgalteriya hisobi*  
*kafedrasi o'qituvchisi*

*Annotatsiya – Bank tizimining barqarorligi va ishonchliligini ta'minlashda buxgalteriya hisobi va audit asosiy nazorat vositasi sifatida alohida o'rin egallaydi. Ushbu maqolada tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish amaliyotini takomillashtirish, moliyaviy axborotlarning aniqligi va shaffofligini oshirish hamda audit faoliyatining samaradorligini kuchaytirish yo'llari tahlil qilinadi. Buxgalteriya hisobida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish, real vaqt rejimidagi monitoring mexanizmlarini kengaytirish kabi omillar samarali nazorat va tahlil jarayonlarini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, audit tizimini mustahkamlashda riskga asoslangan yondashuvlar, ichki audit standartlarini joriy etish va auditorlar malakasini oshirish zarurligi asoslab berilgan. Maqolada ilgari surilgan ilmiy xulosalar tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari ishonchliligini ta'minlash, moliyaviy tahlilning aniqligini oshirish hamda audit faoliyatini xalqaro standartlarga mos ravishda yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.*

*Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, audit, tijorat banklari, moliyaviy nazorat, moliyaviy hisobotlar, ichki audit, tashqi audit, axborot texnologiyalari*

### **KIRISH**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari moliyaviy muomalalarning eng muhim subyektlaridan biri hisoblanadi. Ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligi mamlakatning umumiy iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, banklar faoliyatida buxgalteriya hisobi tizimining aniq, shaffof va zamonaviy talablarga javob beradigan darajada tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy axborotlarning haqqoniyligi, samarali tahlili va hisobotlarning ishonchliligi aynan buxgalteriya hisobining yuksak darajada yuritilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Ayni vaqtda, bank tizimida buxgalteriya hisobini yuritish jarayonlari tobora murakkab tus olib bormoqda. Bu esa o'z navbatida raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirishni, axborot tizimlarini avtomatlashtirishni va xalqaro buxgalteriya standartlariga muvofiq ish yuritishni talab etmoqda. Shuningdek, bank tizimida audit faoliyatining roli ham ortib bormoqda. Audit moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini tekshirish, ichki nazorat tizimlarining ishonchliligini baholash hamda qonuniylikni ta'minlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tijorat banklarida audit samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, riskga asoslangan yondashuvlar, ichki va tashqi audit o'rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik, shuningdek auditorlarning malakasini oshirish zamonaviy boshqaruv talablariga mos keladigan tizimni shakllantirishda hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada tijorat banklarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish, audit faoliyatini rivojlantirish va nazorat tizimining samaradorligini oshirish



yo'nalishlari nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mavjud muammolar va ularning yechimiga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi va audit tizimining takomillashuvi bugungi kunda jahon moliya tizimidagi islohotlar, raqamli transformatsiya jarayonlari hamda xalqaro hisobot standartlarining keng joriy etilishi bilan yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buxgalteriya hisobining to'g'ri yuritilishi bankning moliyaviy holati to'g'risida ishonchli axborotni taqdim etish bilan birga, risklarni aniqlash, nazorat qilish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, audit tizimi ushbu jarayonlarning haqqoniyligini baholovchi va tizimda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolik va buzilishlarning oldini oluvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi masalalariga oid klassik yondashuvlar orasida A. A. Sokolov, Y. V. Sokolov, V. D. Novodvorskiy kabi olimlar tomonidan taklif etilgan nazariy asoslar muhim o'rinni egallaydi. Ular buxgalteriya hisobi prinsiplari, hisoblash usullari va axborotning ishonchligini ta'minlash mexanizmlarini chuqur tahlil qilganlar. Jumladan, buxgalteriya axborotlarining haqqoniyligi va tizimligi korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlovchi omillardan biri ekanligi ularning ishlarida alohida ta'kidlab o'tiladi.

Audit faoliyatining nazariy asoslari bo'yicha esa R. Karpov, I. Shershnev, M. Sheremet va N. Bezrukov kabi mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar asos qilib olinadi. Ularning tadqiqotlarida auditning turlari, ichki va tashqi auditning farqlari, xalqaro audit standartlari (ISA) asosida tekshiruv o'tkazish tartibi va auditorlik xulosasining shakllanish jarayoni keng yoritilgan. Ayniqsa, riskga asoslangan audit konsepsiyasi va ichki nazorat tizimining baholash mezonlari tijorat banklarida samarali audit tizimini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro miqyosda nashr etilgan ilmiy maqolalar va amaliy tadqiqotlar, jumladan, Basel III me'yorlari, IFRS (International Financial Reporting Standards) talablari va ACCA, IFAC kabi tashkilotlarning tavsiyalari bank sektorida moliyaviy hisobdorlik va audit sifati ustuvor yo'nalish bo'lib borayotganini ko'rsatadi. D. Crawford va R. Green tomonidan olib borilgan izlanishlarda buxgalteriya hisobida avtomatlashtirilgan tizimlar va moliyaviy monitoring vositalarining keng joriy etilishi audit jarayonining aniqligi va tezkorligini oshirishini isbotlovchi dalillar keltiriladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston olimlari ham bu borada qator ilmiy ishlar amalga oshirmoqda. Xususan, Sh. Xodjayev, R. Axmedov, A. Kamilov va Z. Alimov kabi iqtisodchilar tijorat banklarida buxgalteriya hisobi va audit tizimini milliy qonunchilik, xalqaro standartlar va amaliy ehtiyojlar nuqtai nazaridan takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratishmoqda. Ularning ilmiy ishlarida raqamli texnologiyalarni bank buxgalteriyasiga tatbiq etish, real vaqt rejimida monitoring qilish, ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlash orqali audit samaradorligini oshirish g'oyalari ilgari surilgan.

Shuningdek, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish, ularning shakllanishi va e'tiborga olinadigan asosiy ko'rsatkichlar ustida olib borilgan amaliy tadqiqotlar buxgalteriya axborotlarining qaror qabul qilishdagi ahamiyatini yanada

oshiradi. Yangi tadqiqotlar, jumladan, korporativ boshqaruv, compliance (moslik) nazorati va moliyaviy barqarorlik indeksleri kabi omillar bank auditining yangi yo'nalishlarini shakllantirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida buxgalteriya hisobi va audit faoliyatini takomillashtirish uchun an'anaviy yondashuvlarni zamonaviy texnologiyalar, raqamli tahlil vositalari va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifadir. Ilmiy tadqiqotlar, milliy qonunchilik va xalqaro tajribalarni umumlashtirish orqali auditning ishonchliligini va buxgalteriya hisobining axborot sifatini yuqori bosqichga olib chiqish mumkin.

## METODOLOGIYA

Mazkur ilmiy tadqiqotning metodologiyasi bank tizimida buxgalteriya hisobi va audit faoliyatining samaradorligini baholash, takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan kompleks yondashuv asosida shakllantirilgan. Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar uyg'un ravishda qo'llanilib, ularning o'zaro bog'liqligi orqali aniqlik va ob'ektivlik ta'minlandi.

Birinchi navbatda, sistemali yondashuv asosida tijorat banklari faoliyatidagi buxgalteriya hisobi va auditning funksional bog'liqligi, ularning bank barqarorligiga ta'siri hamda moliyaviy nazoratdagi roli tahlil qilindi. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga muvofiqligi, moliyaviy axborotlarning aniqligi va tezkorligi, audit jarayonlarining samaradorligi – asosiy baholov mezonlari sifatida belgilandi.

Tahliliy-metodik yondashuv orqali O'zbekistonning 10 ta yetakchi tijorat banklari misolida moliyaviy hisobotlar, audit natijalari, operatsion xarajatlar, kredit portfeli sifati, aktivlar va passivlar strukturasi o'ld ochiq statistik ma'lumotlar (2019–2023 yillar oralig'ida) asosida amaliy tahlil o'tkazildi. Banklarning buxgalteriya hisobini yuritishdagi avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish darajasi, auditorlik xulosalarining sifati va aniqligi, risklarni baholash metodikasi, ichki nazorat tizimining mavjudligi ham chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqotda taqqoslash usuli yordamida banklar faoliyatidagi buxgalteriya va audit yondashuvlari xalqaro amaliyot bilan solishtirildi. Ayniqsa, Basel III, IFRS va ISA talablari asosida yuritilayotgan hisob va audit tizimlari bilan O'zbekiston bank sektoridagi amaliyot o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Bu yondashuv milliy tizimdagi bo'shliqlar va takomillashtirish zarur bo'lgan jihatlarni aniqlashga imkon berdi.

Iqtisodiy-statistik usullar asosida regressiya tahlili qo'llanilib, audit jarayonining samaradorligi bilan bank rentabelligi o'rtasidagi bog'liqlik statistik jihatdan isbotlandi. Shuningdek, ichki audit mavjudligi va ichki nazorat indikatorlarining ROI, ROE va CAR ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Bu usullar natijasida tizimli va faktlarga asoslangan xulosalar ishlab chiqildi.

Ekspert baholash usuli orqali amaliy tajribaga ega bo'lgan auditorlar, bank mutaxassislari, moliyaviy nazorat sohasi vakillari bilan strukturalashtirilgan intervyular tashkil qilindi. Ekspertlarning amaliy kuzatuvlari asosida auditni raqamlashtirish, masofaviy audit monitoring tizimlarini joriy etish, xatarlarni erta aniqlash algoritmlarini bank amaliyotiga moslashtirish bo'yicha takliflar shakllantirildi.


Shuningdek, tadqiqot davomida normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usulidan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi, va Davlat audit xizmati tomonidan tasdiqlangan huquqiy-me'yoriy bazalar tahlil qilindi. Bu orqali mavjud tartiblar va ularning xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasi baholandi.

Umuman olganda, tadqiqotda qo'llanilgan metodlar quyidagi asosiy vazifalarga xizmat qildi:

- Tijorat banklarining buxgalteriya hisobini zamonaviy talablar asosida baholash;
- Audit faoliyatining samaradorlik darajasini aniqlash;
- Banklarda raqamli audit mexanizmlarini joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilish;
- Ilmiy asoslangan va amaliyotga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqish.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi va audit tizimining hozirgi holatini o'rganish orqali moliyaviy boshqaruvning ichki mexanizmlari va ularning real samaradorlik darajasi aniqlashtirildi. Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar banklar faoliyatida hisob-kitob jarayonlarining ko'p hollarda yarim avtomatlashtirilgan shaklda olib borilishini, ayrim hollarda esa xalqaro buxgalteriya standartlariga moslashtirish uchun qo'shimcha tuzatishlar zarurligini ko'rsatdi. Bu esa mavjud tizimlarda inson omilining yuqoriligini saqlab qolgan holda axborot oqimlarining ishonchligini susaytirayotganligini tasdiqlaydi. Tashqi audit jarayonlari esa, ko'p hollarda shaklan tekshirishlar darajasida bo'lib, chuqur tahliliy yondashuvdan yiroq ekani kuzatildi. Ayni paytda raqamli texnologiyalarni faol joriy qilgan banklarda esa avtomatlashtirilgan axborot oqimlari orqali buxgalteriya axborotlarining tezkorligi, aniqligi va tahliliy qamrovi sezilarli darajada oshgani aniqlandi.



**1 – rasm. Tijorat banklarida buxgalteriya va audit tizimi tahlilining asosiy yo'nalishlari**

Empirik tahlillar banklar moliyaviy natijalarining samaradorligi ularning buxgalteriya hisob tizimi sifati bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, aktivlar va passivlar strukturasi, kredit portfeli holati va xarajatlar monitoringi singari ko‘rsatkichlar hisobotlarning real holatni qanchalik aniqlik bilan aks ettirishiga bog‘liqdir. Bu yerda avtomatlashtirilgan platformalarning mavjudligi nafaqat tezkor ma‘lumot almashinuvini, balki ichki auditning faol ishlashini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, ayrim banklarda buxgalteriya axborotlari faqat shakliy talablarga javob beruvchi hisobotlarni tayyorlash bilan cheklangani, natijada moliyaviy qarorlar qabul qilishda asosli va kompleks yondashuv yetishmasligi aniqlangan. Bu holat amaliyotda mavjud tizimlarning islohotlarga muhtojligini anglatadi.

Audit faoliyatining holatini baholash jarayonida esa, ichki audit xizmatlari bilan tashqi auditorlar o‘rtasida samarali axborot almashinuvi yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagani, audit tavsiyalarining ijrosiga doir mexanizmlar kuchsiz ekani ma‘lum bo‘ldi. Shu bilan birga, ilg‘or banklarda raqamli audit texnologiyalarining joriy qilinayotgani, masofaviy monitoring va riskga asoslangan audit konsepsiyasining bozor sharoitlariga moslashtirilayotgani sezilarli farqlarni yuzaga chiqardi. Bu farqlar esa banklar o‘rtasida boshqaruv madaniyati, raqamli tayyorgarlik va nazorat tizimlari darajasidagi tafovutlarni ko‘rsatadi.

Umuman olganda, buxgalteriya hisobi va audit faoliyati o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular orqali banklarning moliyaviy holati, samaradorligi va barqarorligi yuzasidan aniq va asosli xulosalar chiqarish imkoniyati yaratiladi. Tahlil qilingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, nafaqat texnik vositalarni yangilash, balki nazariy-metodik yondashuvlarni ham tubdan takomillashtirish lozim. Ayniqsa, axborotlarni raqamlashtirish, audit jarayonini avtomatlashtirish, ichki nazorat tizimining funksional mustahkamlanishi orqali real samaradorlikka erishish mumkin. Tashkilot ichidagi buxgalteriya va audit integratsiyasi kuchaytirilmaguncha, moliyaviy boshqaruvda kompleks yondashuv yuzaga kelmaydi. Shuning uchun ham zamonaviy banklarda buxgalteriya axborotlari va audit natijalari faqat hisobot funksiyasini emas, balki strategik boshqaruv qarorlarini shakllantiruvchi asosiy manba vazifasini bajarishi lozim.

## XULOSA

Tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi, moliyaviy xavfsizlikni ta‘minlashi va raqobatbardoshligini saqlab qolishi bevosita buxgalteriya hisobining mukammalligi va audit tizimining ishonchliligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, buxgalteriya hisobi jarayonlarining avtomatlashtirilmagan yoki cheklangan texnologik infratuzilmaga ega bo‘lgan shaklda olib borilishi banklar faoliyatida moliyaviy axborotlar sifatining pasayishiga, tahlilning sustlashishiga va strategik qarorlarning samarasizligiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan buxgalteriya tizimi nafaqat tezkorlikni, balki axborotlarning aniqligi, real vaqt rejimida monitoring imkoniyati va moliyaviy nazoratning yadro funksiyasini kuchaytiradi.

Audit faoliyati esa moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini mustahkamlash, ichki nazorat mexanizmlarining ishonchliligini baholash va bank rahbariyatining

qarorlarini ob'ektiv asoslashda hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida kuzatilgan holatlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab banklarda audit faoliyati shakliiy tekshiruvdan nariga o'tmaydi, tavsiyalar ijrosi yuzasidan izchil tizim yo'q, ichki va tashqi audit o'rtasidagi o'zaro integratsiya esa yetarli emas. Holbuki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda audit faqat tekshirish vositasi emas, balki moliyaviy boshqaruvning funksional elementi sifatida qaralishi kerak. Aynan shu jihatdan qaralganda, bank tizimida riskga asoslangan audit yondashuvlari, raqamli audit platformalari, avtomatik xatolik aniqlash algoritmlarining joriy etilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Buxgalteriya hisobining zamonaviylashuvi, audit jarayonlarining sifat jihatdan yuksalishi va ularning o'zaro integratsiyasi natijasida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi oshadi, investitsion jozibadorligi kuchayadi va nazorat mexanizmlarining ochiqqligi ta'minlanadi. Bu esa nafaqat ichki boshqaruvni optimallashtirish, balki jamiyat va davlat oldidagi ishonchli subyekt sifatidagi maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Moliyaviy axborotlarning haqqoniyqligi va audit natijalarining chuqur analitik asosga ega bo'lishi bank faoliyatining strategik rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishda, xatoliklar va moliyaviy buzilishlarning oldini olishda muhim vosita bo'lib qolmoqda.

Shunday ekan, tijorat banklarida buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirish masalasi faqat texnik yoki me'yoriy yondashuvlar doirasidagina hal etilmasligi, balki boshqaruv falsafasi, korporativ madaniyat, raqamli transformatsiya va xalqaro tajriba integratsiyasi asosida chuqur o'ylangan kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu maqolada berilgan ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar kelgusida bank sektorining samaradorligini oshirish, moliyaviy boshqaruv sifatini takomillashtirish va audit islohotlarini yangi bosqichga olib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sokolov, A.A. (2023). Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Renessans ta'lim universiteti.
2. Hamdamov, B.Q. (2020). Auditning xalqaro standartlari. Iqtisod-Moliya.
3. Basel Committee on Banking Supervision. (2017). Basel III: Finalising post-crisis reforms. Bank for International Settlements.
4. Aralov, S.J. (2023). O'zbekiston da moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning dolzarbligi va ahamiyati. Economics and Education, 24(3), 153–159.
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2017). Buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS). Lex.uz
6. Qurbanbaev, J., & Djumanov, S. (2016). Buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tkazish yo'llari. Moliya, (1), 99–104.
7. Tashnazarov, S.N. (2016). Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Navro'z nashriyoti.
8. Hamdamov, B.Q. (2020). Auditning xalqaro standartlari. Iqtisod-Moliya.



9. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2017). Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-son BHMS).
10. International Financial Reporting Standards (IFRS). (n.d.). Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari haqida.

## TOVAR-MODDIY ZAHIRALARNI HISOBGA OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNING MOLIVAVIY HISOBOTDAGI AKS ETTIRILISHINI TAHLIL QILISH

*Xushvaqtov Farrux Romanovich*  
*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti*  
*Bank ishi kafedrasi katta o'qituvchisi*  
[farrux\\_finane@mail.ru](mailto:farrux_finane@mail.ru)

*Annotatsiya – Tovar-moddiy zahiralar har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi va ularning hisobga olinishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda, xarajatlarni boshqarishda hamda ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada tovar-moddiy zahiralar hisobga olish tizimining amaldagi holati, undagi mavjud muammolar va hisob siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati tahlil etiladi. Tadqiqotda korxonalarda qo'llanilayotgan buxgalteriya hisobining prinsiplari, zahiralar baholash usullari (FIFO, LIFO, o'rtacha og'irlangan baho va boshqalar), ularning moliyaviy hisobotlarda aks ettirilish tartibi chuqur o'rganilgan. Shuningdek, mavjud normativ-huquqiy baza, milliy va xalqaro buxgalteriya standartlari (xususan, MSFO 2 - Zahiralar hisobga olinishi) doirasida tavsiyalar ishlab chiqilgan. Amaliy tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, zahiralar noto'g'ri yoki sust hisobga olish nafaqat moliyaviy hisobotlarning ishonchligini pasaytiradi, balki boshqaruv qarorlarining asoslanmaganligiga ham olib keladi. Shu sababli, maqolada tovar-moddiy zahiralar buxgalteriya hisobi jarayonlarini raqamlashtirish, audit vositalarini kengaytirish va nazorat mexanizmlarini mustahkamlash orqali ularning moliyaviy hisobotlardagi haqqoniy aks ettirilishini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar bayon etiladi.*

*Kalit so'zlar: tovar-moddiy zahiralar, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, MSFO 2, baholash usullari, FIFO, LIFO, o'rtacha og'irlangan baho, zahira harakati, hisob siyosati, aktivlar tuzilmasi, inventarizatsiya, moliyaviy tahlil, axborot ishonchligi*

### KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning moliyaviy holatini to'g'ri va ishonchli aks ettirishda buxgalteriya hisobi tizimining ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, ishlab chiqarish va savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun tovar-moddiy zahiralar hisobining to'g'ri yuritilishi korxonaning moliyaviy barqarorligi, daromadlilik darajasi va aktivlar tuzilmasining adekvatligini aniqlashda muhim mezon hisoblanadi. Zahiralar buxgalteriya hisobida aks ettirishda yuzaga keladigan xatoliklar nafaqat moliyaviy hisobotlarning haqqoniylikiga, balki boshqaruv qarorlarining asoslilik va investorlar ishonchiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Amaliyotda kuzatilayotgan holatlar shuni ko'rsatmoqdaki, ba'zi korxonalarda tovar-moddiy zahiralar baholashda yondashuvlar birxillikka ega emas, zahiralar harakatini hujjatlashtirishda uzilishlar mavjud va bu holat umumiy moliyaviy hisobotlarda nomuvofiqliklar paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, hisob siyosatini aniqlashtirish, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va xalqaro buxgalteriya standartlari, xususan, MSFO 2 (Zahiralar hisobga olinishi) talablariga moslashtirish zaruriyatini tug'diradi.

Mazkur ilmiy tadqiqotda tovar-moddiy zahiralarni hisobga olishda qo'llanilayotgan uslublar, ularning moliyaviy hisobotlarga ta'siri, nazorat va inventarizatsiya mexanizmlari, baholash asoslari va amaldagi milliy hamda xalqaro me'yoriy hujjatlar asosida tizimli tahlil amalga oshiriladi. Tadqiqotning maqsadi — mavjud hisob tizimini kompleks baholash orqali undagi kamchiliklarni aniqlash, zamonaviy axborot texnologiyalarini hisob jarayonlariga integratsiya qilish imkoniyatlarini o'rganish hamda zahiralar hisobi va moliyaviy hisobot sifati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdir. Shu asosda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, ular buxgalteriya axborotlarining aniqligi va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi roli nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy ahamiyatga ega bo'ladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Tovar-moddiy zahiralarni hisobga olish masalasi buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil sohalarida uzoq yillardan beri ilmiy izlanishlar markazida bo'lib kelmoqda. Zahiralarning korxona aktivlari tarkibidagi o'rni, ularning narxini belgilashdagi metodologik yondashuvlar, moliyaviy hisobotdagi aks ettirilish tartibi va baholash uslublari yuzasidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar ko'plab nazariy konsepsiyalar va amaliy tajribalar orqali boyitilgan. Buxgalteriya hisobi fani bo'yicha klassik yondashuv vakillari hisoblangan A.A. Sokolov, Y.V. Sokolov, V.D. Novodvorskiy va ularning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ularning tadqiqotlarida zahiralarni hisobga olishda ishonchlilik, hujjatlashtirish, baholash usullari va axborotlar tizimligi alohida urg'u bilan yoritilgan.

Moliyaviy hisobotlarning sifati va ularning foydalanuvchilar uchun ahamiyati doimo muhokama markazida bo'lib kelgan. Bu nuqtai nazardan olib qaralganda, MSFO 2 (IAS 2 – *Inventories*) standarti zahiralarning baholanishi, tan olinishi va moliyaviy hisobotlardagi aks ettirilishini belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Ushbu standartda zahiralarning sotish bahosidan foydalanish, o'rtacha og'irlangan baho usuli, FIFO, LIFO kabi usullarning maqbulligi va shartlari, zararlar holatida qayta baholash talablari belgilangan bo'lib, buxgalterlar uchun aniq yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi. Shuningdek, xalqaro amaliyotda ushbu yondashuvlar asosida zahiralarni hisobga olish tizimi avtomatlashtirilgan ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Audit sohasi bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarda esa tovar-moddiy zahiralarning tekshirilishi, inventarizatsiya natijalari va zahiralar bo'yicha moliyaviy hisoboting aniqligi muhim omillar qatorida ko'rsatiladi. M. Sheremet, N. Bezrukov va I. Shershnev kabi mualliflar zahiralarning inventarizatsiyasi, audit ishonchliligi va audit dalillarining to'g'riligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha, zahiralarning mavjudligi, ularning huquqiy tegishliligi, narxining to'g'riligini isbotlaydigan hujjatlar va nazorat mexanizmlarining mavjudligi audit sifatini belgilovchi asosiy mezonlar sirasiga kiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida buxgalteriya axborot tizimlari va ularning samaradorligi ustida olib borilgan so'nggi izlanishlar, xususan, D. Crawford va R. Green tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tovar-moddiy zahiralarning real vaqt

rejimida avtomatik tarzda baholanishi va moliyaviy hisobotda aniq aks ettirilishini ta'minlash yo'nalishlarida muhim natijalarni ko'rsatmoqda. Ular tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalarga ko'ra, tovar-moddiy zahiralarni tahlil qilishda nafaqat an'anaviy buxgalteriya metodlariga, balki raqamli analitika, bulutli hisoblash va integratsiyalashgan axborot platformalariga asoslangan yondashuvlar tobora ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda ham bu yo'nalish tobora dolzarblashib bormoqda. Sh. Xodjayev, R. Axmedov, A. Kamilov va Z. Alimov kabi mutaxassislarining ishlarida tovar-moddiy zahiralarni hisobga olishda milliy qonunchilik va xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlar, mavjud tizimda uchrayotgan metodik bo'shliqlar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Ayniqsa, buxgalteriya axborotlarini raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan nazorat vositalarini joriy etish va elektron hujjat aylanish tizimlari orqali zahiralarni boshqarish samaradorligini oshirishga doir tavsiyalar e'tiborga loyiqdir.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, tovar-moddiy zahiralarni buxgalteriya hisobining eng murakkab, lekin strategik ahamiyatga ega bo'lgan komponenti hisoblanadi. Ularning hisobga olinishi va moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirilishi korxonaning umumiy moliyaviy holatini baholash, soliq rejimini aniqlash va boshqaruv qarorlarini asoslash uchun zarur bo'lgan axborotlar zanjirining muhim halqasi hisoblanadi. Ilmiy va amaliy manbalar asosida taklif etilayotgan yondashuvlar esa ushbu tizimni takomillashtirishda nazariy va texnologik asos bo'lib xizmat qiladi.

## METODOLOGIYA

Mazkur ilmiy tadqiqotda tovar-moddiy zahiralarni hisobga olish amaliyoti va ularning moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishining aniqligi, dolzarbligi hamda zamonaviy standartlarga muvofiqligi o'rganilib, mavjud tizimni takomillashtirish bo'yicha asosli ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib olindi. Shu munosabat bilan metodologik yondashuv sifatida kompleks, tizimli va tahliliy tadqiqot uslublari uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqot ikki asosiy yo'nalishda olib borildi: birinchisi — nazariy-analitik yondashuv orqali mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish, ikkinchisi — amaliy jihatdan statistik va hujjatli dalillar asosida real sektor holatini o'rganish.

Nazariy bosqichda buxgalteriya hisobining fundamental tamoyillari, xususan, tovar-moddiy zahiralarning moliyaviy hisobotdagi o'rni, baholash uslublari, hisobot siyosatidagi variantlar, normativ-huquqiy va xalqaro standartlar (ayniqsa MSFO 2) chuqur tahlil qilindi. Bu bosqichda klassik va zamonaviy nazariyalar, olimlar fikrlari, xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlar o'rganilib, mavjud yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklari aniqlashtirildi. Ilmiy-empirik asosda ishlab chiqilgan tavsiyalarni shakllantirishda manbalar tanlovi selektiv yondashuv asosida amalga oshirildi, ya'ni faqat dolzarb va metodologik jihatdan asosli manbalargagina tayandi.

Amaliy tahlil bosqichida esa O'zbekistonning bir qator yirik va o'rta korxonalarida qo'llanilayotgan tovar-moddiy zahiralarni hisobining real holati o'rganildi. Buning uchun statistik ma'lumotlar, buxgalteriya balanslari, moliyaviy hisobotlar, inventarizatsiya hujjatlari, ichki buxgalteriya siyosati, zahiralarni

baholashda qo'llanilayotgan uslublar (FIFO, LIFO, o'rtacha og'irlangan baho) solishtirildi va baholandi. Tahlillar natijasi bo'yicha, bir nechta hisoblash modellari qurilib, moliyaviy ko'rsatkichlarga zahira hisobining qanday ta'sir ko'rsatayotgani matematik yondashuvlar bilan asoslab berildi. Regressiya tahlili orqali zahiralarini noto'g'ri baholash va aks ettirish moliyaviy natijalarning ishonchliligiga qanday darajada ta'sir qilishi aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, ekspertlar bilan suhbatlar, intervyular va so'rovnomalar orqali to'plangan sifatli ma'lumotlar asosida amaliy yondashuvlar baholandi. Bu bosqichda buxgalterlar, auditorlar va moliyaviy tahlilchilar fikrlari asosida mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari bo'yicha amaliy qarashlar umumlashtirildi. Respondentlar turli sohalarida faoliyat yuritayotgan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida ishlovchi va ishlaymaydigan korxonalardan tanlab olindi, bu esa tahlilga qamrov va ob'ektivlik baxsh etdi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar orasida taqqoslash, kontent-tahlil, grafik ifodalash, statistik dinamikani o'rganish, hujjatli tahlil, sistemali yondashuv, monografik usul va regressiya modeli asosiy ilmiy asoslarni tashkil etdi. Ularning uyg'un holda qo'llanilishi nafaqat ilmiy haqiqatga erishish, balki tavsiyalarni amaliyotga yo'naltirishda metodik izchillikni ta'minladi. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida ishlab chiqilgan normativ mezonlar, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buxgalteriya hisobiga oid me'yoriy hujjatlari, shuningdek, Markaziy bank va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosiy tahliliy manba sifatida xizmat qildi.

Mazkur metodologik yondashuv asosida olingan natijalar tovar-moddiy zahiralarini hisobga olish tizimining zaif tomonlarini aniqlash, uni raqamlashtirish, avtomatlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan yondashuvlar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham banklar, ishlab chiqarish korxonalari, savdo tashkilotlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Olib borilgan tadqiqotlar asosida tovar-moddiy zahiralarini hisobga olish tizimi bugungi kundagi iqtisodiy va texnologik sharoitlarga to'liq moslashgan deb aytish qiyin ekani aniqlandi. Amaliyotda faoliyat yuritayotgan korxonalar misolida olib borilgan kuzatuvlar, moliyaviy hisobotlar tahlili hamda ichki buxgalteriya hujjatlarining o'rganilishi shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda zahiralar hisobi faqatgina me'yoriy hisob siyosatining talablarini bajarish darajasida olib borilmoqda, ularning strategik boshqaruvdagi ahamiyati esa yetarlicha e'tibordan chetda qolmoqda. Hisob tizimida avtomatlashtirilgan texnologiyalardan foydalanish darajasi past bo'lgan korxonalarda, odatda, tovar-moddiy zahiralarining harakati yuzasidan aniqlik darajasi susaygan bo'lib, bu holat real holat bilan moliyaviy hisobotdagi ko'rsatkichlar o'rtasida tafovutlar yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Zahiralarini baholashda korxonalarning yondashuvlari o'zaro farq qilishi, xususan, FIFO, LIFO va o'rtacha og'irlangan baho kabi usullarning turli shakllarda va izchil qo'llanilmasligi natijasida moliyaviy ko'rsatkichlar turlicha natijalarni



berayotgani aniqlangan. Bu holat esa korxonaning daromadlilik darajasi, soliq bazasi va balansdagi aktivlar tuzilmasi kabi strategik moliyaviy mezonlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim korxonalarda hisob siyosatida mavjud bo'lgan uslubiy tafsilotlar bo'yicha xodimlarning yetarli malakaga ega emasligi, hisobni yuritishda yagona axborot tizimining yo'qligi, zahiralarining kirim-chiqim harakatlarini aniq kuzatib borishning murakkabligi kuzatildi.

Tahlillar davomida zahiralar bo'yicha o'tkazilgan inventarizatsiya natijalari bilan buxgalteriya hisob ma'lumotlari o'rtasida farqlar aniqlanib, bu farqlar odatda noto'g'ri baholash, kamchiliklar, hujjat aylanishidagi sustkashlik va hisobdagi tizimli yondashuv yetishmasligiga borib taqalmoqda. Mazkur tafovutlar esa moliyaviy hisobotlarda ishonchsizlikka olib kelmoqda, bu esa o'z navbatida investitsion qarorlar va tashqi foydalanuvchilarning tahliliy baholariga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Ayni vaqtda, ba'zi ilg'or korxonalarda raqamli axborot tizimlari orqali real vaqt rejimida zahira harakatini nazorat qilish, avtomatik baholash va hisobotga joylashtirish amaliyotlari joriy etilgan bo'lib, bu tajribalar orqali hisob jarayonlarining aniqligi va shaffofligini sezilarli darajada oshirish imkoniyati yaratilgan.



### 1 – rasm. Tovar-moddiy zahira hisobidagi asosiy muammolar taqsimoti

Moliyaviy hisobotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, zahiralarini aniqlik bilan hisobga olish faqat buxgalteriya funksiyasi bilan cheklanib qolmay, balki umumiy moliyaviy strategiyaning markaziy elementi sifatida qaralishi zarur. Korxonalar darajasida tovar-moddiy zahiralarining noto'g'ri baholanishi aks holda yillik foyda ko'rsatkichlarining sun'iy ravishda oshishiga yoki pasayishiga olib kelmoqda, bu esa soliq hisob-kitoblarida va kreditorlar oldidagi majburiyatlarni bajarishda noaniqliklar keltirib chiqaradi. Zahira hisobi tizimida avtomatlashtirilgan modullarning yo'qligi esa hujjat aylanishining tezligiga, nazorat mexanizmlarining ishlashiga va axborot oqimlarining ishonchliligiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Tadqiqot doirasida korxonalarning buxgalteriya siyosati tahlili orqali aniqlanganidek, ba'zi subyektlarda zahiralarini hisobga olishda faqat me'yoriy hujjatlarga suyaniladi, amalda esa ularning iqtisodiy mohiyati yetarlicha aks ettirilmaydi. Bu esa xalqaro standartlar, xususan MSFO 2 talablariga mos kelmaydi. Shuningdek, audit jarayonlarida ham zahiralarining mavjudligi, ularning real qiymati,

egallik huquqi va buxgalteriya hisobidagi ko'rsatkichlar o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlashda metodik yondashuvlarning izchil emasligi qayd etildi. Bu holatlar esa audit dalillarining ishonchliligini pasaytiradi va moliyaviy hisobotlar sifatini shubha ostiga qo'yadi.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, tovar-moddiy zahiralarni hisobga olish tizimi va ularning moliyaviy hisobotlardagi aks ettirilishi o'rtasida kuchli funksional va ma'lumotli bog'liqlik mavjud. Ushbu bog'liqlikni aniqlik, avtomatlashtirish, raqamli yondashuvlar va normativ asoslar bilan mustahkamlash orqali korxonaning moliyaviy holatini real va ishonchli tarzda aks ettirish, hisobotlar sifatini oshirish hamda investorlar va tahlilchilar uchun zarur axborot bazasini yaratish mumkin. Shu sababli, mavjud tizimlarni takomillashtirish faqat texnik yangilanishlarni emas, balki yondashuvning metodik, boshqaruvchan va tahliliy jihatdan yangilanishini ham o'z ichiga olishi lozim.

## XULOSA

Tovar-moddiy zahiralarni xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatida asosiy ishlab chiqarish va tijorat resurslaridan biri sifatida strategik ahamiyat kasb etadi. Ularning to'g'ri hisobga olinishi nafaqat moliyaviy axborotlarning haqqoniyligi, balki korxonaning iqtisodiy barqarorligi, moliyaviy tahlilning samaradorligi va boshqaruv qarorlarining asoslilikini ta'minlashda ham bevosita hal qiluvchi rol o'ynaydi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mavjud hisob tizimlarida hali ham inson omiliga kuchli bog'liqlik, baholash uslublarining izchil qo'llanmasligi, normativ-huquqiy me'yorlar bilan amaliyot o'rtasida tafovutlar va axborot oqimlarining ishonchliligini ta'minlashda tizimli muammolar mavjud. Bu esa moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi, tahliliy qiymati va audit natijalari samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillar shuni aniqladiki, zahiralarni noto'g'ri hisobga olish yoki baholash nafaqat balansdagi aktivlar tarkibida sun'iy o'zgarishlarga olib keladi, balki daromadlilik va xarajatlar ko'rsatkichlarini noto'g'ri aks ettirish orqali moliyaviy hisobotning strategik mazmunini ham buzadi. Bu holat investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos kelmaslik, jumladan, MSFO 2 talablarining to'liq bajarilmasligi, korxonani global moliya bozorida ishonchli subyekt sifatida tan olinishiga to'sqinlik qiladi.

Ilmiy va amaliy tahlil natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, tovar-moddiy zahiralarni hisobga olish tizimi tubdan qayta ko'rib chiqilishi, unga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, hisob siyosatini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirish va avtomatlashtirilgan baholash uslublarini joriy etish zarur. Hisob siyosatining aniqlashtirilishi, zamonaviy yondashuvlarning joriy qilinishi, zahiralarni harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi axborot tizimlarining kengaytirilishi moliyaviy hisobning aniqligini oshiradi, audit jarayonining chuqurlashuviga xizmat qiladi va boshqaruv qarorlarini faktlarga asoslangan holda shakllantirishga yo'l ochadi.

Shu bois, tovar-moddiy zahiralarni hisobini takomillashtirish borasidagi yondashuvlar faqatgina buxgalteriya amaliyoti bilan cheklanmasligi, balki

korxonaning umumiy boshqaruv konsepsiyasiga integratsiyalashgan holda qaralishi kerak. Moliyaviy hisobotlar sifati — bu faqatgina shaklga mos keladigan axborotlar yigʻindisi emas, balki tashkilotning ichki tizimlari, raqamli madaniyati, normativ-huquqiy muhitga moslashuvchanligi va moliyaviy shaffoflik darajasini ifodalovchi koʻrsatkichdir. Shu nuqtai nazardan olib qarganda, ushbu tadqiqot natijalari amaliyotga qaratilgan takliflar bilan tovar-moddiy zahiralarning hisobining amaldagi tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Соколов А. А. Теория бухгалтерского учета. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 317 с.
2. Шеремет А. Д. Аудит. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 288 с.
3. International Accounting Standards Board (IASB). International Accounting Standard (IAS) 2: Inventories [Электронный ресурс]. – 2003. – Режим доступа: <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-2-inventories/>, свободный.
4. Crawford D. Управление товарно-материальными запасами в системах ERP: прикладной подход // Journal of Accounting and Information Systems. – 2015. – Vol. 29, № 3. – С. 45–58.
5. Ходжаев Ш. Совершенствование системы учета товарно-материальных запасов в организациях Узбекистана // Экономика и финансы. – 2018. – № 4. – С. 22–28.
6. Ахмедов Р. Методы оценки товарно-материальных запасов и их влияние на финансовую отчетность // Журнал финансового анализа. – 2019. – № 2. – С. 35–41.
7. Камилов А. Автоматизированные подходы к учету запасов в современных информационных системах бухгалтерского учета // Бухгалтерия и аудит. – 2020. – № 3. – С. 15–22.
8. Алимов З. Противоречия между национальными и международными стандартами в учете товарно-материальных запасов // Аудит и финансы. – 2021. – № 5. – С. 30–36.
9. Ochilov, I. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: TDIU, 2020. – 242 b.
10. Mazkur maqolada byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zahiralarning hisobini takomillashtirish. Iqtisod va mintaqashunoslik. – 2023. – № 2. – B. 45–52.
11. Товар-моддий захиралар qadrsizlanishi auditini takomillashtirish. CyberLeninka. – 2024. – № 1. – B. 60–68.
12. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Renessans-Edu. – 2023. – 180 b.

## KORXONALAR EKSPORT FAOLIYATINI BAHOLASH

*Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li*

*Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchi*

[khumoyun.kadirov1992@gmail.com](mailto:khumoyun.kadirov1992@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0001-3928-208X>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tizimli tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida ekspert baholash usuli qo'llanilgan bo'lib, omillar ta'sir darajasiga qarab ballar asosida baholandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mahsulot sifati, ishlab chiqarish quvvati, xalqaro bozordagi talab va davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari eng muhim omillar sifatida ajralib turadi. Shuningdek, maqolada eksport salohiyatini oshirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** eksport faoliyati, ichki omillar, tashqi omillar, mahsulot sifati, davlat qo'llab-quvvatlashi, baholash usuli, moliyaviy ko'mak, xalqaro bozordagi talab, transport va logistika tizimi, bojxona, soliq va tartib-taomillar, texnik to'siqlar va xalqaro standartlar talabi.

### 1. KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlar jadal rivojlanmoqda va mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar ayirboshlash jarayoni yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayonda milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari faol ishtiroki orqali mamlakatning tashqi iqtisodiy salohiyatini oshirishga erishish mumkin. Xususan, eksport faoliyatini rivojlantirish orqali nafaqat valyuta tushumlari orttiriladi, balki ish o'rinlari yaratiladi, ishlab chiqarish hajmi kengayadi va iqtisodiy o'sish ta'minlanadi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatini samarali tashkil etish va kengaytirish ko'plab ichki va tashqi omillarga bog'liq. Ushbu omillar qatorida ishlab chiqarish quvvati, mahsulot sifatining xalqaro standartlarga mosligi, moliyaviy imkoniyatlar, logistika infratuzilmasi, eksport bozorlari haqidagi axborotlar, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va boshqalarni alohida ta'kidlash mumkin[1].

Jahon bozorida kechayotgan raqobat muhiti va global iqtisodiy integratsiya sharoitida har bir mamlakat o'zining tashqi iqtisodiy faoliyatini takomillashtirishga intilmoqda. Ayniqsa, eksport hajmini oshirish va mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlash orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkin. Bunda tadbirkorlik sub'ektlarining faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ularning eksport faoliyati samaradorligini oshirish uchun ushbu faoliyatga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish va baholash dolzarb masala hisoblanadi.

Birinchidan, eksport faoliyatini tashkil etish ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning har biri korxonaning tashqi bozorlarga chiqish qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mahsulot sifati, xalqaro standartlarga moslik, ishlab chiqarish quvvati, logistika imkoniyatlari, davlat qo'llab-quvvatlash choralari va tashqi bozordagi talab kabi omillar kompleks tahlilni talab etadi. Agar ushbu omillar

aniqlanmasa va to'g'ri baholanmasa, eksportga qaratilgan siyosat va strategik qarorlar samarasiz bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, har bir hududdagi tadbirkorlik sub'ektlari turli resurs va imkoniyatlarga ega bo'lib, ularga ta'sir etuvchi omillar miqdori va mazmuni ham farq qiladi. Shu sababli, umumiy tahlillar yetarli emas, balki har bir holatni individual baholash va lokal sharoitlardan kelib chiqib, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Uchinchidan, omillarni aniqlash va baholash asosida samarali eksport siyosatini shakllantirish imkoni paydo bo'ladi. Jumladan, qaysi omillar korxona eksport faoliyatiga ijobiy, qaysilari salbiy ta'sir ko'rsatayotganini bilish orqali resurslarni to'g'ri yo'naltirish, muammolarni bartaraf etish, davlat tomonidan maqsadli qo'llab-quvvatlash choralarini ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

To'rtinchidan, bugungi kunda xalqaro standartlar, raqamli texnologiyalar, ekologik talablar va logistika tizimlarida yuz berayotgan o'zgarishlar tadbirkorlarning tashqi bozorlarga moslashuvini talab etmoqda. Bu esa, har bir omilning dolzarbligini va ularni baholash orqali korxonalarni tashqi muhitga moslashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini yanada oshirmoqda.

Shu asosda, tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli baholash:

eksport salohiyatini aniqlash,

istiqbolli sohalarni belgilash,

davlat siyosatini aniq yo'naltirish,

va raqobatbardosh eksport modelini ishlab chiqish uchun asosiy ilmiy-amaliy talab hisoblanadi.

Mazkur maqolada tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi, ularni baholash usullari ko'rib chiqiladi hamda amaldagi muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bunda iqtisodiy tahlil usullari, ekspert baholari va soha bo'yicha mavjud ilmiy nazariyalarga tayangan holda ilmiy xulosalar berish maqsad qilinadi.

## II. ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik sub'ektlari eksport faoliyatiga ta'siri etuvchi omillarni baholash mavzusida bir qator olimlar turli tadqiqotlar ham olib borishgan. Ular ichki va tashqi omillarni tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy va moliyaviy faoliyatiga hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligiga ta'sirini turli hil usullar asosida o'rganishgan. Global qiymat zanjirlari konsepsiyasining asoschilaridan biri, AQShlik taniqli olim **G.Gereffi** xalqaro qiymat zanjirlari (global value chains) va ularning eksport faoliyatiga ta'siriga oid tadqiqotida omillarni eksport faoliyatiga ta'sirini aniqlash uchun **"keys-stadiy"** usulini ishlatgan. **G.Gereffi** keys-stadiy usuli orqali xalqaro qiymat zanjirlari va eksport faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikka asosiy e'tiborini qaratgan. Yaponiyalik taniqli iqtisodchi, xalqaro iqtisodiy munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlari bilan mashhur olim K.Kenichi tadqiqotlarida ichki va tashqi omillarni eksportga ta'sirini baholashda **"Raqobatdoshlik indeksleri"** (Competitiveness Indices) usulidan foydalangan. Uning



tadqiqoti yaponiyadagi tadbirkorlik subyektlari va ularning eksport faoliyatiga omillarning ta'siriga qaratilgan. K.Kenichi tadqiqotlari natijasida raqobatdoshlik indeksleri orqali ichki va tashqi omillarning eksport faoliyatiga ta'siri bo'yicha quyidagi xulosaga keladi: **xalqaro standartlarni** joriy qilish ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshirib, ularni jahon bozorida raqobatbardosh qiladi; eksport tarmoqlarida **RCA indeksini** tahlil qilish orqali qiyosiy ustunlikka ega mahsulotlar va tarmoqlar aniqlanadi; xalqaro standartlarni joriy qilgan mamlakatlar o'z mahsulotlarining eksport hajmi va bozordagi ulushini sezilarli darajada oshiradi.

Ushbu tadqiqotda tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, tahlil qilish va ularni baholash maqsadida bir nechta ilmiy-tahliliy usullardan foydalanildi. Har bir usul tadqiqotning ma'lum maqsadlariga erishishga xizmat qildi va olingan ma'lumotlar asosida aniq xulosalar chiqarish imkonini berdi. Quyida tadqiqotda qo'llanilgan asosiy metodlar bayon etiladi:

1. SWOT tahlil usuli. SWOT tahlili orqali tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki (kuchli va kuchsiz tomonlar) hamda tashqi (imkoniyatlar va tahdidlar) omillari tizimli ravishda tahlil qilindi.

Kuchli tomonlar (Strengths) – korxonalarining ichki imkoniyatlari, masalan, ishlab chiqarish quvvati, mahsulot sifati va raqobatbardoshligi.

Kuchsiz tomonlar (Weaknesses) – moliyaviy cheklovlar, zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi, marketing imkoniyatlarining kamligi.

Imkoniyatlar (Opportunities) – yangi tashqi bozorlarga chiqish imkoni, davlat grantlari va eksportga qaratilgan imtiyozlar.

Tahdidlar (Threats) – raqobatning kuchayishi, tashqi bozorlarda talabning o'zgarishi, logistika muammolari.

Bu usul, omillarning ichki va tashqi tabiatini hisobga olgan holda ularni to'g'ri guruhlash va tahlil qilish imkonini berdi.

2. Ekspert baholash usuli. Ekspert baholash usuli orqali aniqlangan omillar bo'yicha ularning ta'sir darajasi baholandi. Bu jarayonda:

10 nafar amaldagi tadbirkor, shuningdek, 5 nafar sohaviy mutaxassis (iqtisodchi, eksport bo'yicha maslahatchi, logistika mutaxassisi va boshqalar)

talab qilingan ma'lumotlar asosida 1 dan 5 gacha bo'lgan ball shkalasida baholashni amalga oshirishdi. Bunda 1 – ta'siri juda past, 5 – ta'siri juda yuqori darajada degan ma'noni anglatadi. Ekspert fikrlari asosida har bir omil uchun o'rtacha ta'sir koeffitsienti hisoblab chiqildi va ularning umumiy ta'sir darajasi tahlil qilindi[2].

3. Kontent tahlil usuli. Kontent tahlil tadqiqotning empirik asosini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Bu usul orqali O'zbekiston Respublikasidagi quyidagi manbalarda keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilindi:

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi – tadbirkorlik sub'ektlarining eksport hajmlari, tarkibi, mahsulot turlari va hududlar bo'yicha taqsimoti.

O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi – tadbirkorlarga berilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari, eksportga doir tashkiliy axborotlar.

Iqtisodiy tahlil markazlari va ommaviy axborot vositalari – mavjud muammolar, muvaffaqiyatli tajribalar va tahlillar.

Olingan kontent ma'lumotlari ekspert baholari va SWOT tahlil natijalari bilan solishtirildi va umumiy tahlil tuzildi.

### III. NATIJALAR

Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyati - bu jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni tashqi bozorlarga chiqarishga qaratilgan kompleks iqtisodiy faoliyat bo'lib, unga ko'plab ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarni aniqlash va ilmiy asosda tahlil qilish, samarali eksport strategiyasini shakllantirish va amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

1. Ichki omillar tahlili. Ichki omillar - bu korxonaning o'zida shakllanadigan, to'g'ridan-to'g'ri uning ichki imkoniyatlariga, boshqaruv madaniyatiga va resurslaridan foydalanish samaradorligiga bog'liq omillardir. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi(1-jadval):

Ishlab chiqarish va texnologik quvvat. Korxonaning ishlab chiqarish infratuzilmasi, uskunalarning zamonaviyligi, avtomatlashtirish darajasi va yangi texnologiyalarni joriy etish salohiyati — eksportga tayyor mahsulot hajmi va sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy uskunalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar xalqaro standartlarga mos keladi va raqobatbardoshligi yuqori bo'ladi.

Mahsulot sifati va standartlarga moslik. Eksport faoliyatining samaradorligi mahsulot sifatiga, xususan, ISO 9001, ISO 22000, Oeko-Tex, HACCP kabi xalqaro standartlarga muvofiqlikka bog'liq. Standartlashtirilgan mahsulotlar tashqi bozorda ishonch va barqaror talab paydo qiladi.

Kadrlar salohiyati va boshqaruv kompetensiyasi. Korxonaning eksport faoliyatini boshqaruvchi xodimlarning bilim, ko'nikma va tajribasi yuqori bo'lsa, tashqi bozordagi murakkab munosabatlar bilan samarali ishlay olish imkoniyati ham yuqori bo'ladi. Ayniqsa, tashqi savdo shartnomalari, xalqaro huquq, logistika va marketing sohalarida mutaxassislar zarur.

Moliyaviy barqarorlik va investitsion imkoniyatlar. Eksport jarayonlari moliyaviy resurslar bilan chambarchas bog'liq. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari, kreditga kirish imkoniyati, investitsion faolligi, valyuta xatarlarini boshqarish qobiliyati — barchasi tashqi bozorlarda faoliyat olib borish uchun muhim hisoblanadi.

Marketing va bozor tadqiqotlari. Effektiv marketing siyosati — tashqi bozorda o'z o'rniga ega bo'lish va saqlanishning asosiy omilidir. Marketing faoliyatiga brending, mahsulot pozitsiyalash, raqamli marketing, savdo kanallari va mijozlar bilan aloqalar kiradi. Shuningdek, bozor talabini doimiy tahlil qilish muhim.

2. Tashqi omillar tahlili. Tashqi omillar — bu korxonaning to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsata olmaydigan, lekin uning faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi tashqi muhit faktorlaridir. Ular quyidagilardan iborat:

Makroiqtisodiy muhit. Inflyatsiya darajasi, valyuta kurslari, foiz stavkalari, iqtisodiy o'sish sur'atlari va umumiy makroiqtisodiy barqarorlik — eksport faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Valyuta kursining keskin o'zgarishi, masalan, mahsulot narxiga va savdo kelishuvlariga ta'sir qilishi mumkin.

Davlat siyosati va institutsional qo'llab-quvvatlash. Eksportga yo'naltirilgan davlat siyosatining mavjudligi, eksport kreditlari, imtiyozlar, subsidiyalar, texnik

ko'mak, diplomatik savdo aloqalari va "bir darcha" tizimlari tadbirkorlar uchun qulay eksport muhitini yaratadi.

Bojxona va logistika tizimi. Saralash, sertifikatlash, bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarining shaffofligi va tezkorligi eksport jarayoni samaradorligini belgilaydi. Shuningdek, transport infratuzilmasi, logistika kompaniyalari xizmatlari, tashqi logistika xarajatlari ham muhim omillar sirasiga kiradi.

Tashqi bozor talabi va xalqaro tendensiyalar. Jahon bozoridagi talab va taklif dinamikasi, iste'molchi afzalliklarining o'zgarishi, global iqtisodiy trendlar (masalan, yashil iqtisodiyot, ekologik mahsulotlarga talab) — eksport strategiyalarini shakllantirishda inobatga olinishi zarur.

Xalqaro savdo shartnomalari va diplomatik aloqalar. O'zbekistonning YeOII, GSP+, Islomiy hamkorlik tashkiloti, ShHT, BMT kabi xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari, ikki va ko'p tomonlama erkin savdo shartnomalari — mahalliy mahsulotlarga tashqi bozorda kirish imkoniyatini kengaytiruvchi omildir.

Eksport faoliyati muvaffaqiyati har doim ham faqat ichki yoki faqat tashqi omillarga bog'liq bo'lmaydi. Ular o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi omillardir. Masalan, korxonaning yuqori texnologiyali ishlab chiqarish imkoniyati (ichki omil) tashqi bozordagi yuqori sifat talablariga mos mahsulot tayyorlash imkonini beradi. Shuningdek, davlatning bojxona tizimini raqamlashtirish tashabbuslari (tashqi omil) ichki jarayonlarni optimallashtirishga turtki bo'ladi.

Shu sababli, eksport faoliyati samaradorligini ta'minlash uchun har ikki turdagi omillarni to'liq tahlil qilish, ularning ta'sir darajasini baholash va kompleks yondashuv asosida strategik qarorlar qabul qilish zarur.

### 1-jadval.

#### Tadbirkorlik sub'ektlari eksport faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar

|                      | Omil nomi                                       | Izoh                                                                                                                                                              |
|----------------------|-------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ichki omillar</b> |                                                 |                                                                                                                                                                   |
| 1.                   | <b>Ishlab chiqarish quvvati</b>                 | Korxona qancha miqdorda mahsulot ishlab chiqara olishi va uni barqaror yetkazib berishi eksport imkoniyatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.                 |
| 2.                   | <b>Mahsulot sifati va standartlarga mosligi</b> | Eksport uchun mahsulot xalqaro standartlarga javob berishi shart. Sifatsiz va xavfsiz mahsulotlar xorij bozorida o'tmaydi.                                        |
| 3.                   | <b>Moliyaviy barqarorlik</b>                    | Eksport jarayonlari mablag' talab qiladi (sertifikatlash, logistika, marketing va x.k.). Korxonada yetarli mablag'lar bo'lmasa, eksport imkoniyatlari cheklanadi. |
| 4.                   | <b>Kadrlar salohiyati</b>                       | Xorijiy tillarni biladigan, xalqaro savdo qoidalaridan xabardor mutaxassislar mavjudligi eksport faoliyati samaradorligini oshiradi.                              |
| 5.                   | <b>Marketing va tashqi bozor tahlili</b>        | Xorijiy iste'molchilar ehtiyojini bilish, raqobat muhitini tahlil qilish eksport strategiyasini to'g'ri yo'naltirishda muhim.                                     |

|                |                                                      |                                                                                                                                                     |
|----------------|------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 6.             | <b>Korxonaning boshqaruv strategiyasi</b>            | Korxonada eksportga yo'naltirilgan aniq maqsadlar va strategik reja mavjud bo'lishi kerak. Boshqaruvdagi beqarorlik eksportga salbiy ta'sir qiladi. |
| Tashqi omillar |                                                      |                                                                                                                                                     |
| 1.             | Xalqaro bozordagi talab                              | Jahon bozoridagi kon'yunktura o'zgarishlari, moda va iste'mol trendlari mahsulot eksportga chiqishini belgilab beradi.                              |
| 2.             | Transport va logistika tizimi                        | Eksport mahsulotini tez va arzon yetkazish imkoni bormi? Avtomobil, temiryo'l, avia va port infratuzilmasi muhim ahamiyatga ega.                    |
| 3.             | Bojxona, soliq va tartib-taomillar                   | Xorijga chiqishda bojxona qoidalari, tariflar, litsenziyalash jarayoni qanchalik yengil – shunga qarab eksportning amaliy imkoni oshadi.            |
| 4.             | Texnik to'siqlar va xalqaro standartlar talabi       | Yevropa, AQSh, Yaponiya kabi bozorlarda texnik standartlar juda qattiq. Ularga moslashish uchun korxona tayyor bo'lishi kerak.                      |
| 5.             | Siyosiy barqarorlik va tashqi iqtisodiy munosabatlar | Xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar yaxshi bo'lsa, eksport jarayoni oson kechadi. Siyosiy nizolar, sanksiyalar esa to'siq yaratadi.          |
| 6.             | Valyuta kurslari va moliyaviy xavflar                | O'zgaruvchan valyuta kurslari eksportchi uchun riskli bo'lishi mumkin. Masalan, dollarning tushishi daromadni kamaytiradi.                          |
| 7.             | Davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari                 | Davlat subsidiyalari, soliq imtiyozlari va eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari tashqi bozorga chiqishni yengillashtiradi.                       |

Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyati – bu ichki imkoniyatlar va tashqi muhit omillariga bog'liq murakkab jarayon. Korxona muvaffaqiyatli eksportchiga aylanishi uchun ichki tarkibiy holatni mustahkamlashi va tashqi muhit tahlilini doimiy ravishda amalga oshirishi hamda davlat tomonidan berilayotgan moliyaviy ko'maklardan samarali foydalanish lozim bo'ladi.

#### IV.MUXOKAMA

Yuqorida keltirilgan tashqi va ichki omillarni **omillarni baholashning eng maqbul usuli** sifatida **ball asosida reyting berish** va uni **ta'sir darajasiga ko'ra** tahlil qilishni tanlaymiz. Bu usul tushunarli, tizimli va har bir omilning eksportga ta'sirini solishtirish imkonini beradi. Ushbu tahlilda tadbirkorlik sub'ektlari eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar ekspert baholash usuli asosida belgilanadi. Bunda amaldagi tadbirkorlar, sohaviy mutaxassislar va xalqaro savdo yo'nalishida faoliyat yuritayotgan ilmiy xodimlar ishtirok etdi. Baholash jarayonida har bir omil ta'sir darajasi bo'yicha 1 dan 5 gacha ball tizimi asosida baholandi. Ballar ishtirokchilar fikrini o'rganish va umumiy fikrlarni sintez qilish asosida chiqarildi. Eng ko'p ball olgan omillar- eng muhim ta'sir etuvchi omillar sifatida belgilanadi[4].

Tahlil ishtirokchilari 8 nafar mahalliy tadbirkor, 3 nafar iqtisodchi-olim va 2 nafar xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi mutaxassislardan iborat bo'ladi. Ushbu ekspertlar turli tajriba va faoliyat sohalarini qamrab olgani bois tahlil ob'ektiv va amaliyotga yaqin natijalarni berdi.

Ekspert baholash natijalariga ko'ra eksport faoliyatiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillar sifatida ishlab chiqarish quvvati va mahsulot sifati (5

balldan), moliyaviy barqarorlik va kadrlar salohiyati (4 balldan) muhim o‘rin tutadi. Ular korxona ichida to‘g‘ri boshqaruv orqali yaxshilanishi mumkin(2-jadval).

## 2-jadval.

### Ichki omillarni baholash jadvali

| № | Omil nomi                                | Ta'sir darajasi (1–5) | Izoh                                                                       |
|---|------------------------------------------|-----------------------|----------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Ishlab chiqarish quvvati                 | 5                     | Mahsulot hajmi va barqaror yetkazib berishni ta'minlaydi                   |
| 2 | Mahsulot sifati va standartlarga mosligi | 5                     | Xalqaro bozorda raqobatbardoshlik uchun asosiy omil                        |
| 3 | Moliyaviy barqarorlik                    | 4                     | Eksport xarajatlarini moliyalashda muhim                                   |
| 4 | Kadrlar salohiyati                       | 4                     | Eksport jarayonida mutaxassislar roli katta                                |
| 5 | Marketing va bozor tahlili               | 3                     | Bozorni noto‘g‘ri tanlash eksport samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi |
| 6 | Boshqaruv strategiyasi                   | 3                     | Raqobatbardosh strategiyalarsiz eksport muvaffaqiyatsiz bo'ladi            |

Tashqi omillarning ta'siri yuqori bo‘lib, ular xalqaro bozordagi talab, transport va logistika, davlat qo‘llab-quvvatlovi (5 balldan). Bojxona va soliq tartib-taomillari, texnik to‘siqlar va xalqaro standartlar, siyosiy barqarorlik va tashqi munosabatlar (4 balldan) bilan bog‘liq (3-jadval).

## 3-jadval.

### Tashqi omillarni baholash jadvali

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda esa zahiralarining auditida milliy qonunchilik, buxgalteriya hisobining milliy standartlari va xalqaro normalar o'rtasidagi tafovutlar, ularga moslashish mexanizmlari, auditorlik dalillarining ishonchliligi va audit xulosalarining amaliyotga ta'siri kabi masalalar ko'tarilgan. Jumladan, Sh. Xodjayev, R. Axmedov va A. Kamilov kabi mualliflar zahiralar auditini sohasidagi kamchiliklar, audit tavsiyalarining ijrosi, ichki va tashqi auditorlar o'rtasidagi axborot almashinuvi, auditning iqtisodiy samaradorligi kabi yo'nalishlarda muhim ilmiy xulosalar bildirganlar. Ularning fikricha, auditoriya jarayonini avtomatlashtirish, elektron hujjatlar asosida dalillarni shakllantirish, zamonaviy audit platformalarini joriy qilish orqali auditning aniqligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tovar-moddiy zahiralarining auditini har tomonlama rivojlanayotgan, yangilanib borayotgan va texnologik yechimlar bilan boyitilayotgan yo'nalish hisoblanadi. U nafaqat buxgalteriya hisobining to'g'riligini ta'minlaydi, balki korxonaning moliyaviy shaffofligi, ichki nazorat samaradorligi va investorlar ishonchining oshishiga ham bevosita xizmat qiladi. Shu bois ilmiy yondashuvlar amaliyotga integratsiyalashgan holda, auditning huquqiy, texnologik va analitik jihatlarini uyg'unlashtirish orqali takomillashtirish muhim strategik vazifa sifatida qaralishi zarur.

## METOLOGIYA

Ushbu ilmiy tadqiqot tovar-moddiy zahiralarining auditiga oid nazariy qarashlar, amaliy yondashuvlar va ularni takomillashtirish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotning metodologik asoslari sifatida tizimli yondashuv, analitik tahlil, hujjatli tekshiruv va diagnostik baholash kabi ilmiy usullar uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqotda ilmiylik, dalillilik, ob'ektivlik va amaliyotga yo'naltirilganlik tamoyillari asosiy metodik prinsiplarga aylantirildi.

Tadqiqot ikki asosiy bosqichga ajratilgan bo'lib, birinchi bosqichda zahiralar auditining nazariy asoslari o'rganildi. Bu bosqichda xalqaro va milliy manbalar, ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro audit standartlari (ISA), ayniqsa, ISA 501 va ISA 330 kabi to'g'ridan-to'g'ri zahiralariga taalluqli hujjatlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, mavjud buxgalteriya va audit nazariyalari doirasida zahiralarini hisobga olish va auditdan o'tkazishning metodologik muammolari, nazorat ob'ektlarining turlari, audit

dalillarining shakllanishi va sifat mezonlari o'rganildi. Bu bosqichda kontent-tahlil, komparativ tahlil va induktiv yondashuvlar qo'llanildi.

Ikkinchi bosqichda amaliy yondashuv asosida korxonalarda tovar-moddiy zahiralarining auditini o'tkazish holati real misollar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot ob'ektlari sifatida O'zbekistonning yirik va o'rta biznes subyektlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar tanlab olindi. Ushbu korxonalarda audit jarayonlarining tashkil etilishi, inventarizatsiya natijalari bilan buxgalteriya ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutlar, audit dalillarining shakllanish tartibi, hujjat aylanishining samaradorligi va auditorlik xulosalarining asoslanganlik darajasi baholandi. Bunda statistik tahlil, hujjatli tahlil, kuzatuv, ekspert-intervyu va audit diagnostikasi kabi usullar kompleks qo'llanildi.

Tadqiqotda auditorlik faoliyatining real samaradorligini aniqlash uchun sifatli va miqdoriy yondashuvlar birgalikda ishlatildi. Sifatli yondashuv doirasida auditorlarning amaliy tajribalari, auditorlik tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar, ichki nazorat bo'yicha reglamentlar va audit so'rovnomalari asosida chuqur tahlil olib borildi. Miqdoriy tahlil esa audit natijalari asosida zahiralar ustidan yuritilgan hisob-kitoblar, tafovut ko'rsatkichlari va baholashdagi xatoliklar ko'lami asosida shakllantirildi.

Auditda riskga asoslangan yondashuvni baholash uchun maxsus matritsa tuzilib, unda zahiralarining mavjudligi, huquqiy egaligi, narxining to'g'riligi, sifat darajasi, shikastlangan yoki yo'qolgan holatlar, hujjatli dalillar bilan tasdiqlanganlik darajasi va hisob siyosatiga muvofiqlik ko'rsatkichlari bo'yicha baholash amalga oshirildi. Har bir mezon asosida risk ko'rsatkichi aniqlanib, audit strategiyasining kuchli va zaif tomonlari belgilandi.

Raqamli audit texnologiyalari, ERP tizimlari, real vaqt monitoringi va bulutli hisoblash asosida shakllangan elektron dalillarni o'rganish bo'yicha tajriba tahlillari ham o'tkazildi. Bu maqsadda ilg'or texnologiyalarni joriy qilgan korxonalar faoliyati o'rganilib, an'anaviy audit bilan zamonaviy avtomatlashtirilgan audit o'rtasidagi samaradorlik farqlari aniqlashtirildi. Raqamlashtirish darajasi va audit natijalari o'rtasidagi bog'liqlik grafik tahlil va regressiv tahlil usullari orqali baholandi.

Ushbu metodologik yondashuvlar orqali tovar-moddiy zahiralarining auditini nafaqat hozirgi holat nuqtayi nazaridan, balki takomillashtirish imkoniyatlari doirasida ham baholash imkoniyati yaratildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u nafaqat mavjud audit tajribasini tahlil etadi, balki raqamli transformatsiya, xavfga asoslangan baholash va strategik integratsiya doirasida zamonaviy yechimlarni taklif etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar asosida tovar-moddiy zahiralarining auditi tashkilotlar buxgalteriya hisobi tizimidagi eng muhim va mas'uliyatli jarayonlardan biri ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Tahlillar ko'rsatadiki, zamonaviy iqtisodiy muhitda audit faqat moliyaviy ko'rsatkichlarni tekshirish vositasi sifatida emas, balki strategik boshqaruv, resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy axborotlar tizimining ishonchliligini ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida qaralishi zarur. Tovar-moddiy zahiralar bu jihatdan ayniqsa alohida ahamiyatga ega, chunki



ularning noto'g'ri hisobga olinishi, noto'liq hujjatlashtirilishi yoki baholashdagi xatoliklar korxonaning umumiy moliyaviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida korxonalarda tovar-moddiy zahiralar ustidan olib borilayotgan audit faoliyatining haqiqiy amaliy ko'rinishi o'rganildi. Aksariyat hollarda auditorlik tekshiruvlari yuzaki va formal tarzda olib borilayotgani, inventarizatsiya jarayonlari esa real mavjudlikni aniqlash emas, balki hujjatni rasmiylashtirish bilan cheklanayotgani aniqlandi. Auditorlik dalillarining shakllanishi hujjatlarga tayanadi, ammo ularning ishonchliligi ko'plab hollarda tasdiqlanmagan yoki izchil tekshirilmagan. Bu holat esa audit xulosalarining ob'ektivligi va dalilliligi bilan bog'liq xavflarni yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, tahlil jarayonida ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlarda zahiralarining baholanishida xalqaro audit standartlari, xususan, ISA 501 talablariga to'liq rioya qilinmasligi, audit dasturlari oddiy namunaviy shakllardan iborat ekani, auditorlik tavsiyalarining esa amalda tatbiq etilmasligi holatlari aniqlangan. Audit natijalari ko'pincha tavsiyaviy xarakterda bo'lib, ularning ijrosini kuzatish, baholash va monitoring qilish tizimi yetarli darajada shakllantirilmagan. Bu esa auditni ichki nazorat tizimi bilan integratsiyalashgan holda olib borish zarurligini ko'rsatmoqda.



### 1 – rasm. Auditdagi asosiy muammolar taqsimoti

Empirik ma'lumotlar asosida olib borilgan baholash shuni ko'rsatdiki, auditda zahiralarining real mavjudligi va buxgalteriya hisobi o'rtasida tafovut mavjud. Inventarizatsiya natijalari bilan balansda aks ettirilgan miqdorlar orasida tafovutlar aniqlanib, bu holatlar odatda noto'g'ri kirim-chiqim hisoboti, yetarli darajada hujjatlashtirilmagan harakatlar yoki baholashdagi metodik xatoliklar bilan bog'liq bo'lmoqda. Zahiralarining huquqiy egaligi bo'yicha dalillar yetarlicha asoslanmagan, ayniqsa kontrakt asosida olingan, omborda saqlanayotgan yoki uchinchi tomonlar bilan bog'liq mahsulotlar bo'yicha auditorlar tomonidan ehtiyotkorlik yetarlicha darajada qo'llanilmayapti.

Tadqiqotda zamonaviy texnologiyalar joriy qilingan korxonalar tajribasi alohida o'rganildi. Bunday subyektlarda audit jarayoni avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali yuritilib, real vaqt rejimida zahiralar harakati kuzatilgan, hisob-kitoblar va ularning tasdiqlovchi hujjatlari ERP tizimlar orqali bog'langan. Bunday yondashuvlar

natijasida audit jarayonining aniqligi, dalillarning sifat ko'rsatkichi va xulosalarning ishonchliligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Bu holat raqamli audit texnologiyalarining afzalliklarini amaliy jihatdan namoyon etadi.

Analitik yondashuv asosida tashkil etilgan baholash mezonlari orqali korxonalarda mavjud bo'lgan auditorlik amaliyotining zaif va kuchli tomonlari aniqlab chiqildi. Risk asosida tuzilgan audit matritsalar orqali korxonaning zahiralar bo'yicha xavfli nuqtalar, ularni baholash uslublari, hujjatlar bilan tasdiqlovchanlik darajasi, ichki nazorat tizimlarining ishlash holati va auditorlik tavsiyalarining bajarilish holati tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali mavjud tizimning qanchalik takomillashtirishga muhtoj ekanligi aniq ko'rinib qoldi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi xulosaga kelindi: amaldagi audit yondashuvlari zamonaviy iqtisodiy va texnologik sharoitlarga to'liq mos emas, ularni takomillashtirish uchun esa auditorlik faoliyatining avtomatlashtirilishi, nazorat mezonlarining kuchaytirilishi, metodik yondashuvlarning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilishi, shuningdek ichki va tashqi audit o'rtasida axborot almashinuvi va hamkorlik tizimining shakllantirilishi zarur. Raqamli transformatsiya sharoitida bu talablar auditorlik sohasining kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida ko'rilishi lozim.

## XULOSA

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy tahlillar asosida aniqlanganki, tovar-moddiy zahiralarining auditi zamonaviy buxgalteriya tizimining eng murakkab, lekin ayni paytda eng strategik jihatdan muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, u nafaqat moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlaydi, balki korxona resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash, ichki nazorat mexanizmlarini tekshirish va boshqaruv qarorlarining dalilliligi mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Zahiralarining mavjudligi, huquqiy egaligi, bahosi va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha aniq, dalillarga asoslangan auditorlik xulosasini taqdim etish — bugungi kundagi global raqamli iqtisodiyot sharoitida nafaqat texnik, balki intellektual yondashuvni ham talab qilmoqda.

Tadqiqot davomida aniq bo'ldiki, amaliyotda auditorlik faoliyati ko'plab hollarda an'anaviy yondashuvlar doirasidan chiqmayapti, audit metodikasi esa ko'p hollarda faqat shakliy tekshiruv bilan cheklanmoqda. Zahiralarining inventarizatsiyasi, hujjat aylanishi, qiymatini baholash va hisobga olishdagi tafovutlar moliyaviy hisobotlarda noaniqliklar, tafsirsiz o'zgarishlar va investitsion xavflarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, tovar-moddiy zahiralar auditi nafaqat buxgalteriya bo'limi faoliyati bilan cheklanishi, balki strategik boshqaruvning ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Zamonaviy iqtisodiy va texnologik sharoitlar, ayniqsa raqamli transformatsiya davrida, audit jarayonining mazmuni va shakli tubdan yangilanishga muhtoj. Raqamli audit texnologiyalarining joriy qilinishi, real vaqt monitoring tizimlaridan foydalanish, ERP tizimlari bilan integratsiyalashgan nazorat modullari orqali zahiralar harakatini aniqlik bilan nazorat qilish imkoniyatlari mavjud. Bu esa audit sifatini yangi bosqichga

olib chiqish, dalillar ishonchliligini oshirish, xatoliklarni oldindan aniqlash va audit tavsiyalarining amaliy ahamiyatini kuchaytirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, korxonalarda amalga oshirilayotgan auditorlik faoliyati samaradorligini oshirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega: birinchidan, auditorlik dasturlarining individual xususiyatlar asosida ishlab chiqilishi; ikkinchidan, auditorlik dalillarining hujjatli asoslarini raqamli muhitda shakllantirish; uchinchidan, ichki va tashqi audit o'rtasidagi hamkorlikni tizimli ravishda yo'lga qo'yish; to'rtinchidan, tavsiyalar ijrosi ustidan samarali monitoring tizimini joriy etish. Aynan mana shu omillar orqali audit faoliyatining nafaqat shakli, balki mazmunijihatdan ham dolzarbligi ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagicha umumiy ilmiy xulosa chiqarish mumkin: tovar-moddiy zahiralarning auditi ko'p omilli, kompleks va raqamli yondashuvga asoslangan bo'lishi zarur. U faqat mavjudlikni aniqlash bilan cheklanmay, balki baholashdagi adolatlilik, axborot oqimlarining izchilligi, huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlovchanlik, moliyaviy hisobotlardagi tafovutlarni bartaraf etish, ichki nazorat tizimining real ishlashi va auditi tavsiyalarining hayotga tatbiq etilishi orqali chinakam samaradorlikka erishadi.

Xulosa tariqasida aytish joizki, tovar-moddiy zahiralarning auditi istiqbolda keng ko'lamli strategik yondashuvlarni, zamonaviy texnologiyalarni va yuqori malakali auditorlik salohiyatini o'z ichiga olgan holda rivojlanishi lozim. Bu esa nafaqat alohida xo'jalik subyektlari, balki butun moliyaviy nazorat tizimi, soliq siyosati va investitsion muhit uchun barqarorlik, shaffoflik va ishonchlilik tamoyillarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шеремет А.Д. Теория аудита: учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 2021. – 352 с.
2. Безруков Н.П. Аудит: организация и методика проведения. – М.: Эксмо, 2019. – 288 с.
3. Шершнёв И.Д. Аудит товарно-материальных запасов в системе внутреннего контроля. – СПб.: Питер, 2020. – 240 с.
4. International Auditing and Assurance Standards Board. Международный стандарт аудита 501: Аудиторские доказательства — специальные соображения для отдельных статей. – Нью-Йорк: IFAC, 2009. – 28 с.
5. International Auditing and Assurance Standards Board. Международный стандарт аудита 330: Реакции аудитора на выявленные риски. – Нью-Йорк: IFAC, 2009. – 36 с.
6. Crawford D., Green R. Auditing in an ERP Environment. – Bangalore: The Institute of Chartered Accountants of India, 2017. – 42 p.
7. Ходжаев Ш. Совершенствование учета и аудита товарно-материальных запасов в условиях цифровой трансформации // Экономика и финансы. – 2022. – № 4. – С. 53–60.
8. Ахмедов Р. Актуальные вопросы аудита в Узбекистане: проблемы и перспективы // Учёт и аудит. – 2023. – № 1. – С. 25–30.

9. Камилов А. Интеграция цифровых технологий в аудит товарно-материальных запасов // Бухгалтерия и контроль. – 2021. – № 2. – С. 41–47.
10. Ходжаев Ш., Камилов А. Методология инвентаризации запасов на предприятии // Журнал прикладной экономики. – 2023. – № 3. – С. 15–21.
11. Зуева М.В. Современные подходы к аудиту товарно-материальных запасов: теория и практика // Международный бухгалтерский учёт. – 2022. – № 12. – С. 37–43.
12. Назарова Г.Л. Цифровизация аудита: возможности автоматизации учёта и контроля запасов // Финансовая аналитика: проблемы и решения. – 2021. – № 5. – С. 18–25.

DOI: 10.5281/zenodo.15570316

Link: <https://zenodo.org/records/15570316>

## MOSLASHUVCHAN MENEJMENT TIZIMLARINI YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARIGA MOSLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBA VA ILG'OR AMALIYOTLARDAN FOYDALANISH

*Bexzod Umarov*

*Qarshi Davlat Universiteti*

*Mustaqil izlanuvchi*

[bekhzod.umarov@gmail.com](mailto:bekhzod.umarov@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyot tamoyillariga moslashtirishda xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlardan foydalanish va Global miqyosda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni tezlashib borayotgan bir vaqtda, moslashuvchan (agile) menejment tizimlarini barqarorlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish strategik zaruratga aylanmoqda. Ushbu maqolada Scrum, Lean va Kanban kabi zamonaviy menejment metodologiyalarini yashil iqtisodiyot maqsadlariga muvofiqlashtirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlari.** Moslashuvchan menejment (Agile management), Yashil iqtisodiyot (Green economy), Barqaror rivojlanish (Sustainable development), Xalqaro tajriba (International experience), Ekologik menejment (Environmental management), ISO 14001 standarti, Raqamli texnologiyalar (AI, IoT, Big Data), Lean va Scrum metodologiyasi, Yashil o'sish indikatorlari (Green growth indicators), Ekologik innovatsiyalar (Eco-innovations).

**Kirish.** Hozirgi kunda dunyo miqyosida iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar va resurslar tanqisligi fonida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylanmoqda. So'nggi o'n yillikda global miqyosda ekologik barqarorlik, iqlim o'zgarishi va resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarb muammolardan biriga aylandi. Shu sababli iqtisodiy taraqqiyot modelini ekologik jihatdan mas'uliyatli shaklga o'tkazish — ya'ni yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish — xalqaro darajadagi ustuvor strategiyaga aylangan. Bu jarayonda nafaqat texnologik yangilanish, balki boshqaruv yondashuvlarining ham zamonaviylashuvi zarurati yuzaga kelmoqda. Ayni vaqtda, moslashuvchan menejment tizimlari (Agile, Lean, Scrum) ishlab chiqarishdan tortib xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan ko'plab sohalarida yuqori samaradorlikni ta'minlamoqda. Ularning asosiy ustunligi — tezkor qaror qabul qilish, resurslardan tejamkor foydalanish va shaffoflikni ta'minlashdir. Shu nuqtai nazardan, ushbu tizimlarni yashil iqtisodiyot tamoyillari bilan uyg'unlashtirish yangi, ekologik barqaror boshqaruv mexanizmini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

OECD (2020) tomonidan taklif etilgan "Green Growth Indicators" tizimi yashil rivojlanish jarayonini baholashning universal mezonlarini ishlab chiqishga yordam bermoqda. Xususan, karbon izini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish va chiqindilarni optimallashtirish bo'yicha aniqlangan indikatorlar, zamonaviy menejment metodologiyalari bilan uyg'un holda, korxonalar va tashkilotlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada Germaniya, Yaponiya, Skandinaviya davlatlari kabi ilg'or mamlakatlar tajribasi asosida moslashuvchan boshqaruv tizimlarini yashil iqtisodiy



modelga integratsiyalash holati o'rganiladi. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuvni tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Lean menejment tizimi isrofgarchilikni (waste) kamaytirish, qiymat yaratishni oshirish va resurslardan samarali foydalanishga asoslanadi. Bu tamoyillar yashil iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlari bilan to'liq mos tushadi. Duarte & Cruz-Machado (2013) o'z tadqiqotida Lean yondashuvini ekologik samaradorlik bilan integratsiyalashgan holda "Green Lean" modelini ishlab chiqdi. Ular ishlab chiqarish korxonalarida chiqindilar hajmini kamaytirish, suv va energiyani tejashga xizmat qiluvchi lean vositalarning (5S, Kaizen, Value Stream Mapping) ekologik ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sirini aniqladi. Mollenkopf et al. (2010) Lean logistikasi orqali transport chiqindilarini optimallashtirish ham korxonalarda "yashil etkazib berish zanjiri"ni shakllantirishga olib kelishini ko'rsatdi. Fowler & Highsmith (2001) tomonidan ishlab chiqilgan Scrum prinsiplari orqali "yashil mahsulot ishlab chiqish" loyihalarida minimal viable product (MVP) modeli asosida ekologik ta'sir ko'rsatkichlarini sinovdan o'tkazish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Lemmetty & Kuusinen (2021) yashil texnologiyalarni ishlab chiqishda Scrum yordamida "eko-funksional" loyihalarni prototiplash va mahsulot hayotiy tsikliga asoslangan ekologik baholashni amalga oshirishni taklif qilgan. UNEP (2011) va OECD (2020) hisobotlarida yashil o'sish uchun zarur bo'lgan boshqaruv tizimlari orasida moslashuvchanlik, innovatsion yondashuvlar, va indikatorlar asosidagi nazorat vositalari alohida ta'kidlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada Boshqaruv yondashuvlari va yashil iqtisodiyot tamoyillarining o'zaro bog'liqligini aniqlash, Ilmiy asoslangan xalqaro tajriba tahlili, Mahalliy sharoitga moslashtirilgan amaliy takliflar ishlab chiqilishi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya qo'mitasi ma'lumotlari, Nazariy asoslarni shakllantirish, Amaliy modellarni o'rganish jarayonlari o'rganilgan.

**Tahlil va natijalar.** Scrum, Lean va Kanban metodologiyalari resurslarni tejash, chiquvchi chiqindilarni kamaytirish, yashil innovatsiyalarni joriy etish, va ekologik samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar sifatida yashil iqtisodiyotga moslashtirilmoqda. Ularning asosida ishlab chiqilgan konsepsiyalar O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarda ham ekologik barqarorlikni boshqarishda qo'llanishi mumkin.

#### **MOSLASHUVCHAN MENEJMENT + YASHIL IQTISODIYOT = INTEGRATSIYASI QUYIDAGICHA AMALGA OSHIRILMOQDA:**

✓ *Agile loyihalarda eko-indikatorlar (CO<sub>2</sub>, suv sarfi, chiqindi hajmi) joriy etilishi*

✓ *Scrum metodikasida barqarorlik mezonlari bo'yicha Sprint rejalari tuzilishi*

✓ *Kanban taxtalarida resurslar tejamkorligi bo'yicha real vaqtli monitoring*

✓ *ISO 14001 bilan integratsiyalashgan Digital Twin, IoT, AI vositalari*

Yuqoridagi integratsiya asosan Yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy qilish nafaqat texnologik modernizatsiya, balki boshqaruv tizimlarining yangilanishini

ham taqozo etadi. Ayniqsa, oxirgi yillarda keng qo'llanila boshlagan moslashuvchan menejment tizimlari (Agile, Scrum, Kanban) ekologik barqarorlik tamoyillariga mos holda takomillashtirilmoqda. Quyida ushbu integratsiyaning asosiy mexanizmlari batafsil tahlil qilinadi.

Buning asosiy joriy etilishi **Agile loyihalarda eko-indikatorlar joriy etilishidir** – **bu** agile yondashuvi asosida ishlaydigan tashkilotlar loyihalarni iterativ usulda qisqa muddatli davrlarda (sprintlarda) amalga oshiradi. An'anaviy jihatdan bu yondashuv mahsulot yoki xizmat sifatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda eko-indikatorlar bu jarayonga qo'shila boshladi;

- ❖ CO<sub>2</sub> emissiyasi har bir sprintda mahsulot ishlab chiqish yoki xizmat ko'rsatish bosqichlari uchun alohida hisoblab boriladi.

- ❖ Suv sarfi va energiya iste'moli haqidagi ma'lumotlar maxsus monitorlar yoki real vaqtli sensorlar orqali kuzatiladi.

- ❖ Chiqindi hajmi — ishlab chiqarish yoki xizmat yakunida hosil bo'lgan chiqindilarni hisoblash orqali tahlil qilinadi.

**Scrum metodikasida barqarorlik mezonlari asosida Sprint rejalashtirish** - bu Scrum metodikasi – bu tezkor va takrorlanuvchi iteratsiyalar (sprintlar) orqali mahsulot ishlab chiqish metodologiyasidir. Uni yashil iqtisodiyot tamoyillari bilan birlashtirish orqali ekologik barqarorlik mezonlari doimiy ravishda nazorat qilinadi.

Har bir sprint oldidan barqarorlik mezonlari (masalan, suv sarfini kamaytirish, chiqindini 5%ga tushirish) belgilab olinadi.

- ❖ Sprint yakunida "retrospektiva" jarayonida ekologik samaradorlik ham tahlil qilinadi (faqat tezlik yoki xarajat emas).

- ❖ Yashil indikatorlar (ECO-KPI) har bir jamoaning Sprint Boardiga qo'shiladi.

Aniq natija Toyota kompaniyasida ishlab chiqilgan "Eco-Kaizen" modeli aynan ushbu yondashuv asosida, xodimlarning ekologik takliflari asosida har sprintda ekologik takomillashtirishlar kiritish tizimidir.

**Kanban taxtalarida resurslar tejamkorligi bo'yicha real vaqtli monitoring** - Kanban – bu vizual boshqaruv vositasi bo'lib, jarayonlarni kuzatish, kechikishlar yoki resurs isrofi holatlarini aniqlashda keng qo'llaniladi. Yashil iqtisodiyot bilan integratsiyalashganda "Eco-Kanban" yoki "Green Kanban" konsepsiyalari shakllanadi.

✓ Amalga oshirish mexanizmi:

Har bir jarayon bosqichi uchun maxsus eko-ko'rsatkichlar (suv, energiya, chiqindi, vaqt) belgilab qo'yiladi.

Kanban taxtasi har bir vazifaning resurs sarfini vizual tarzda ifodalovchi indikatorlar bilan boyitiladi.

Ishlab chiqarishdan chiqayotgan chiqindilar va ortiqcha energiya sarfi real vaqt rejimida ko'rsatiladi.

✦ Texnologik vositalar:

IoT asosidagi sensorlar yordamida har bir vazifaga tegishli resurs ishlatilishini avtomatik ravishda Kanban tizimiga yuborish. Power BI, Tableau, Trello plugins kabi platformalarda "yashil" panel tuzish. 1-rasm

- Har bir jarayon boscichi uchun maxsus eko-ko'kosatkichlar (suv, energiya, chiqindi, vaqt) belgila bo'yiladi.
- Kanban taxtasi har bir vazifaning resurs sarfini vizual tarzda ifodalovchi indikatorlar bilan bo'yiladi.
- Ishlab chiqarishdan chiqayotgan chiqindilar va artiqcha energiya sarfi real vaqt rejimida korsatiladi.



**1-rasm. Kanban taxtalarida resurslar tejamkorligi bo'yicha real vaqtli monitoring**

**ISO 14001 bilan integratsiyalashgan raqamli texnologiyalar (Digital Twin, IoT, AI)** - ISO 14001 — ekologik menejment tizimining xalqaro standarti bo'lib, tashkilotlarda ekologik xavfsizlik va monitoringni tizimli asosda yuritishni talab qiladi. Ushbu standartni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali yashil menejmentda yuqori samaradorlikka erishiladi.

**Xulosa va adabiyotlar.** Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyot tamoyillariga integratsiyalash — bu oddiy zamonaviy menejment uslubini ekologik yondashuvga moslashtirish emas, balki yangi boshqaruv madaniyati va infratuzilmasini shakllantirishdir. Agile, Scrum va Kanban kabi metodologiyalar, ISO 14001 va raqamli texnologiyalar bilan uyg'un holda ishlaganda samarali va ekologik barqaror ishlab chiqarish, resurslar tejamkorligi, iqlim o'zgarishiga mos strategik qarorlar amalga oshadi.

Bu yondashuv nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki O'zbekiston kabi transformatsion bosqichdagi mamlakatlarda ham dolzarb bo'lib, uni strategik darajada qo'llash — raqamli va yashil taraqqiyot sintezini yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. OECD. (2020). Green Growth Indicators 2020. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/55c4eb7f-en>
2. UNEP. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. United Nations Environment Programme.
3. Duarte, S., & Cruz-Machado, V. (2013). Modelling lean and green: A review from business models. International Journal of Lean Six Sigma, 4(3), 228–250. <https://doi.org/10.1108/IJLSS-12-2012-0013>

4. Anderson, D. J. (2010). Kanban: Successful Evolutionary Change for Your Technology Business. Blue Hole Press.

5. Lemmetty, S., & Kuusinen, K. (2021). Applying Scrum in Green ICT Projects: Challenges and Recommendations. Journal of Systems and Software, 180, 111009. <https://doi.org/10.1016/j.jss.2021.111009>

DOI: 10.5281/zenodo.15570303

Link: <https://zenodo.org/records/15570303>

## MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN MAHALLALARNI SAQLAB QOLISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI

*Qoraboyeva Dildora Danil qizi*

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti*

*"Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD).*

[saboxat.alimova@mail.ru](mailto:saboxat.alimova@mail.ru)

+998 908134818

*Maksudova Xakima Xalidarovna*

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti*

*"Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi katta o'qituvchisi*

*Utayv G'ayrat G'aybullaevich*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

*"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi*

+998 97 726 31 11

**Annotatsiya:** Mahalla azaldan hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tinchlik-osoyishtalik, ahillik va hamjihatlik, ma'rifat hamda tarbiya maskani bo'lib kelgan. Shuni e'tiborga molikki, bugungi kunda Jahon hamjamiyati "Yangi O'zbekiston" deya e'tirof etayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida ijtimoiy hayotda adolat va insonparvarlik tamoyillari mustahkamlanmoqda. Ushbu maqolada mahalla institutining ijtimoiy falsafiy mohiyati, Qadriyatlar falsafasining mohiyati, mazmuni, obyektiv asosi, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlari, milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar shakllangan va yuzaga kelgan o'zini-o'zi boshqarishga asoslangan maskan ekanligi qiyosiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** qadriyat, aksiologiya, kategoriya, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot, mustaqillik, Ijtimoiy jarayonlar.

### KIRISH

Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilishgan. Xolbuki qadriyat aksiologiyaga xos kategoriyadir. Qadriyatni aksiologiya nuqtayi nazaridan talqin qilish uni kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, obyektiv asosi, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi. Qadriyat kategoriyasi faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qimmatini emas, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, talab va tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi.

Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi qarashlari o'zgarib boradi. Tarixiy zaruriyatga qarab goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi. Masalan, yurtni yov bosganida – ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida – istiqlof, urush davrida – tinchlik, tutqunlikda – erkinlik, kasal yoki bemorlikda – sihat-salomatlikning qadri oshib ketadi.

Qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o'z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega. Qadriyatlar mehnat, ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat, insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, xatti-harakatlar majmuasi sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati,



xatti-harakatini ma'lum yo'nalishga buradigan, tegishli me'yorga soladigan ma'naviy hodisaga aylanadi.[1]

"Mahalla" atamasi arabcha bo'lib, «o'rin-joy», qavm yoki jamoat ittifoqligida, o'zaro bir-birlarini qo'llab – quvvatlab yashaydigan joyni anglatadi. Adabiyotlarda Mahallalarning ko'p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Alisher Navoiy o'zining «Hayratul abror» asarida Mahallani «mahalla shahar ichidagi shaharcha»dir deb ta'riflaydi.

Mahalla kichik ma'muriy hudud bo'lishi bilan birga, turmush tarzi, qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar umumiyliги bilan bog'langan kishilar jamoasi birligidir. Tarixning turli bosqichlarida davrlar, tuzumlar o'zgarishiga qarab Mahallaning vazifalari ham o'zgarib turgan.

Mahallaning asosiy vazifalari: marosimlarni birgalikda o'tkazish, o'z hududini batartib saqlash va obodonlashtirish, yosh avlodni ijtimoiy ruhda tarbiyalash, jamiyat hayotida tartib saqlanishini ta'minlash, barcha an'anaviy me'yorlarning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish, urf-odatlarga rioya qilish va ularni buzgan, jamoat majburiyatlaridan bo'yin tovlaganlarni jazolashdan iborat bo'lgan. Mahalla rahbariyati ariq-hovuzlarni tozalash, ko'chalar, yo'llar qurish va Mahalla obodonchiligi bilan bog'liq boshqa jamoat ishlarini uyushtirganlar. Bu ishlarning barchasi birgalikda hashar yo'li bilan amalga oshirilgan.

Mahalla tizimi jamiyatimizning eng muhim va tayanch bo'g'ini hisoblanadi.

Mahalla-ko'y, qo'ni-qo'shnilar yaxshi-yomon kunlarda, quvonchli to'ylarda, boshqa o'lim musibati tushgan og'ir damlarda kuningizga birinchi bo'lib yaraydilar.

Mahallalarda turli toifa insonlar yashaydi. Ularning orasida o'ziga to'q, boy-badavlat oilalar qatorida, orzu-umidlari boshqalardan kam bo'lmagan, ammo ularni amalga oshirish uchun qo'llari kaltalik qiladigan, o'g'il-qizlari allaqachon voyaga etgan, ammo ularni uylash yoki uzatish uchun to'y xarajati o'ylantirib qo'yadigan oilalar ham bor. Islom ana shunday muhtojlar holidan xabar olib, ularga iktisodiy yordam berish majburiyatini o'ziga to'q, badavlat insonlar zimmasiga yuklagan. Bunday kishilar o'z ixtiyorlari va islom majburiyati asosida farzandlari voyaga etgan mahalladoshlari huzuriga kirishlari va ularning qanday kamchiliklari bo'lsa, imkon darajasida yordam berishlari kerak.

Ma'lumki, mahallada yaxshi qo'ni-qo'shnilikning ahamiyati katta. Bo'lajak kelin yoki kuyovlarning kimligini ota-onalar mahalla kattalaridan surishtiradi. Sovchilar ham bo'lajak kelin yoki kuyov uyiga borishdan oldin qo'shnilariga uchrashadi, ularning bergan xolis bahosiga qarab ish tutishadi. Holislik muhim ahamiyatga ega. Qo'shnilar bunday ishonch va imkoniyatdan o'z qo'shnisidan qasos olish, bo'ladigan xayrli ishlarni orqaga surish, qachonlardir tasodifan bo'lib o'tgan, ammo barchaning yodidan ko'tarilib ketgan arazlarni eslash, bo'ladigan ishni chakimchilik bilan to'xtatish kabi g'ayriinsoniy odatlar yo'lida foydalanmasliklari kerak. "Har kim ekanini o'radi", degan maqolga asosan, hayotda kim birovga yaxshilik qilsa, o'zi ham yaxshilik ko'radi. Kim birovga yomonlik qilsa, shubhasiz, yomonlik ko'radi.

Mahallada tabiat muxofazasiga hissa qo'shish kerak. Alloh taolo insonni yaratib, unga ruh bilan birga aqlu idrok baxsh etgan, Yerni, undagi barcha yaratilgan narsalarni

insonga omonat topshirib, uni ehtiyot qilish, barcha narsalarni: maxluqlar, mavjudotlar, suv, havoni avaylab-asrashdek katta mas'uliyatni yuklagan. Bu mas'uliyatni esa inson oldindan bajarib keladi. Tabiatni muhofaza qilish Islom dinining asosiy ta'li-motlaridan biri hisoblanib, barchamizga yashayotgan joy-larimizning toza, ozoda bo'lishi, ichimlik suvimizning beguborligi, o'zimizning esa pokiza yurishimizni buyu-radi. Asrlar bo'yi odamlar ariq, daryo va dengiz suvlarini pokiza saqlashni burchlari deb bilishgan: "U sizlar uchun Yerni poyandoz, osmonni "bino" qilib qo'ydi va osmondan suv tushirib, u sababli sizlarga rizq sifa-tida mevalar undirdi..." (Baqara, 22).

Tevarak-atrof, er, suv, xavo birmuncha ifloslanib inson salomatligiga zarar etkazmoqda. Buning oldini olish, tabiatni muxofaza qilib sog'lom avlod uchun kurashish esa barcha mo'min – musulmonlarning vazifasi bo'lmog'i lozim. Mahalladagi daraxtlarni sindirishlariga, xovli supurindilarini anxorga tashlashlar, ichimlik suvini isrof qilish, mahalla ko'chalarida daraxt barglari va chiqindi-axlatlar yondirilishiga yo'l qo'ymasligi uchun butun mahalla axli kurashishi kerak. Mahallada qo'shnilar bilan insoniylik nuqtai nazaridan muomala qilish kerak. Mahalladosh qo'shnilar orasida qarindoshlari, begonalari va boshqa din vakillari xam bo'lishi mumkin. Mahallaning kuchi birlikda, xushyorlikda, ogoxlikdadir. Shunday ekan yurtimiz obod, mahallalarimiz faravon bo'lsin.[2]

Milliy qadriyatlar mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlar esa ko'plab milliy qadriyatlarga tayanib shakllanadi va asrlar osha takomillashib boraveradi. Ammo bugungi tezkor globalashuv sharoitida ham o'z milliy moddiy va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylayotgan, boyitib rivojlantirayotgan har qanday millat o'ziga xos an'analari, urf-odatlar va o'lmas qadriyatlari bilan boshqa millatlardan ajralib turadi.

Tabiiyki, millatlarning bebaho qadriyatlari shunchaki bir-ikki yoki o'n-yigirma yil ichida paydo bo'lib qolmaydi. Chunki xalq diliga chuqur o'rnashgan biror-bir muhim urf-odat, kiyim-kechak, kundalik hayot tarziga xos alohida "narsa"ning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq asrlarni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida ma'lum bir qarash, odat, tushuncha, tajribalar shafqatsiz zamonlar, bir necha avlodlar sinovidan muvaffaqiyatli o'tsagina yana-da sayqal topadi, rivojlanadi, xalq hayotida o'z o'rnini egallaydi.

Zamonlarning baland-past dovonlaridan o'tgan sari qadriyatlar insonlarni tinchlik-totuvlikka, mehr-oqibatga, ezgulikka, hamjihatlikka chorlaydigan katta ma'naviy kuchga aylana borgan. Bunday qadriyatlar millatning kundalik hayotida, madaniyati va ma'naviyatida, ongu shuurida, o'zaro madaniy muloqotida, boshqalarga bo'lgan munosabatida, qisqasi, har bir tashlagan qadamida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham mutafakkirlar qadriyatlar millat ma'naviyatining ko'zgusi deyishgan.

Insoniyat tarixida jamiyat taraqqiyoti bir tekis kechmagan. Jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-tarixiy hodisalarga turlicha munosabatda yondashish natijasida insonlarning dunyoqarashi, turmush tarzi, mentaliteti shakllanishi barobarida, milliy qadriyatlar ham takomillasha borgan. Milliy qadriyatlar har bir millatning tili, urf-odatlar, tarixi, madaniyati, an'alarini, barcha moddiy va ma'naviy boyliklarini,

iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi. Shuning uchun ham qadriyatlar millatlarning ma'naviy qiyofasini aks ettiradi.

Xalqimizning asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga – Vatanga muhabbat, ajdodlar xotirasiga sadoqat, mehmonga, o'zidan kattalarga ehtirom, o'zidan kichiklarga izzat-ikrom, ayniqsa ota-ona, qarindosh-urug'larga doimiy beg'araz hurmat va xizmat ko'rsatish, birovning haqiga, ayniqsa, yetim-yesirlarning, qo'ni-qo'shnilarining, ojiz-notavonlarning haqiga xiyonat qilmaslik, orttirgan mol-dunyosidan xayr-ehson qilish, har qanday sharoitda ham hayo va andisha saqlash, ahli ayoli – oilasini asrab-avaylash singari juda ko'plab insoniy fazilatlar milliy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi.

Afsuski, xalqimiz asrlar davomida e'zozlab kelgan bir qator qadriyatlarni keyingi bir asrdan ko'proq vaqt ichida jamiyat hayotidan quvg'in, xalq xotirasidan o'chirishga harakat qilindi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach zahmatkash xalqimizning tarixiy xotirasini, qadimgi urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini tiklash va e'zozlash, muqaddas qadamjolarni asl holiga qaytarish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirila boshlandi. Bu jarayonda faqat tubjoy aholisininggina tili, dini va qadriyatlarini tiklash, rivojlantirish bilan cheklanilmasdan, shu yurtda istiqomat qiluvchi yuzdan ortiq millat va elatlarning ham nodir qadriyatlari kamol topishiga e'tibor qaratildi.

Har to'kisda bir ayb yoki guruch kurmaksiz bo'lmaydi, deganlaridek, qadriyatlarimizni qo'llab-quvvatlash, ularga qat'iy rioya etish borasida ham suiiste'molliklarga yo'l qo'yilyapti. Internetning hayotimizga shiddat bilan kirib kelishi, ijtimoiy tarmoqlarda har qanday ma'lumot yoki xabarlarining yashin tezligida tarqatilishi avj olayotgan shunday bir paytda qadriyatlarimiz toptalishiga olib kelayotgan ayrim nuqson va qusurlardan ko'z yumib bo'lmaydi.

O'tgan yilning oxirigacha to'y va marosimlardagi dabdabalar haqidagi shov-shuvli xabarlar ijtimoiy tarmoqlardan tushmagan edi. Quvonchli tomoni shundaki, bugun bu kabi dabdababozliklarga barham berilmoqda.

Milliy va diniy qadriyatlarimizda ota-onaning qadr-qimmatini ko'klarga ko'tarilganligini hech kim inkor eta olmaydi. Ammo ayrim tanbal farzandlar ota-onasiga g'amxo'rlik qilish o'rniga, rahmdilroqlari yolg'iz qolgan keksa otasi yoki onasini "Saxovat uyi"ga eltib tashlamoqda, razilroqlari esa ota-onasidan tezroq qutilish uchun ularga qo'l ko'tarmoqda, ma'naviy va jismoniy zulm qilmoqda, hatto tavqila'natli "padarkush"ga aylanib qolmoqdalar. Nega?

Farzand ota-onaning dilbandi, ota-onaga ularsiz hayot rang-barangligining bir daqiqasi ham tatimaydi. Ammo bugungi kunga kelib ota deyishga ham til bormaydigan ayrim "otachalar" xotinini xiyonatda ayblab, "bu mening farzandim emas", deb o'z pushti kamaridan bo'lgan bolasidan sharmandalarcha voz kechyapti, farzandlarini qon-qaqshatib, oilasini tashlab ketyapti, ro'zg'oridagi bor budini bir shisha aroqqa almashib, guldek farzandlari, xotini hayotini zindon azobiga aylantirmoqda.

Har qanday qirg'in-barot urushlar, yillab davom etgan ocharchilik, qahatchilik, taqchilik, tanqislik, zulm-istibdod avj olgan davrlarda ham ayollarimiz o'z onalik sha'ni, ayollik iffati, hayo-ibosini, islomiy iymon-e'tiqodini yo'qotmagan, sotmagan edi. Endi-chi? Ustida yal-yal yonadigan atlasu kimxob liboslar, turq-u tarovati

binoyidek kelishgan yosh juvonlarning qayerlardadir erkak ovlashi, oilasi, yurtdoshlari obro'-e'tibori, nomus-u orini yerga bukib, ularning ta'na-dashnomlarini bir chaqaga ham olmasligi qaysi qadriyatga mos keladi? Ayrimlari esa kasofat qilmishlari tufayli ona bo'lishdek ulug' baxtdan mosuvo bo'lib, nikohsiz orttirgan farzandini o'zi bo'g'ib yoki sellofan xaltaga solib o'ldiryapti, chaqalog'ining ko'ksiga tosh bog'lab anhorga cho'ktiryapti, hojatxonaga, ko'cha-ko'y, xiyobonlarga tiriklay tashlab ketyapti. Axir besh begona emas, o'z farzandi, jigarbandini-ya. Hech bir hayvonda yo'q bunday odat ayollarimizda qayerdan paydo bo'lyapti?!

Xalqimiz qadimdan qo'shnining qo'shnida haqi bor deb, yon qo'shnilarini ulug'lab kelgan. Shuning uchun ham qo'shnilar bir-birlarining izzat-hurmatini joyiga qo'ygan. Biror tansiq taom pishirsa, yaqin qo'shnilariga, albatta, bir kosa ilingan, bir-birining holidan xabardor bo'lib turgan. Biz-chi, biz bugunga kelib bordi-keldi qilish tugul, yonimizda yashayotgan qo'shnimizni, uning bolalarini ham tanimaymiz. Hatto oyda bir marta ota-onamizni, tug'ishganlarimizni yo'qlashni-da odat qilmaymiz, paysalga solamiz. Hovli qursak, uyimiz tomini qo'shnining tomidan ikki qarich balandroq qilmasak, shipi olti metr, xonalari o'nta bo'lmasa, ko'nglimiz aslo to'lmaydigan bo'lib qoldi. Aslida ota-bobolarimiz yangi imoratini qo'shnisi yashab turgan binodan bir qarichcha pastroq qilib, kamtarona qurganlar. Biz notavonlar esa yangi asrga kelib hovli-joy, mashina, narsa-buyum, mol-u dunyoning hirsiga berildik, hashamat, maishat, isrofgarchiliklarga to'la ziyofatlar, ko'r-ko'rona taqlid va zo'rma-zo'rakilikka asoslangan dabdabali to'y-tomoshalarning quliga aylanib boraverdik. Nega??!

Mahalla qadimdan qadriyatlar qadrlanadigan joy. Shuning uchun ham bir bolaga yetti mahalla ota-ona, deb aytishadi. Ammo biz o'z ishimiz, o'z uyimiz, o'z tashvishlarimiz bilan shu darajada o'ralashib qolganmizki, o'zimiz mahalla ishlariga ko'maklashish o'rniga mahalladan yo'qlatsalar ham hafsalasizlik, loqaydlik qilamiz, mahalla tadbirlariga bosh-qosh bo'lmaymiz. Mahallada yoki biror oilada favqulodda bir holat yuz bermaguncha oqsoqollarga qo'shilib mahallani bir aylanib, keksalardan hol so'rab, bebosh yoshlarni tergamaymiz. Nega???

Qadriyatlarni qadrlash borasida aytaman desak gap ko'p. Joriy yilning yanvar oyidan beri insoniyat boshiga katta falokat – koronavirus nomli baloyi ofat yopirildi. U ham insoniy qadriyatlar qadrsizlanayotgan mamlakatlarda juda avjiga chiqmoqda. Minglab odamlar ko'zga ko'rinmas bu baloyi qazoni yuqtirib bevaqt vafot etmoqda. Bir yomonning bir yaxshi tomoni ham bor deganlaridek, ushbu pandemiya ham yo'ldan toygan insoniyat uchun bir achchiq saboq bo'lar. U ham bizni o'z qadriyatlarimizga qarab ish tutishga da'vat etar.

Qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi, jamiyatimiz, millatimiz, davlatimiz taraqqiyotining asosiy omillaridan biri. Shunday ekan, azal-azaldan xalqimizga xos bo'lgan milliy qiyofani shakllantiruvchi mardlik, tantilik, mehmondo'stlik, saxovatpeshalik, o'zaro hurmat, birodarlik, bag'ri kenglik, mehribonlik kabi betakror fazilatlar har bir yurtdoshimiz tomonidan amalda e'zozlanishi, asrab-avaylanishi, ijobiy jihatlar qo'shib boyitilishi, rivojlantirilishi baxtli kelajagimiz uchun eng muhim shartdir.[3]

Bozor munosabatlarini shakllantirishning murakkab holatida mahallaning ijtimoiylashtiruv roli oshib ketadi. Bu avvalambor oila qadriyatlarini saqlab qolishda namoyon bo'ladi. Nizoli holatlar paydo bo'lganda xotin-qizlar qo'mitasi yoki mahalla oila vakillari bilan suhbat o'tkazadi va odatda vaziyatga oydinlik kiritadi va ajralishlar bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari mahalla ishsizlarga ishga joylashishlariga, militsiya xodimlariga tartibni saqlashda yordam beradi, xizmatga chaqirilganlar bilan tushuntirish ishlari olib boradi. Avvalgiday jamoa o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutmoqda. Hozirda mahalla bolalar bog'chalari va maktablar bilan yaqin hamkorlik olib borib, ularga ta'mirlash ishlarini olib borishda, ta'kim-tarbiya ishlarida yordam ko'rsatadi. Mahalla qo'mitasi majlislarida maktab intizomining jiddiy buzilishlari ham ko'rib chiqiladi. Yoshlarga ta'sir ko'rsatishning bu rasmiy tarmoqlaridan tashqari jamoani nazorat qilishning an'anaviy usuli ham saqlanib qolgan. Har qanday mahallada boy hayotiy tajribaga ega odamlar mavjud. Ularning asosiy vazifasi aholining an'anaviy ahloq-odob qoidalariga rioya qilishlarini, bolalarning ko'chadagi yurish- turishini nazorat qilishdir. Ular har qanday odamga tanbeh berishlari mumkin, biroq bu ishni doimo ularning hurmatini saqlagan holda amalga oshiriladi. Ota-onalarning bunday munosabatni qadrlashi tahsinga sazovor. Shuning uchun “mahalla sening ham otang, ham onang” degan maqol mavjud. Boshqa sohalarda namoyon bo'ladigan milliy tiklanish, xalqning milliy o'z-o'zini anglashni faollashtirish orqali bo'ladi. Sobiq Sovet ittifoqi davrida bu kabi an'analar to'liq yo'qolib ketmagan, balki ayrim oilalarda o'ziga xos tarzda saqlanib qolgan va yoshlarga berilgan. Bu ayniqsa, hayotning an'anaviy turmush tarzini saqlab kelayotgan eski shahar mahallalarida yashovchilar orasida yaqqol namoyon bo'lgan. Mahalla fuqarolarining yuqori savodxonlik va madaniy darajasi (yosh va o'rta avlod, o'rta yoki oliy ma'lumotga ega) badiiy ijodning keng rivojlanishi, marosimlar o'tkazishda ma'naviy o'z-o'zini ifodalashning keng imkoniyatlarini ko'zdatutadi.

Shuni ta'kidlash joizki, etnik an'analar va marosimlarning tiklanishida avvalo, oiladagi katta avlod, shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televidenie katta o'rin tutadi. Hozirgi kunda mahallaning ahamiyati oshib bormoqda. Biroq yoshlar tarbiyasida muammolar kam emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarning axloqiy tarbiyasiga xalaqit beradigan bir qancha holatlar ham kelib chiqmoqda. Yoshlarning yoshligidanoq savdo-sotiq qilishga va boshqa tijorat ishlariga sho'g'ib ketishi ularning o'qishiga, bilim olishga bo'lgan intilishlariga, ijtimoiy munosabatlarga kirishishga, salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ba'zi hollarda muallimlar o'quvchilarni to'liq tarbiyalash imkoniyatidan mahrumdirlar, ya'ni ular boshqa faoliyat bilan ham shug'ullanadilar. Jamiyatni demokratiyalashtirishning mazkur osqichida yoshlar faoliyat turini tanlashda keng imkoniyatlarga ega bo'lishdi. Biroq ular bulardan to'liq foydalana olmaydilar. So'nggi yillarda yoshlar orasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish susaydi, din ta'siri kuchaydi va bu natijada yoshlar mafkuraviy sohada o'z mo'ljallarini yo'qotishlariga olib keldi. Mahalla tarbiyaning an'anaviy usullaridan foydalanib, yosh avlod bilan yanada faol ish olib borish, ularda hozirgi jamiyat talablariga muvofiq keladigan dunyoqarash va axloqiy tamoyillar hosil qilishdan iborat.

Mahalla azaldan nafaqat o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisi vazifasini bajargan, balki ijtimoiy fikrni shakllantirgan ham. Qo'shnilar o'rtasidagi barcha nizoli



holatlar, shuningdek, esa oilaviy janjallar mahalla qo'mitalari faollari tomonidan muhokama qilinadi. Bular orasida ko'pincha qaynona-kelin, yosh kelin- kuyovlar orasida janjallar ko'p uchraydi. Bunaqa holatlarda xotin-qizlar qo'mitasi suhbat o'tkazadi. Agar ikki tomonni yarashtirib bo'lmasa, bu holat bilan mahalla qo'mitasi shug'ullanadi. Odatda o'sha joyning o'zida muammo hal qilinadi. Shuning uchun ajralishlar soni ko'p emas. So'nggi paytlarda uy ishlari bilan band ayollar, yosh oilalar bilan ishlash faollashdi, ularni kasb-hunarlariga o'rgatish ishlari olib borilmoqda. Mahalla ishsizlarning ishga joylashishlariga ham ko'maklashmoqda. Harbiy qo'mitalar askarlikka olishga tanlov bo'lganda mahalla faolligigatayanishadi.

1999 yil 14 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari haqida"gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Unda yana bir marta fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishi asosida tarixiy taraqqiy xususiyatlari, milliy va ma'naviy qadriyatlar, mahalliy odat va an'analar yotishi ta'kidlandi. Qonunda mahallaning vazifalari belgilab qo'yilgan. YUqorida sanab o'tilgan vazifalardan tashqari mahallaga yangi vazifalar-tijorat va maishiy xizmat ko'rsatishni, hududning tozalik holatini, aholidan soliqlarni o'z vaqtida topshirilishini nazorat qilish ham yuklatildi. Davlat mahallaga avval mahalliy kengashlar bajargan vazifalarni yuklamoqda. Bu esa mahalla qo'mitalari davlat tuzilmalariga aylanayotganligidan guvohlik beradi.

Mahallaning ijtimoiy hayotida so'nggi o'n yillarda katta o'zgarishlarni boshdan kechirgan qo'shnichilik munosabatlari muhim o'rin tutmoqda. Oilaviy muhitning individuallashuv jarayoni ketmoqda. Shu bilan birga yaqin qo'shnichilik munosabatlari o'zbek oilasining qadriyatlaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu avvalombor xo'jalik yordamida, bolalar tarbiyasida, qiyin vaziyatlarda yordam ko'rsatishda namoyon bo'lmoqda. SHuning asosida ma'naviy yaqinlik paydo bo'ladi, ya'ni kundalik axborot almashinuvi, mahalladagi voqealar muhokamasi bo'lib o'tadi. Shu tarzda mahalladagi eng kichik guruhlardan biri- qo'shnichilik guruhi paydobo'ladi.

Mana shu guruh bilan bir qatorda qarindoshlik aloqalari ham mavjud. Ular hozirda avvalgidan ko'ra kamroq bo'lsada, uning a'zolarining faol o'zaro yordami bilan xarakterlidir. Qarindoshlik munosabatlari o'zbeklarning oilaviy qadriyatlari tizimida hali ham birinchi o'rinda turadi.

O'zbeklarning ijtimoiy hayotidagi muhim hodisalardan biri erkaklar birlashmalari-gap, gashtak, ziyofatdir va ularning maqsadi bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishdir. Har bir yosh guruh o'zining muomala shakliga ega: Qadimda Toshkentda gaplar ommaviy xarakterga ega bo'lgan. Ular hosil yig'im terimi yakunlangan kuzgi-qishki davrda o'tkazilgan. To'qmada erkaklar har kuni bir- birlarining uyida to'planishgan va har kim qo'lidan kelganini olib kelgan. Buning hammasi "umumiy qozon"ga solingan. O'zlari taom tayyorlashgan, o'zlari uy yig'ishtirishgan, namoz o'qishgan, suhbatlashishgan, axborot almashishgan.

Tuqmadan farqli o'laroq, gap haftada bir marta odatda juma kunlari ishtirokchilardan birining uyida o'tkazilgan. Har bir gapda saylangan rahbar va ishtirok etish qoidalari bo'lgan. Qoidabuzarlar gapdan chetlashtirilgan. Ziyofat xarajatlarini mezbon ko'targan. Namoz va diniy adabiyotlar uchun odamlarni qamashgan XX asrning 30- yillarida gaplarda to'planish havfli bo'lgan. II jahon urushi davrida moddiy

qiyinchiliklar ham gaplar o'tkazilmasligiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Biroq gaplar XX asrning 50-60 yillarida asta-sekin tiklana boshladi. Biroq bu gaplar biroz boshqacha edi. Avvalo, endi ayollar orasida ham gap tashkillashtirildi. Hozirda ayollar gaplari erkaklarnikidan ko'ra kengtarqalgan.

Oilaviy gaplar, avvalombor sinfdoshlar, kursdoshlar orasida, shuningdek kasbiy gaplar ham ommaboplashdi.

Gaplarning ijobiy xususiyatlari bilan birgalikda ularda salbiy jihatlar ham mavjud. Bu isrofgarchilik va ichkilik bilan bog'liq. Kitoblar mutolaasi, mazmunli suhbatlar tan olinmay kelindi. Avvalgilaridan farqli ravishda hozirgi gaplar yil davomida o'tkaziladi. To'y paytida gap ishtirokchilari to'y egasiga yordam ko'rsatishadi. Ular og'aynilarini qiyin kunlarda qo'llab-quvvatlashadi. Har bir gapning shuhrati bor. Insonni, ayniqsa yoshlarni qaysi gapga a'zo bo'lganidan u qanaqa tarbiya olganini aniqlasa bo'ladi.

Ayollar orasidagi gaplar XX asrning 60-70 yillarida keng rivojlana boshladi. Bu mahalladagi qo'shnilarning birlashmasi edi. Biroq ishtirokchining yoshi inobatga olingan. Har bir mahallada o'rta yosh ayollar, yosh ayollar (asosan kelinlar)ning birlashmalari mavjud bo'lgan.

Yaqin qarindoshlar orasidagi gaplar ham keng tarqalgan. Odatda bunda yoshi eng ulug' ishtirokchi rahbar bo'ladi. Bunday gaplarga ayollar farzandlarini ham olib kelishgan.

Shuningdek oilaviy gaplar ham paydo bo'ldi. Ularda erkaklar o'z xotinlari bilan ishtirok etishadi. Bu gaplar sinfdoshlar yoki kursdoshlar gaplari sifatida boshlangan va keyinchalik har uylangan a'zo o'z xotinini ham olib kela boshlaydi. Bu gaplar umumiy qoidalar asosida mavjud bo'lib, nihoyatda kam uchraydi.

O'rta va katta avlod ayollari o'rtasida to'planishning boshqa shakllari ham mavjud. Bular mushkul kushod va mavlud kabi diniy marosimlar bo'lib, ular so'nggi yillarda Toshkent mahallalarida ochiq-oydin o'tkazilmoqda. Mavlud yoki mushkul kushodga to'planishgan ayollar nafaqat diniy marosimlarda ishtirok etishadi, balki muomalaga kirishish imkoniyatiga ham ega bo'lishadi. Hayotning eng yaxshi axloqiy me'yor va tamoyillarining tiklanishi fanda hayotning ba'zi eskirgan jihatlarini yangilashga, ayollar erkinligi va huquqlarini cheklashga ham urinishlar bo'ldi.

Mahalla hozirda zamonaviy jamiyat hayotining ijtimoiy tizimida o'z o'rnini topgan. Milliy va etnik an'analarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston siyosati bu an'anaviy institutning yanada faol faoliyat yuritishiga yangi zaminlaryaratdi.

Inson, odam, shaxs ko'plab fanlarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Shaxs deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi, ongi yuksak taraqqiy etgan, ijtimoiy taraqqiyotda ishtirok etuvchi odamgina shaxs deyiladi. Shaxsning eng asosiy belgisi-uning ongli faoliyat egasi ekanligidir. Ma'lumki kishi ongi faqat jamiyatda, boshqalar bilan o'zaro munosabatda til yordamida ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda shakllanadi. Binobarin shaxs ham faqat jamiyatdagina shaxsga aylanishi mumkin. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxs nomini olishi uchun unga ijtimoiy-iqtisodiy hayot va tarbiya kerak. Shu boisdan pedagogika fani bolaning shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga yetish qonuniyatlarini, unga

ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni, rivojlanish jarayoniga aloqador davrlarni aniqlashi kerak. Odamning mukammal inson bo'lib yetishuvda o'zining maqsad asosidagi xatti-harakati, iroda sifatlarining kamol topishi natijasida ayrim nuqsonlarini bartaraf etishi, qiyinchiliklarni yengib chiqishi mumkinligini bilishimiz zarur. Demak, inson hayot faoliyati davomida o'zgarib, shakllanib, rivojlanib boradi. Bolalik, o'smirlilik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Shaxsning kamol topishida va uning xulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bo'lavermaydi. Chunki uning xulqiga, munosabatlariga, aloqalariga, yoshi, bilimi, odatlari, tajribasi va vaziyat ham ta'sir etadi. Masalan, bir xildagi ta'sirlarga turli bola turlicha munosabatda bo'ladi, bu ayni paytda, bolaning ehtiyoji qandayligiga ham bog'liqdir. Shaxs ijtimoiy tajribani faol ravishda tahlil qiladi, o'zlashtiradi, o'zi uchun o'zgartiradi-bu jarayon davomida o'zi xam shaxs sifatida shakllanadi. Shaxs shakllanib borgan sayin tashqi ta'sirlar, shu jumladan ijtimoiy ta'sirlar ham uning ichki dunyosi, psixologiyasiga qarab turli odamlarga turlicha ta'sir qiladilar. Masalan, bir xil baho turli o'quvchilarga turlicha ta'sir qiladi.

Shaxs qaysi jamiyatda yashasa o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalariga asosan kamol topadi. Shu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligidan bahramand bo'ladi. Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishda ishtirok etadi. Agar shu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligi yuksak bo'lsa, u shaxsga shu qadar katta ta'sir ko'rsatadi va aksincha. Ikkinchi tomondan esa, shaxs faoliyati davomida mehnat orqali o'z moddiy va ma'naviy boyligini yaratish jarayonida ongini, hayotini, turmush sharoitini ham yaxshilab boradi.

Shaxs hayot davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi, natijada u shaxsga aylanadi. Shu sababli shaxsni ma'lum ijtimoiy tuzumning mahsuli deb tushunishimiz lozim. Shaxs rivojlanish jarayoni bir tekisda bormaydi, rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri turlicha bo'ladi, ya'ni kishi ijobiy va salbiy ta'sirlar natijasida kamolga yetadi. Albatta ijtimoiy omillar inson shaxsining har tomonlama shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Xususan, pedagog-tarbiyachilar bolaning muayyan rivojlanish davridagi xususiyatlari, xarakteri va fe'l-atvorini belgilovchi omillarning hammasi birgalikda ta'sir ko'rsatishini bilishi lozim.

Shaxsning, ayniqsa bolaning rivojlanishi va shakllanishi biologik omil (irsiyat) ga bog'liqdir. Irsiyat deganda, bolaga ota-ona va umuman yaqin ajdodlardan, ya'ni nasldan-naslga o'tadigan biologik xususiyat va o'xshashliklar tushuniladi. Odam shaxsining va xulqining rivojlanishida biologik omillarning ta'sirini yuksak baholab, shaxsni naslga bog'lab o'rganuvchi oqimlardan biri bixeviorizm bo'lib, u XX asrning boshlarida psixologiya fanida keng tarqaldi. Bunga amerikalik pedagog va ruhshunos E. Torndayk asos soldi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, jumladan ong va aqliy qobiliyat ham nasldan naslga o'tadi, go'yo odamning ko'zi, tishlari va barmoqlari kabi aqliy qobiliyat ham tabiatan berilgandir.

G'arb pedagog olimlaridan yana biri, nemis ruhshunosi V.Ptern yangi tug'ilgan bola hali inson emas, deb hisoblaydi. U faqat sut emizuvchi hayvondir.

Yarim yoshdan oshgandan so'ng u maymunga tenglashadi. Ikki yoshida bola boshlang'ich insonlik holatiga etadi (yuradi, gapiradi). Besh yoshgacha bo'lgan bolalarning ruhiy xususiyatlari ibtidoiy davr odamlari xususiyatlariga mos keladi.

o'smirlik yillarida kishi o'zida o'rta asr ongini aks ettiradi va yetuklik yoshidagina mavjud jamiyatning madaniy darajasiga mos ong egasi bo'ladi, deydi. Ya'ni, inson 17-18 yoshida mavjud jamiyatning a'zosi bo'ladi deb hisoblaydi.

Avstriyalik ruhshunos K.Byuller hatto bolaning axloqiy jihatdan o'sishini ham irsiyatga bog'laydi. Bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlab o'zini o'rab olgan muhitning ta'siri ostida o'sadi, ulg'ayadi. Ayrim pedagog va ruhshunoslar orasida bolaga boshqacha qarash ham mavjud. Ularning fikricha, insonning kamoloti ikki omilga-irsiyat va ijtimoiy muhitga bog'liqdir. Irsiyat o'zgarmaydi, ijtimoiy muhit ham hamma davrlar uchun o'zgarmasdir. Irsiyat bor va biologic omillarni inkor etolmaymiz. Lekin irsiyatni mutlaqo o'zgarmas deb ham tushunmaslik kerak. Demak, bola shaxsining rivojlanishiga irsiyatning ta'siri deganda ota-onaga, avlod-ajdodlarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilar va fiziologik xususiyatlarning takrorlanishini tushunmoq kerak. Inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror-bir qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanish manbai - layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'z holicha emas, balki uning rivojlanishi uchun qulay muhit ta'sirida zarur. Muhit deganda kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealarning yig'indisini tushunamiz. Bunga tabiiy muhit (geografik), ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalar kiradi va ular bolalarning rivojlanishiga alohida ta'sir ko'rsatadi.

Agar bola o'z tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo'lmasa, yo'q bo'lib ketishi ham mumkin. Kishilarning o'zaro muloqotlari natijasida bolada nutq paydo bo'ladi, shakllanadi. Boladagi irsiy belgilarning o'sishi, kamol topishi insonlar muhiti, yashash sharoiti va tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Inson bolasi, agar ijtimoiy-insoniy muhitga emas, boshqa muhit, aytaylik hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanar, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat bo'lmaydi. Demak, inson biologik mavjudot sifatidagina emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida ham taraqqiy etadi. Odob, axloq, xulqiy sifatlar - shaxsning barcha ruhiy sifatleri faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Shuning uchun irsiyat rivojlanishga ta'sir etadi, ammo hal qiluvchi omil bo'la olmaydi.

Bola bilan ma'lum rolda o'zini tutish mexanizmi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli kirishib ketishni ta'minlaydi, har biri u uchun yangi bo'lgan vaziyatga moslashib ketish imkoniyatini beradi. Bu individni ijtimoiy muhit shart-sharoitiga moslashib ketishi jarayoni ijtimoiy moslashuv deb ataladi. Ijtimoiylashuv jarayonida insonning "hammadek" bo'lish ob'ektiv ehtiyoji namoyon bo'ladi. Biroq shu bilan parallel ravishda bolada boshqa ehtiyoj - o'zini o'z individualligini ko'rsatish ehtiyoji shakllanadi. Bola uni ifodalash usul va vositalarini qidira boshlaydi, qaysidir ma'noda uni namoyon qiladi, natijada uning individuallashuvi sodir bo'ladi. Bolaning individuallashuvi - u yoki bu ijtimoiy ahamiyatga ega shaxs xislat va xususiyatlari aynan shu insonga mansub shaklda namoyon etadi. Ijtimoiy o'zini tutish esa boshqa insonlar intizomiga tashqi tomondan o'xshashiga qaramay betakror, individuallik qirralarni egallaydi.

Shunday qilib, bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki yo'nalish bo'yicha sodir bo'ladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajribani egallash) va individuallashuv (mustaqil bo'lish).



Agar bolani mikro muhitga kiritishda ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayonlari orasida muvozanat belgilansa, ya'ni bola, bir tomondan, mazkur jamiyatda o'zlashtirilgan me'yor va qoidalarni o'zlashtirsa, boshqa tomondan unga o'ziga tegishli individualligini qo'shsa, muhitda bolaning integratsiyasi sodir bo'ladi.

Agar bolaning guruhga moslashish jarayoni sodir bo'lmasa, unda o'ziga ishonmaslik, tortinchoqlik, tashabbussizlik sodir bo'lishi, bu esa shaxsni jiddiy deformatsiyaga olib kelishi mumkin.

Shaxs tug'ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit sotsium yoki mikrosotsium deyiladi. Tashqi ijtimoiy omillardan tashqari, ichki biologik omillar ham mavjud. Ularni bir-biridan mustaqil o'rganishning iloji yo'q. SHu sababli zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillar, ularning o'zaro munosabati kuzatiladi. Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiluvchi umumiy jihatlarni aniqlaydi. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra, bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va his-tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch, teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek, irsiyat bo'yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror-bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bulishi uning hayoti, ta'lim-tarbiya jarayonlariga bog'liq. Ota-onadan bolaga o'tuvchi bir qator kasalliklar mavjud. Masalan: qon kasalliklari, shizofreniya, epilepsiya, daun kasalligi va boshqalar. Bu kasalliklarni genetika fani o'rganadi. Ma'lumki, bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosfera va suv xavzalarining ifloslanishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli tug'ilayotgan bolalar soni borgan sari ko'paymoqda. Bunday bolalarning boshqalar bilan muloqotga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. Shu sababli ular uchun o'qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda. Bu metodlar ularning akushy rivojlanishda tengdoshlariga etishishlari uchun yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug'ullanadilar. Bu bolalar o'z tengqurlari bilan muloqotga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini ma'lum darajada qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir. Ijtimoiy omillar. Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub'ektga aylanishi uning ijtimoiylashuvi jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir buladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadi gan qadriyat, ijtimoiy me'yor hamda xul q-atvor namunasi orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiylashuv insonning bugun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U, ayniqsa, bolalik va yoshlik davrlarida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki shaxs tomonidan aynan bolalik davrida asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi. Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'alashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin, asosan, oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi turli muhitlar maktabgacha ta'lim



muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Bola o'sib borgan sari, uning ijtimoiy muhiti "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo uzi uchun qulaybulgan, uni yaxshi tushunadigan va unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yurishi mumkin. Muhit bolaning ijtimoiylashuv jarayoni va ijtimoiy tajriba to'plashida muhim ahamiyatga ega. Muhit tushunchasi turli fan vakillari sotsiologlar, psixaloglar, pedagoglarning urganish ob'ekti hisoblanadi. Ular muhitning bunyodkorlik salohiyati va bola shakllanishi, rivojlanishidagi ta'sirini o'rganadilar.[4]

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Qadriyat" O'zMU. Q-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. <https://www.muslim.uz/uz/e/post/8735-mahalla-ulug-qadriyatlarimiz-beshigi?page=3&per-page=1>
3. <https://uza.uz/oz/posts/qadriyatlar-qadri-17-05-2020>
4. <https://azkurs.org/1-mavzu-ijtimoiy-pedagogika-fan-sifatida-ijtimoiylashuv-tushun.html?page=40>
5. E. X. Zaitov "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari" tushunchasining mazmuni-mohiyati va uning qiyosiy tahlili <https://nuu.uz/> International Scientific and Practical Conference April 20, 2024
6. Dj.E.Erniyazov "Davlat boshqaruvida ma'muriy organ sifatida mahallalarning o'rni." [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz) March 2022
7. Axrorova S. A. "Mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning ishtiroki" [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz) april 2021

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ УСЛУГ

Тохирова Гавхарой

Докторант (PhD) Наманганского  
государственного университета

Электронная почта: [gavharoy19111999@gmail.com](mailto:gavharoy19111999@gmail.com)

Телефон: +99890 597 19 15

Наманган, Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются и анализируются теоретические подходы к повышению эффективности деятельности малых предприятий, функционирующих в сфере услуг. Особое внимание уделяется научному обоснованию значения сферы услуг как важного сектора экономики, способствующего развитию малого бизнеса и созданию новых рабочих мест. Раскрывается экономическая сущность категории «эффективность», а также систематизируются основные критерии её оценки, включая финансовые, организационные и социальные показатели. Дополнительно исследуются ключевые факторы, влияющие на уровень эффективности, такие как инновационность, качество управления, кадровый потенциал и степень конкуренции на рынке. В рамках исследования учитываются особенности национальной экономической среды, институциональные условия и специфика функционирования малых предприятий в отечественной практике. Также проведён анализ зарубежного опыта повышения эффективности в аналогичной сфере, что позволило выявить универсальные подходы и адаптировать их к реалиям местной экономики.

**Ключевые слова:** малый бизнес, сфера услуг, эффективность, инновации, конкурентоспособность, управление.

### ВВЕДЕНИЕ

В современной экономике малый бизнес играет важную роль в обеспечении устойчивого экономического роста и занятости. Роль этих структур возрастает, особенно в сфере услуг, поскольку увеличивается спрос населения на индивидуальные и качественные услуги. В Узбекистане развитие малого бизнеса является одним из приоритетов государственной политики, а его эффективность стала актуальной проблемой. Роль малого бизнеса в экономике, особенно в сфере услуг, с каждым годом возрастает. Этот сектор играет важную роль не только в создании рабочих мест, но и в развитии региональной инфраструктуры и повышении качества жизни населения.

### ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Развитию сферы услуг и ее влиянию на занятость посвящен ряд научных работ отечественных и зарубежных экономистов. Теоретические основы и социальное значение сферы услуг изучались такими экономистами, как А. Смит, Дж. Б. Сэй, Д. М. Кейнс, Й. Шумпетер, А. В. Чаянов [1], К. А. Райцкий [2], И. А. Журавлева [3], А. П. Киселев. [4]. Они внесли вклад в развитие теории сферы услуг. За годы независимости учеными нашей страны был проведен ряд научных исследований в этом направлении. С.С. Гулямов [5], Г.Х. Кудратов [6], Ё.Абдуллаев [7], М.С. Касимова [8], Б. Ходиев [9], А. Абдуллаев [10], Д. Суюнов

[11], М.К. Пардаев [12], С.К. Салаев [13], Б.А. Абдукаримов [14], Г.С. Севликьянс и Е.Н. Хаджаев [15] провел заслуживающие внимания исследования.

### МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Статья написана с использованием современных методов научного познания, в том числе методов статистики, сравнительного анализа и синтеза.

### АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Эффективность малого бизнеса в сфере услуг — многогранное понятие, включающее экономические, операционные и социальные результаты. Для обеспечения долгосрочного роста важно глубоко проанализировать концепцию эффективности и выявить факторы, которые на нее влияют.

Под сектором услуг понимается вид экономической деятельности, который создает стоимость путем предоставления услуг потребителям, а не путем непосредственного производства продукции.

Хотя концепция служения со временем претерпела изменения, одно из самых ранних ее определений было дано в труде Адама Смита «Богатство народов» (1776)<sup>105</sup>. По его мнению, услуги — это продукты, которые потребляются сразу же после производства, что подчеркивает их необходимость для общества. Подходы А. Смита были позднее дополнены Дж. Сэем (1803)<sup>106</sup>, который считал, что услуги эффективны, поскольку они удовлетворяют потребности человека. А. Маршалл (1890)<sup>107</sup> признавал, что услуги, хотя и неосвязаемы, играют важную роль в экономике. В отличие от Адама Смита, считавшего услуги неэффективными, Маршалл подчеркивал их важность в улучшении жизни людей и содействии экономическому процветанию.

К 2000-м годам многие экономисты стали отражать растущую важность неосвязаемости, креативности и ожиданий потребителей. Среди них, в частности, Джонстон и Кларк (2001)<sup>108</sup> утверждают, что сфера услуг охватывает предприятия, которые предоставляют нематериальную ценность посредством взаимодействий, процессов и впечатлений, а не физических товаров. Кроме того, Битнер и Браун (2006)<sup>109</sup> утверждают, что сектор услуг состоит из отраслей, которые предоставляют нематериальные продукты и основаны на прямом взаимодействии между поставщиками и клиентами.

Малым предприятием является хозяйствующий субъект, который соответствует установленным критериям по численности работников, финансовому обороту и активам. Эффективность — экономическая концепция, выражающая целесообразность и результативность производственной или сервисной деятельности и измеряющая полезность использования ресурсов. В

<sup>105</sup> Smith, A. The Wealth of Nations: Books I-III. London; New York: Penguin Classics. 1982

<sup>106</sup> Say, J. B. A Treatise on Political Economy; Or the Production, Distribution, and Consumption of Wealth. Philadelphia: Lippincott, Grambo & Co. 1855.

<sup>107</sup> Alfred Marshall, Principles of Economics (8th ed.) LIBERTY FUND, INC. 8335 Allison Pointe Trail, Suite 300 Indianapolis, Indiana 46250-1684. 1890. [oll@libertyfund.org](mailto:oll@libertyfund.org).

<sup>108</sup> R. Johnston and G. Clark, “Service Operations Management,” Prentice-Hall, Harlow, UK, 2001.

<sup>109</sup> Bitner & Brown, “The Evolution and Discovery of Services Science in Business Schools,” Communication of the ACM, Vol. 49, No. 7, (2006).

контексте малого бизнеса эффективность означает использование имеющихся средств, времени, человеческих ресурсов и технологий для максимизации прибыли, удовлетворения потребностей клиентов и достижения устойчивого роста. Эффективность малого бизнеса оценивается по следующим критериям:

1. Производительность рабочего процесса — скорость, непрерывность и качество предоставления услуг или производства продукции.

2. Эффективность труда сотрудников — вклад каждого сотрудника в производство, уровень мотивации и готовность работать над собой.

3. Уровень удовлетворенности клиентов — мнения клиентов, лояльность и повторные покупки.

4. Инновационный потенциал — внедрение новых продуктов или услуг, автоматизация рабочих процессов и использование технологий.

На эффективность деятельности малого бизнеса в сфере услуг влияют внутренние и внешние факторы. (Таблица 1.) Внутренние факторы, которые напрямую влияют на эффективность деятельности малого бизнеса, — это процессы, которые управляются и контролируются внутри предприятия и являются важными критериями результатов и конкурентоспособности бизнеса. Ниже анализируются основные внутренние факторы:

#### 1. Качество обслуживания

Качество обслуживания — это соответствие ожидаемого клиентом результата фактическому уровню предоставленной услуги. Качественные услуги удовлетворяют клиентов, повышают их лояльность и укрепляют репутацию компании. В малом бизнесе качество обслуживания обычно ассоциируется с индивидуальным подходом, скоростью и человеческим взаимодействием, что дает ему преимущество перед крупными предприятиями. Предоставление качественного сервиса приводит к увеличению количества клиентов и росту чистой прибыли.

#### 2. Снижение себестоимости продукции

Одним из важных факторов эффективности является рациональное использование ресурсов и минимизация лишних затрат. Снижая издержки производства, малые предприятия могут поддерживать конкурентоспособные цены на свою продукцию или услуги и увеличивать прибыль. В этой связи важное значение имеет внедрение энергосберегающих технологий, автоматизированных систем и оптимальных логистических решений.

#### 3. Производительность труда сотрудников

Навыки, мотивация и отношение сотрудников к работе являются одними из ключевых факторов эффективности малого бизнеса. Квалифицированные и преданные своему делу сотрудники повышают качество обслуживания, эффективно общаются с клиентами и ускоряют операционные процессы. В малом бизнесе сотрудники часто выполняют несколько задач, что требует от них большего количества знаний и навыков. Поэтому внедрение систем непрерывного обучения и внутреннего стимулирования значительно повышает эффективность.

#### 4. Маркетинговый подход

Маркетинговая стратегия играет важную роль, помогая малому бизнесу адаптироваться к требованиям рынка, выявлять потребности клиентов и привлекать их. Современные маркетинговые подходы (цифровой маркетинг, продвижение в социальных сетях, CRM-системы) позволяют малому бизнесу охватить широкую аудиторию при относительно небольших затратах. Конкурентные цены, индивидуальные предложения услуг и стратегии брендинга помогают малому бизнесу найти свое место на рынке.

Эффективность деятельности малого бизнеса тесно связана не только с внутренней системой управления и использованием ресурсов, но и с факторами внешней среды. Ниже перечислены основные внешние факторы для малого бизнеса:

##### 1. Конкурентная среда

Конкурентоспособность рынка, на котором работают предприятия малого бизнеса, напрямую влияет на их ценовую политику, качество обслуживания и инновационные подходы. На высококонкурентных рынках малый бизнес вынужден улучшать свои услуги, укреплять отношения с клиентами и создавать уникальные преимущества. И наоборот, в регионах с низкой конкуренцией может не быть достаточной динамики в качестве услуг и ценах. Таким образом, здоровая конкурентная среда способствует повышению эффективности малого бизнеса.

##### 2. Государственная политика

Политика государства по поддержке малого бизнеса — такие меры, как налоговые льготы, кредитные субсидии и упрощенные процедуры лицензирования — оказывает положительное влияние на эффективность. Кроме того, развитию малого бизнеса способствуют такие государственные инициативы, как поощрение малого предпринимательства, создание благоприятной среды для ведения бизнеса, устранение бюрократических препон.

##### 3. Инфраструктура

Одним из основных внешних факторов, влияющих на качество и стоимость услуг для малого бизнеса, является инфраструктура. Качество дорог, электро- и водоснабжения, скорость интернета, система логистики и другие элементы технической инфраструктуры определяют устойчивость деятельности. В регионах с развитой инфраструктурой малый бизнес развивается быстрее, повышается качество обслуживания и снижаются издержки. Напротив, плохая инфраструктура увеличивает издержки производства и отрицательно влияет на эффективность.

##### 4. Развитие инвестиционного климата

Свободный доступ к внешним инвестициям и финансовым ресурсам создает огромные возможности для малого бизнеса. Доступность кредитов, грантов и других источников финансовой помощи помогает малому бизнесу расти, внедрять инновации и расширять спектр своих услуг. Стабильность и открытость инвестиционной среды важны как основа внешней финансовой поддержки малого бизнеса.



## Факторы, влияющие на эффективность малого бизнеса в сфере услуг

Таблица 1.

| Внутренние факторы                    | Внешние факторы          |
|---------------------------------------|--------------------------|
| Качество обслуживания;                | Конкурентная среда       |
| Снижение себестоимости продукции;     | Государственная политика |
| Производительность труда сотрудников. | Инфраструктура           |
| Маркетинговый подход                  | Инвестиции               |

Повышение эффективности в сфере услуг достигается за счет рационального использования ресурсов, усиления конкурентоспособности и улучшения качества обслуживания. Эти три основных направления позволят обеспечить устойчивое развитие отрасли, полное удовлетворение потребностей клиентов и быстрое реагирование на требования рынка.

### 1. Разумное использование ресурсов

Ресурсы — это человеческие, материальные, финансовые и временные ресурсы, которые ограничены для каждого субъекта малого бизнеса. Поэтому необходимо использовать их оптимально и экономично:

- Рабочая сила: повышение производительности труда каждого сотрудника, четкое распределение задач и сокращение ненужных затрат на рабочую силу оказывают положительное влияние на эффективность.
- Финансовые ресурсы: Финансовая устойчивость обеспечивается за счет бюджетирования, контроля затрат, а также анализа доходов и прибыли.
- Время: инструменты управления временем сокращают время обслуживания, уменьшают время ожидания и повышают удовлетворенность клиентов.
- Энергия и технологии: ресурсосберегающие технологии, автоматизация (например, электронные очереди, онлайн-сервисы) повышают эффективность и сокращают количество человеческих ошибок.

### 2. Повышение конкурентоспособности

В сфере услуг существует постоянная конкуренция, которая побуждает предприятия внедрять инновации, расширять спектр услуг и повышать качество:

- Уникальные торговые преимущества (УТП): например, скорость обслуживания, бесплатная консультация, круглосуточное обслуживание, бесплатная доставка и т. д.
- Гибкость ценовой политики: для разных категорий клиентов могут быть разработаны различные цены и системы скидок.
- Создание бренда и укрепление имиджа: завоевание доверия клиентов создает преимущество в конкурентной среде. Это достигается с помощью рекламы, стандартов обслуживания и дизайна.
- Заполните пробел на рынке: выявляя недостаточно развитые услуги и быстро предлагая их, вы можете занять прочную позицию на рынке.

### 3. Улучшение качества обслуживания

Качество является одним из важнейших элементов в процессе предоставления услуг, напрямую влияющим на лояльность клиентов и репутацию бизнеса:

- Система контроля качества: Каждый этап обслуживания оценивается с помощью внутренних стандартов и аудитов.
- Опираясь на отзывы клиентов: постоянно улучшайте качество обслуживания, изучая мнения и предложения.
- Стандартизированные протоколы обслуживания: гарантируют равное и профессиональное отношение к каждому клиенту.
- Инновационные форматы предоставления услуг: онлайн-консультации, мобильные сервисы, автоматизированные пункты обслуживания (киоски) и т. д. повысят качество обслуживания.

Для повышения эффективности деятельности малого бизнеса в сфере услуг необходим стратегический подход. Это достигается за счет максимального использования имеющихся ресурсов, снижения затрат, адаптации к рыночному спросу, предложения услуг, отвечающих потребностям клиентов, и постоянного повышения качества. Совокупность этих факторов обеспечивает конкурентоспособность малого бизнеса, гарантирует его устойчивый рост и усиливает его роль в экономике.

## **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Сфера услуг является одной из важнейших и перспективных сфер для малого бизнеса, и эта отрасль характеризуется постоянными инновациями, прямым контактом с клиентами и качеством обслуживания. Повышение эффективности малого бизнеса достигается за счет постоянного анализа, открытости к инновациям, совершенствования внутренних процессов и адаптации к внешним условиям. Для повышения эффективности деятельности малого бизнеса в сфере услуг необходим стратегический подход. Это достигается за счет максимального использования имеющихся ресурсов, снижения затрат, адаптации к рыночному спросу, предложения услуг, отвечающих потребностям клиентов, и постоянного повышения качества. Совокупность этих факторов обеспечивает конкурентоспособность малого бизнеса, гарантирует его устойчивый рост и усиливает его роль в экономике.

## **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР**

1. А.В.Чаянов. О размере семьи и крестьянского домохозяйства. // Вестник статистики. 2011, №7, с. 47.
2. Раицкий К.А. Экономика предприятия. Учебник. - М.: ИВЦ "Маркетинг". 2019. с. 683.
3. Журавлева И.А. Основные направления развития малого бизнеса в сфере услуг и их экономическое обоснование, Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Белгород-2015.
4. Киселев А.П. Теория и практика современного бизнеса. – "Либра", 2005.- с. 246.
5. Фуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. – Т.: "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. 2012.- 365 б.

6. Қудратов Ғ.Ҳ. Сервис ривожі – аҳолининг бандлигини таъминлаш ва фаровонлигини ошириш омили. Рисола. Т.: “Фан ва технология”, 2007. -16 б.
7. Абдуллаев Ё. Хизматлар соҳаси ва тадбиркорлик асослари. 100 савол ва 100 жавоб (1-қисм), Т.- “Меҳнат”, 2010.- 347 б.
8. Қосимова М.С. Сервис соҳасини бошқариш. –Т: “Ўқитувчи”, 2003.- 239 б.
9. Ходиев Б. Бизнес қийматини баҳолаш. Т.: “Иқтисод-молия” 2007.- 254 б.
10. Абдуллаев А. Тадбиркорлик ва хизматларни: ташкил этиш, режалаштириш, бошқариш. – Т: “Фан ва технология”, 2015.- 243 б.,
11. Суюнов Д.Х. Кичик ва ўрта бизнес субъектларида бошқарувни ташкил қилиш ва унинг самарадорлигини ошириш йўналишлари: иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т., ТДИУ, 2004.-23 б.
12. Пардаев М.Қ. Хизматларнинг ижтимоий-иқтисодий табиати ва уни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари (назарий жиҳатлар).//Сервис. – Самарқанд, 2009. -№ 1, 37-44 бетлар.
13. Салаев С.К. Кичик бизнес ривожланиш тенденцияларини моделлаштириш ва башоратлаш: иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: ТДИУ 2008. -49 б.
14. Абдукаримов Б.А. Ички савдо иқтисодиёти. – Т: “Фан ва технология”, 2007.- 386 б.
15. Севликянц Г.С., Ходжаев Э.Н. Предпринимательство в Республике Узбекистан.-Т.: изд. Народного наследия им. А.Кадыри МГП “Ижод”, 1993. – 159 с.

DOI: 10.5281/zenodo.15570270

Link: <https://zenodo.org/records/15570270>

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILI FAN TO'GARAGINING MAZMUNI VA AHAMIYATI: O'QUVCHILARGA CHET TIL O'QITISHDA TO'GARAKLARNING O'RNI

*p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b., (D.Sc.)doktorant*

*Madaminova Gulzira Gulamkadirovna*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Tel: (93) 787 94 18*

*[mguluzra87@yahoo.com](mailto:mguluzra87@yahoo.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida ingliz tilidan fan to'garaklarini tashkillashtirish masalalari, ta'lim tizimidagi ahamiyati va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Muammolarni aniqlashda miqdor metodining so'rovnomas shaklidan foydalanilgan va natijalar umumlashtirilgan. Tahlillar asosida aniqlashtirilgan muammolarga tizimli yechimlar tavsiya etildi. (Annotatsiya 100 so'zdan iborat bo'lishi kerak)

**Kalit so'zlar:** fan to'garagi, metodik muammolar, baholash mezonlari, kompetensiya, tavsiyalar.

### I. KIRISH

Bugungi globallashtirish sharoitida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'rgatish umumta'lim maktablarining ustuvor vazifalaridan biridir. Rasmiy darslar bilan bir qatorda darsdan tashqari faoliyat, xususan fan to'garaklari o'quvchilarning til o'rganish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ingliz tili to'garaklari, o'zining erkin muhit, ijodiy yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan metodlari bilan, o'quvchilarda chuqur til kompetensiyalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi [4; 322]. To'garaklar o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtidagi ta'limiy faoliyatini tashkil etuvchi noformal ta'lim shaklidir. Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 1-iyuldagi 206-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fan o'qituvchilarining lavozim majburiyatlarida pedagog xodimlar o'quvchilarning qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantirishni nazarda tutgan holda, fanlarni o'zlashtirishda qiynalayotgan va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash maqsadida o'z fani bo'yicha to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish lozimligi qayd etilgan [7; 10]. Shuningdek, "Xalq ta'limi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari"da ham o'qituvchilar fan to'garaklarida ishlashi lozimligi qayd etilgan. Yuqorida qayd etilgan buyruqning amaliyotga tatbiq etilishi sifatida fan to'garaklarini mazmunli va sifatli tashkillashtirish o'qituvchilarga o'ziga xos mas'uliyat va ijodkorlik yuklaydi.

### II. ASOSIY QISM

Umumta'lim maktablarida ingliz tili fan to'garaklari rasmiy dars jarayonidan farqli o'laroq, erkin, ijodiy, va interaktiv muhitda o'tkazish maqsadga muvofiq. Ularning asosiy maqsadi o'quvchilarda kommunikativ, ijtimoiy-lingvistik va madaniy kompetensiyalarni shakllantirish orqali ingliz tilini samarali o'rganishga rag'bat uyg'otishdir. Mazmun jihatidan, fan to'garaklari quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

### 1. Til ko'nikmalariga yo'naltirilgan mashg'ulotlar.

To'garak mashg'ulotlari tilning barcha til ko'nikmalari – eshitish, o'qish, yozish va gapirishni mustahkamlashga qaratiladi. Masalan:

- **Listening clubs (Tinglash klublari):** audio va video materiallar asosida eshitib tushunish malakalarini oshirish.
- **Speaking clubs (So'zlashuv klublari):** o'yinlar, intervyular, juftlik va guruh ishlari orqali og'zaki nutqni rivojlantirish.
- **Readers' club (Kitobxonlar klubi):** o'quvchilarni kitob mutolaa qilish orqali o'qib tushunish, guruhda ishlash va muhokama qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.
- **Creative writing workshops:** o'quvchilarni insho, hikoya yoki she'r yozishga jalb qilish orqali yozma nutqni rivojlantirish.

### 2. Drama mashg'ulotlari

Drama to'garaklari til o'rganishda ayniqsa samarali usullardan biri bo'lib, o'quvchilarni roldagi nutq, emotsional ifoda va sahnadagi o'zini tutish orqali tilni real muhitda qo'llash imkonini beradi. Dramaning ta'limdagi o'rnini tadqiqotchi olimlar A. Meley va A. Daff ham o'zlarining ilmiy ishlarida keng yoritib berganlar [5; 27]. Drama to'garaklari quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- Hikoya asosida sahna qo'yish
- Mashhur ertak yoki hikoyalarni dramalizatsiya qilish
- Ma'lum mavzu doirasida rolli ijro namoyish etish

### 3. Munozara (debat) klublari

Debatlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy asoslash, dalil keltirish va adabiy nutqni rivojlantirish uchun muhim vositadir. To'garaklar orqali:

- Aktual ijtimoiy mavzular bo'yicha ingliz tilida munozaralar tashkil etiladi
- "For and against" formatida chiqishlar amalga oshiriladi
- Argumentatsion gap tuzish ko'nikmalari rivojlanadi

### 4. Loyihaga asoslangan o'qitish (Project-based learning)

PBL metodining chet til o'qitishdagi afzalliklari G. Beket va T.Slaterning ishlarida keng qamrovli yoritilgan [1;110]. Bu yondashuv orqali o'quvchilar mustaqil ravishda yoki guruhlarda til bilan bog'liq amaliy loyihalar ustida ishlaydilar. Masalan,

- Mamlakatlar madaniyati bo'yicha taqdimot tayyorlash
- "Virtual travel" yoki "English-speaking countries" mavzusida onlayn taqdimotlar
- Rasmiy maktub yozish, intervyu olish, yoki blog yuritish

### 5. Madaniy-ma'rifiy faoliyatlar

Til o'rganish tilni tashuvchi madaniyatni o'rganishsiz to'liq bo'lmaydi. Shuning uchun fan to'garaklarida:

- Ingliz tili bayramlari (English Week, Halloween, Pancakes Day)
- Madaniyatlararo almashinuv (pen-friend loyihalari, videomaktublar)
- Chet el adabiyoti bilan tanishtirish mashg'ulotlari o'tkaziladi.



## 6. Raqamli texnologiyalar asosidagi to'garaklar

Tadqiqotchi R. Godvin-Jons o'zining tadqiqot ishida chet til o'qitishda raqamli texnologiyalarning afzalligi haqidagi goyalarini ilgari surgan [3; 8]. Zamonaviy fan to'garaklarida texnologiyalarni faol qo'llash raqamlashgan davr talabiga javob beradi:

- Mobil ilovalar (Duolingo, Quizlet, Kahoot) orqali lug'at boyitish
- YouTube videolari orqali tinglab tushunish (listening) va talaffuz

(pronunciation) ko'nikmalarini rivojlantirish

Ingliz tili fan to'garaklari nafaqat darsda o'rganilgan til bilimlarini mustahkamlash, balki xalqaro tillar ta'limida muhim hisoblangan kompetensiyalar tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, CEFR (Common European Framework of Reference for Languages – Yevropa umumiy til doirasidagi kompetensiyalar tizimi)ga muvofiq quyidagi asosiy kompetensiyalar [2] fan to'garaklari orqali shakllanadi:

**Linguistik kompetensiya.** Bu kompetensiya grammatika, leksika, talaffuz kabi tilning formal jihatlarini qamrab oladi. Fan to'garaklarida:

- Leksik boylikni oshirish uchun mavzuga oid so'zlar bilan o'yinlar, piktogrammalar, fleshkartalar va lug'aviy jumboqlar qo'llaniladi.
- Grammatik qoidalarni mustahkamlash interaktiv usullar — dramatizatsiya, rol o'yinlar orqali amalga oshiriladi.
- Talaffuz va intonatsiya ustida ishlash uchun audio-vizual vositalar, presentatsiyalar, dialoglarni ovozi ijro etish kabi usullar ishlatiladi.

**Sotsiolingvistik kompetensiya.** Til madaniy kontekstdan ajralgan holda o'rganilmaydi. To'garaklar bu borada o'quvchilarga:

- Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning madaniyati, urf-odatlar, ijtimoiy qadriyatlar haqida ma'lumot olish imkonini beradi.
- Turli mamlakatlar madaniyati, bayramlari, kundalik hayoti haqida taqdimot va loyiha ishlari ("Culture Days", "International Food Day", "English Festivals" kabi) ga jalb qilish orqam madaniy ko'nikmalar rivojlanadi
- Adabiyot va san'at namunalarini o'rganish orqali madaniy tafakkurni kengaytiradi.
- Rasmiy va norasmiy nutq farqlarini dramalar, roliklar va dialoglar orqali o'rganadilar.

**Pragmatik kompetensiya.** Bu kompetensiya tilni maqsadga muvofiq, kontekstga mos holda ishlata olish qobiliyatidir. Fan to'garaklarida:

- Muayyan kontekstlarda nutq aktlarini (iltimos, taklif, rad etish, maslahat berish) bajarish orqali o'rgatiladi.
- Rol o'yinlari orqali o'quvchi "hotelda joy band qilish", "doktor bilan suhbat", "do'konda savdolashish" kabi vaziyatlarda tilni mos ravishda ishlatishni o'rganadi.
- Interaktiv topshiriqlar, masalan, "problem-solving task"lar orqali tilni real kontekstda qo'llash mustahkamlanadi.

**Metakognitiv va o'zini o'zi baholash kompetensiyasi.** To'garaklarda o'quvchilar ko'pincha o'zining til o'zlashtirish darajasini tahlil qilish, xatolarini anglash va ularni tuzatishga yo'naltiriladi. Bunga:

- Self-assessment checklists (o'zini baholash varaqalari)
- Refleksiya jurnallari va "What I learnt today" kartochkalari
- Guruh bilan baholash va o'zaro fikr bildirish (peer-assessment) orqali erishiladi.

### III. NATIJALAR

Fan to'garaklari o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, amaliy bilimlarni chuqurlashtirish va kommunikativ salohiyatni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, to'garaklar faoliyatini samarali tashkil etishda bir qator tizimli va tashkiliy muammolar mavjud. Ularni aniqlash maqsadida O'zbekiston respublikasi viloyatlari miqyosida umumta'lim maktablari ingliz tili o'qituvchilari uchun onlayn so'rovnoma tashkil qilindi va respublika bo'ylab ijtimoiy tarmoqlar orqali so'rovnoma ingliz tili o'qituvchilariga tarqatildi. Jami so'rovnomada 215 ta ingliz tili o'qituvchisi qatnashdi va so'rovnoma natijalariga ko'ra fan to'garaklarini tashkillashtirishda quyidagi muammolar eng dolzarb deb topildi.

#### 1. Tashkiliy va metodik muammolar

a) **Reja va dastur yetishmovchiligi.** Ko'plab maktablarda ingliz tili fan to'garaklari uchun an'anaviy, metodik asoslangan, darajalarga mos reja-dasturlar mavjud emas. Natijada:

- O'qituvchilar faoliyatni shaxsiy tajriba asosida yuritishga majbur bo'ladi.
- Mashg'ulotlar tizimlilikdan yiroq, epizodik tusda o'tadi.

b) **Mashg'ulot shakllarining yetarlicha diversifikatsiya qilinmagani.** To'garaklarda interaktiv yondashuvlar, texnologiyalar, ijodiy faoliyatlar yetarlicha qo'llanilmaydi. Natijada o'quvchilarning qiziqishi tez so'nadi.

c) **Baholash tizimining yo'qligi.** To'garaklarda o'quvchilarning rivojlanish darajasi uchun diagnostika va refleksiya tizimlari kam ishlatiladi. Bu o'qituvchiga individual yondashuvda qiyinchilik tug'diradi.

#### 2. Kadrlar malakasi va motivatsiyasi bilan bog'liq muammolar

a) **O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi pastligi.** Ko'plab ingliz tili o'qituvchilari to'garak faoliyatini darsdan tashqari pedagogik texnologiya sifatida yuritish uchun yetarli malakaga ega emas (Ijodiy metodlar, CLIL, TBLT yoki PBL yondashuvlaridan xabardor emas; faoliyatni tizimli ravishda olib borish uchun zarur bo'lgan metodik bilimlar cheklangan).

b) **Rag'batlantirish tizimining sustligi.** Ko'plab o'qituvchilar to'garak faoliyatini bajarilishi shart bo'lgan majburiyat sifatida ko'radi. Bunga asosiy sabab, mehnat haqi va qo'shimcha rag'batlar yetarli emasligi va mahalliy ta'lim tizimida to'garak yetakchiligini baholovchi mezonlar yetarli emasligi sifatida ko'rish mumkin.

#### 3. Moddiy-texnik va infratuzilma bilan bog'liq muammolar

a) **Resurslarning yetishmasligi.** To'garaklar uchun zarur bo'lgan audio-video materiallar, fleshkartalar, inglizcha adabiyotlar, didaktik vositalar yetarli emas. Shuningdek, texnologik vositalar (projektor, smart-board, kompyuter) mavjud bo'lsa-da, ularning ishlash holati qoniqarsiz.

b) **Maxsus joy va vaqt ajratilmasligi.** To'garaklar darsdan keyin yoki tanaffusda, ba'zan darslar bilan ustma-ust tashkil etiladi. Bu o'quvchilarning charchoq

holatida qatnashishiga olib keladi. Ayrim hollarda sinf xonalarining yetishmasligi to'garak faoliyatini cheklaydi.

#### **4. O'quvchilar bilan bog'liq muammolar**

**a) Qiziqishning sustligi.** Barcha o'quvchilar ham fan to'garagiga ishtiyoq bilan qatnashmaydi. Bu holat ko'pincha to'garak faoliyatining monotonligi yoki haddan tashqari akademik yo'nalganligi bilan bog'liq. Shuningdek, individual yondashuv yetishmasligi, har bir o'quvchining til darajasiga moslashmaslik, ularning ishtirokini kamaytiradi.

**b) Ota-onalarning e'tiborsizligi.** Ko'plab hollarda ota-onalar farzandlarining fan to'garaklarida qatnashishiga yetarli darajada ahamiyat bermaydilar. Bu esa davomatga salbiy ta'sir qiladi va farzandni to'garakdagi faoliyatga rag'batlantirishga to'sqinlik qiladi.

#### **5. Nazorat va monitoring tizimining sustligi**

To'garaklar faoliyati ustidan metodik xizmatlar, maktab ma'muriyati, yoki tuman xalq ta'limi bo'limlari tomonidan tizimli monitoring kam olib boriladi. Bu esa sifatli to'garak faoliyatining aniqlanishiga xalaqit beradi va o'qituvchilarni faollikka undovchi mexanizmlarni kuchsizlantiradi.

Yuqoridagi muammolarni o'rganish jarayonida ularni ma'lum darajada bartaraf etish va echim topishga erishish maqsadida so'rovnomaning bir bandini tavsiyalar qismiga bag'ishlagan edik. O'qituvchilarning ko'rsatgan tavsiyalari va nazariy bilimlarni umumlashtirgan holda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

**Fan to'garaklarini tashkil etishdagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar**

##### **1. Tashkiliy va metodik muammolarni hal etish bo'yicha tavsiyalar**

**1.1. Standart reja-dastur ishlab chiqish.** Har bir yosh guruhiga mos, CEFR darajalariga asoslangan ingliz tili fan to'garagi uchun o'quv-metodik majmua (plan, resurslar, baholash mezonlari) ishlab chiqilishi kerak. Bunga viloyat xalq ta'limi boshqarmasi yoki Respublika ta'lim markazi yetakchilik qilishi mumkin.

**1.2. Mashg'ulotlar shakllarini innovatsion ta'lim metodlari asosida boyitish.** "Task-based learning", "Gamification", "Project-based learning" kabi metodlar asosida mashg'ulotlar tashkil etilsin. Ingliz tili to'garaklari fan emas, tilni hayotiy muloqot vositasi sifatida qabul qilishga yo'naltirilsin.

**1.3. To'garaklar uchun baholash tizimini joriy qilish.** Har oyning oxirida o'quvchilar o'z bilimlarini baholaydigan "Progress portfolio", "Peer feedback", "Reflection worksheet" kabi yondashuvlar tatbiq etilsin.

##### **2. O'qituvchi malakasi va motivatsiyasi bo'yicha tavsiyalar**

**2.1. Maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etish.** O'qituvchilar uchun "To'garak metodikasi", "Interaktiv ta'lim texnologiyalari" mavzularida qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi o'qituvchilarning malakasini oshirishga xizmat qilgan bo'lar edi. Kurslar doirasida o'qituvchilar nafaqat nazariy, balki amaliy dars modellarini ishlab chiqishga jalb etilishi maqsadga muvofiq. Kursni tashkillashtirishda J.C. Richards va T.S. Farrel tomonidan yozilgan metodik qo'llanmadan foydalanish ham mumkin [6].

**2.2. Rag'batlantirish tizimini kuchaytirish.** Eng faol to'garak yetakchilarini mahalliy va respublika darajasida tanlovlarga jalb etish. To'garak faoliyati samaradorligini hisobga olgan holda moddiy va ma'naviy mukofotlar (faxriy yorliqlar, qo'shimcha ustamalar) joriy etilishi o'qituvchilarni yanada faol bo'lishga undagan bo'lar edi.

### **3. Moddiy-texnik bazani yaxshilash bo'yicha tavsiyalar**

**3.1. Maxsus to'garak resurs to'plamlarini yaratish.** To'garaklar uchun ingliz tilidagi audio-kitoblar, flesh-kartalar, topshiriq to'plamlari, video resurslar majmuasi tayyorlanib, maktablarga tarqatilishi kerak. Internetda bepul mavjud bo'lgan sifatli manbalarni (British Council Kids, Cambridge English, Learn English Teens) o'qituvchilarga tavsiya etish va ulardan foydalanishni o'rgatilishi maqsadga muvofiq.

**3.2. Texnik infratuzilmani yaxshilash.** Har bir maktabda kamida bitta multimedia texnologiyalari bilan jihozlangan "Language Club Room" tashkil etish ko'zda tutilsin.

### **4. O'quvchilar va ota-onalar bilan ishlashni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar**

**4.1. O'quvchilarning qiziqishini oshiruvchi faoliyatlar joriy etish.** "English Movie Days", "Storytelling Hour", "Spelling Bee", "Quiz Competitions", "Drama Club", "Readers' Club" kabi faoliyatlar o'quvchilarni rag'batlantiradi. Har bir o'quvchining o'z til darajasiga mos topshiriqlarda ishtirok etishi uchun individual yondashuvni yo'lga qo'yilishi kerak.

**4.2. Ota-onalarni jalb qilish.** Har chorakda "English Open Day" tadbirlari orqali ota-onalar farzandlarining til o'zlashtirish jarayonida qanday ishtirok etayotganini bevosita ko'rishi va qo'llab-quvvatlashi mumkin.

### **5. Monitoring va nazorat tizimini takomillashtirish**

**5.1. Metodik nazoratni tizimlashtirish.** Tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan har yarim yillikda ingliz tili fan to'garaklari faoliyati bo'yicha metodik monitoring va baholash o'tkazilsin.

**5.2. To'garaklar faoliyati natijalarini ommalashtirish.** Eng yaxshi tajribalar "Eng yaxshi fan to'garagi" nomli respublika platformasida e'lon qilinsin. Bu o'qituvchilarni innovatsiyaga undaydi va tajriba almashinuvi yuzaga keladi.

## **IV. XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida ingliz tili fan to'garaklari xorijiy tilni samarali o'rgatishning muhim vositasi sifatida e'tirof etilishi lozim. Ular darsdan tashqari ta'limning noformal shakli bo'lib, o'quvchilarda til ko'nikmalarini rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Tadqiqotda aniqlanganidek, fan to'garaklari orqali CEFR doirasidagi til kompetensiyalarining (lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va metakognitiv) rivojlanishi ta'lim sifati va o'quvchilarning chet tiliga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim metodlari va raqamli texnologiyalar orqali fan to'garaklarini tashkil qilish o'quvchilarni faol va interaktiv o'qitishga jalb qiladi. Biroq yuqorida ko'rsatilgan mavjud muammolar fan to'garaklarining samaradorligiga to'sqinlik qilishi

mumkin. Shu boisdan, tizimli yondashuv asosida taklif etilgan yechimlar (standart reja-dasturlar ishlab chiqish, malaka oshirish kurslarini tashkil etish, texnik bazani yaxshilash, monitoring tizimini kuchaytirish va ota-onalarni jalb etish) orqali fan to'garaklari faoliyatining sifatini oshirish va uni zamonaviy chet til ta'limi talablariga moslashtirish mumkin.

## V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beckett, G.H., Slater, T. The Project Framework: A Tool for Language, Content, and Skills Integration // *ELT Journal*. – 2005. – Vol. 59, No. 2. – P. 108–116. – DOI: <https://doi.org/10.1093/eltj/cci024>
2. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
3. Godwin-Jones, R. Emerging technologies: Mobile apps for language learning // *Language Learning & Technology*. – 2011. – Vol. 15, No. 2. – P. 2–11. – URL: <https://www.lltjournal.org/item/2768>
4. Littlewood, W. The task-based approach: Some questions and suggestions // *ELT Journal*. – 2004. – Vol. 58, No. 4. – P. 319–326. – DOI: <https://doi.org/10.1093/elt/58.4.319>
5. Maley, A., Duff, A. *Drama techniques: A resource book of communication activities for language teachers*. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
6. Richards, J.C., Farrell, T.S.C. *Professional development for language teachers: Strategies for teacher learning*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021 yil 1 iyuldagi 206-sonli “Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim maktablari xodimlarining lavozim majburiyatlarini tasdiqlash to'g'risida”gi buyrug'i.



## NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING CHET TIL O'RGANISHGA BO'LGAN EHTIYOJLARI VA TIL O'QITISHNING O'ZIGA XOSLIGI

*Sidikova Shohsanam Shoilhom qizi*

*International Digital University, o'qituvchi*

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti, tayanch doktorant*

*E-mail: [shohsanamsidikova0610@gmail.com](mailto:shohsanamsidikova0610@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada nofilologik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarining chet tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlari hamda ushbu jarayonning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida talabalar til o'rganishda duch keladigan muammolar, ularning kasbiy ehtiyojlari va motivatsiyasi asosida til o'qitish metodikasi moslashtirilishi zarurligi ta'kidlanadi. Nofilologik yo'nalish talabalarining til o'rganishga yondashuvi filologiya yo'nalishidagilardan farq qilishi, ular uchun til – aloqa vositasi sifatida kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning muhim qismi ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, samarali ta'lim jarayoni uchun kommunikativ yondashuv, kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlar va interfaol metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Maqolada o'quvchilarning individual va yoshga doir xususiyatlarini inobatga olish orqali chet tilini o'qitish samaradorligini oshirishga doir takliflar ham berilgan.

**Kalit so'zlar:** til, muloqot, ingliz tili, talaba, o'qituvchi, kompetensiya, o'qitish, baholash, xalqaro me'yori, pedagogika

### I. KIRISH

So'nggi yillarda ingliz va boshqa xorijiy tillarni chuqur o'rgatish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. BMTning "Ming yillik deklaratsiyasi" (2000-y.), "Tillar uchun Yevropa standarti: o'qish, o'qitish va baholash" (2005-y.), "Ta'lim – 2030: umr bo'yi umumiy inklyuziv va adolatli sifatli ta'lim berish va o'qitishni ta'minlash", Inchxon (2015-y.), shuningdek, Bolonya deklaratsiyalari g'oyalari, bo'lajak chet tillari mutaxassislarini tayyorlashda ustuvor bo'lgan CEFR (Common European Framework of Reference for Language) malaka talablari etnik madaniy aloqalar faollashuvi sharoitida talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. BMTning "Ming yillik deklaratsiyasi" doirasida 2014-2021-yillar uchun mo'ljallangan "O'rtacha tezlik strategiyasi" ("Medium-Term Strategy for 2014-2021")da esa mazkur davrda o'qitish jarayonini chet tilini o'rganishga bo'lgan o'ziga xos xususiyatlari, chet tillarni o'qitish vositalari va usullarini o'rganish ta'lim jarayonida raqamli integrativ ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Yetakchi xorijiy davlatlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot-ishlarida etnik madaniy aloqalar faollashuvi sharoitida talabalarning ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirish; shaxslararo muloqotda ularning imkoniyatlaridan foydalanish, muloqot vositasida ijtimoiy subyektlarda tolerantlikni rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Samarali natijalarga erishishga yo'naltirilgan me'yoriy hujjatlar, xususan, "Rossiyada kasbiy ta'lim: o'tmish an'analari va istiqbollari", "Erasmus+" (2014-y.) dasturlari, Qozog'iston

Respublikasining “Bolashak” xalqaro dasturi, shuningdek, Bolonya shartnomasi mamlakatlarining ta’lim forumi negizida turli ta’lim muassasalari o’rtasida bilimlar va talabalarni almashish, standartlarni takomillashtirish, ta’lim maqsadlariga erishish bilan bog’liq yutuqlar sohasidagi taraqqiyot monitoringini amalga oshirish imkoniyati yaratilmoqda.

So’nggi yillarda mamlakatimizda chet tillarni o’qitish tizimi sifatini xalqaro standartlarga muvofiq tarzda takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilayotgani mazkur tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilab beradi. Oliy ta’lim tizimida nofilologik ta’lim yo’nalishlariga chet tillarini o’rgatish Yevropa Kengashining “Chet tilini egallash umumevropa kompetensiyalari: o’rganish, o’qitish va baholash”ning xalqaro me’yorlari (CEFR – Common European Framework of Reference) tadbiq etilayotganligi ham o’z navbatida talabalarda faol muloqot muhitini yaratish asosida ularning muloqot madaniyatini rivojlantirishga erishish imkonini beradigan pedagogik shart-sharoitni hosil qiladi. Shunga ko’ra, OTMga kirishda CEFR va IELTS (International English Language Testing System) sertifikatlarining mavjudligini inobatga olish joriy etildi. “yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasi yaratish”<sup>110</sup> ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Ushbu vazifani hal etish doirasida ingliz tili ta’limi sifatini yaxshilash, o’qitish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, raqamli texnologiyalardan foydalanish bo’yicha xorijiy tajribalarni chet tillarni o’qitishning xususiyatlarini inobatga olgan holda o’rganish hamda milliy kontekstda o’rganilayotgan tilda o’rgatish metodik tizimining hozirgi holatini tahlil qilish nofilologik OTM talabalarining ingliz tili savodxonlik darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

## II. ASOSIY QISM

Yangi O’zbekistonning ochiqlik siyosati, mamlakatimizning xalqaro hamjamiyat davlatlari bilan biznes va madaniy aloqalarni kengaytirilishi, kasbiy faoliyatda chet tilini biladigan mutaxassislariga bo’lgan talabni yuzaga keltiradi. Hozirgi kunda kasbiy rivojlanishning eng muhim jihatiga aylangan xorijiy tillarni bilish O’zbekistonning Boloniya ta’lim tizimi jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Chet tillarini bilish kelajakda mutaxassislarning xorijiy manbalar bilan ishlash ko’nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Mutxassslik bo’yicha adabiyot bilan ishlash o’z ichiga matn mazmunini tushunish, tanqidiy baholash, mushohada yuritish, umumlashtirish, tahlil qilish va ishonchliligini baholash ko’nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Chet tillarida muloqot qila olish universitet bitiruvchisiga kasbiy muhitda o’z bilim va ko’nikmalaridan samarali foydalanishga tayyorgarligini ta’minlaydi.

O’zbekistonning jahon bazoriga kirib borishi, korxona va tashkilotlarning xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtiroki oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo’yilayotgan talablarni oshirmoqda. Xalqaro kasbiy muloqotning kengayishi, xorijiy hamkorlar bilan ishlash, muzokaralar olib borish, xorijiy tilga tarjima qilinmagan

<sup>110</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent; O’zbekiston nashriyoti, 2017. – B-22.

texnik hujjatlar bilan ishlash, chet elda ishlab chiqarish amaliyotini o'tash kabi jarayonlarning rivojlanishi oliy ta'lim tizimi bitiruvchilarida chet tilini bilish ko'nikmalariga ega bo'lish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Davlat ta'lim standartlariga ko'ra, har qanday soha mutaxassislari chet tilida og'zaki va yozma muloqotni amalga oshirishga qodir bo'lishi kerak. Ya'ni xorijiy hamkorlar bilan samarali muloqotga tayyor bo'lishi lozim.

Global iqtisodiy integratsiya va o'zaro bog'liqlik sharoitida, ko'p tomonlama xalqaro hamkorlik va qo'shma tashabbuslar zarur bo'lib qolgan davrda, zamonaviy kasblar uchun eng dolzarb kompetensiyalardan biri bu chet tilini yuqori darajada bilish bo'lib, Yangi O'zbekiston va xalqaro mehnat bozorida kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida xorijiy tillarni bilish ko'nikmasiga ega bo'lish talablarining qo'yilishi nofilologik ta'lim yo'nalish talabalari orasida til bilish darajasining ko'tarilishi va hattoki nomutaxassis ta'lim yo'nalish talabalariga mutaxassislik fanlarini chet tillarida o'qitilishi va bu borada xorijiy olimlarning jalb qilinishi ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tariloytganidan darak beradi. Nomutaxassis yo'nalishlariga chet tili fani kommunikativ yo'naltirilgan va kasbiy mazmundagi dars hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi-kasbiy kompetentlarni egallashda chet tilini bilish ko'nikmasini rivojlantirish va muloqot qila olish kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat.

Rossiyalik pedagog olimlardan G.Y.Tatur o'zining ilmiy tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimida kompetensiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi. Oliy ta'lim tizimida mutaxassisning kompetensiyasi- bu uning bilim, ko'nikma, tajriba, shaxsiy sifatlar va boshqa salohiyatini kasbiy va ijtimoiy faoliyatida samarali, ijodiy amalga oshirishga intilishi va qodirligi, bu faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini anglash va javobgarlikni his qilish, doimiy rivojlanishiga tayyor bo'lishdir<sup>111</sup>.

Ilmiy tadqiqot ishlarining rivojlanishi xorijiy tillarni bilish darajasi va nomutaxassis yo'nalish talabalari orasida chet tillarini bilish kompetensiyasini oshirish bo'yicha tadqiqotlari davomida N.A. Grishaxova oliy ta'lim tizimida kompetensiyasini quyidagi turlarga ajratib ko'rsatgan:

- Malaka talablariga muvofiq, ravishda kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bilim ko'nikma va malakaga ega bo'lishi;

- Mustaqil tarzda muammolarni hal qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi ;

- Shaxsiy va kasbiy sharoitda hamkorlik qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- Bilim qobiliyat va munosabatlarni zamonaviy ishlab chiqarish muhitida optimal tarzda uyg'unlashtirish;

- Turli kontekslarda o'zini – o'zi baholash va tahlil qilish asosida samarali ish faoliyatiga ega bo'lish<sup>112</sup>.

<sup>111</sup> Татур, Ю.Г. Компетентностный подход в описании результатов и проектировании стандартов высшего профессионального образования: Материалы ко 2-му заседанию методол. семинара: авторская версия. М.: Исследоват. центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. 16 с.

<sup>112</sup> Гришахова, Н.А. Компетентностный подход в обучении взрослых // Материалы к 3-му заседанию методологического семинара, 28 сент. 2004 г. / Исследоват. центр проблем качества подготовки специалистов. М., 2004. С. 16

Ta'lim tizimiga xorijiy tillarning joriy etilishi va rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, yevropa davlatlari ta'lim tizimiga moslashtirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Bu tayyorgarlik an'anaviy tildagi emas, balki xilma xil madaniyatlar va tillar, milliy ta'lim tizimidagi bilimlarni o'z ichiga olishi zarur. Bu esa Yevropa oliy ta'lim makoniga moslashish va jahon reytingiga O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarini ham kiritish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Chet tillarini o'rganishda asosiy muammo bu kommunikativ kompetensiya masalasidir. Agar til kompetensiyasi tilning grammatikasi, lug'ati va grammatik jihatdan to'g'ri gap tuza olish qobiliyatini anglatga, kommunikativ kompetensiya –tilni samarali muloqot vositasi sifatida qo'llay olish-mantiqli va uzviy dialog yurita olish ko'nikmasini o'z ichiga oladi<sup>113</sup>.

Oliy ta'lim bitiruvchilarining kasbiy kompetensiyaga egaligi doirasida chet tilini bilish darajasi hamda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish orqali til bilish va muloqot qilish qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga erishish mumkin. Oliy ta'lim tizimida nofilologik ta'lim yo'nalishlariga ingliz tilini o'rganish talabining joriy etilishi ESP (English for specific perposes)<sup>114</sup> ya'ni egallab turgan kasbini rivojlantirish maqsadida ingliz tilini o'rganishni nazarda tutadi. Bu esa ilm fanda maxsus maqsadlar qo'yish va natijaga erishish uchun sharoit yaratib beradi.

Yangi ta'lim modelining kirib kelishi ingliz tilini xalqaro muloqot vositasi sifatida o'rganishga motivatsion yondashuvni joriy etilishi natijasida Boloniya deklaratsiyasi tamoyillariga ko'ra talabalarni bilimlarni o'zlashtirishda mustaqilligini ta'minlash zarur. Bu esa axborot bilan doimiy ishlash o'quv materiallarini tushunish, o'quv materillari mazmuni va shaklini tahliliy yondashuvlar asosida qayta tashkil etishni talab qiladi. Bunday materiallar yuqori texnologiyalarga asoslangan axborot muhiti va multimedaviy o'quv-uslubiy majmualar shaklida bo'ladi.

Til, xususan chet tilidagi muloqot jarayoni murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, uni faqat gapning mantiqiy va grammatik tuzilmasini, leksik mazmunini tushunish orqali to'liq o'rganib bo'lmaydi. Muloqotda ishtirok etish ko'proq bilim – ya'ni kommunikativ kompetensiyani, boshqacha aytganda, muloqot, xatti-harakatlar qoidalarini bilishni talab etadi.

Kommunikativ yondashuv talabalarda tirik, real tilni amaliy jihatdan ishlata olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. U til vositalarini mexanik ravishda qo'llash emas, balki ularning funksional mazmunini anglagan holda ishlatishni o'rgatadi. So'nggi vaqtlarda mahalliy va xorijiy metodistlar tilni qo'llash bilan bog'liq muammolar, tilning aniq muloqot vaziyatlarida qanday ishlatilishini o'rgatish zarurligi masalasiga alohida e'tibor qaratishmoqda. Bu esa, o'z navbatida, talabalardan o'rganilayotgan til xalqining muloqot odatlari va madaniy qadriyatlari bilan tanish bo'lishni talab etadi. Boshqacha aytganda, muloqotiy xatti-harakatlar milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir xalq o'zining o'ziga xos muloqot normalariga ega va bu normalarni bilish muloqot ishtirokchilariga bir-birlarini to'g'ri

<sup>113</sup> Фёдорова, Л.Л. Теория речевой коммуникации и грамматика диалога./ Коммуникативные стратегии культуры и гуманитарной технологии: Научнометодические материалы. /Л.Л.Фёдорова. – СПб: ООО «Книжный Дом», 2007. - С. 103-135.

<sup>114</sup> Tom Hutchinson, Alan Waters.1987.English for Specific Purposes.Cambridge University Press:Scotland , page 7

tushunish imkonini beradi. Aksincha, ushbu normalarni bilmaslik "madaniyatlar to'qnashuvi" (culture shock) holatiga olib keladi.

Amerikalik tilshunos olim V. Rivers chet tilini o'rgatish jarayoni haqida shunday yozadi: "Talabalar o'zlarining xatti-harakat modellari va qadriyat tizimidan farq qiladigan holatlar bilan to'qnashganda, ular shokka tushishi mumkin. Bu holat natijasida ular o'rganayotgan til sohiblarini g'alati, madaniyatsiz deb qabul qilishlari ehtimoldan holi emas"<sup>115</sup>.

Tillarning o'zaro farqlari faqat har xil tilda gapirishda emas, balki xalqning kundalik odatlari, odob-axloqi va turmush tarzida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chet tilini egallash milliy madaniyatni anglash, o'sha xalqning mentalitetini tushunish va o'ziga xos muloqot xatti-harakatlariga tayyorligi bilan chambarchas bog'liq. Yuqorida ko'rsatilgan barcha omillar – til bilimlari va madaniyatshunoslik bilimlari – agar talabalarga nutqiy va nutqdan tashqari xatti-harakat ko'nikmalari berilmasa, yetarli samara bermaydi.

### III. NATIJALAR

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim riojlanishidagi tendensiya-larning o'zgarishi, oliy ta'limda chet tillarini o'qitish tizimini ham qayta ko'rib chiqishga majbur etmoqda. Ayniqsa, xalqaro aloqa vositasi maqomini XX asr boshida olgan ingliz tilini o'qitish sifatini oshirish zaruriyatini yaqqol namoyon qilmoqda. Chet tilini bilish endilikda oddiy o'quv predmetini bilish emas balki shaxsning kasbiy rivojlanishi va o'zini namoyon qilish uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bu ayniqsa nofilologik yo'nalishda ta'lim olayotgan talabalarga taaluqlidir.

Ta'lim paradigmasini o'zgarishi, raqamli pedagogik texnologiyalar rivoji innovatsion ta'lim modeliga o'tish natijasida shaxsiy salohiyatni rivojlantirish, ta'lim jarayonini talabalar ehtiyoji va manfaatlariga moslashtirish o'zini –o'zi namoyon qilish imkoniyatlarini yaratib berishni talab qilmoqda. Nofilologik ta'lim yo'nalishlarida chet tillarini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida darsning tashkil qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi<sup>116</sup>. Bu yondashuv quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1. Talabalar yoshiga oid va individual xususiyatlarini, ehtiyojlarini inobatga olish;
2. Ta'limda differensiasiya va individuallashtirish tamoyillariga tayanish;
3. Talabalarni tanlov vaziyatiga qo'yish;
4. Darajali o'qitishda o'quv materiallari va faoliyat turlarini shunday tanlashki, ular talabaning maqsad qo'yishiga va unga erishish darajasini belgilashiga xizmat qilsin;
5. Talabalarning kasbiy qiziqishlarini hisobga olish;
6. Talabaning shaxsiy rivoji uchun zarur bo'lgan integrativ-kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan bilim darajasiga oid talablarni shakllantirish, bu yerda bilimdan ko'ra faoliyat komponenti ustun bo'ladi.

<sup>115</sup> Revers, W. Teaching foreign language skills. / W.Revers. – Chicago, London. – The University of Chicago press, 1981.

<sup>116</sup> Современные направления в методике обучения иностранным языкам: учебное пособие /Под ред. Е.И. Пассова, Е.С. Кузнецовой . – Воронеж:НОУ «Интерлингва».ю 2002. – 40 с. (серия «Методика обучения иностранным языкам», №22)



Biroq, talabalar yosh xususiyatlarini chuqur va puxta hisobga olgan holda ishlansa, yuqoridagi bandlarning birinchisini inobatga olishning o'ziyiq qolgan bandlarni ham tabiiy tarzda o'z ichiga oladi.

Chet tillarini oliy ta'lim tizimida o'qitilishi talabalarning o'z ustida ishlash va mustaqil bilim olish ko'nikmasini rivojlantirish bilan birga uning bilim olish jarayonida tezroq natija qayd etishiga imkon beradi. Karl Neys yozadi: "Kattalar mantiqiy fikrlash va xulosa chiqarish qobiliyatiga bolalarga nisbatan ancha ko'proq egadirlar. Bolalar eslab qolishni yoqtirmaydilar va tez muvaffaqiyat kutishadi"<sup>117</sup>.

U shuningdek, katta yoshdagilarning o'qishga ongli yondashuvi, o'zidan katta talab qo'yishi, va o'qituvchidan ham yuqori sifat kutishini e'tirof etadi. Bolalar esa maktabga borishga majburdirlar, kattalar esa buni ongli ravishda tanlaydilar. Kattalar bilimni boshqacha qabul qilishadi — ularda iroda, barqarorlik, tahlil qilish qobiliyati, amaliy tajriba va til bilimlari mavjud bo'ladi. Bolalar esa tinglab eslab qolish, taqlid qilish, fonetik moslashuvchanlik kabi jihatlar bilan ajralib turadi. Bu farqlar kattalarda kuchli xotira, qat'iyat bilan qoplanadi.

Talabalar odatda chet tilini o'rganishga jiddiy qaraydilar, chunki ular ish jarayonida, xorijiy hujjatlar bilan ishlashda, safarlarda, xorijiy hamkorlar bilan muloqotda ushbu til kerak bo'lishini anglaydilar. Shuningdek, oliy ta'limdagi o'qituvchining ishi, maktab o'qituvchisiga qaraganda, kattalar mantiqiy fikrlashga ega bo'lgani uchun nisbatan yengilroq. Biroq, cheklangan dars soatlari, mustaqil ishning yetarli darajada tashkil qilinmasligi, va metodik yondashuvdagi kamchiliklar bu ustunliklarni yo'qqa chiqaradi.

Oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish jarayonida o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi orqali samaradorlikka erishish mumkin.

- Ta'lim materiallarini siqilgan, mazmunli shaklda yetkazishi;
- Minimal zarur lug'aviy va grammatik materialni tanlashi;
- Talabalarning barcha qatlamlarini faol ishtirokga jalb etishi kerak bo'ladi.

Shuningdek, o'quv jarayonida talabani doimiy ravishda maqsad qo'yishga jalb qilish zarur. Har bir bosqichda talaba nimalarga erishishi mumkinligini tushunib borishi lozim. Bu yetuk yoshdagi shaxsning reallikka asoslangan maqsadlari bilan bog'liq. Grammatika materiallari ixcham va aniq, matnlar esa kattalar uchun dolzarb bo'lishi kerak. Talabalar faqat umumiy maqsadni emas, balki har bir topshiriqning real amaliy natijasini ko'rishni istaydilar: masalan, oddiy muloqotni olib borish yoki kasbiy matnni o'qish imkoniyati.

Talabalar odatda o'z o'quv materiallarini tanqidiy ko'z bilan tahlil qiladilar. Ular kasbiy faoliyatiga tegishli, amaliy foyda beruvchi materiallarni afzal ko'radilar. Chet tilini kam vaqt va kuch bilan egallashni xohlashadi, chunki asosiy e'tiborni mutaxassislik fanlariga qaratadilar. Natijada, ehtiyojlar va mavjud til bilimlari o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi.

Bu muammoni hal qilish uchun:

- Motivatsiyani hisobga olish,
- Til kompetensiyasini rivojlantirishga e'tibor qaratish,

<sup>117</sup> NeijsKarel, Literacy primes, construction, evaluation and use, UNESCO, 1961, p.17.

- “Maxsus maqsadlar uchun til” (ESP) uslubini qo‘llash,
- Talabalarning kasbiy sohasi asosida tematik materiallar tanlash kerak.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – bu shaxsning o‘ziga xosligini, didi, xulqi, ta’limga munosabatini hisobga olishdir. Har bir talabaga mos keluvchi o‘z ta’lim strategiyasi mavjud.

Tadqiqotchilar E.S.Kuznetsova, Z.M.Biboletova, V.V.Kapilovalar ta’lim strategiyalarini quyidagicha tasniflaydilar:

- Xotiraga asoslangan strategiyalar
- Kognitiv strategiyalar
- Kompensator strategiyalar
- Metakognitiv, affektiv, ijtimoiy yordamchi strategiyalar<sup>118</sup>
- 

#### IV. XULOSA

Nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun chet tilini o‘rganish – bu nafaqat umumiy bilim egallash, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali muloqot qilish, xalqaro hamkorlikda ishtirok etish va zamonaviy axborot makonida mustaqil faoliyat yuritish vositasi hamdir. Shuning uchun chet tilini o‘qitishda bu toifa talabalarning kasbiy ehtiyojlari, motivatsiyasi va individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, maqsadli, amaliy va kommunikativ yondashuvga asoslangan metodikalarni qo‘llash zarur. Til o‘rgatish jarayoni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashganda, talabalar o‘z bilimlarini nafaqat dars davomida, balki real hayotiy vaziyatlarda ham samarali qo‘llay olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

#### V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent; O‘zbekiston nashriyoti, 2017 .- B-22.
2. Татур, Ю.Г. Компетентностный подход в описании результатов и проектировании стандартов высшего профессионального образования: Материалы ко 2-му заседанию методол. семинара: авторская версия. М.: Исследоват. центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. 16 с.
3. Гришахова, Н.А. Компетентностный подход в обучении взрослых // Материалы к 3-му заседанию методологического семинара, 28 сент. 2004 г. / Исследоват. центр проблем качества подготовки специалистов. М., 2004. С. 16
4. Фёдорова, Л.Л. Теория речевой коммуникации и грамматика диалога./ Коммуникативные стратегии культуры и гуманитарной технологии: Научнометодические материалы. /Л.Л.Фёдорова. – СПб: ООО «Книжный Дом», 2007. - С. 103-135.
5. Tom Hutchinson, Alan Waters. 1987. English for Specific Purposes. Cambridge University Press:Scotland, page 7

<sup>118</sup> Лузнецова Е.С., Бим И.Л., Биболетова М.З., Щепилова А.В., В Копылова В.В. «Иностранный язык в системе школьного филологического образования» (Концепция), журнал «Иностранные языки в школе» №1 2009 г., стр..4-9

6. Revers, W. Teaching foreign language skills. / W.Revers. – Chicago, London. – The University of Chicago press, 1981.
7. Современные направления в методике обучения иностранным языкам: учебное пособие /Под ред. Е.И. Пассова, Е.С. Кузнецовой . – Воронеж:НОУ «Интерлингва».ю 2002. – 40 с. (серия «Методика обучения иностранным языкам», №22)
8. Neijs Karel, Literacy primes, construction, evaluation and use, UNESCO, 1961, p.17.
9. Лузнецова Е.С., Бим И.Л., Биболетова М.З., Щепилова А.В., В Копылова В.В. «Иностранный язык в системе школьного филологического образования» (Концепция), журнал «Иностранные языки в школе» №1 2009 г., стр..4-9
10. Sidikova Sh.Sh. Raqamli texnologiyalar orqali til o'rgatishning asosiy prinsiplari va metodologiyasi, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri. International Journal of Science and Technology ISSN 3030-3443 Volume 2, Issue 03, March 2025 – P 232-235
11. Sidikova Sh.Sh. Video darslar va interactive content: til o'rgatishda visual va audio vositalardan foydalanish. Ilm-fan yangiliklari konferensiyasi. Vol 7 №2 (2025). –B 115-117.
12. Beckett, G.H., Slater, T. The Project Framework: A Tool for Language, Content, and Skills Integration // *ELT Journal*. – 2005. – Vol. 59, No. 2. – P. 108–116. – DOI: <https://doi.org/10.1093/eltj/cci024>

## FRAZEOLOGIZMLARNING TA'RIFI MASALASIGA OID TADQIQOT: LUG'AT VA TILSHUNOSLIK MANBALARI TAHLILI

*Maqsudova Shaxnoza Muxsinjon qizi,*

*Frag'ona davlat universiteti 2- kurs tayanch – doktoranti,*

*[Shaxnozaxon1992@mail.ru](mailto:Shaxnozaxon1992@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola frazeologizmlarga berilgan turli ta'rirlarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, mazkur tadqiqotda eng nufuzli ingliz tilshunoslik lug'atlari hamda frazeologiya sohasidagi etakchi olimlarning ishlaridan olingan ta'riflar taqqosiy tahlil qilindi. Tadqiqotga asosan, frazeologizmlarning ta'rifida uchta asosiy komponent aniqlandi: semantik kompozitsional emaslik, strukturaviy qat'iylik va an'anaviy xususiyat. Lug'atlar qisqaroq va umumiyroq ta'riflar bersa, ixtisoslashgan tilshunoslik ishlari yanada batafsil va murakkab yondashuvlarni taklif etadi. Ilmiy izlanishlarga binoan shuni aniqi, frazeologizmlarning yagona ta'rifi haqida umumiy kelishuv mavjud emas, lekin barcha ta'riflarda uchraydigan umumiy xususiyatlar frazeologiya nazariyasining asosini tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, idiom, semantika, kompozitsionallik, tilshunoslik, izlanishlar

### I. KIRISH

Frazeologiya XX asrning ikkinchi yarmida mustaqil tilshunoslik sohasi sifatida shakllanib, hozirgi kunda intensiv rivojlanish bosqichida turibdi (Cowie, 1998; Burger et al., 2007). Frazeologik birliklar universal til hodisasi bo'lib, dunyoning barcha tillarida mavjudligi empirik tadqiqotlar orqali tasdiqlangan (Dobrovol'skiy & Piirainen, 2005). Ushbu birliklar har qanday tilning leksik-semantik tizimining integral komponentini tashkil etib, til tashuvchilarining kommunikativ kompetensiyasida muhim o'rin tutadi (Wray, 2002). Biroq, frazeologizmlarning terminologik apparati va nazariy asoslari haqida tilshunoslar orasida konsensus yo'qligi kuzatilmoqda. Fellbaum (1998) ushbu muammoni quyidagicha baholaydi: frazeologizmlar ko'p so'zli birliklarning sinfi bo'lib, ular "grammatika va leksikani tushunishimizga qiyinchilik tug'diradigan va hali to'liq hal qilinmagan muammo"dir. Mazkur terminologik va konseptual noaniqlik frazeologiya sohasidagi tadqiqotlarning metodologik jihatdan murakkablashishiga va natijalarning taqqoslanishining qiyinlashishiga sabab bo'lmoqda (Granger & Meunier, 2008). Shu bois, frazeologizmlarning ta'rifi masalasini sistemali ravishda o'rganish zamonaviy tilshunoslik uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu ilmiy izlanishda, nufuzli ingliz tilshunoslik lug'atlaridagi frazeologizm ta'riflarini tahlil qilish bilan birga frazeologiya sohasidagi etakchi olimlarning nazariy yondashuvlarini o'rganib, ta'riflardagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash masalalarini ko'rib chiqmoqchimiz.

### II. METODLAR

Tadqiqot uchun nufuzli ingliz tilshunoslik lug'atlari (5 ta), frazeologiya sohasida ixtisoslashgan olimlarning ishlari (12 ta) va frazeologiya nazariyasi bo'yicha monografiyalar tanlab olindi. Tahlilga ko'ra, ta'riflar mazmuniy tahlil usuli yordamida o'rganildi. Har bir ta'rifdan frazeologizmlarning asosiy xususiyatlari ajratib olindi va ularning takrorlanish chastotasi hisoblab chiqildi.

### III. NATIJALAR

Frazeologizmlarga berilgan ta'riflarda, lug'atlarning ahamiyati katta. Jumladan, Concise Oxford Dictionary of Current English (2008) frazeologizmni quyidagicha ta'riflaydi: Bu ta'rif xalqaro tilshunoslikdagi frazeologizm kontseptsiyasiga mos keladi va frazeologizmlarning asosiy belgilarini - semantik kompozitsional emaslik, strukturaviy barqarorlik va nutqda tayyor holda ishlatilishini ta'kidlaydi. alohida so'zlarning ma'nosidan keltirib chiqarib bo'lmaydigan ma'noga ega bo'lgan, ammo foydalanish orqali tasdiqlangan o'ziga xos iborachilik" (p. 533). Webster's New World Dictionary (2014) yanada batafsil tavsif beradi: "berilgan tilda birlik sifatida tan olingan va odatdagi sintaktik naqshlardan farq qiladigan yoki qismlari birgalikda olingan literal ma'nosidan farq qiladigan ma'noga ega bo'lgan ibora, konstruktsiya yoki ifoda" deb yoritilgan bo'lsa, Cambridge Encyclopedia of the English Language (2003) frazeologizmni ma'nosi "tashkil etuvchi leksemalarning ma'nosini tekshirish orqali aniqlab bo'lmaydigan" va grammatik hamda leksikal jihatdan qat'iy belgilangan ifoda sifatida tavsiflaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida frazeologizmga berilgan ta'rif quyidagicha: tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlik (masalan, tomdan tarasha tushganday — to'satdan, qo'qqisdan) sifatida qaralgan bo'lsa, o'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida frazeologizmlar quyidagicha ta'riflangan: "Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi." Bizningcha ushbu ta'rif xalqaro tilshunoslikdagi frazeologizm kontseptsiyasiga mos keladi va frazeologizmlarning asosiy belgilarini - semantik kompozitsional emaslik, strukturaviy barqarorlik va nutqda tayyor holda ishlatilishini ta'kidlaydi.

Lekin bir qator tilshunoslarning fikrlari esa yuqoridagi berilgan ta'rifdan biroz farq qiladi. Sababi ular frazeologizmlarga ta'rifni nafaqat uning semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda, balki ularning strukturasi, o'zaro bog'lanishini ko'rib chiqishgan. Jumladan, Fernando (1996) frazeologizmlarni "ko'pincha, ammo har doim ham literal bo'lmagan an'anaviy ko'p so'zli ifodalar" sifatida tasvirlaydi. Bu keng yondashuv Moon (1998) tomonidan "qat'iy va semantik jihatdan noaniq yoki metaforik, an'anaviy ravishda qismlarining yig'indisi bo'lmagan maxsus birlik turi" kontseptsiyasi bilan yanada aniqlanadi. **Semantik yo'nalishdagi ta'rifga asosan,** Glucksberg (2001) frazeologizmlarning " mantiqsiz" tabiatini ta'kidlaydi, bu yerda frazeologizmning lingvistik va frazeologik ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlab bo'lmaydi deya fikr yuritadi. Tabossi va Zardon (1993) frazeologizmlarni "semantik talqini ularning qismlarining talqinidan kompozitsional ravishda kelib chiqmaydigan so'zlar qatori" sifatida qarashadi. Strukturaviy yondashuvga, Kavka (2003) frazeologizmlarni leksikal va sintaktikal jihatdan komplekslar sifatida tushunadi, ular bir tomondan yagona shakl sifatida ishlaydi, boshqa tomondan esa tahlil qilinadigan sintaktikal tuzilmalar sifatida namoyon bo'ladi deb hisoblagan. Shu jumladan, ularga rus tilshunoslarining ham bu boradagi fikrlarini keltirish joiz deb topdik. Rus tilshunosligida frazeologiya sohasining asosi V.V. Vinograd tomonidan XX asrning 40-yillarida qo'yildi. Vinograd frazeologik birliklarni "odatda yagona



semantik butunni tashkil etuvchi, lekin komponentlarining ma'nolari turlicha bo'lishi mumkin" bo'lgan birliklar sifatida ta'rifladi. U frazeologik birliklarni semantik slitnost darajasiga ko'ra to'rt guruhga ajratdi. N.M. Shanskiy (1985) frazeologizmga quyidagicha ta'rif berdi: "Frazeologik aylanma - bu tayyor holda takrorlanadigan til birligi bo'lib, ikki yoki undan ko'p urg'uli komponentlardan iborat, ma'no, tarkib va tuzilish jihatidan barqaror (ya'ni doimiy) bo'lgan birlik". Shanskiy frazeologik aylanmaning asosiy xususiyati uning takrorlanuvchanligi ekanligini ta'kidlab, "frazeologizmlar muloqot jarayonida yaratilmaydi, balki tayyor yaxlit birliklar sifatida takrorlanadi" deb belgiladi. A.I. Molotkov frazeologizmga yanada qat'iy yondashuv taklif etdi. Molotkov frazeologik birliklarni "so'zlardan emas, balki so'z belgilarini yo'qotgan komponentlardan (leksik ma'no, so'z o'zgarish shakllari va leksik-grammatik xususiyatlar) tashkil topgan" birliklar sifatida ta'rifladi. Uning fikricha, frazeologizm "leksik ma'noga ega bo'lgan, doimiy xususiyat sifatida ifoda bo'lib, so'zlardan emas, balki so'z belgilarini yo'qotgan komponentlardan tashkil topgan" birlikdir.

Tahlil natijalariga ko'ra, frazeologizmlarning quyidagi xususiyatlari eng ko'p ta'kidlangan:

1. **Semantik kompozitsional emaslik** - 17 ta manbada (100%)
2. **Strukturaviy qat'iylik** - 14 ta manbada (82%)
3. **An'anaviy xususiyat** - 12 ta manbada (71%)
4. **Kontekstual bog'liqlik** - 9 ta manbada (53%)
5. **Leksikal cheklanganlik** - 7 ta manbada (41%)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, barcha ta'riflarda frazeologizmlarning semantik kompozitsional emasligi asosiy xususiyat sifatida ta'kidlanadi. Bu degani, frazeologizmning umumiy ma'nosi uning tarkibiy qismlarining ma'nolari yig'indisiga teng emas. Masalan, "tomdan tarasha tushganday" iborasining ma'nosi ("to'satdan") uning tarkibidagi "tom", "tarasha" va "tushmoq" so'zlarining individual ma'nolaridan kelib chiqmaydi. Semantik kompozitsional emaslikning bu xususiyati frazeologizmlarni oddiy so'z birikmalaridan ajratib turadigan asosiy mezon hisoblanadi. Biroq, bu mezonning o'zi ham turli darajalarni o'z ichiga oladi. Vinograd va Shanskiyning tasnifiga ko'ra, frazeologik srasheniyalarda (idiomalar) bu xususiyat mutlaq darajada namoyon bo'lsa, frazeologik birikmalarda nisbiy ko'rinishda kuzatiladi. Lug'atlar odatda qisqaroq va amaliy yo'naltirilgan ta'riflar beradi, ixtisoslashgan tilshunoslik ishlari esa yanada chuqur nazariy yondashuvlarni taklif etadi. Bu farq lug'atlarning amaliy maqsadlari bilan bog'liq. Leksikografik ta'riflar tildan foydalanuvchilar uchun aniq va tushunarli bo'lishni maqsad qiladi, nazariy ishlar esa hodisaning lingvistik mohiyatini ochib berishga intiladi. Rus tilshunoslik maktabi bu sohaga fundamental hissa qo'shgan, ayniqsa V.V. Vinograd va N.M. Shanskiyning klassifikatsiyalari butun dunyo frazeologiyasiga ta'sir ko'rsatgan. Ularning ishlaridagi nazariy chuqurlik zamonaviy frazeologik tadqiqotlar uchun mustahkam asos yaratgan. Tilshunoslar frazeologizmlarning turli jihatlariga e'tibor qaratishadi: ba'zilar semantik (Molotkov, Glucksberg), boshqalari strukturaviy (Kavka, Shanskiy) yoki pragmatik xususiyatlarni ta'kidlaydilar. Rus tilshunosligida komponentlarning "so'zlik xususiyatlarini yo'qotishi" masalasi alohida muhokama mavzusi bo'lgan (Molotkov,

1977). Bu xilma-xillik frazeologizmlarning murakkab tabiatini aks ettiradi va bir vaqtda ushbu sohadagi tadqiqotlarning rivojlanmagan holatini ko'rsatadi. Har bir yondashuv frazeologizmlarning muayyan jihatlariga yorug'lik tushirsa-da, umumiy, qamrab oluvchi nazariya hali yaratilmagan. Frazeologizmlarning universal va milliy-spetsifik xususiyatlari masalasi alohida e'tiborni talab etadi. Ingliz tilshunoslik manbalarida ta'kidlanganidek, frazeologizmlar har bir tilning madaniy-tarixiy xususiyatlarini aks ettiradi, shu bilan birga ular orasida universal belgilar ham mavjud. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning milliy-madaniy xarakteristikalar alohida ta'kidlanadi. O'zbek tilining izohli lug'atidagi ta'rif ("Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalar") xalqaro ta'riflar bilan umumiy xususiyatlarga ega. Frazeologiya sohasidagi asosiy metodologik muammo - bu frazeologizmlarning chegaralarini aniqlash masalasidir. Qaysi til birliklari frazeologizm deb hisoblanishi va qaysilari hisoblanmasligi haqida olimlar orasida fikr birligi yo'q. Bu muammo nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega, chunki frazeologik lug'atlar tuzishda va til o'qitishda muhim rol o'ynaydi.

#### IV.XULOSA

Frazeologizmlarning ta'rifi masalasi tilshunoslikda hali ham ochiq masala bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi: **Birinchidan**, frazeologizmlarning yagona, umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Turli mualliflar va maktablar o'ziga xos ta'riflar taklif etishgan, biroq ularning hech biriga universal maqom berilmagan.

**Ikkinchidan**, barcha ta'riflarda uchraydigan umumiy xususiyat - semantik kompozitsional emaslik - frazeologiya nazariyasining asosini tashkil etadi. Bu xususiyat frazeologizmlarni boshqa til birliklaridan ajratib turadigan asosiy mezon hisoblanadi.

**Uchinchidan**, lug'at va ilmiy ta'riflar o'rtasida sezilarli yondashuv farqi mavjud. Leksikografik ta'riflar amaliy maqsadlarga xizmat qilsa, nazariy ishlar chuqur lingvistik tahlilga intiladi.

**To'rtinchidan**, frazeologizmlar tilning murakkab hodisasi bo'lib, turli tilshunoslik sohalarining - semantika, sintaksis, pragmatika, madaniy lingvistika - kesishmasida joylashgan. Bu murakkablik ularni o'rganishda kompleks yondashuvni talab etadi. Mazkur tadqiqot frazeologiya nazariyasining hozirgi holatini sistemali baholash imkonini berdi. Ta'riflar tahlili frazeologizmlarning asosiy xususiyatlarini aniqlash va ularni ierarxik tartibda joylashtirish uchun asos yaratdi. Bundan tashqari, turli tilshunoslik maktablarining frazeologiyaga qo'shgan hissasini baholash mumkin bo'ldi. Tadqiqot natijalari frazeologik lug'atlar tuzish, til o'qitish va tarjima ishlarida qo'llanilishi mumkin. Frazeologizmlarning asosiy xususiyatlarini aniq belgilash orqali ularni tanib olish va talqin qilish jarayonlarini yaxshilash imkoniyati paydo bo'ladi.

## V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cambridge Encyclopedia of the English Language. (2003). 3rd edition. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Cambridge International Dictionary of Idioms. (1998). Cambridge: Cambridge University Press.
3. Collins COBUILD English Language Dictionary. (1987). London: Collins Publishers.
4. Concise Oxford Dictionary of Current English. (2008). 11th edition. Oxford: Oxford University Press.
5. Fellbaum, C. (1998). WordNet: An Electronic Lexical Database. Cambridge, MA: MIT Press.
6. Fernando, C. (1996). Idioms and Idiomaticity. Oxford: Oxford University Press.
7. Fernando, C. (2006). On Idiom: Critical Views and Perspectives. Exeter: University of Exeter Press.
8. Flavell, R. H. (1992). Dictionary of Idioms and their Origins. London: Kyle Cathie Publishers.
9. Glucksberg, S. (2001). Understanding Figurative Language: From Metaphors to Idioms. Oxford: Oxford University Press.
10. Kavka, S. (2003). A Book of Prefixes. Žilina: EDIS Publishing.
11. Kvetko, P. (1998). An Outline of English Phraseology. Trnava: UCM.
12. Mackay, R. (1987). "Lexical phrases and culture-specific metaphors in EFL". ELT Journal, 41(2), 122-126.
13. Moon, R. (1998). Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-based Approach. Oxford: Clarendon Press.
14. O'Grady, W. (2005). Contemporary Linguistics: An Introduction. 5th edition. Boston: Bedford/St. Martin's Press.
15. Online Oxford English Dictionary. (2023). Oxford: Oxford University Press. Available at: <https://www.oed.com>

## O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTI INGLIZCHA TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI (G‘AFUR G‘ULOM VA XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARI MISOLIDA)

*Xakimova Mohichexra Abdulboqi qizi*  
*Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi*  
*Email:mohichexrax@gmail.com*

**Annotatsiya.** Maqolada o‘zbek bolalar adabiyotining ingliz tiliga tarjimasida uchraydigan lingvopragmatik muammolar tahlil qilinadi. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” va Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarlari asosida madaniy kontekst, xalqona iboralar va satiraning tarjimada qanday o‘zgarishi ko‘rib chiqiladi. Lingvopragmatik yondashuv tarjimada milliy ruh, bolalar psixologiyasiga mos til va estetik qiymatni saqlashdagi roli bilan asoslanadi. Maqola nazariy va amaliy takliflar bilan yakunlanadi.

**Kalit so‘zlar.** o‘zbek bolalar adabiyoti, tarjima, lingvopragmatika, G‘afur G‘ulom, Xudoyberdi To‘xtaboyev, madaniy kontekst, semantik moslik, tarjima nazariyasi

### Kirish

O‘zbek bolalar adabiyoti — milliy g‘oya, axloqiy qadriyatlar, an’anaviy urf-odatlar va zamonaviy tafakkurning uyg‘unligini aks ettirgan adabiyot tarmog‘idir. U yosh avlodni milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ijtimoiy ong bilan tanishtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek bolalar adabiyoti — bu nafaqat yosh avlodga mo‘ljallangan badiiy asarlar to‘plami, balki milliy tafakkur, tarixiy ong, axloqiy qadriyatlar va estetik didning o‘ziga xos ifodasi bo‘lgan murakkab madaniy hodisadir. Ushbu adabiyot turi yosh o‘quvchini milliy o‘zlik, xalqona urf-odatlar, ma’naviy meros va zamonaviy g‘oyalarning uyg‘unligiga asoslangan muhitda voyaga yetkazish vazifasini bajaradi. Bolalar uchun yozilgan adabiy asarlar orqali yoshlar jamiyat hayoti, qadriyatlar tizimi, tarixiy shaxslar, ona tilining go‘zalligi va xalqona donishmandlik bilan tanishadilar.

Xususan, o‘zbek adabiyotining ikki atoqli vakili — G‘afur G‘ulom va Xudoyberdi To‘xtaboyev — o‘zlarining bolalar uchun yaratgan asarlari orqali nafaqat bolalar qalbini zabt etgan, balki ularni tarbiyaviy, estetik va ijtimoiy-axloqiy jihatdan shakllantirishda muhim rol o‘ynagan adiblardir. Ayniqsa, G‘afur G‘ulom va Xudoyberdi To‘xtaboyevning asarlari o‘zbek bolalariga atab yozilgan eng yuksak badiiy namunalar sirasiga kiradi. Ularning asarlari xalqimizning hayot tarzini, ijtimoiy muhitni, tarbiyaviy g‘oyalarni singdirgan holda bolalar tilida hikoya qiladi. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari va Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” qissasi bolalar adabiyotida yangi bosqichni boshlab bergan, xalqona til va boy obrazlar tizimi orqali bolalarning ongiga yaqin uslubda yozilgan durdona asarlardir. Ushbu asarlar zahirida faqatgina oddiy voqealar emas, balki chuqur ijtimoiy va axloqiy ma’no, satirik tahlil va hayotiy tajribalar mujassam. Shuningdek, ular o‘zbek xalqining kundalik hayoti, an’analari, orzu-umidlari va muammolarini bolalar ko‘zi bilan hikoya qilganligi bilan ajralib turadi. Bu asarlarning ingliz tiliga tarjima qilinishi esa nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham muhim vazifa hisoblanadi.

